O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

X. IBRAGIMOV, SH. ABDULLAYEVA

PEDAGOGIKA NAZARIYASI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT – 2008

www.ziyouz.com kutubxonasi

X. Ibragimov, SH. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi (darslik). T., «Fan va texnologiya», 2008, 288 bet.

Mas'ul muharrir: ***p.f.d., professor*** **R.H. Jo'rayev**

Mazkur darslik Pedagogika oliygohlari bakalavr yo'nalishining barcha sohalari bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim davlat standartlari talablari asosida tuzilgan. Unda «Pedagogika nazariyasi va tarixi» kursi bo'yicha o'quv rejada ko'rsatilgan «Pedagogikaning umumiy asoslari», «Tarbiya nazariyasi», «Ta'lim nazariyasi (Didaktika) bo'limlariga monand mavzular kiritilgan. Har bir mavzu matnlaridan so'ng takrorlash va munozara uchun savollar, topshiriqlar berilgan. Bu alfozda tuzilgan matnlar o'quv mashg'uloti davomida talabaning olgan bilimlarini reproduksiyalashga zamin yaratadi, mustaqil, erkin fikrlashiga, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqatni jonlantirishga, tahsil oluvchining faolligini oshirishga yordam beradi va muammoli o'qitish bosqichlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Taqrizchilar: ***p.f.d., professor M. Quronov;***
p.f.d., professor E. Turdiqulov.

ISBN 978-9943-10-123-4

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008.

www.ziyouz.com kutubxonasi

SO'Z BOSHI

«Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy - ma'naviy salohiyat - ma'rifatli insonning ikki qanotidir».

I.A.Karimov

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (1997), "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" (1997)da davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ta'limning ustuvor deb e'lon qilinishi Pedagogika fani zimmasiga juda katta mas'uliyatli, ulug'vor vazifalarni yukladi.

Hozirgi zamon fanida, ijtimoiy hayot sohalarida ajoyib kashfiyotlar, murakkab jarayonlar, universal texnologiyalar bilan bog'liq umumbashariy jarayonlar yuz bermoqda. "O'zbekiston innovatsion rivojlanish turining hozirgi zamon modeliga o'tish uchun hamma zarur sharoitlarga ega. Bu model vujudga keltirilgan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanishga, fundamental va amaliy fanning yutuqlarini, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etishga, yuqori malakali, iqtidorli ilmiy kadrlar sonini ko'paytirishga asoslanadi. Bu – mamlakatimiz jahondagi iqtisodiyoti va sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga kirib borishining zarur sharti va mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi"[1], – deb ta'kidlaydi Prezidentimiz I.A. Karimov.

Yuqorida tilga olingan shunday jarayonlarni, yangiliklarni tahlil qilishda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy, ma'naviy, madaniy, diniy merosimizni avaylab bilim va ko'nikmalarni yosh avlodga taqdim etishda, yangicha mantiqiy fikrlash malakasini

---

[1] I.A. Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T. «Sharq», 1998, 67-bet.

www.ziyouz.com kutubxonasi

shakllantirishda pedagogikaning ahamiyati salmoqlidir. Ijtimoiy voqea-hodisalarni, hayotda sodir bo'layotgan yangiliklarni tushunib olish va uni himoya qilish uchun esa zamonaviy fan bilan tanishish zarur.

Ma'lumki, har bir mustaqil fan o'zining predmeti va metodologik asoslariga ega. Pedagogika ham boshqa fanlar kabi avvalo, jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida vujudga keldi. Shu sababli ta'lim-tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb qarash lozim, chunki ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib, jamiyatni, uning rivojlanishini tasavvur qilish qiyin.

Hozirgi kunda Pedagogika ta'lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalari, davlat ta'lim standartlari, ta'lim va tarbiyaning usullari, tashkil etish shakllari, umuman uning qonuniyatlari haqida bilim, ma'lumot beradigan fanga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim davlat standartlari (T., 2004y.)ga asoslangan o'quv rejasiga ko'ra pedagogika oliygohlarida "Pedagogika nazariyasi va tarixi" fanini o'qitishga 152 soat ajratilgan bo'lib, shulardan 72 soati ma'ruzalarni tashkil qiladi.

Ushbu darslik yangi andoza talablari bo'yicha tuzildi. Unda dasturdagi pedagogika nazariyasiga oid mavzular qamrab olingan. Har bir mavzudan keyin takrorlash va munozara uchun savollar berildi, oxirida asosiy adabiyotlar ro'yxati, mavzuga oid muammoli vaziyatlar, ularning echimlari, mustaqil ishlash uchun topshiriqlar, tavsiyalar keltirilgan. Pedagogik vaziyatli masalalar talabalarning ma'ruzalarda egallagan nazariy bilimlarini to'la-to'kis idrok qilishi, jamlangan malaka va ko'nikmalarni hayotda qo'llay olish imkoniyatiga ega bo'lishiga qaratilgan.

Mualliflar tomonidan tayyorlangan darslikni yaratishdan maqsad:

fan va tajribadagi eng yangi muvaffaqiyatlarni aks ettirish;

talabaning bilim olishida optimal uslublardan foydalanish;

ilg'or pedagogik texnologiya elementlarini darsda tadbiq qilish va h.k.

Darslik vazifalari:

o'rganilayotgan mavzularni to'la idrok qilish uchun zamin yaratish;

- o'zlashtirib olinishi zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalarni hosil qilish;

pedagogika faniga oid asosiy tushunchalarni va yetakchi g'oyalarni hayotda qo'llay olish imkoniyatiga ega bo'lish;

- talabalarning pedagogik texnologiyalar, ta'lim vositalari: haqidagi boshqa bilimlar bilan qurollantirishni ta'minlash;

www.ziyouz.com kutubxonasi

- muammoli pedagogik vaziyatlarning yechimini talaba tomonidan mustaqil ravishda topishga imkoniyat yaratish.

Darslikdagi mavzular shunday metodik tarzda tuzilganki, ular mavzuning nomini, uning maqsadini,mazmunini yoritib berish bilan birga, takrorlash uchun savollar, topshiriqlar majmui, turli muammoli vaziyatlar, talabalarning foydalanishi lozim bo'lgan manbalar ro'yxatini o'z ichiga oladi.

Bunday tarkibda tuzilgan matnlar talabalarning mustaqil va tanqidiy fikrlashi, o'z ustida mukammalroq ishlashi uchun qulaylik yaratadi.

Tarbiyaning asosiy qirralari – e'tiqod va ibrat, ilm va mantiqiy tafakkur, haqiqat yo'lida ruhiyat safarbarligi va iroda qudrati – bularning barchasi mavzularda asosiy g'oya sifatida yoritilishiga harakat qilingan. Darslikdagi "Pedagogikaning umumiy asoslari" bobidagi 1,2,3-mavzular; "Tarbiya nazariyasi" bobidagi 7,9,13; "Ta'lim nazariyasi" bobidagi 15,16,17,23-mavzularni - p.f.d., professor X.I. Ibragimov va "Pedagogikaning umumiy asoslari" bobidagi 4,5-mavzular; "Tarbiya nazariyasi" bobidagi 6,8,10,11,12,14-mavzular; "Ta'lim nazariyasi" bobidagi 18,19,20,21,22-mavzularni p.f.d. Sh.A. Abdullayevalar tayyorlashdi.

Mualliflar kursning tuzilishi, mazmuni, muammolarning bayon qilinishi tartibi va uslubi bo'yicha bildirilgan har qanday taklif - mulohazalarni minnatdorchilik bilan qabul qiladilar va keyingi o'quv qo'llanma, darsliklar tayyorlashda hisobga oladilar.

Ushbu darslikda ta'limning ijtimoiy tabiati, uning tarkibi, mazmuni va mohiyati, ta'lim sohasi, pedagogika kategoriyalarining rivojlanish tendensiyalari hamda ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari, shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari, pedagogik diagnostika va prognoz, pedagogik loyihalash kabi mavzular bo'yicha tushunchalarga ega bo'lish uchun zaruriy ko'rsatmalar bayon qilingan.

Bu darslikdan pedagogika oliygohlari talabalari bilim va malakalarini oshirishda, o'qituvchilar mustaqil ishlarni tashkil qilishda foydalanishlari mumkin.

www.ziyouz.com kutubxonasi

I BO‘LIM

UMUMIY ASOSLAR

www.ziyouz.com kutubxonasi

1-MAVZU: KADRLAR TAYYORLASH MILLIY MODELI. O'QITUVCHILIK KASBI VA UNING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI

1. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning qabul qilinishi, ularning mohiyati.
2. Kadrlar tayyorlash milliy modeli to'g'risida tushuncha.
3. O'qituvchilik kasbining tarixiy taraqqiyoti va uning jamiyatda tutgan o'rni.
4. O'qituvchi shaxsining insonparvarligi.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosatida milliy o'zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali shaxs bilan jamiyat o'rtasida uyg'unlikni vujudga keltirish, ehtiyojlarning xususiylikdan umumiylikka o'sib o'tishining qondirilishi har jihatdan voyaga yetayotgan yoshlarning qobiliyatlari, iste'dodlari, ichki imkoniyatlari, o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini tadqiq etishni, shuningdek, rivojlantirishni talab etadi. Yosh avlodning shaxs va subyekt sifatida shakllanishi, aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasinini aniqlamasdan turib, o'rta maxsus va oliy ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish mumkin emas.

Jamiyatning infrastrukturalarida, guruhiy shaxslararo munosabatlarda demokratiya prinsiplarining qaror topishi, fuqarolar o'rtasida teng huquqlilik, subyektlilik, hamkorlik, hamdardlik (empatiya) mezonlari turmush tarziga aylana boshlashi kishilik dunyosining jahonshumul ijtimoiy - tarixiy g'alabasining yorqin ifodasidir. Hozirgi davrda shaxsning robotlashuviga chek qo'yilishi, o'zining mustaqil inson (subyekt) tarzida namoyon bo'lishi uchun moddiy-ma'naviy negiz barpo etilishi, shaxsiy dunyoqarash (ham ilmiy, ham diniy), barqaror e'tiqod, mustahkam pozisiya, qat'iy iroda, o'tkir va bukilmas g'oyani egallashga imkon yaratdi. Ana shunday umumbashariy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy voqelik, hodisa, ijtimoiy tasavvur va ehtiyoj mamlakatimizda shaxsni markaziy figura sifatida tan olinishi va rivojlanishning harakatlantiruvchisi tarzida baholanishi pedagogik bilimlarning zaruratga aylanganligini anglatadi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Insonshunoslik fanida inson-jamiyat, jamiyat-inson shaklida o'zaro ta'sirni taqozo etar ekan, birinchi va ikkinchisi ham to'g'ri, ham teskari aloqani o'rnatishi joiz. Abdulla Avloniy o'z davrida bashorat qilganidek: "Agar pedagogika insonni har tomonlama tarbiyalashni xohlar ekan, unda insonni har tomonlama o'rganishi zarur"[1].

Xuddi shu bois, ta'lim-tarbiya jarayonida barkamol insonni shakllantirish lozim, uning natijasi, mahsulasi orqali mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, kuchli irodali, ishchan, g'oyaviy e'tiqodli, ma'naviyati yuksak, pok vijdonli shaxsni kamol toptirish joiz. Chunki "subyekt-subyekt" munosabatni amalda qaror toptirmasdan turib, tarbiyalanganlik darajasini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lmaymiz. Bu o'rinda pedagogika katta ahamiyat kasb etadi, jamiyatning barkamol shaxsni yetishtirishdek maqsadiga mos kelishi ayni muddaodir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov: "Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi"[2], – degan fikri ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy g'oyani ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Bu ulug'vor vaziflarni amalga oshirish uchun Respublika Oliy Majlisining 1997 yil 29 avgustdagi IX sessiyasida, qonuniy zamin bo'lgan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'grisidagi qonun"ining qabul qilinishiga bir qator omillar sabab bo'ldi: birinchidan, biz yashayotgan muhitda ijtimoiy tuzum o'zgarishi bo'lsa, ikkinchidan, ijtimoiy ishlab chiqarish va mulkka bo'lgan munosabat o'zgardi, uchinchidan, eski mafkuraviy qarashlar yangi sharoitga javob bermay qo'ydi, to'rtinchidan, ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tadbirlar jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilinishni, talabalarga milliy va umuminsoniy qadriyatlar his-tuyg'ularini singdirib, ularni har tomonlama barkamol, chuqur bilimga ega mutaxassis etib tayyorlashni taqozo etdi.

Ma'lumki, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun 5 ta bo'lim, 34 moddadan iborat. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyil-

---

[1] A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq – T., «Fan», 96-b.

[2] I.A.Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur» jurnali, 1998, 2-son.

www.ziyouz.com kutubxonasi

larida: ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilinadi, demak, ta'lim-tarbiya ishlari davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biridir.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;

davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuvi;

- bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Ta'lim tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsad barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdir.

"Eng avvalo, bizning ta'lim tizimiga bo'lgan munosabatimizni ham tubdan o'zgartirish kerak. Ta'lim islohoti bizni demokratik o'zgarishlar, yangi jamiyat barpo etish yo'lidan dadil etaklovchi, barchamizni harakatlantiruvchi ichki kuch bo'lmog'i zarur. Har birimizga besh barmoqdek, eskicha aytganda, to'qqiz puldek ayon bo'lsinkim, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, odamlar ongini, demakki, ularning turmush tarzini ham o'zgartirish mumkin emas"[1].

Yurtboshimiz ta'lim-tarbiya islohotining zarurligi va muhimligi haqida o'zining qator nutqlarida to'xtalib o'tganlar.

1997 yil 29 avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida yurtboshimiz so'zlagan nutqlarida shu vaqtgacha amalga oshirilgan tadbirlar talabga javob bermayotganligini, eski sho'rolar zamonidan qolgan ta'lim-tarbiya tizimiga xos mafkuraviy qarashlardan va sarqitlardan to'liq qutila olmaganligimiz, ikkinchidan, o'zgarishlar yuzaki bo'lib, ta'lim-tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibini, bosqislarini bir-biri bilan uzviy bog'lash,

---

[1] I.A. Karimov. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutqi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

ya'ni uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolarini yechib bermaganligi, uchinchidan, bizning amaldagi ta'lim-tarbiya tizimimiz bugungi zamonaviy, taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmasligi... kabilar ham bu islohotni zarurligini ko'rsatdi. Shu munosabat bilan yurtboshimiz "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" mavzusida so'zlagan nutqida ta'lim-tarbiya tizimida islohotlar o'tkazish zarurati va omillarini asoslab berdilar.

Ta'lim to'g'risidagi qonun maqsadi fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-xunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilash hamda har kimning bilim olish mumkinligi kabi konstitusiyaviy huquqini ta'minlashdan iboratdir.

Qonunning 1-bo'limi "Umumiy qoidalar" deb nomlanadi. Unda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari, bilim olish, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqlari, ta'lim muassasasining huquqiy maqomi, DTS, ta'lim berish tili kabi masalalar o'z ifodasini topgan.

"Ta'lim to'g'risida" gi qonunning 2-bo'limida ta'lim tizimi va turlari mohiyati yoritilgan.

Respublikamizdagi ta'lim tizimi: Davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini; ta'lim tizimini rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni; ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek, ularga qarashli korxona, muassasa va tashkilotlarni qamrab oladi.

Mazkur qonunning 10-moddasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshirilishi ko'rsatiladi (1-rasm):



1-rasm. Ta'lim turlari.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Qonunning 2-bo'lim, 11-17-moddalarida har bir ta'lim turining mohiyati qisqacha yoritib beriladi. Unda ta'kidlanganidek, maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Maktabgacha ta'lim bola olti-etti yoshga etgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalalr muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim majburiy bo'lib, u quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar); umumiy o'rta ta'lim (I-IX sinflar). Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarning fanlar asoslari do'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy O'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, meqnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlashni shakllantiradi. «Umumiy o'rta ta'lim tugallanganidan keyin ta'lim fanlari va ular do'yicha olingan baholar ko'rsatilgan holda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat beriladi»[1].

Qonunda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim olish maqsadida har kim umumiy o'rta ta'lim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega ekanligi ta'kidlanadi. «Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari egallangan kasb-hunar do'yicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta'limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo'ladigan o'rta maxsus,[2] kasb-hunar ta'limi beradi»[2].

Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi do'yicha bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini o'zlarida shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ko'nikmalarni o'qishni muayyan oliy ta'lim muassasalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ro'yobga chiqarishlari mumkin. Kasb-hunar kolleji tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi; o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'n ikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-

---

[1] Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., "Sharq", 1998 y., 47-bet.

[2] O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., "Sharq", 1998 y., 23-bet.

www.ziyouz.com kutubxonasi

hunar do'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi.

Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassis tayyorlaydi, ikki bosqichda: bakalavriat va magistraturada amalga oshadi.

Qonunning **uchinchi** bo'limi ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilishga bag'ishlangan bo'lib, unda ta'lim oluvchilarni va ta'lim muassasasi xodimlarini ijtimoiy himoya qilish, yetim hamda jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish masalalari qonuniy ifodasini topgan.

To'rtinchi bo'limida ta'lim tizimini boshqarishdagi Vazirlar Mahkamasining, Ta'limni boshqarish do'yicha vakolatli davlat organlarining va mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari ko'rsatilgan bo'lsa, **beshinchi** bo'limda yakuniy qoidalar ifodalab berilgan.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning mohiyati 1997 yilning 29 avgustida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida «Ta'lim to'grisidagi»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» qabul qilindi. Ularda ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilishga oid asosiy yo'l-yo'riqlar ko'rsatib berildi.

Ma'lumki, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» besh bo'limdan iborat bo'lib, unda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish omillari, dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro'yobga chiqarish bosqichlari, kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, dasturni ro'yobga chiqarishga oid chora-tadbirlar belgilab berilgan. Dasturning 3-bo'limida kadrlar tayyorlashning milliy modeli mohiyati yoritilgan. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:



2-rasm. «Kadrlar tayyorlash Milliy modeli»ning tarkibiy qismlari.

www.ziyouz.com kutubxonasi

«**Shaxs**» – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi»[1]. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs-fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi do'yicha mehnat qilish huquqi ro'yobga chiqariladi.

Ta'lim xizmatlarining iste'molchisi sifatida shaxsga davlat tomonidan ta'lim olish va kasb-hunar tayyorgarligi ko'rish kafolatlanadi. Ta'lim jarayonida shaxs davlat ta'lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart. Ta'lim xizmatlarining amalga oshiruvchi sifatida shaxs munosib darajada malaka darajasini olgach, bilim va tajribalarni ta'lim jarayonida yosh avlodga o'rgatish, moddiy ishlab chiqarish, ilm-fan, madaniyat va maishiy xizmat sohalarida faoliyat ko'rsatish bilan shug'ullanadi.

Har bir odam faqat ta'lim, ijtimoiy tarbiya va ma'naviy kamolot, kasb-hunar o'rganish tizimi vositasidagina shaxs bo'lib shakllanadi.

Natijada shaxsning ijtimoiy kamol topishi - uning jamiyat uchun foydali funksiyalarni bajarishi, o'z vazifa va burchlarini puxta hamda ijodiy anglab, boshqalar bilan teng, mustaqil munosabatlarga kirishuvi yuz beradi.

Kadrlar tayyorlash tizimida shaxsning o'rni va roli, huquq va majburiyatlari konstitutsiyaviy mustahkamlanib, qonuniy himoyaga olingan va tegishli hujjatlarda batartib bayon etilgan.

«**Davlat va jamiyat**» – Ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari bo'lib, yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalarining faoliyatini uyg'unlashtiradi»[2].

Davlat va jamiyat quyidagilarni, chunonchi:

- fuqarolarning ilm olish huquqini, ularning kasb tanlash va malaka oshirish imkoniyatlarini;

---

[1] Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Barkamol avlod–O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., "Sharq", 1998 y, 41-bet.

[2] Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Barkamol avlod–O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., "Sharq", 1998 y, 42-bet.

www.ziyouz.com kutubxonasi

akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarida o'qib-o'rganish yo'nalishini tanlash huquqini beruvchi majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus , kasb-hunar ma'lumoti olishni;

- davlat grantlari bazasida yoki pullik-bitim asosida oliy va undan yuqori darajalarda ma'lumot olish huquqini;

davlat ta'lim muassasalarining moliyaviy ta'minotini;

- o'quvchilarning o'qish, yashash va dam olish sharoitlarini ta'minlash masalalarini hal etish yuzasidan jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishni;

ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni;

- ta'lim muassasalarining pedagog xodimlari, ota-onalarning bolalar tarbiyasi, hayotini himoya qilish uchun mas'uliyatlarini oshirish yuzasidan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning amal qilish faolligini kafolatlaydi. Shunday qilib, shaxs uchun sifatli kasb-hunar tayyor-garligi, ijtimoiy rag'bat va himoya, favqulodda holatlarda yordam olish davlat tomonidan kafolatlanadi.

«Uzluksiz ta'lim» – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini: maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'limni, DTSni, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi»[1].

Uzluksiz ta'lim tizimi inson va jamiyatning turli xil ta'limiy ehtiyojlarini qodirishi, bilimlarning qadr-qimmati va mavqeini ko'tarish uchun keng imkoniyatlar yaratib berishi, shuningdek, iqtisodiyotning o'zgaruvchan ehtiyojlari sharoitida umum ta'limiy, umummadaniy, kasbiy va ilmiy asosda mutaxassislar tayyorlash yo'li bilan fundamental bilimlar berib, shaxsni ijtimoiy himoya qilishni ta'minlashi kerak (3-rasm).

Uzluksiz ta'limni isloh qilish yo'nalishlari sifatida ta'lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining har xil turlarini rivojlantirish, majburiy umumiy o'rta ta'limdan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga o'tilishini ta'minlash, ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish, ta'lim va ilm-fan bilan bog'liq chet el hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish kabilar belgilandi.

---

[1] Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Barkamol avlod–O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., "Sharq", 1998 y, 42-bet.

www.ziyouz.com kutubxonasi



3-rasm. Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillari.

«Fan» – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi»[1]. Fan-ta'lim mazmunini tubdan yangilashda, ta'lim standartlari, ta'lim dasturlari, o'quv darsliklar va qo'llanmalar tayyorlashda, ilmiy-metodik ta'minotni amalga oshirishda bevosita ishtirok etadi. Qolaversa, fan kadrlar tayyorlashda buyurtmachi sifatida ilmiy izlanishlarni bevosita o'quv jarayoni bilan mutanosiblashtirishga erishadi.

«Ishlab chiqarish» – kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi»[2]. Ishlab chiqarish kadrlar tayyorlash tizimida buyurtmachi va iste'molchi funksiyalarini bajarib, kerakli yuksak darajalarda va tegishli sohalar uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonida faol ishtirok etadi.

Ishlab chiqarishning ehtiyojlari kadrlar tayyorlashga bo'lgan ijtimoiy buyurtmani shakllantiradi, kasb-hunarga tayyorlashning maqsadi, vazifasi va mazmunini aniqlaydi, malakaviy talablarni ilgari

[1] Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Barkamol avlod–O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., "Sharq", 1998 y, 42-bet.

[2] O'sha joy, 42-bet.

www.ziyouz.com kutubxonasi

suradi, yangi texnologiyalar va o'qitish shakllarini tanlab olish shartlarini belgilaydi. *Ishlab chiqarish pirovard natijada* kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga baho beradi.

Davlat va jamiyat uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha uchun ochiq bo'lishini va hayot o'zgarishlariga moslanuvchanligini ta'minlaydi. Kadrlar tayyorlash sohasida jahon ilg'or tajribasini hisobga olish uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining barcha jihatlariga daxldor bo'lib, uning rivojlanishi omillaridan biridir.

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida ustoz, muallim, o'qituvchi zimmasiga eng muhim vazifa - jamiyat kelajagi bo'lgan yoshlarni tarbiyalash, ilm berish vazifasi yuklatilgan. Hatto ibtidoiy jamoa tuzumidayoq yoshlarni tarbiyalash muassasalari tashkil etilib, ularda tajribali, hayotni ko'rgan oqsoqollar bolalarni tarbiyalaganlar. O'qituvchilik kasbining paydo bo'lishi tarbiyaning kelib chiqishi bilan bog'liqdir.

Ibtidoiy kishilarning mehnat faoliyati va bunda tarkib topgan ijtimoiy munosabatlar tarbiyaning vujudga kelishi uchun asosiy shart bo'ldi. Inson mehnat qurollari tayyorlay boshlagan davrdan boshlab kishilik jamiyati paydo bo'ldi. Eng oddiy mehnat qurollarini qo'llash va ularni ongli ravishda tayyorlashning toboro kengayib va murakkablashib borishi yosh avlodga mehnat bilimlarini, ko'nikma va tajribalarini berish zaruratini tug'dirdi.

Dastlab bu hol mehnat faoliyati jarayonida va butun ijtimoiy hayot quynida ro'y berar edi. Keyinchalik tarbiya inson faoliyati va ongining alohida sohasiga aylandi.

Yangi tug'ilgan bolani jamoadagi keksalar, oqsoqollar boqardilar. Matriarxat taraqqiyotining oxirlarida bolalarni tarbiyalash uchun yoshlar uylari paydo bo'lib, ularda urug' oqsoqollari bolalarga tarbiya berganlar. Quldorlik davrida esa quldorlarning bolalari uchun maxsus maktablar tashkil etilgan. Qadimgi Yunonistonda bolalarga bilim beradigan kishini «didaskal» («o'qitaman», «o'rgataman» so'zidan olingan) deb ataganlar. Bolalarni maktabga tarbiyachilardan biri boshlab borgan yoki *sayrlarga olib chiqqan*, bunday tarbiyachi «pedagog» («payne» - bola, «agogeyn» - yetaklamoq so'zidan olingan) deb atalgan. Bu tushunchalar hozirda ham o'qituvchiga nisbatan ishlatiladi, lekin uning mohiyati boshqacha ahamiyat kasb etadi.

Har bir jamiyatda ham pedagog, o'qituvchi, tarbiyachilarga yoshlar murabbiysi sifatida katta hurmat bilan qarab kelingan. Ayniqsa, bizning mustaqil yurtimizda o'qituvchiga hurmat-e'tibor va unga quyilgan mas'uliyat ham nihoyatda oshib bormoqda. Bu

www.ziyouz.com kutubxonasi

o'rinda respublikamizda 1 oktyabrni «Ustoz va murabbiylar kuni» deb e'lon qilinganligini ta'kidlab o'tish joiz.

Ma'lumki, "shaxs va davr" yoki "davr va shaxs" munosabati muammolari tahlilida uchta holat bo'lishi mumkin:

Birinchidan, shunday shaxslar bor – ular davr bilan hamnafas, o'zi yashagan zamonning yalovbardori sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkinchi toifa shaxslar o'z davrining ruhi, maqsad va vazifalarini anglay olmaydi, ya'ni zamondan orqada qoladi.

Uchinchi toifa insonlar yetakchilar sanalib, ular voqelikdan o'zib ketadi, ayni paytda o'z davrining ruhini chuqur his etadi va anglaydi. Bunday shaxs hayotiy qarashlari, g'oyasi va faoliyat yo'nalishida kelajakni ko'ra oladi.

O'qituvchi shunday yetakchilik xususiyatiga ega bo'lgan, ma'naviyati yuksak shaxs bo'lishi va shunday shaxsni tarbiyalashi lozim. Shaxsning ma'naviy olami yuqori bo'lsa, tabiiy ravishda bu uning amaliy faoliyatida ham o'z ifodasini topadi, uning g'oyalari jamiyatga singadi.

Abu Ali ibn Sinoning fikricha: "O'qituvchi matonatli sof vijdonli, rostgo'y, bolani tarbiyalash yo'llarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. Muallim o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, uning aql qatlamlariga kirolmog'i lozim"

"O'qituvchi – deydi Al Forobiy, – o'z or - nomusini qadrlashi, adolatli bo'lmog'i lozim. Ana shundagina u insonlikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi", deb ta'kidlaydi.

Yusuf Hojib Qoshg'ariy: "A'zolar kasalligi bilan yuzlarcha, minglarcha odamlar halok bo'lsalar, nodonlik, bilimsizlik tufayli o'n ming va yuz minglarcha odamlar halok bo'ladilar», deb ta'kidlashlari bejiz emas.

Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy ham o'qituvchining yoshlarga ta'sir o'tkazish mehnatini xolisona baholab: "Agar shogird nodonlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi", "Xalq yo'lida kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila", – kabi satrlar bitgan.

Nasriddin Tusiy o'zining "O'qituvchilarni tarbiyalash to'grisidagi" nomli asarida: "O'qituvchi nutqi hech qachon va qech qaerda zaharhandali, qo'pol yoki qattiq bo'lishi mumkin emas. Dars paytida o'qituvchining o'zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin", – deydi.

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tatbiq etish jarayonida o'qituvchining yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda jamiyat oldidagi javobgarligi yanada ortib boraveradi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy pedagog-psixolog bo'lmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham yoshlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, jamoada ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir.

Jamiyatning o'qituvchilik kasbiga qo'yadigan asosiy talabalari quyidagichadir:

- shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomondan tarbiyalashning, milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini bilishi, yoshlarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashni bilishi, o'z vatani tabiatiga va oilasiga bo'lganmuqabbati:
- keng bilim saviyasiga ega bo'lishi, turli bilimlardan xabar-dor bo'lishi;
- yoshlar pedagogikasi, psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fizologiyasi hamda maktab gigienasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi;
- o'zi dars beradigan fan bo'yicha mustaqkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi, sohasida jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi;
- ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi;

yoshlarni bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olishi, empatiya his-tuyg'ulariga ega bo'lishi;

- pedagogik texnikani (mantiq, nutq, ta'limning ifodali vositalari) va pedagogik takt (nazokat)ga ega bo'lishi;
- o'qituvchining o'z bilim va pedagogik maqoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Har bir o'qituvchi ana shu talablarga eng yuqori darajada mos keladigan bo'lishiga intilishi kerak.

O'qituvchiga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, turli xildagi ijtimoiy kuzatishlar, pedagogning individualligi, uning shu tariqa talablarga javob berishga subyektiv tayyorligi muayyan o'qituvchining pedagogik faoliyatiga naqadar tayyorligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, milliy dasturdan ko'zlangan maqsadlar juda ko'p. Avvalo, bu maqsad va vazifalarning to'la amalga oshishi mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy muhitning o'zgarishiga olib keladi, jamiyatda yangi shaxs- komil insonlar vujudga keladi.

Ikkinchidan, yurtboshimiz so'zi bilan aytganda: «Ta'limning yangi modeli ishga tushgach, insonning hayotdan o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi», «Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi... «Ta'limning

www.ziyouz.com kutubxonasi

yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi»[1].

Xuddi shunday jamiyatimizning Milliy dasturda ko'zlagan maqsadlarga erishishi ta'lim-tarbiya tizimidagi ishlar samarasiga va avvalo, o'qituvchiga ham bog'liqdir. O'z davrining ruhini chuqur anglagan, kelajakni ko'ra bilgan shaxslarni tarbiyalash o'qituvchi tarbiyachilarning bosh vazifasidir. O'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashiga erishmog'imiz darkor. O'qituvchining bosh vazifasi: o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. Ularda tafakkur qirralarini shakllantirish va rivojlantirish eng muhim ta'limiy-tarbiyaviy ish bo'lib hisoblanadi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirish bosqichlari. O'zbekistonning Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi 1997 yilning 29 avgustida qabul qilingan bo'lib, u besh bo'limdan tashkil topgan. Dasturning ikkinchi bo'limida dasturning maqsad va vazifalari bilan birga uni ro'yobga chiqarish bosqichlari ham ko'rsatib berilgan. Dasturning maqsad va vazifalarini ketma-ket uch bosqichda amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Birinchi bosqich 1997–2001 yillarni o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, unda mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun xuquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish ko'zda tutilgan edi. Bu bosqichda ta'lim qonuni asosida ta'lim tizimi va mazmuni qayta ko'rildi, umumiy o'rta va oliy ta'lim uchun DTSlar yaratildi, ta'lim jarayoni didaktik va axborot ta'minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish boshlandi, o'rta maxsus ta'lim uchun zarur moddiy-texnika, o'quv-uslubiy va kadrlar bazasi tayyorlandi, ta'lim muassasalari faoliyatiga baho berishning reyting tizimi joriy etila boshlandi.

Ikkinchi bosqich 2001–2005 yillarni o'z ichiga qamrab olgan edi, unda Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, meqnat bozorini rivojlantirish va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni qisobga olgan qolda unga aniqliklar kiritish nazarda tutilgan edi. Bu bosqich «sifat bosqichi» deb nomlanib, quyidagi vazifalarni amalga oshirish muhim deb belgilangan edi:

– majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga, shuningdek, o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta'limga o'tishni to'liq amalga oshirish;

---

[1] I.A. Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin // "Tafakkur" jurnali, 1998, 2-son, 3-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

– ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to'ldirish, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltirish;

– ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlashni davom ettirish, o'quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirishni amalga oshirish.

Bu bosqichda ta'lim xizmati ko'rsatish bozorini shakllantirish mexanizmlari to'liq ishga solinishi lozimligi bilan belgilandi. Ikkinchi sifat bosqichida belgilangan vazifalar imkoniyat darajasida bajarilib, hayotga tatbiq etib kelindi.

Uchinchi bosqich - 2005 va undan keyingi yillarni o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, unda to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish ko'zda tutilgan.

Bunda ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustaqkamlanishi, o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanishi, milliy (elita) oliy ta'lim muassasalari qaror topishi ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov o'qituvchi burchi, ma'suliyati va uning barkamol shaxsni shakllantirishdagi o'rni haqida.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'z nutqlarida yoshlarga katta ishonch bildirib, O'zbekiston kelajagi yoshlar qo'lida ekanligini ta'kidlar ekan, avvalo, yoshlarni shunday ishonchga javob bera oladigan insonlar qilib etishtirish o'qituvchi va tarbiyachilarning fidokorona mehnati bilan bog'liqligini nazarda tutadi. Jamiyatimiz talab etayotgandek har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalab etishtirishda o'qituvchining o'rni beqiyosdir.

Yurtboshimiz o'zining qator nutqlari va asarlarida ta'lim-tarbiya masalalariga to'xtalganda, o'qituvchini ham e'tibordan chetda qoldir-maydi. «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» nomli O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutqida jamiyatimizda ta'lim berish tizimi, yangilanish jarayoni talablari bilan yaqindan bog'lanmaganligi sabablaridan biri-o'qituvchiga borib taqalishini aytib o'tadi: «Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy ta'lim berish ularning ma'lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Mening fikrimcha, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirishdagi asosiy muammo ham mana shu erda. O'qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz, ammo, zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak».[1]

Bundan ko'rinib turibdiki, o'qituvchining o'zi avvalambor, zamonaviy bilim bilan qurollangan bo'lishi lozim.

Ma'lumki, boshlang'ich sinflarda bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadi. Shuning uchun kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ta'lim-tarbiya jarayoniga eng yetuk, tajribali murabbiylarni jalb etish lozim.

Mamlakatimiz rahbari o'zining «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» (1992), «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» (1997), «Millatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat qilsin» (1998), «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» (1998), «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» (1998), «Ma'naviy yuksalish yo'lida» (1998), («O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» (1999) kabi nutq va asarlarida ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarimizning mazmuni erkin, mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilishi lozimligini ta'kidlab o'tadi. Bu jarayonda esa o'qituvchi-o'quvchi munosabatini o'zgartirish talab etiladi. I.Karimov: «Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak»[2], - deb ta'kidlaydi. Maktablarimizda o'quvchilar mustaqil fikrlashga o'rgatilishi, o'qituvchi-o'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashi lozimliligini uqtiradi.

Bugungi kunda o'qituvchiga qo'yilayotgan muhim talablardan biri, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan tanishish, amalda qo'llash va shular orqali bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risidagi»gi Qonunining 5-moddasida «...tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega»[3] ekanligi aytiladi. Mazkur qonun,

---

[1] I.A. Karimov. "Barkamol avlod–O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., "Sharq", 1997, 7-b.

[2] O'sha joy, 9-b.

[3] O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Barkamol avlod–O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., "Sharq", 1997, 21-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

kadrlar tayyorlash milliy dasturi va hozirgi kun talablariga ko'ra o'qituvchiga qo'yilgan talablar ham kengayib, murakkablashib bormoqda. XXI asrda o'qituvchidan keng bilimdonlik, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlik talab etiladi.

Shunday qilib, kadrlar tayyorlash milliy modelida o'qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o'rniga obyektiv baho berilgan bo'lishiga qaramasdan, ta'lim-tarbiya jarayonida qanday insonni shakllantirish lozim, ta'lim-tarbiya natijasida inson qanday bo'lishi kerak, degan savollarga muntazam javob izlash zaruriyati mavjudligicha qoladi va asrlar osha mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan «komil inson tarbiyasi» g'oyalariga hamohang ravishda rivojlantiriladi.

MUSTAQIL ISHLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'grisida»gi Qonuni-(1997)ning vazifalari to'g'risidagi mini-debatga tayyorlaning. Bunda «Ta'limda umuminsoniy va milliy-madaniy qadriyatlarning ustuvorligi», «Davlat ta'lim standartlari doirasida barchaning ta'lim olishi uchun imkoniyat yaratilganligi» haqidagi tushunchalarni keltirilgan nazariy dalillar rukni asosida isbotlashga harakat qiling.

2. «O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi», «Mening ideal o'qituvchim», «O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimovning o'qituvchi burchi, mas'uliyati, insonparvarligi va uning barkamol shaxsni shakllantirishdagi jamiyatda tutgan o'rni haqida» mavzularidan biriga referat tayyorlang.

3. Interfaol uslublardan biri «B-B-B chizma»[1]dan foydalanib ta'lim to'grisidagi Qonun va Milliy dastur to'grisidagi fikrlaringizni jamlang.

B-B-B chizmasi:

Taxminan nimani bilamiz?	*Nimani bilishni xohlaymiz?*	*Nimani bildik?*

4. O'zbekiston Respublikasidagi uzluksiz ta'lim tizimi to'grisidagi manbalarda keltirilgan materiallarni o'rganing va ularni og'zaki quyidagicha tartibda ifodalang:

[1] B-B-B - (Bilamiz. Bilishni xohlaymiz. Bildik) strategiyasi matnini tushunishda zarur grafik tashkilotchi hisoblanadi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

"Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dastur"ning qabul qilinishi, ularning mohiyati:

1. Kadrlar tayyorlash milliy modeli to'g'risidagi tushuncha.

2. O'qituvchilik kasbining tarixiy taraqqiyoti va uning jamiyatda tutgan o'rni.

3. O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov o'qituvchi burchi, mas'uliyati, insonparvarligi va uning barkamol shaxsni shakllantirishdagi o'rni haqida.

Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: "Sharq", 1997.

2. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar. T.: «O'zbekiston», 2000.

3. Karimov I.A. Sog'lom avlod - xalqimiz kelajagi. «Xalq so'zi» gazetasi, 8 dekabr 1999y.

4. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. - Toshkent, 1997.

5. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. – Toshkent, 1997.

6. Oliy ta'lim me'yoriy hujjatlari. - Toshkent, 2001, 41–67-b.

7. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika. O'quv qo'llanma - T:, «Fan», 2005, 253 l-b.

8. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: «Cho'lpon» nashriyoti, 1992.

www.ziyouz.com kutubxonasi

2-MAVZU: PEDAGOGIKANING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

1. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.
2. Jamiyat va olam rivojida pedagogikaning mohiyati.
3. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari va tushunchalari.
4. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi va pedagogika fanlari tizimi.
5. Milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirishda pedagogikaning o'rni.

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilish zarurati

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatda sodir bo'layotgan demokratik o'zgarishlar, yangi jamiyat barpo etish yo'lidan dadil etaklovchi, harakatlantiruvchi ichki kuchga aylanmoqda. «Ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, odamlar ongini, demakki, ularning turmush tarzini ham o'zgartirish mumkin emas»[1] - deb ta'kidlaydi Prezidentimiz I.Karimov.

Yurtboshimiz ta'lim-tarbiya islohotining zarurligi va muhimligi haqida o'zining qator nutqlarida ham qayta-qayta to'xtab o'tadi. 1997 yil Oliy Majlis IX sessiyasida so'zlagan nutqida shu vaqtgacha amalga oshirilgan tadbirlar talabga javob bermayotganligini, eski sho'rolar zamonidan qolgan ta'lim-tarbiya tizimiga xos mafkuraviy qarashlardan va sarqitlardan to'liq qutila olmaganligimiz, ikkinchidan, o'zgarishlar yuzaki bo'lib, ta'lim-tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibini, bosqich-larini bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolarini echib bermaganligi, uchinchidan, bizning amaldagi ta'lim-tarbiya tizimimiz bugungi zamonaviy, taraqqiy topgan demokratik davlatlar ta-

[1] I.A. Karimov. Xalqimiz jipsligi – tinchlik va taraqqiyot garovi. Oliy Majlis XII sessiyasidagi ma'ruza // "Ma'rifat" gazetasi, 1998 yil, 29 avgust.

www.ziyouz.com kutubxonasi

lablariga javob bera olmasligi...[1] kabilar ham bu islohotni zarurligini ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasi (1997 yil 29 avgust)da "Ta'lim to'grisidagi"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" qabul qilindi. Bu qonun hujjatlariga asosan, respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, uni yangi zamon talabi darajasiga ko'tarish, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga etkazishning qonuniy asoslari belgilab olindi. Bu borada bir qancha ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda.

Ana shu sessiyada Prezident I.A.Karimov "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" mavzusida nutq so'zlab, quyidagi g'oyalarni ilgari surgan edilar:

1. Maktablarning moddiy bazasini mustahkamlash.
2. Bilimli, mahoratli tarbiyachi o'qituvchilarni tayyorlash, ularning hayotiy talablarini qondirish.
3. O'quv jarayoniga tegishli bo'lib boshlang'ich sinflarda va undan keyingi bosqichlarda o'qiyotgan bolalarga qaysi sinfda nimani o'qitish maqsadga muvofiqligini ilmiy nuqtai nazardan asoslash.
4. Boshlang'ich ta'limga ikkinchi darajali ish deb qaramaslik, chunki bolaning dunyoqarashi, didi saloqiyati shakllanadigan boshlang'ich sinflarga eng etuk, eng tajribali murabbiylar biriktirib qo'yilishiga katta e'tibor berish.[2]

Respublikamiz mustaqillikka erishgach ijtimoiy tuzum o'zgardi. Ijtimoiy tuzumning o'zgarishi shu tuzumning maqsadi, vazifalariga mos keladigan va uni amalga oshiradigan kadrlar tayyorlash vazifasini qo'ydi. Demak, ta'lim-tarbiyaning tashkiliy-uslubiy asoslarini yaratish davr talabi bo'lib qoldi. Ana shu davr talabiga muvofiq barkamol avlodni tayyorlab voyaga etkazishning qonuniy asosi bo'lmish "Ta'lim to'grisidagi"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" qabul qilindi.

Hozirgi kun jamiyat rivojida pedagogikaning o'rni

XXI asrda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql zakovati va ma'naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun insonparvarlik bozor iqtisodiyoti asosida huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurilishining bosh tamoyili sifatida

---

[1] I.A.Karimov. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., "Sharq", 1998, 6-bet.

[2] O'sha asar, 9-12-betlar.

www.ziyouz.com kutubxonasi

maydonga chiqdi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'grisidagi"gi Qonunida ta'lim davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilinishi pedagogika fani zimmasiga juda katta mas'uliyatli ulug'vor vazifalarni yukladi. Juda boy ilmiy, ma'naviy, madaniy, diniy merosimiz qayta tiklana boshlandi.

Har bir mustaqil fan o'zining predmeti va metodologik asoslariga egadir. Jumladan, pedagogika fan sifatida shakllanib, o'zining predmetiga ega. Boshqa fanlar kabi pedagogika ham fan sifatida paydo bo'lar ekan, u avvalo jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida vujudga keldi. Shu sababli tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb qarash lozim. Chunki tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib, jamiyatni, uning rivojlanishini tasavvur qilish qiyin.

Pedagogika atamasi qadimiy bo'lib, "bola yetaklovchi" degan ma'noni bildiruvchi grekcha "paydogogos" so'zidan kelib chiqqan. Tarixiy manbalarda ko'rstilishicha, qadimgi Yunonistonda o'z xo'jayinlarining bolalarini sayr qildirgan, ehtiyot qilgan tarbiyachini "pedagog" ("bola yetaklovchi") deb atashgan. Keyinchalik esa bu tushuncha keng ma'noda ishlatilib, maxsus bilimlarni egallagan mutaxassislarga nisbatan qo'llanila boshlandi. Shu bilan birga ta'lim-tarbiya ishlari bilan shug'ullanuvchilar kasb-hunar homiylari sifatida ajralib chiqa boshlaydilar. Ularning ta'lim-tarbiya borasidagi faoliyatlari va to'plagan tajribalaridan o'rinli foydalanishlari PEDAGOGIKA fanini vujudga kelishiga olib keldi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq siyosiy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy va ilmiy hayotimizda ko'plab yangiliklar, umumbashariy jarayonlr bilan bog'liq ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi.

«Eng muhimi inson va fuqaroning fikrlash va dunyoqarashi o'z-garmoqda, siyosiy va ijtimoiy ongi, uning umumiy saviyasi to'xtovsiz o'sib bormoqda»[1] deb ta'kidlaydi Prezidentimiz I.A. Karimov.

Pedagogika nafaqat o'zining o'rganuvchi predmeti, balki tarixiy rivojlanishi bilan ham o'ziga xos fandir.

«Avesto» ta'limoti, «Qur'oni Karim» sabog'i, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-970), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (824-892) kabi xadis ilmining ulig'lari ta'lim-tarbiya jarayoniga ulkan xissa qo'shib, pedagogikaning shakllanishiga zamin yaratdilar. Ularning pedagogik qarashlari tarixning zarhal sahifalaridan munosib o'rin egalladi.

[1] Barkamol avlod orzusi. - T., «Sharq», 1999, 43-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Ilk o'rta asrlarda Abu Nasir Forobiy (789-950), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (937-1051), Kaykovus (XI asr), Ahmad Yugnakiy (XI asr), Mahmud Qoshg'ariy (XI asr) kabi allomalar ta'lim - tarbiyaga oid dunyoviy fikrlari bilan shuxrat qozondilar.

O'zbek badiiy tilining asoschisi, buyuk davlat arbobi Mir Alisher Navoiy o'zining tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lgan noyob asarlari, ilmiy tafakkur va falakiyot ilmi sohasida yetuk dunyoqarash sohibi Mirzo Ulug'bek ma'rifiy qarashlari, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa adiblar o'zlarining o'lmas ijodiyoti bilan pedagogika taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shdilar.

Ovro'pa faylasuflari Tertullian (160-222), Avgustin (354-430), Akvinat (1225-1274)larning pedagogik ta'limoti muvaffaqiyat qozongan bo'lmasada, rotterdamlik Erazm (1466-1536), Italiyalik Viktorino de Feltre (1378-1446), farangistonlik Fransua Rable (1494-1553) va Mishel Monten (1533-1592)larning insonparvarlik g'oyalari, ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari muhim ahamiyat kasb etdi.

Didaktikaning asoschisi, chex olimi Yan Amos Komenskiyning ta'lim tamoyillari, shakllari va uslublari to'g'risidagi ilmiy qarashlari, ingliz faylasufi va pedagogi Jon Lokk (1632-1704)ning «jentelmen tarbiyasi» - tadbirkor va ma'rifatli, ishbilarmon va ziyoli, e'tiqodi kuchli shaxs tarbiyasiga oid ta'limoti bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotganicha yo'q.

Fransuz ma'rifatparvar mutafakkirlari Deni Didro (1713-1784), K. Gelvetsiy (1715-1771), P. Golbax (1723-1789), Jan Jak Russo (1712-1778)larning demokratik va gumanistik qarashlari, shveytsariyalik olim Iogann Genrix Pestalotsi (1746-1827)ning o'quvchilarning ma'naviy tarbiyasi va rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi pedagogika sohasini kengaytirdi.

Amerikalik olimlar Iogann Fridrix Gerbart (1776-1841), Jon Dyui (1859-1952), Edvard Torndayk (1874-1949)larning fanga «tarbiyaviy ta'lim», «dars modeli», «rivojlantiruvchi topshiriqlar tizimi», «eksperimentel pedagogika», «test usuli» kabi tushunchalarni kiritishlari, noan'anaviy pedagogik ta'limotlari, nemis olimi Fridrix Adolf Disterverg (1790-1886)ning tamoyillari muammolariga qarashli nazariyasi insonlarni xanuzgacha originalligi bilan hayratga soladi.

Rus milliy pedagogikasining asoschisi Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy (1824-1870)ning o'qitishning xalqchilligi nazariyasi, ulug' yozuvchi, olim, pedagog va tanqidchi Lev Nikolayevich Tolstoy (1828-1910)ning o'qitish jarayonidagi hayotiylik tamoyili ta'lim-tarbiya jarayonida o'ziga xos o'rinni egalladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Jadidchilik harakatining yorqin namoyondalari: Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Saidahmad Siddiqiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Ishoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda kabilar Turkiston maorifi va ta'lim-tarbiya tizimi rivojiga salmoqli hissa qo'shdilar. Ular o'zlarining sermazmun hayoti va faoliyatlari bilan hanuzgacha yosh avlodga ibrat namunasi bo'lib kelmoqda.

Bugungi kunga qadar pedagogika sohasida yangi-yangi ta'limotlar, g'oyalar kashf qilindi, yuzlab risolalar, asarlar yaratildi, bu sihaga oid «Everest cho'qqilari» zabt etildi, ammo tarbiya jarayonidagi insonni chuqur o'yga cho'mdiradigan muammolar hanuzgacha o'z yechimini to'laqonli topganicha yo'q.

Pedagogikaning metodologik asosi yosh avlodni tarbiyalash an'analarini, jamiyatning taraqqiyot bosqichlaridagi o'qitish va kamol toptirish tizimlarini, ularning qonun-qoidalarini,qomusiy mutafakkirlar, ma'rifatparvar adiblar va pedagoglarning ta'lim-tarbiya, ma'rifatga doir g'oyalarini va ularning rivijlanishini mukammal o'rganadigan fandir.

Zamonaviy Pedagogika ijtimoiy hayot jabhalarida faoliyat ko'rsatayotgan shxslarni bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatga bardosh bera oladigan, yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, komil inson etib tarbiyalashdek muhim masalalarni hal qilishi lozim.

Pedagogika insonshunoslik fani bo'lib, jamiyat va shaxs munosabatlarini tizimlashtiradigan tarbiya va ta'lim muammolarini o'rganadi.

Unda hozirgi zamon fani va metodologiyasining quyidagi umumiy masalalari yoritiladi:

- fan tarixi va taraqqiyoti;
- fan haqidagi asosiy konsepsiyalar;
- hozirgi zamon fanidagi asosiy dolzarb muammolar.

Pedagogikaning rivojiga IX-XVI asrlar (Sharq uyg'onish davri)da yashab ijod etgan Al-Buxoriy, At- Termiziy, Abu Nasir Forobiy, Abu Rayhon Beruniy,Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Bohouddin Naqshbandiy, Mirzo Ulug'bek, Mir-Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk daholar, XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Saidahmad Siddiqiylar, Ovro'pa davlatlarining buyuk mutafakkir va pedagog olimlaridan Yan Amos Komenskiy, Jan Jak Russo, I.G. Pestolotsi, Adol'f Disterveg, K.D

www.ziyouz.com kutubxonasi

Ushinskiy, A.S. Makarenko, J. Lokk, Jon Dyui, Edvard Torndayk, S.T. Shaskiy, B.Blumlar ulkan hissa qo'shdilar.

Pedagogika fan sifatida shakllanib, takomillashib borib, ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari, ularning mazmuni, usullari hamda tashkil etish shakllari haqidagi fanga aylandi.



4-rasm.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. Har bir fanning mazmun va mohiyatidan kelib chqadigan, uning asosiy tomonlarini yoritishga xizmat qiladigan va eng ko'p ishlatiladigan asosiy tushunchalari bo'ladi. Xuddi shuningdek, pedagogika fanining ham asosiy kategoriyalari mavjud.

Kategoriya - (yunoncha: kategoriya - «ko'rsatma», «dalil», «tushuncha») pedagogikada pedagogik jarayonlar xususiyatlarini, mohiyat-mazmunini, shaxs va jamiyat, shaxs va gurux, shxs va jamoa o'rtasidagi, ta'lim va tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik, iqtisodiy-ekologik va h.k., munosabatlarni aks ettiruvchi asosiy tushunchadir. Kategotiriya bilish jarayonlarining tarixiy rivojlanishi va jamiyat tajribasi asosida paydo bo'ldi. Kategoriyalar orqali inson borliqni, tavarak-atrofni, ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni o'rganadi.

Shulardan biri va asosiysi sifatida «Pedagogika» atamasidir. («Pein» - bola va «agogein» - yetaklamoq degan ma'noni bildiruvchi yunoncha «paydagogos» so'zlaridan paydo bo'lgan). Buning izohi quyidagicha: Eramizdan oldingi III-I asrlarda qadimgi

www.ziyouz.com kutubxonasi

Yunonistonda quldorlarning bolasini ovqatlantiradigan, sayrga olib boradigan, tabiat qo'ynida o'ynatuvchi tarbiyachi qullarni «pedagok» dab atashgan. Bugungi kunga kelib «pedagok» so'zi keng qamrovli, yangicha ma'no kasb etgan.

Pedagogikaning yana bir muhim tushunchalaridan biri - «Didaktika» so'zidir. Qadimgi Yunonistonda quldorning bolasiga maktabda ta'lim beruvchi kishini «Didaskal» deb atashgan. «Didaktika» - yunoncha «didaktikos» so'zidan olingan bo'lib, «o'qitish», «o'rgatish», «bilim berish» ma'nolarini anglatadi. Qadimgi yunonlar o'qitish faoliyatiga nisbatan «didasko», o'qituvchi o'rnida «didaskal», o'quvchiga nisbatan «didaskale» atamalarini ishlatishgan. Ammo «didaktika» termini o'zining dastlabki ma'nosidan ancha uzoqlashgan. Hozir bu tushunchalarning hajmi va mazmuni ancha boyigan va kengaygan bo'lib, u faqat o'qituvchining faoliyatini emas, shu bilan birga o'quvchining faoliyatini ham o'z ichiga qamrab olgan

Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga ta'lim, tarbiya, ma'lumot, rivojlanish, pedagogik faoliyat, pedagogik jarayon, bilish, o'rgatish, ta'lim-tarbiya metodlari, prinsiplari va boshqalar kiradi. Biz ularni pedagogik tushunchalar ham deb ataymiz.

Tarbiya - tarbiyachi o'zi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun ularning ruhiyatiga ma'lum maqsadga ko'ra tizimli ta'sir ko'rsatishiga aytiladi.

Jahon pedagogikasida «tarbiya» atamasi keng qamrovli tushuncha sifatida baholanganligi tufayli, uning mohiyati xususida turli nazariyalar mavjud. Tarbiyani kattalar (o'qituvchilar, murabbiylar va ota-onalar)ning bolalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni sifatida tushunish eng ko'p tarqalgan tendensiyadir. Bu o'rinda kattalar to'g'ri deb hisoblaydigan, baholaydigan ideallar, maqsadlar, vazifalar, normalar va talablarga muvofiq tarzda ta'sir ko'rsatish ko'zda tutiladi, albatta.

Tarbiyani bunday tushunish haqiqatga yaqinroq, biroq u bir tomonlama xususiyatga ega bo'lib, mazkur jarayonning faqat muayyan qismini aks ettiradi, xolos. Tarbiyaga bunday ta'rif berishda bolaga kattalarning ta'siri yo'naltirilgan obyekt sifatidagina qaraladi. Pedagogika ham tashabbuskor va mustaqil shaxslarni tarbiyalashni nazarda tutadigan bo'lsa, u tarbiyalanuvchiga pedagogika jarayonida faol harakat qiluvchi subyekt rolini beradi.

Shaxsning o'zi, o'z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeini tasavvur qilish orqali hosil bo'lgan obraz - «Men»-obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi insonning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini belgilaydi va barkamollik mezonlari bo'lib hisoblanadi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

«Men»-obrazining ijtimoiy psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va uning tarbiyalanganlik darajasi omillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, «...tarbiyani shaxsning o'zi va o'z sifatlari to'g'risidagi tasavvurlarining shakllanishi jarayonidir, deb ta'rif berish mumkin». Demak, har bir inson o'zini, o'zligini qanchalik aniq va to'g'ri anglasa, tasavvur qilsa, unda jamiyatning axloq normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kamayadi.

Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida inson kamolotida tarbiyaning o'rnini alohida ta'kidlab, «Janobi haq insonlarning asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga etkazmoq tarbiya vositasida bo'ladir. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqdan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, baxtiyor bir inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o'ssa, nasihatni qulog'iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan nodon, johil bir rasvoi odam bo'lib chiqadi»-deb ta'kidlaydi. Shunday ekan, bugungi kunda pedagogik nazariya va amaliyot muammolarini tadqiq qilish va echimini topishda pedagogik diagnostika hamda korreksiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim - maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o'tkaziladigan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan bilim qobiliyatlarini o'stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir.

Ma'lumot - ta'lim-tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar majmuidir.

Pedagogik faoliyat - estetik, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy kabi maqsadlarga muvofiq ravishda yosh avlodni hayotga tayyorlashning aqlan o'ylab ko'rilgan, katta yoshdagilarning ijtimoiy zarur bo'lgan mehnatining o'ziga xos turidir.

Pedagogik jarayon - ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan kattalarning pedagogik faoliyati ta'sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan boyitilgan hamda tarbiyachining yo'naltiruvchi va olib boruvchi rahbarlik roli natijasida bolaning o'z-o'zini taraqqiy ettirishidir[1].

---

[1] I.I. Tursunov, U.N. Nishonaliyev. Pedagogika kursi. – T., "O'qituvchi", 1997, 17-bet.

www.ziyouz.com kutubxonasi



5-rasm. Pedagogikaning rivojlanib va boyib borishiga ta'sir ko'rsatuvchi fanlar.

Har qanday fan ham yakka holda o'zi mukammalikka erisha olmaydi. U boshqa fanlar bilan aloqada, ularning yutuqlaridan foydalangan holda mazmunan boyib boradi. Xuddi shuningdek, pedagogika fani ham hozirgi kunimizda umumbashariyat tomonidan yaratilgan bilimlar va kelajak haqidagi ma'lumotlarga tayanadi. U tabiat va jamiyat rivojlanihsi qoidalari to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanadi, o'zi ham ijtimoiy fan sifatida rivojlanib, insonning ijtimoiy kamolotiga xizmat qiladi. U falsafa, tarix, iqtisod, psixologiya, etika va estetika, biologiya va madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik va boshqa fanlar bilan uzviy aloqadadir.

Har bir yurtning fuqarosi bo'lmish o'qituvchi-*tarbiyachi* va o'quvchi yoshlar o'z ona yurti tarixini bilishlari, vatanparvar bo'lishlari lozim. Ta'lim-tarbiya tarixi, pedagogika tarixi fanidan habardor bo'lmay turib, o'qituvchilik qilish mumkin emas.

O'qituvchi o'quvchilarga bilim berish, ma'lumotli qilish, tarbiylash maqsadida unga tizimli ta'sir ko'rsatadi. Bunda psixologiya va ijtimoiy omillarga asoslanadi. Ya'ni ta'sirning samarasini bilish uchun o'quvchining sezgi, idroki,tasavvur, diqqat va tafakkur

www.ziyouz.com kutubxonasi

fikrlash jarayonining qanday kechayotganini bilishga asoslanib ta'sir ko'rsatish rejasini belgilaydi. Ayniqsa, yosh davrlari psixologiyasini o'qituvchi chuqur bilishi talab etiladi. Buni yaxshi bilgan o'qituvchi esa har bir bolaning yosh va individual hususiyatlarini hisobga olgan holda bolaga yondashadi va unga samarali ta'sir ko'rsata oladi. Ma'lum ma'noda o'qituvchilarga xizmat qiladigan psixologiya turkumidagi fanlarni ham pedagogika fanlari tizimiga kiritish mumkin.

Falsafa pedagogika fani uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Falsafa pedagogikani ilmiy uslublar bilan qurollantiradi, ta'lim va tarbiyaning obyektiv qonun-qoidalarini ishlab chiqishga manba bo'ladi.

Etika va estetika fanlari pedagogikaning tarbiya nazariyasi bo'limi bo'yicha ma'lumot beradi. Bu fan o'quvchining xulqi, odobi me'yorlarini aniqlash, belgilash hamda go'zallikni chin ma'noda tushuntirish, o'quvchi ongida hayotning jozibali, nafis qirralariga bevosita rag'bat uyg'otish borasida pedagogika fani bilan aloqadordir.

Fanlarni o'qitish yo'llari didaktikaga aloqador, chunki har qanday fanni o'qitish usuli shu fanning mazmuni, tizimini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilib olinishiga xizmat qiladi. Demak, pedagogika fani bolalar anatomiyasi, fiziologiyasi, bolalar gigiyenasi va pediatriya kabi fanlar bilan ham mustahkam aloqada, bu fanlar bir-biriga chambarchas bog'liqdir.

Turli sohada bilim oluvchi o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashning nazariy hamda amaliy tomonlarini pedagogika fani tarmoqlari yoritib beradi. Pedagogikaning quyidagi tarmoqlari mavjud:

- umumiy pedagogika (maktab yoshidagi o'quvchilarni tarbiyalash va o'qitish haqida);
- maktabgacha tarbiya pedagogikasi (maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash bilan shug'ullanadi);
- madaniy-oqartuv pedagogikasi (madaniy-ma'rifiy ishlarni boshqarish muammolarini o'rganadi);
- kasb-hunar ta'limi pedagogikasi;
- harbiy pedagogika (armiya sardorlari va o'quvchilarini vatanimizning shon-sharafi va or-nomusi uchun yetuk kurashchi, harbiy qurol-yaroqlardan samarali foydalana oladigan yoshlarni tarbiyalash yo'nalishi);
- oila pedagogikasi;
- maxsus pedagogika (oligofreno-aqli zaiflarga, tiflo-ko'zi ojiz bolalarga tarbiya berish), metodika.

www.ziyouz.com kutubxonasi



6-rasm. Pedagogikaning vazifalari.



7-rasm. Pedagogika tarmoqlari.

www.ziyouz.com kutubxonasi



8-rasm. Pedagogika fanlari tizimining maxsus tarmoqlari.

Zamonaviy pedagogika ijtimoiy hayot jabhalarida faoliyat ko'rsatayotgan shaxslarni bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatga bardosh bera oladigan, yukasak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulqatvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, komil inson etib tarbiyalashdek muhim masalalarni hal qilishi lozim.

Milliy g'oya va mafkurani shakllantirishda pedagogikaning o'rni

Tarixga nazar tashlar ekanmiz, tarbiya qaqidagi g'oyalar eramizdan oldingi VI asrda shakllanganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Keyingi davrlarda pedagogik g'oyalarning shakllanishida zardushtiylik ta'limoti, uning muqaddas kitobi "Avesto"da qimmatli fikrlar talqin etilgan. Qur'oni Karim va Hadisi Shariflarda musulmon ahlining dunyoqarashi, falsafasi, ma'naviyati, axloqi, e'tiqodi har tomonlama barkamolligi kabi insoniy sifatlarni shakllantirish yo'llari bayon qilingan. Boy ma'naviy qadriyatlarimizga munosabatni belgilashda Prezidentimiz I.A.Karimov maqsad, faqat ilmiy-madaniy merosni o'rganish emas, balki betakror xazinamizning ilmiy, amaliy tamoyillarini yangi davrga xizmat qiluvchi qirralarini, hikmatlarini ochish, ularni hayotga tatbiq qilishdan iborat

www.ziyouz.com kutubxonasi

ekanligini mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq belgilab bergan edilar. Mamlakatimizda ma'naviyat sohasiga alohida e'tibor berilishi milliy davlatchiligimizning, milliy mafkuramizning asosini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz *g'oya, mafkura, milliy g'oya, milliy mafkura, ma'naviyat* atamalarining etimologiyalarini ochib berdi. U milliy g'oya, milliy mafkura har kungi hayot sharoitlaridan kelib chiqishi bilan birga har bir fuqaroning, davlatning, millatning istiqbolidan kelib chiqishini ko'rsatdi.

Ma'lumki, g'oya - insonlarga kuchli ruhiy ta'sir ko'rsatuvchi, ularni harakatga keltiruvchi fikrdir. Fikr esa inson miyasining mahsuli.

Mafkura (arabcha «mafkura» - nuqtayi-nazarlar va e'tiqodlar tizimi, majmui) - jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalar majmuidir.

Milliy mafkura - xalqimizning ma'naviy-ilmiy mentaliteti, g'oyalari asosida amalga oshirilayotgan ishlar, jarayonlardagi tutayotgan yo'li, davlatga, jamiyatga, olamga, o'z-o'ziga, taraqqiyotga munosabatlar tizimidan ibortadir.

Insonning ma'naviy faolligi amaliy-kasbiy faolligi bilan uyg'unlashganda barkamollik sifatlari tabiiy shakllanadi, rivojlanadi. Aynan ana shu tushunchalarni to'g'ri anglash ta'lim-tarbiyaning metodologik asoslarini to'g'ri tanlashga yordam beradi. *Chunki ta'limning subyektivlik, demokratik, huquqiy insonparvarlik asoslari insonlarning nodir, betakrorligini ro'yobga chiqarishdir.*

Yoshlarimizda bolalikdan boshlab sog'lom e'tiqod va yuksak dunyoqarashni shakllantira olsak, ular ma'naviyati boy, mustaqil fikrli va olijanob shaxslar bo'lib ulg'ayadi. Mafkuraviy dunyoqarash va milliy g'oyalar shunday e'tiqod asosida shakllanadi.

Milliy istiqlol g'oyasini yoshlar ongi va qalbiga singdirishda milliy urf-odat va an'analarimizning, oila va mahallalarning, ayniqsa ta'lim-tarbiya beruvchi muassasalarning o'rni juda salmoqli bo'lib, bu ham pedagogika fani oldiga ulug'vor vazifalarni qo'yadi. Qanday usullar, vositalar va yo'llar bilan ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish lozimligini pedagogika belgilab beradi.

MUSTAQIL ISHLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Quyidagi «..donolar bisotidan..» deb nomlanmish hikoyatlardan parchalarni o'qing va mushohada qiling.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Ilm o'rganish fazilatlari haqida

Allohning yerdagi elchisi Rasululloh aytmishlarki, ilm o'rganish har bir mo'min va muslima uchun farzdir. Ilm tolibi uchun borliq mavjudot, hatto dengizdagi baliqlar ham (o'z) gunohlarini so'rab istig'for aylaydilar.

Ilm ibodatdan afzaldir, chunki u dinni tutib turuvchidir. Bilim olmoq ikki toifaga bo'linur, ya'ni biri qalban ilmga tashnalikdur, bu foydali ilmdur. Bunday ilm kishi hayotini toabad nurafshon qiladur. Ikkinchi xildagi ilm esa faqat tildagidur.

Savol: Bu hikoyatda qanday ilm to'g'risida fikr bildirilyapti?

2. Farosat uchun maosh

Bir savdogarning ikki mirzasi bor ekan. Savdo-tijorat ishlarida barcha yumushlarni har ikkalasi ham birdek bajarishar, savdogarga sidqidildan xizmat qilisharkan. Lekin maosh masalasida anchagina farq bo'lib, biri ko'p, biri esa ozroq haq olar ekan. Bu ahvol anchagina davom etibdi. Maoshi oz mirza ancha vaqt xojasining og'zini poylab yuraveribdi. Biroq savdogar bu haqda hech ham gap ochmas, har kuni odatdagi o'z ishlari bilan mashg'ul bo'lar ekan.

Sabr kosasi to'lgan mirza bir kun payt topib yuragidagi dardini xojasiga to'kib solibdi.

Mana qanchadan beri indamay hamma ishlaringizni qilib kelyapman. Ishyoqmaslik qilib, biror vazifadan bo'yin tovlagan yerim yo'q. Anavi mirza bilan bajaradigan ishimizda shuncha kuzatib biror farqni anglay olmadim. Lekin maoshimiz nega turlicha ekanligiga aslo aqlim etmayotir, - debdi.

Xoja mirzaning so'zini eshitib miyig'ida kulibdida, uning da'vosi to'g'ri ekanligini tan olibdi va bu haqda keyinroq gaplashajagini aytib, hozir zarur bir yumushni ado etib kelishini buyuribdi.

Bosh ustiga! - debdi mirza tavoze bilan o'rnidan turarkan.

Bo'lmasa eshiting - debdi xoja. - Karvonsaroyga Bog'doddan savdogarlar tushishibdi. Borib ulardan so'rang-chi, bisotlarida baxmal matosi bormikan?

Mirza ko'ksiga kaftini qo'yib: «Xo'p bo'ladi», debdi va xojasi huzuridan chiqibdi. Hech qancha vaqt o'tmay, u karvonsaroyga borib kelibdi.

- Taqsir, bog'dodlik savdogarlarda baxmal mato bor ekan! debdi.

- Rangi qanaqa ekan bilmadingizmi? - debdi xoja.

- Yo'q! Rangini so'ramabman.

www.ziyouz.com kutubxonasi

- Rangini bilib keling! - deb buyuribdi xoja mirzaga.

Mirza yana karvonsaroyga qarab ketibdi va fursat o'tib yana xojasi yoniga kirib kelibdi.

- Bildim, taqsir! Rangini so'rab bildim! Pistamagiz ekan, baxmal rangi!

- Yaxshi, - debdi xoja.

- Baxmalning gazini necha so'mdan sotarkanlar Bog'dodlik birodarlar?

Tili lol mirza baxmal narxini bilib kelish uchun yana karvonsaroyga zing'illabdi va u erdan baxmal narxini ham aniqlab kelibdi. Lekin xojasi tushmagur mirzaga yana: «Hammasi bo'lib qancha baxmallari bor ekan, bilmadingizmi?» - degan savolni ko'n-dalang qilib, uni mulzam etibdi. Mirza baxmalning qancha ekanligini bilib kelish uchun yana karvonsaroyga junayotgan ekan, xoja uni to'xtatibdi.

- To'xtang, - debdi va ikkinchi mirzani chaqirtirib, birinchi mirzaga aytgan dastlabki topshiriqni aytibdi. Ikkinchi mirza ham karvonsaroyga qarab ketibdi va bir fursat o'tgach, xoja va birinchi mirza o'tirgan erga kirib kelibdi.

- To'g'ri taqsir! Karvonsaroyga Bog'doddan savdogarlar kelishibdi. Bisotlarida baxmal matolari ham bisyor emish, - debdi.

- Rangi qanday ekan uning?

- Rangi pistamag'iz, sifati ham soz!

- Har gazini qanchadan deyishmoqda?

Ikkinchi mirza baxmal narxini ham aniq aytib beribdi. U xojasining «Hammasi bo'lib qancha baxmallari bor ekan?» degan savoliga ham aniq javob qilibdi.

Shu paytdan xoja ikkinchi mirzaning xizmati uchun unga minnatdorchilik aytib, javob beribdi va birinchi mirzaga yuzlanibdi:

- Mirzam, endi tushungandirsiz, maoshingidagi farq sababini?

Maosh belgilashda xodim farosati xam e'tiborda tutilur. Kishi farosatining maoshi bebahodir! - debdi.

Savol: 1) Mazkur hikoyat nima uchun shunday nomlangan? Fikringizni izohlab bering. 2) Mustaqil fikrlovchi inson bo'lib shakllanishda farosatning o'rni qanday? Sizning fikringizcha, xalq manfaatini ko'zlashda, vatan ravnaqini yuksaltirishda mustaqil fikrlash ko'nikmalari zarurmi? Javobingizni asoslab bering[1].

[1] Sh. Abdullayeva. Pedagogika. (Amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv-uslubiy qo'llanma). – Navoiy, 2003, 11-bet.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Mavzu yuzasidan testlar

1. Quyidagi ta'rif to'g'ri belgilangan qatorni toping: «Pedagogika - inson faoliyati sifatida maqsad sari qilingan harakat, xohish istagi va ehtiyojlaridan kelib chiqqan fan»

A. Umumpedagogik.
V. Umummetodik.
S. Umumfalsafiy.
D. Pedagogika tarixi ta'rifi.

2. Abu Nasir Forobiy ta'limning milliy xarakteri nimaga bog'liq deb e'tirof etadi?

A. Farosatga.
V. Millatga xos belgilarga.
S. Tilga.
D. Idrokka.

3. Jahon tarixiy pedagogik jarayoni va uning hozirgi bosqichi qanday masalalarni har tomonlama o'rganishni taqozo etadi?

A. Global masalalarni.
V. Tarbiyaviy masalalarni.
S. Ta'limiy masalalarni.
D. Umuminsoniy va milliy masalalarni.

4. Pedagogikaning fan sifatidagi vazifasi nima?

A. O'rgatadi.
V. O'rganadi.
S. Ta'lim - tarbiya obyekti.
D. Ta'lim - tarbiya tizimi.

5. O'zbek pedagogikasining vazifasi nima?

A. Respublikamizda yashovchi turli millat va elatlarning orzu-istaklariga monand ta'lim-tarbiyaning ham nazariy, ham amaliy muammolarini milliy qadriyatlar asosida to'g'ri hal etib berish.
V. O'zbek xalq pedagogikasi taraqqiyotini o'rganish.
S. O'zbek xalqining orzu-istaklariga monand ta'lim-tarbiya qonunlarini ishlab chiqish.
D. Milliy qadriyatlarni o'rganishda pedagogikadan foydalanish.

6. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari to'g'ri belgilangan qatorni ko'rsating:

A. Bilim, ilm, fan.
V. Ta'lim, tarbiya, ma'lumot, rivojlanish.
S. O'qish, mustaqil ish, ma'lumot berish.

www.ziyouz.com kutubxonasi

D. Pedagogika, metodika, fanlar.

7.«Pedagogika» atamasi qanday ma'noni bildiradi?

A. Lotincha «pedagog» so'zidan kelib chiqib, «o'qitaman» ma'nosini bildiradi.

V. Yunoncha «paydogogos» so'zidan kelib chiqib, «ta'lim beraman» ma'nosini bildiradi.

S. Yunoncha «paydogogos» so'zidan kelib chiqib, «bola etaklash» ma'nosini bildiradi.

D. Yunoncha «didaskal» so'zidan kelib chiqib, «bola etaklovchi» ma'nosini bildiradi.

8. Ta'lim nima?

A. Sinfda dunyoqarash tarkib toptiradigan jarayon.

V. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchining birgalikdagi tarbiyaviy sifatlarini shakllantirish jarayoni.

S. Maxsus tayyorlangan kishilar raqbarligida o'tkaziladigan, o'quchilarda dunyoqarash hosil qiladigan jarayon.

D. Maxsus tayyorlangan kishilar raqbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, bilim qobiliyatlarini o'stiradigan, dunyoqarashni tarkib toptiradigan jarayon.

9. Tarbiya nima?

A. O'sib kelayotgan avlodda hosil qilingan aqliy kamolot, bilim, malaka va ko'nikmalardir.

V. Tarbiyachi xohlagan sifatlarni tarbiyalovchi ongiga singdirish uchun ular ruhiyatiga maqsadli ta'sir etish jarayoni.

S. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi bilim, malaka, ko'nikma hosil qilish jarayoni.

D. Tarbiyachi xohlagan sifatlarni bolada paydo qilish jarayoni.

10. Tarbiya turlari to'g'ri belgilangan qatorni ko'rsating:

A. Iqtisodiy, jismoniy, madaniy va h.k.

V. Ekologik, iqtisodiy, rag'batlantiruvchi.

S. Jismoniy, ruhiy, ekologik va h.k.

D. Jismoniy, ekologik, vatanparvarlik, axloqiy, iqtisodiy, estetik.

11. O'quv bilish faoliyatini tashkil qilishning asosiy jihatlari to'liq ko'rsatilgan qatorni belgilang:

www.ziyouz.com kutubxonasi

A. Pedagogik, psixologik, kibernetik, didaktik.
V. Matematikaviy, fiziologik, iqtisodiy.
S. Amaliy, didaktik, ixtisosiy.
D. Pedagogik, psixologik.
E. Avtomatlashtirish, individuallashtirish.

12. Abu Ali ibn Sinoning qaysi asari ispan adibi Ibn Tufaylning «Yakzon o'g'li Xayya», Fransuz mutafakkiri Jan Jak Russoning «Emil' yoki tarbiya haqida» povestlarining yozilishiga asos bo'ldi?
A. «Risolai axloq».
V. «Donishnoma».
S. «Hidoyat».
D. «Tadbiri Manozil».
E. «Xay ibn Yakzon qissasi».

13. Pedagogik texnologiya usulining ilmiy-metodik asoslari bu

A. Ta'lim - tarbiya qonuniyatlari.
V. Bixevioristik ta'limot.
S. Kognitivistik ta'limot.
D. Ishlab chiqarish texnologiyasi.
E. Pedagogik tizim nazariyasi.

14. O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari Prezidentimiz I.A.Karimovning qaysi asarida o'z aksini topgan?
A. «Yangi uy qurmay turib eskisini buzmang» (1996).
V. «Yo'limiz mustaqil davlatchilik va taraqqiyot yo'li» (1994).
S. «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» (1992).
D. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari»(1999).

15. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik deganda nimani tushunasiz?
A. Xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlashni.
V. Insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishini.
S. Ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirishni.
D. Xalqimizning adolat, tenglik, ahil qo'shnichilik, insonparvarlik kurtaklarini avaylab kelishi.

16. Xalqimizning ma'naviy merosi nima?
A. Xalqimizning ma'naviy ruhi bo'lib, insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi.
V. Ota-ona namunasi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

S. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik.
D. Shaxs imkoniyatlarining erkin namoyon bo''lishi.

17. Insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi nimalarda ko'rinadi?
A. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikda.
V. Insonning o'zi va oilasining baxt-saodati yo'lida mehnat qilishga shaxsan tayyor ekanligida.
S. O'zi xoqlagan Har qanday ishni bajara olishida.
D. Ota-ona o'gitlarini bajarishida.

18. O'zbekiston fuqarosining vatanparvarligi nimalarda namoyon bo'ladi?
A. O'z oilasini sevishida.
V. Davlat ramzlarini hurmat qilishida
S. O'z yeri, tabiati, o'lka tarixi, madaniyati, an'analari bilan faxrlanishi, ularni himoya qilishida.
D. Yuqoridagilarning barchasida.

Mavzu yuzasidan savollar

1. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Prezident I.A.Karimovning «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» nutqida qanday g'oyalar ilgari surilgan?
3. «Pedagogika» so'zining kelib chiqishi va ma'nosi.
4. Pedagogika fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat? Uning jamiyat rivojidagi o'rnini qanday tushunasiz?
5. Pedagogikaning asosiy tushuncha (kategoriya)lariga nimalar kiradi?
6. Pedagogika qaysi fanlar bilan aloqada rivojlanib, boyib boradi?
7. «Pedagogika fanlari tizimi» deganda nimani tushunasiz?

Axborot manbalari

1. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: «Sharq», 1998.
2. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya. - M., «Logos», 2002, 7-11-betlar; Pedagogika. (A. Munavvarov tahriri ostida), -T: «O'qituvchi», 1996. 3-9-betlar.

www.ziyouz.com kutubxonasi

3. Podlasiy I.P. Pedagogika. - M.: «Vlados», 2003. 10-11-betlar.
4. Tursunov I.Y., Nishonaliev U. Pedagogika kursi. - T.: «O'qituvchi», 1997. 7-26- betlar.
5. G'ulomov S.S. Ta'lim tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishdagi strategik va ustuvor yo'nalishlar. - T., 2003.

www.ziyouz.com kutubxonasi

3-MAVZU: MILLIY ISTIQLOL G'OYASI, MILLIY MAFKURANING PEDAGOGIK ASOSLARI. MUTAXASSISLIK

Milliy g'oyaning ma'nosi va pedagogik mohiyati. Milliy istiqlol mafkurasi ko'p millatli xalqning ezgu g'oya-ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu-intilishlari, milliy ideallarini o'zida aks ettiradi.

Mafkura xalqni-xalq, millatni-millat etadigan, uning shonu shuhrati, or-nomusi, ishonch-e'tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, turmush tarzi, tub manfaatlariga tayangan holda, muttasil rivojlanib, takomillashib boradigan g'oyalar tizimidir.

Insoniyat tarixi - g'oyalar tarixidir.

G'oya inson tafakkuri mahsuli, milliy g'oya esa millat tafakkurining mahsulidir.

Milliy g'oya - inson va jamiyat hayotiga ma'no - mazmun baxsh etadigan, uni maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmuidir.

«...Mafkura muayyan ijtimoiy guruq, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad muddaolari, manfaatlari, orzu intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o'zida mujassam etadigan g'oyalar tizimidir»[1].

Toki hayot mavjud ekan mamlakatlar, davlatlar va ularning manfaatlari bor ekan ular o'z taraqqiyot yo'lini, ertangi kun ufqlarini o'zining milliy g'oyasi, milliy mafkurasi orqali belgilab olishga intiladi.

Ma'naviyat - arab tilidagi "ma'no" yoki "ma'naviyatun," "ma'noi g'oya" so'zlaridan olingan bulib, "ruhiy holat" degan ma'noni anglatadi.

Milliy mafkura xalqimizning ma'naviy-ilmiy mentaliteti, g'oyalari asosidagi amalga oshirilayotgan jarayonlardagi tutayotgan yo'li,

---

[1] Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T., "O'zbekiston", 2001, 15-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

davlatga, jamiyatga, olamga, o'z-o'ziga, taraqqiyotga munosabatlar tizimidan iborat.

Biz g'oya haqida gapirganimizda, uning tarixiy shakllari, turlariga ham to'xtab o'tishimiz lozim. Tarixda buzg'unchilik va bunyodkorlik g'oyalari haqida dalillar ko'p.

Xo'sh, bunyodkorlik va buzg'unchilik g'oyalariga nimalarni kiritish mumkin? Ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni qanday?

«Tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoda ikki kuch-bunyodkorlik va buzg'unchilik g'oyalari hamisha kurashadi».[1] Bunyodkorlik g'oyalari yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek oliyjanob maqsadlari bilan ajralib turadi.

Bunyodkorlik	Buzg'unchilik
Sifatlari	
Odamlar ongiga adolat, haqiqat, ezgulik, odamiylik, mehnatsevarlik g'oyalarini sepadi; razolat, urush, janjal, ma'rifatsizlikni qoralaydi; madaniyt-ma'naviyat rivojini ko'zda tutadi; inson manfaatlari ulug'lanadi; bunyodkorlik, yaratuvchilik, mamlakat obodligi targ'ib etiladi; xalqaro hamkorlik, mintaqaviy tinchlik, millatlararo totuvlikka chaqiriladi.	Taraqqiyot g'ildiragini orqaga buradi; zulm, zo'rlik, kulfat urug'larini sochadi; millatlar va xalqlarning turmush tarzi, madaniyati, an'ana va urf-odatlarini kuch bilan o'zgartirishga, keng xalq ommasini boshqalarning siyosiy irodasiga bo'ysundirish va mafkuraviy asoratga solishga intiladi; xalqlarni o'z yo'lini o'zi tanlash huquqidan mahrum etadi; kishilar ongini nayrang va aldovlar vositasida yolg'on ideallar bilan zaharlaydi; irqiy ayirmachilik, fitna, zo'ravonlik, terrorni targ'ib etadi.

g'oyalar

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari va mohiyati

Milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasi: «ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish»[2]dan iboratdir. Uning asosiy g'oyalari quyidagilar:

[1] Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T., "O'zbekiston", 2000, 10-b.

[2] Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T., «O'zbekiston», 2000, 50-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

1. Vatan ravnaqi.
2. Yurt tinchligi.
3. Xalq faravonligi.
4. Komil inson.
5. Ijtimoiy hamkorlik.
6. Millatlararo totuvlik.
7. Dinlararo bag'rikenglik.

Insonning o'zligini anglashi uning nodir va betakrorligini anglashdan boshlanadi. Insonning nodir va betakrorligini anglash **birinchidan**, uning o'ziga yashiringan imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish uchun asos bo'lib, istakni shakllantirsa, **ikkinchidan**, unda boshqalarni ham betakror ulug' siymoligini anglash orqali o'zgalarni hurmat qilishni, ulug'lashni keltirib chiqaradi. **Uchinchidan**, boshqalarning ham nodir, betakrorligiga ishonish, ularni hurmatlash, qalbni g'arazdan poklaydi. **To'rtinchidan** esa, har bir kishining betakrorligini anglash asosida kishilarda boshqalar bilan muomala va munosabatning moddiy, ilmiy, ma'naviy-madaniy manfaat kasb etishni insoniyat ijtimoiyligiga tabiiy zarurat tug'iladi. Shu yuqoridagi sifatlarning shakllana borishi komillik sifatlarining asoslaridan iboratdir.

Komillik sifatlarini to'laqonli shakllantirish uchun esa faqat nasihatlar, da'vatlar etarli emas. Insonning ma'naviy faolligi amaliy - kasbiy faolligi bilan uyg'unlashganda barkamollik sifatlari tabiiy shakllanadi, rivojlanadi. Aynan ana shu yuqoridagi tushunchalarni to'g'ri anglash ta'lim-tarbiyaning metodologik asoslarini to'g'ri tanlashga yordam beradi. Chunki ta'limning subyektivlik, demokratik, huquqiy, insonparvarlik asoslari insonlarning nodir, betakrorliklarini ro'yobga chiqarishdir.

Insonlarning nodir va betakrorligini dunyoviy, diniy ilmlarni uyg'unligida tushuntirib berish mumkin. Har bir kishi azaliy yaxshi taqdir, ezgu niyatlar bilan, ma'lum o'ziga xos ulug' maqsad va vazifalar bilan yaratilgan. Ammo inson asli yaratilishda ozod va erkindir.

Insonning ozod va erkinligi shunchalikki, hatto uning iymon - e'tiqodi, Olloh taolo tomonidan majbur qilinmaydi. Bu haqda Qur'oni Karim Shuaro surasining 4-oyatida "...Zero, iymon e'tiqod nochor, noilojlikdan emas, balki qalb qanoati bilan ixtiyoriy

www.ziyouz.com kutubxonasi

bo'lishi lozimdir"[1], - deyilgan. Chunki kishilar bu ulug' hislatlar faqat insonlar foydasi uchunligini, ularga amal qilish insonlar uchun ham ma'naviy, ham moddiy manfaatlarning asosi ekanligini ongli tushunib, ularga amal qilsalar bu ishlar ular uchun huzur - halovat va baxtiyorlik bag'ishlaydi. Vijdon kishilarning ongi, ong osti va qalbi mutanosibligini amalga oshiruvchi ma'naviy-insoniy tuyg'u, sifat. Agar vijdonni sodda qilib tushuntirish lozim bo'lsa, vijdon - insonning qalb amri bilan bajargan ishlarining (faoliyatini) ruhiy mezonidir.

Dono xalqimiz, ota-bobolarimizning "Xudo qalbingda bo'lsin, bolam", degan gaplari bejiz emas. Shuning uchun vijdon har bir kishining qalbidagi Xudodir, deyilishi bejiz emas. Kishi hayotidagi qilgan ishlari do'yicha vaqti-vaqti bilan o'z vijdoni oldida hisob berib turadi. Bu muloqot haq muloqat bo'lishi lozim. Ayrim vaqtda nohaq ishni haq deb isbotlash o'z vijdonini, bu esa xudoni aldash bilan teng kuchdir. Bunda ong osti (haqiqat) ishga tushib kishining ongli va ong osti orasida nomutanosiblik boshlanib, kishini ruhiy xastalikka olib keladi. Ruhiy xastalik esa jismoniy xastalikka olib keladi, ayrim hollarda boshqa ko'ngilsiz voqealarga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, g'oya insonni va jamiyatni maqsad sari etaklaydigan, ularni harakatga keltiradigan, safarbar etadigan kuchdir.

Mafkura-muayyan ijtimoiy guruh yo qatlamning, millat yoki davlatning ehtiyojlarini, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir.

«O'zbekiston jamiyatining milliy istiqlol mafkurasi, o'z mohiyatiga ko'ra, xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o'tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog'laydigan asriy orzu-istaklarini amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalar tizimidir».[2]

Mustaqillik sharofati bilan xalqimizning milliy ongi, milliy g'ururi, siyosiy madaniyati o'sib bormoqda. Agar milliy ongimiz to'xtovsiz yuksala bormasa, mustaqilligimizning ma'naviy zamini

---

[1] Qur'oni Karim. «Shuaro» surasining 4-oyati. O'zbekcha izohli tarjima. Alouddin Mansur. - T., «Cho'lpon», 1992, 262-b.

[2] Milliy istiqlol mafkurasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - T., «O'zbekiston», 2000. 6-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

mustahkam bo'lmaydi. Xalqimizning, jumladan, yoshlarimizning milliy jihatdan o'z-o'zini anglashiga, ularda milliy iftixor tuyg'usini shakllanishiga erishishimiz lozim. Milliy ong va o'zligini anglash u yoki bu millatga mansubligini his qilish, uning tarixi, madaniyati, urf-odat va an'analarini chuqur bilish bilangina chegaralanmaydi. Milliy o'z-o'zini anglash millatning hozirgi ahvoli, uning oldida yechimini kutayotgan muammolarni bilish va ularni hal qilishda faol harakat etishni talab etadi.

Mana shu faoliyatda ishtirok etishda har bir kishining o'ziga xos uquvi, qobiliyati, xarakteri, uning nodirligi va betakrorligi namoyon bo'ladi. Demak, inson nodirligi va betakrorligining, uning yutuq va muvaffaqiyatlarining birinchi garovi o'z uquvi, qobiliyati va qiziqishlariga doir faoliyat, hayot yo'li hunar, kasb tanlashidadir. Yutuqning ikkinchi garovi shu o'ziga mos tanlangan hayot yo'lidan donolik, aql bilan faoliyat ko'rsatish, eng ko'p moddiy va ma'naviy mahsulot olishidadir. Soha bo'yicha istiqbolli ma'naviy fikr inson yutug'ining uchinchi garovidir.

O'zining uquvi, qobiliyatini ro'yobga chiqarish asosida bunyodkorona mehnat qilib, moddiy-ma'naviy mahsulotlar yaratib o'zini, oilasini pok, halol luqma bilan boqib, davlatni, xalqni moddiy-ma'naviy boyitishga xizmat qilgan kishi so'zda emas, amalda ham haqiqiy iymonli kishi bo'ladi.

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

1. «G'oyaga qarshi-g'oya, fikrga qarshi-fikr, jaqolatga qarshi-ma'rifat bilan kurashish» tamoyili mohiyatini yoritish uchun kichik munozara tashkil eting.

2. Xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanib, milliy qadriyatlarni yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati va ularni samarali qo'llash yuzasidan takliflar ishlab chiqing.

3. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalarini nimalar tashkil etadi? Bu boradagi qarashlaringizni «Taklif va mulohazalar» rukni ostida daftaringizga qayd qilib boring.

4. Quyidagi iboralarni izohlang:

«Vatani borning baxti bor, mehnati borning-taxti».

- «Ona erning tuprog'i ona sutidek aziz».
- «Vataning tinch, sen tinch».
- «Vatanning ostonasi oltin».

www.ziyouz.com kutubxonasi

5. «Davlat ramzlari-bizning faxrimiz» nomli mini-viktorina savollariga javob bering:

1. O'zbekiston Respublikasi madhiyasi so'zlarini kim yozgan?
A. Erkin Vohidov.
V. Abdulla Oripov.
S. Omon Matchon.

2. Davlat gimni yunoncha «hummos» - madhiya so'zidan olingan bo'lib, quyidagi ma'noni bildiradi:
A. «Shohlar ashulasi».
V «Maqtov ashulasi».
S. «Yuqori pardali tovush bilan aytiladigan ashula».

3. Davlat mustaqilligi ramzlari deganda nimani tushunasiz?
A. Mustaqil davlat belgisini.
V. Asosiy mafkura belgisini.
S. Shartli belgilarni.

4. Amir Temur davlatining bayrog'idagi belgi - uchta halqa tasviri nimani bildirgan?
A. « Kuch - adolatdadir».
V «Kuch - boylikdadir».
S. «Kuch - adovatdadir».

5. O'zbekiston Respublikasining gerbida tasvirlangan Xumo qushi nimani bildiradi?
A. Boylik, irodalilik.
V. Mehnatsevarlik, poklik.
S. Baxt, najot, tinchlik elchisi.

6. O'zbekiston Respublikasining gerbi qachon qabul qilingan?
A. 1992 yil 2 iyulda.
V. 1992 yil 14 iyulda.
S. 1993 yil 8 aprelda.

Mavzu yuzasidan savollar va topshiriqlar

1. Milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadi nimadan iborat?

www.ziyouz.com kutubxonasi

2. G'oya va mafkuralarning tarixiy turlari haqida nimalarni bilasiz?

3. Milliy istiqlol mafkuramizning bosh va asosiy g'oyalari haqida gapirib bering.

4. Milliy istiqlol mafkurasini o'quvchilar ongiga qanday yo'llar bilan singdirish mumkin deb o'ylaysiz?

5. Ta'lim-tarbiya jarayonida milliy istiqlol g'oyasini o'quvchilarga singdirishga doir misollar keltiring (Mutaxassislik faningiz asosida).

6. Insonning o'zini nodir va betakrorligini anglashi unga nima beradi?

7. Milliy istiqlol mafkurasining «Vatan ravnaqi», «Xalq farovonligi», «Komil inson» kabi asosiy g'oyalariga Klaster tuzing.

Masalan, «Xalq farovonligi» tushunchasiga tuzilgan Klaster tarkibi quyidagicha bo'lishi mumkin:

Klasterlarga bo'lish tartibi:

- Siyosiy sohada: erkinlik, ozodlik, istiqlol, tenglik, tinchlik; Ijtimoiy sohada: turli imtiyozlar, ijtimoiy himoya, bilim olish, dam olish, mehnat qilish;

Iqtisodiy sohada: mulkka egalik; tadbirkorlik, tashabbuskorlik, xususiy mulkchilik, shirkat, fermer, oila pudrati, mehnatkashlik, mirishkorlik, raqobat; Tabiiy boyliklar, yer resurslari.

Axborot manbalari

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: «Sharq», 1998.

2. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - T., «O'zbekiston», 2000.

3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. (Ma'ruza matnlari uchun materiallar). - T.: «Yangi asr avlodi», 2001.

4. Pedagogika. Ma'ruzalar matni. N.G'aybullayev va boshqalar. - T., 2000.

5. Tulenova G. Milliy ong va milliy iftixor o'sishining tarbiyaviy ahamiyati // «Xalq ta'limi». 1997, 2-son, 14–19-betlar.

6. Entoni Giddens. Sociologiya. - T., «Sharq», 2002.

7 Qur'oni Karim. «Shuaro» surasining 4-oyati. O'zbekcha izohli tarjima. Alouddin Mansur. - T., «Cho'lpon», 1992. 262-bet.

www.ziyouz.com kutubxonasi

4-MAVZU: SHAXS KAMOLOTI IJTIMOIY-BIOLOGIK HODISA, PEDAGOGIK JARAYON OBYEKTI VA SUBYEKTI SIFATIDA

1. Shaxsning biologik va psixologik rivojlanishi.
2. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar:
a) irsiyat (biologik omil);
b) muhit (ijtimoiy omil);
v) ta'lim va tarbiya;
g) faoliyat va faollik.
3. Bolalarning yosh davrlari xususiyatlari.

Istiqlol tufayli o'zining mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan jamiyatimiz kun sayin demokratlashib, davlat, jamiyat va shaxs munosabatlari tobora ko'proq demokratiya tamoyillariga asoslanmoqda.

Ta'lim tizimi oldidagi davlat buyurtmasi O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy g'oyalarida o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» yuksak umumiy madaniyatga, kasb-hunar ko'nikmalariga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, mantiqiy mushohada qilish hamda ijtimoiy hayotdagi muammolarning oqilona yechimlarini topish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarni odilona baholay oladigan kadrlar yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama barkamol, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda mukammal o'zlashtirgan, mas'uliyatli fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g'oyani ilgari suradi.

Yuqoridagi g'oya ta'lim tizimi oldiga bir qator aksiomatik vazifalarni ko'ndalang qilib qo'ydi. Jumladan:

uzluksiz ta'lim tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan huquqiy-demokratik davlat qurilishi jarayonlariga moslash;

www.ziyouz.com kutubxonasi

- ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan kadrlar tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, mądaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

- ta'lim oluvchilarni mantiqiy mushoqada qildirish jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va metodlarini ishlab chiqish hamda joriy etishni hal etish vazifalarini amalga oshirish.

Inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar va muassasalar vujudga kelishi, inson manfaatlariga e'tibor jahon huquqiy andozalari va milliy urf-odatlarning uyg'unligida shakllanib borayotganligi mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar tantana qilib boryotganligining belgisidir.

O'zbekiston Respublikasining mustaqil bo'lishi munosabati bilan maktablardagi ta'lim-tarbiya ishlari rivojlanib, takomillashib borayotir. Mamlakatimizda ijtimoiy soqalarda o'tkazilgan ijobiy islohotlar natijasida shaxsning erkin fikrlashi va mantiqiy mushoqada qilish ko'nikmalarini yanada takomillashtirish, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Shaxs erkin, mantiqiy izchillikda fikrlay olmasa, demokratik tamoyillar tantana qilmasa, shaxsning ta'lim olish huquqi va erkinliklarini amalga oshirib bo'lmaydi.

«Biz uchun mustaqillik – eng avvalo, o'z taqdirimizni qo'limizga olish, o'zligimizni anglash, milliy qadriyatlarni, urf-odatlarni tiklash, mu'tabar shu zaminda, tinchlik-osoyishtalikni, barqarorlikni saqlashdir[1]».

Shu nuqtayi nazardan, shaxsning har tomonlama kamol topishini amalga oshirish, yangicha fikr yurituvchi erkin fuqaroni tarbiyalash davr talabi bo'lganligi bilan belgilanadi va u quyidagilarda o'z aksini topadi:

1. Jamiyatimizda mafkuraviy tizimning o'zgarishi, ijtimoiy yangilanish erkin mushoqada yurituvchi shaxsga qo'yayotgan talablar yangicha yondashish, qarash, munosabat, mezon, talab, mohiyat, mazmun, shakl, atribut taqozo etishi.

---

[1] Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T., «Sharq», 1997. 98-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

2. Erkin mushoqada yuritish fenomenologiyasining ko'lami kengayishi.

3. Uzluksiz ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol yondashuv asosida talqin qilinishiga, shaxsga ham obyekt, ham subyekt sifatida qaralishiga ijtimoiy zarurat tug'ilishi.

Shaxs deganda ruhiy jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyati va sifatlari bilan boshqalardan farq qiladigan muayyan jamiyatning a'zosi tushuniladi. Shaxs-ijtimoiy hayotning maqsuli.

Odamning insonlik jinsiga mansublik fakti esa individ tushunchasi bilan ifodalanadi.

Inson shaxsining eng xarakterli tomonlaridan biri uning individualligidir.

Individuallik deganda shaxs ruhiy xususiyatlarining qaytarilmaydigan birikmasi tushuniladi. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, ruhiy jarayonlarning o'tib borish xususiyatlari, hissiyotlar, faoliyat motivlari, tarkib topgan qobiliyatlar kiradi.

Individ va shaxs o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlar. Shaxsning biologik va psixologik rivojlanishi. Shaxsning jismoniy, aqliy, ma'naviy kamol topish jarayoni. Bolalik, o'smirlik va o'spirinlik yillarida shaxsning kamol topishi.

Rivojlanish kishidagi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jarayon bo'lib, u barcha tug'ma va egallangan miqdor va sifat o'zgarishlarini o'z ichiga oladi. Rivojlanish deb bola vaznining oshishi, suyak va muskul tizimining, tanosil a'zolarining, nerv funksional faoliyatining kamol topishi, aql-zakovatining shakllanishiga aytiladi. Bolaning jismoniy rivojlanishida uning bo'yi o'sadi, vazni va muskul kuchi ortadi, sezgi organlari mukammallashadi, harakatlarni to'g'ri boshqara oladi.

Bolaning ruhiy rivojlanishida shaxsidagi psixik sifat va belgilar shakllanadi, hissiy-irodaviy, bilish jarayonida muhim o'zgarishlar yuz beradi. Bolaning ijtimoiy rivojlanishi u ijtimoiy hayotda qatnasha boshlaganda, uning xulqida tevarak-atrofga bo'lgan munosabatida, ayniqsa, jamoa ishlarida qatnashishida namoyon bo'ladi.

Shaxs rivojlanishida biologik omillar, ijtimoiy omillar, ta'lim va tarbiya, bola shaxsining faolligi (faoliyat) va boshqalar muhim o'rin egallaydi.

O'zbek olimlari E. G'oziyev, M.G. Davletshin, A. Munavvarov, V. Karimova, R. Jo'rayev, J. Hasanboyevlar; xorij olimlari D.B. Elkonin, A.V. Petrovskiy, V. Davidov, L.S. Vigotskiy, Dj. Dyui, G.Gard-

www.ziyouz.com kutubxonasi

ner, J. Piajelarning rivojlanishda shaxs faoliyatining ahamiyati to'grisidagi qarashlari salmoqli ahamiyatga ega.

Jamiyat taraqqiyotida insonning bilimi va faol amaliy faoliyati to'grisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» nomli ma'ruzasida chuqur fikr bildirilgan.

Ajdodlarimizning komil inson haqidagi axloqiy talablar majmuasi sharqona axloq kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida sog'lom avlod tarbiyasi haqida o'lmas g'oyalar keltirilgan. Har bir inson shaxs sifatida turlicha namoyon bo'lar ekan, uning ijtimoiy voqelikka, mehnatga, kishilarga, jamiyatga bo'lgan munosabati ham, faollik darajasi, axloq-odob borasidagi yetukligi ham turlichadir. Shaxs qaysi jamiyatda yashasa o'sha jamiyat qonun-qoidalariga asosan kamol topadi. Pedagogika shaxsning kamolotga etishini murakkab va ziddiyatli jarayon deb biladi. Shaxsning kamolga etishida irsiyat, muhit, maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya va nihoyat o'zining mustaqil faoliyati ham muhim ahamiyatga egadir (9-rasm).



9-rasm. Shaxs rivojida irsiyatning o'rni.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Shunday qilib, ijtimoiy muhitning shaxs shakllanishidagi o'rni nihoyatda beqiyosdir. Irsiy belgilarning rivojlanishi ham insoniy-ijtimoiy muhitda yashashga bog'liqligiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Inson bolasi, agar ijtimoiy-insoniy muhitga emas, boshqa muhit, aytaylik hayvonlar muhitiga tushib qolsa, unda irsiy belgilarning ayrim biologik ko'rinishlari saqlanadi, lekin insoniy fikr, faoliyat, xatti-harakat bo'lmaydi (1920-yilda hindistonlik doktor Singx Midnapur shahri yaqinidagi bo'ri uyasidan topib olgan qizchalar Kamola va Amola hayoti bunga misol bo'ladi)[1].

Irsiyat nishonalari shaxsni shakllantirishning obyektiv omillariga kiradi. Odamlar organizmdagi anatomik tuzilishni, fiziologik harakatni, asab tipini, asosiy shartsiz reflekslarni meros qilib oladilar. Odam shaxsi va xulqining rivojlanishida biologik omillarning rolini yuksak baholab, shaxsni naslga bog'lab o'rganuvchi bixeviorizm, pragmatizm, biogenetik oqimlar bo'lib, ularning ayrim vakillari odam bolasi ona pushtidaligidayoq bo'lajak shaxsga xos barcha xususiyatlarga ega bo'ladi desa, ayrimlari ong va aqliy qobiliyat ham nasldan-naslga o'tadi, deydi. Ba'zilari esa bolaning axloqiy jihatdan o'sishini ham irsiyatga bog'laydi.

Biologik omilning inson shakllanishidagi o'rni muhim va o'ziga xos, irsiyatning ahamiyatini inkor etib bo'lmaydi, insonga xos xususiyatlar - aqliy va jismoniy meqnat qobiliyati, tafakkur va nutq ham tug'ma o'tishi mumkin, lekin bu tug'ma imkoniyatlar rivojlanishi uchun inson bolasi insoniy muhit, odamlar orasida yashashi, odamlar bilan aloqa qilishi, ijtimoiy hayotda qatnashishi va ma'lum xulq-odob qoidalariga amal qilishi lozimdir.

Ijtimoiy muhitning buyuk insonlar shakllanishidagi o'rni muhim bo'lib, Alisher Navoiy-shoir, Eynshteyn-fizik, Ulug'bek-astronom, Ibn Sino-tabib bo'lib tug'ilmagan, albatta. Ulardagi qobiliyat kurtaklarining rivojlanishi, iste'dodga aylanishida ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya muhim rol o'ynagan. Davlatimizning barkamol inson tarbiyalash borasidagi siyosatiga ham shaxs shakllanishida muhitning o'rni muhimligini ko'rsatadi (10-rasm).

Ta'lim-tarbiya insonning shakllanishida yetakchi rolni o'ynaydi, ta'lim-tarbiya natijasida irsiyat va muhitning stixiyali ta'siri bera olmaydigan o'qish, yozish, mehnat, malaka va ko'nikmalar egal-

[1] Pedagogika. O'quv qo'llanma. A.Munavvarov tahririda. – T., "O'qituvchi", 1996, 29-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

lanishi, hatto tug'ma kamchiliklar ham ma'lum tomonga o'zgartirilishi (kar, ko'r, soqovlarni o'qitish), muhit ta'sirida yuzaga kelgan salbiy kamchiliklarni ham tugatish mumkin (11-rasm).



10-rasm. Shaxs rivojida muhitning o'rni.



11-rasm. Shaxs rivojida ta'lim-tarbiyaning o'rni.

Hozirgi kunda yurtimizda qobiliyatli, iste'dodli va iqtidorli bolalarga aloqida e'tibor berilayotganligi, bu yoshlar O'zbekistonimiz kelajagi deb aytilayotganligi ham bejiz emas. «Nihol» sovrini, Zul-

www.ziyouz.com kutubxonasi

fiya mukofoti, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy nomidagi va Prezident stipendiyalarining joriy etilishi ham yoshlarga berilayotgan e'tiborning namoyon bo'lishidir.

Shaxsning rivojlanishida «faoliyat», «faollik» tushunchalarining o'rni beqiyos.

Buyuk insonlar o'z sohalarida yuksaklikka erishish uchun tinmay mehnat qilganlar. Inson o'z intilishi va faolligi bilan yuksak cho'qqilarga, ko'p narsalarga erishishi mumkin, qobiliyat va iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun ham o'z ustida ishlashi zarurdir.

«Inson faolligi «Harakat», «faoliyat», «xulq» tushunchalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shaxs va uning ongi masalasiga borib taqaladi»[1]. Bola aynan turli faolliklar yordamida shakllanadi, o'zligini namoyon qiladi (12-rasm). Demak, o'quvchi faoliyati passiv jarayon bo'lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Ya'ni faoliyat-o'quvchi ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan hamda tashqi olamni va o'z-o'zini o'zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o'ziga xos faollik shaklidir. Bu - o'quvchining darslarda real predmetlar mohiyatini o'z tasavvuri doirasida, muayyan yechim orqali bilishga, yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan, faoliyatdir.



12-rasm. Shaxs rivojida faoliyatning o'rni.

[1] V. Karimova. Psixologiya. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002, 97-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

O'quvchining aqliy harakatlari-shaxsning ongli tarzda, ichki psixologik mexanizmlar vositasida amalga oshiradigan turli-tuman harakatlaridir. Eksperimental tarzda shu narsa isbot qilinganki, bunday harakatlar doimo motor harakatlarni ham o'z ichiga oladi. O'quvchi harakatlari quyidagi ko'rinishda bo'lishi kuzatiladi:

- perzeptiv - bunda o'quvchi ongida predmetlar va hodisalar to'grisidagi yaxlit obraz shakllanadi;

- mnemik faoliyat - narsa va hodisalarning moqiyati va mazmuniga aloqador materialning eslab qolinishi, esga tushirilishi va bog'liq murakkab faoliyat turi;

- imajitiv faoliyat - («imaje» - «obraz») - ijodiy jarayonlarda xayol va fantaziya vositasida ongda berilmagan narsalarning xususiyatlarini anglash va xayolda taklashni taqozo etadi.

O'qitish jarayonida tashqi faoliyat asosida psixik jarayonlarga o'tish yuz bergan bo'lsa, bunday jarayon psixologiyada interiorizatsiya deb nomlanadi, aksincha, aqlda shakllangan g'oyalarni bevosita tashqi harakatlarda yoki tashqi faoliyatga ko'chirilishi eksteriorizatsiya deb yuritiladi.

Faoliyat turlari ongning bevosita ishtiroki darajasiga ko'ra ham farqlanadi. Ayrim harakatlar boshida har bir elementni jiddiy ravishda, alohida-alohida bajarishni va bunga butun diqqat-e'tiborni, ongning yunalishini talab etadi. Lekin vaqt o'tgach, ongning ishtiroki kamayib, ko'pgina qismlar avtomatlashib boradi.

Ulug' olim, mutafakkir Abu Nasir Forobiy shaxs kamolotida faoliyatning muhim o'rnini alohida qayd etib, uning turlarini bir necha bo'g'inlarga bo'ladi va amalga oshirish usullari, vaqt va fazoviy ta'rifi, fiziologik mexanizmlari to'grisidagigi g'oyani ilgari suradi.

Ta'lim oluvchilarning shaxsiy-xarakterologik sifatlarini aniqlashning, hech bo'lmaganda oddiy metodikasini egallash, uni tatbiq etish, kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning muhim unsurlaridan biridir. Oliy va o'rta maxsus o'quv maskanlari o'qituvchilari ko'pincha o'quvchi-yoshlarning aqliy qobiliyatlarini o'rganishga e'tibor qaratadilar, ammo ularning tarbiyalanganlik darajalarini (keng ma'noda) va xulqiy nuqsonlarini korreksiyalash muammolarining uzluksiz ta'lim tizimida yagona uzviylik va yaxlitlik nuqtai nazaridan talqin qilishga, uning yechimlarini topishga urinishmaydi. O'quvchilar va talabalarning aqliy rivojlanishlari ko'p jihatdan mustaqil fikrlashga, umumiy tarbiyalanganlik darajasiga bog'liq. Ularning tarbiyalan-

www.ziyouz.com kutubxonasi

ganlik darajasini diagnostika qilish, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish xususiyatlarini o'rganish, zarur bo'lsa xulqiy nuqsonlarini bartaraf etish hozirgi davrning muhim talablaridan biridir.

Mavzu yuzasidan savollar va topshiriqlar

1. Shaxs va individ bir-biridan nimalar bilan farq qiladi?
2. Rivojlanish deganda nimani tushunasiz?
3. Shaxs rivojlanishida biologik omilning o'rnini qanday tushunasiz?
4. Shaxs shakllanishida ijtimoiy muhitning ahamiyatini ko'rsatuvchi misollar keltira olasizmi?
5. Shaxs rivojlanishida ta'lim va tabiya qanday o'rin tutadi?
6. Shaxsning rivojlanishi uning faolligi bilan bog'liqmi?

Quyidagi pedagogik vaziyatli masalalarni o'qing, unga javob bering va javobingizni izohlang.

1-masala. Bir ayol shunday fikr bildiradi: «Bizning oilamizda har xil ixtisosdagi kishilar bor. Turmush o'rtog'im-muhandis, men-muxbir, otam-hisobchi, onam-tikuvchi. Ishonamanki, qizim har tomonlama rivojlangan odam bo'lib yetishadi.

Ayol haqmi? Uning fikrini bola rivojlanishi qonunlari nuqtai nazaridan tanqidiy tahlil qiling.

2-masala. Ona shunday deydi: «Men bolaning rivojlanishi uchun unga u ishlata oladigan turli buyumlarni berish kerak, deb eshitgan edim. Shu sababli, uch yashar o'g'limning stol ustidan, shkafdan turli narsalarni olishiga ruxsat beraman. Unga tez-tez yangi o'yinchoqlar sotib olaman. Lekin u ko'p o'tmay bu buyumlarni har yoqqa otib tashlaydi va xonada kaltak ko'tarib chopib yurishni hamma narsadan yaxshi ko'radi. Men o'g'limning bu borishida yaxshi rivojlanishiga ishonmayman. Nimada xato qilayotganimni bilmayman.

Onaning xatosini va bolani rivojlantirish uchun turli buyumlardan qanday foydalanish kerakligini uqtiring.

3. «Ma'rifatli va ma'naviyatli insonning asosiy fazilatlari», «Shaxsning kamol topishida mustaqillikning ma'naviy zaminlari», «Tarbiya va rivojlanishning o'zaro bog'liqligi» mavzularidan biriga esse yozing.

www.ziyouz.com kutubxonasi

1-Topshiriq[1]

Quyidagi qaysi sifatlovchi belgilar insonni shaxs va individ sifatida tavsiflaydi. To'g'ri javoblarni o'ngdagi ustunga o'tkazing. Tanlovingizni izohlab bering.

Asosiy ruyxat	Individ	Shaxs
* Vijdonlillik		
* qat'iylik		
* subutsizlik		
* chaqqonlik		
* vatanparvarlik		
* faoliyatdagi tezkorlik		
* talabchanlik		
* vazminlik		
* kuzatuvchanlik		
*Harakatdagi shiddatlilik		
*saxovatlilik		
*kirishimlilik		
*milliy g'urur		
*ozodalik		
*qalollik		
*qo'rqoqlik		
*tanballik		
*tashabbuskorlik		
*faollik		
*yovuzlik		
*kamtarlik		
*farosatlilik		
*jizzakilik		
*quvnoqlik		
*xushmuomalalik		
*axloqsizlik		

[1] Sh.A. Abdullayeva. Masofaviy o'qitish va didaktik ta'minot // Pedagogik mahorat, 2003, 31–36-betlar.

www.ziyouz.com kutubxonasi

2-topshiriq: «Siz o'z-o'zingizni to'g'ri baholay olasizmi?» mavzusida laboratoriya ishini bajaring.

Maqsad: Inson xarakteri, xulq-atvori, shaxsiy sifatlovchi belgilariga to'g'ri, oqilona, adekvat yondashishga o'rgatish.

Buni tekshirib ko'rish uchun, 1-dan, quyida keltirilgan («Asosiy ro'yxat» deb nomlanmish) belgilar orqali uch guruqdan iborat ro'yxat tuzib oling. Birinchi guruqdagi ro'yxatni «Ideal», ikkinchisini «Men», uchinchisini esa «Men odamlar nigohida» deb nomlang; 2-dan, daftarda abcissa va ordinata o'qidan iborat grafik tuzing. Bunda absissa o'qida sifatlovchi belgilar yotishini («asosiy ro'yxat»dagi nomlar bo'yicha), ordinata o'qi esa sifatlovchi belgilarning ro'yxatdagi o'rnini ko'rsatishini unutmang. Masalan, berilgan asosiy ro'yxat bo'yicha *talabchanlik* sifati 10 o'rinda belgilangan.

Siz 1 guruqning «Ideal» ro'yxatini tuzar ekansiz, idealingiz uchun talabchanlik nechanchi o'rinda ekanligini aniqlab, ordinata o'qida joylashtirasiz; 2-chi ro'yxat «Men»ni tuzayotganda esa, endi ehtimol *talabchanlikni* aynan o'zingiz uchun nechanchi o'rinda ekanligini aniqlaysiz, ya'ni siz qay darajada talabchansiz. (2,5 va h.k.)

Ro'yxatdagi barcha nuqtalarni ordinata o'qi bo'yicha belgilab chiqqaningizdan so'ng (uchala ro'yxat asosida), nuqtalarni tutashtirib, egri chiziq yasaysiz. Uchinchi ro'yxat ham ordinata o'qida shu asnoda tuziladi.

Yasalgan uchala chiziqlarning o'rtasidagi farqni yaxshilab o'rganib chiqing va tegishli xulosalar chiqaring.

Masalan, «Ideal» va «Men» nomli ro'yxatlar bo'yicha belgilangan nuqtalar orasidagi farqning juda keskin bo'lishi shaxsning o'zini-o'zi baholashda o'ta tanqidiy yondashganligidan dalolat beradi va aksincha, «ideal» va «men» orasidagi tafovutning deyarli sezilmasligi esa shaxs o'ziga ortiqcha baho berganligidan dalolat beradi.

Shaxsning ayrim sifatlarini belgilovchi tushunchalar ro'yxati:

1. Qaqqoniylik
2. Vatanparvarlik
3. Olijanoblik
4. Tashabbuskorlik
14. Faollik
15. Milliy g'urur
16. Kechirimlilik
17. Saxovatlilik

www.ziyouz.com kutubxonasi

5. O'ziga o'zi tanqidiy yondashish
6. Samimiylik
7. Xushmuomalalik
8.Pokizalik
9.Qat'iyatlilik
10.Talabchanlik
11.Insoparvarlik
12.Sabr-toqatlilik
13. Kamtarlik
18.Poklik
19.Iymonlilik
20.Halollik
21.His-tuyg'uga beriluvchanlik
22.Donolik
23.Intizomlilik (ro'yxat bo'yicha tuziladi).

13-rasm. Shaxsni baholashda sifatlovchi belgilar bo'yicha tuziladigan grafik.

«Ideal», «Men», «Men» odamlar nigohida» ro'yxatlari bo'yicha yasalgan egri chiziqlarni turli rangli siyoqlarda bajargan ma'qul.

- Bu ish jarayonida qanday xulosaga keldingiz?
- Shaxs faoliyatida ***vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy g'ururi, tashabbuskorlik***ning roli qanday deb o'ylaysiz?

O'z xulosalaringizni daftarga qayd eting.

Mushoqada yuriting, testlarni eching:

1.Bola rivojlanishiga doir o'zgarishlarni, yosh davrlariga xos xususiyatlarni bilish va hisobga olish nima uchun kerak

A) Bolalarning rivojlanib borayotganligini aniqlash uchun.

V) Bolalarning jismoniy jihatdan o'sib borishini aniqlash uchun.

S) Bolalarning ruxiy jihatdan rivojlanishini aniqlash uchun.

D) Bolalarni to'g'ri tarbiyalash, samarali o'qitish uchun.

www.ziyouz.com kutubxonasi

2.Qanday xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi?

A) Ma'lum bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik va ruhiy xususiyatlar.

V) Maktab yoshidagi bolalarga xos bo'lgan xususiyatlar.

S) Katta insonlarga xos bo'lgan xususiyatlar.

D) O'quvchilarga xos bo'lgan axloqiy sifatlar.

3. Necha yoshdan e'tiboran yasli davri hisoblanadi?

A) Tug'ilgandan 2 yoshgacha.

V) 1 yoshdan 3 yoshgacha.

S) 1 yoshdan 5 yoshgacha.

D) 1 yoshdan 6 yoshgacha.

4. Maktabgacha tarbiya yoshini aniqlang?

A) 1 yoshdan 7 yoshgacha.

V) 2 yoshdan 5 yoshgacha.

S) 3 yoshdan 6-7 yoshgacha.

D) 6 yoshdan 7 yoshgacha.

5. Necha yoshdagilar o'smirlar deb nomlanadi?

A) 11 yoshdan 12 yoshgacha.

V) 12 yoshdan 18 yoshgacha.

S) 12 yoshdan 15-16 yoshgacha.

D) 16 yoshdan katta bolalarni.

6. O'spirinlik necha yosh bilan belgilanadi?

A) 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgandavr.

V) 12 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgandavr.

S) 15-16 yosh.

D) 12-18 yosh.

7. Necha yoshda bolalar ona tilining deyarli barcha jiqatlarini egallagan bo'ladilar?

A) 2 yoshda.

V) 3 yoshda.

S) 5 yoshda.

D) 7 yoshda.

8. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar jismoniy jihatdan qanday o'sadi, bo'yi va og'irligi o'rtacha qanday bo'ladi?

www.ziyouz.com kutubxonasi

A) tez o'sadi, bo'yi 110 sm, og'irligi 20 kg bo'ladi.
V) betartib o'sadi, bo'yi 115 sm, og'irligi 20 kg bo'ladi.
S) tekis o'sadi, bo'yi 120 sm, og'irligi 25 kg bo'ladi.
D) tartibli o'sadi, bo'yi 140 sm, og'irligi 25 kg bo'ladi.



13-rasm.

9. O'smirlik davri yana qanday nomlanadi?
A) balog'atga etish davri.
V) kichik maktab davri.
S) sezgining o'sish davri.
D) qizlarning o'sish davri.

10. Bolalarda jinsiy yetilish davri, erkaklik va ayollik tashqi belgilari qaysi davrda paydo bo'la boshlaydi?
A) kichik o'quvchilik davrida.
V) o'smirlikda.
S) o'spirinlikda.
D) maktabgacha davrda.

www.ziyouz.com kutubxonasi

11. Do'stlik va birodarlik hislari, sirdosh do'st topish istagi qaysi davrda kuchli bo'ladi?

A) maktabgacha davrda.
V) kichik maktab davrida.
S) o'smirlarda.
D) o'spirinlarda.

12. Qaysi davrda tasavvur va tafakkur doirasi deyarli nihoyasiga etgan va ijtimoiy hayotning biror soqasiga yo'naltirilgan bo'ladi?

A) kichik maktab davrida.
V) maktabgacha davrda.
S) o'smirlikda.
D) o'spirinlikda.

13. O'spirinlik faoliyatining asosiy turi nima bo'ladi?

A) o'yin va o'qish.
V) o'qish va mehnat.
S) o'yin.
D) mehnat.

14. O'z-o'ziga baho berish qaysi davrda kuchayadi?

A) kichik o'quvchilik davrida.
V) maktabgacha tarbiya davrida.
S) o'smirlik davrida.
D) o'spirinlik davrida.

Axborot manbalari

1. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T., 1998.

2. Зимняя И.А. Педагогическая психология. М., «Логос», 2002.132-186-стр.

3. Pedagogika. A. Munavvarov tahriri ostida. - T., 1996.

4. Nasriddinov I., Abdullaeva Sh., Masofaviy O'qitish va didaktik ta'minot // «Pedagogik mahorat». 2003, 2-son, 31-36-betlar.

5. Petrovskiy A.V. va boshqalar. Umumiy psixologiya. T., 1994.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent, «Sharq», 1997, 3-17-b.

2. Karimov I.A. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar. – T., «O'zbekiston», 2000.

3. O'zbekiston Respublikasining kadrlar tayyorlash milliy dasturi.- Toshkent, 1997.

4. G'oziyev. E. Psixologiya. - T., «O'qituvchi», 1996 y. 16-30-b.

5. Дейл Карнеги. Как завоевать друзей и как оказывать влияние на людей. - Ташкент.: Шарк, 1999, 56-67-стр.

6. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. Toshkent, «Sharq», 2004.-326-b.

7. Леонтьев А.А. Педагогисческое общение - М.: Знание, 1999, 14-28-стр.

8. Пиаже Ж. Развитие ребёнка. -М.: Педагогика, 2000, 32-39-стр.

www.ziyouz.com kutubxonasi

5-MAVZU: ILMIY-PEDAGOGIK TADQIQOT METODLARI PEDAGOGIK JARAYON VA MUTAXASSISLIK

Aniq izlanish predmetiga ega bo'lgan pedagogika fani ham o'zga fanlar singari o'z mohiyatini yoritish va materiallar to'plash uchun maxsus uslublar va vositalardan foydalanadi. Ular fanning metodlari deb yuritiladi.

Fanning saloqiyati va nufuzi, avvalambor, mazkur metodlar yordamida to'plangan ma'lumotlarning obyektivligi va ishonchliligiga bog'liq bo'ladi.

Metod (lotincha «metodos»-«yo'l») tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida **"metod"** so'zi keng ma'noda muayyan maqsadga erishish yo'lini, tor ma'noda tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari hamda qonuniyatlarini bilish maqsadida qandaydir vazifani hal etish usulini bildiradi.

Pedagogikada shunday maxsus metodlar mavjudki, ular yordamida ta'lim-tarbiya jarayoniga oid muhim faktlar, turli pedagogik vaziyatlar mohiyatlari, mexanizmlari, xususiyatlari o'rganiladi.

Pedagogik tadqiqot bosqichlari quyidagilardan iborat: ma'lumotlarni yig'ish, xulosalarni jamlash, tadqiqot bo'yicha miqdoriy tahlil o'rtacha miqdoriy raqamlarni aniqlash, korrelyatsiya koeffitsiyenti grafiklarini tuzish, xulosalarning to'g'riligini ta'minlovchi ma'lumotlarni yig'ish: (buning uchun turli xil metodlar qo'llaniladi), ta'lim-tarbiya jarayoniga oid ishchi farazni ilgari surish, uni nazariy va amaliy jihatdan sinovdan o'tkazish maxsus metodikasini ishlab chiqarish va boshqalar.

Obyektiv dunyoni bilish, nazariyada nimani 'rganish va o'rgatish kerak, kimni va qanday tarbiyalash lozim degan masalalar mavjud bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'liqdir.

Pedagogika fani o'z mazmun mohiyatini boyitishda, yangilashda mavjud pedagogik hodisa va nazariyalarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan uslublari bilan o'rganadi. Ushbu ilmning ilmiy tadqiqot uslublari deganda yosh avlodni tarbiyalash, bilimli qilish va o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lgan ichki

www.ziyouz.com kutubxonasi

aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish yo'llari, usullari va vositalari majmui tushuniladi.

<table>
<tr><th colspan="4">Asosiylari</th></tr>
<tr><th colspan="2">Kuzatish</th><th colspan="2">Tajriba</th></tr>
<tr><td colspan="2">Ilmiy pedagogik tadqiqot metodi bo'lib, pedagogik voqea va hodisalarni ilmiy asoslashga tayanadi.</td><td colspan="2">Ta'lim tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbiqi jarayonlarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.</td></tr>
<tr><td>Oddiy kuzatish:</td><td>Ilmiy pedagogik tadqiqot:</td><td>Laboratoriya o'tkaziladigan tajriba:</td><td>Tabiiy holatda o'tkaziladigan tajriba:</td></tr>
<tr><td rowspan="3">Hayotiy voqea qodisalarni tahlil qilish bilan cheklanadi</td><td rowspan="3">Pedagogik voqea-hodisaning ichki qonuniyatlarini, mohiyatini ilmiy asoslab beradi, maxsus kuzatish natijalari qayd etib boriladi.</td><td rowspan="2">Maxsus ajratilgan xonalarda, didaktik vositalar yordamida o'tkaziladi.</td><td rowspan="2">Shaxs rivojlanishining turli bosqichlarida o'tkaziladi.</td></tr>
<tr><td colspan="2">Tahliliy</td></tr>
<tr><td>Shaxs faoliyatining ayrim jihatlari o'rganiladi.</td><td>Shakllantiruvchi ta'limiy tarbiyaviy</td></tr>
<tr><td>Yordamchi</td><td colspan="3"></td></tr>
<tr><td>Faoliyat turiga qarab o'tkaziladigan tajriba irsiy belgilarga tayanib o'tkaziladigan tajriba</td><td colspan="3">• Anketa tarqatish
• Sotsiometriya
• Modellashtirish</td></tr>
</table>

Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari qanchalik to'g'ri tanlansa ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanadi, pedagogika fani ham boyib boradi.

Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari:

Kuzatish metodi ta'lim-tarbiya jarayonlarining amaldagi holati bilan tanishtiradi, ularning oqibat natijalarini bilishga yordam beradi va shu asnoda yaratilgan yangi kashfiyotlar uchun dalillar, omillar yig'ish imkonini tug'diradi. Bu usul ancha murakkab bo'lib, nazarda tutilgan maqsad qanday amalga oshayotganligini aniqlash, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro aloqalari, individual farqlarini qiyoslash uchun ham qo'llaniladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Tabiiy kuzatish orqali o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muammolaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi.

Ilmiy kuzatishlar esa nafaqat o'quvchilarning tabiiy faoliyatini balki ularning ilmiy dunyoqarashlari shakllanishi, fikrlash jarayoni kuchi, xulosalar chiqarishdagi faolliklarini aniqlaydi, ularni tahlil etadi. Bunday kuzatishlar oqibat natijada pedagogika fani mazmunini boyishiga sabab bo'ladi.

Pedagogik tadqiqotda suhbat metodining o'rni ta'lim -tarbiya jarayonini yaxshilash yoki yaratilgan ilmiy farazlarning qanchalik to'g'ri ekanligini aniqlash maqsadida suhbat usulidan foydalaniladi. Odatda, suhbat usuli maktab o'qituvchilari va o'quvchilar jamoasi bilan, ota-ona va keng jamoatchilik bilan yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo'llaniladi. Bunda suqbat usulini tatbiq etishdan oldin reja tuziladi, uni amalga oshirish yo'llari belgilanadi, natijalar tahlil qilinadi va tegishli xulosaga kelinadi.

Bolalar ijodini o'rganish bolalar ijodini o'rganishda maktab o'quvchilarining o'ziga xos individual tartibdagi faoliyatlariga doir omillar tahlil qilinadi, muayyan xulosalarga kelinadi. Bunda o'quvchilarning turli yozma daftarlari, tutgan kundaliklari, yozgan xatlari, she'r va hikoyalari, hayotiy rejalari, insholari, turli yozma hisobotlari ularning dunyoqarashi va ma'naviyatini o'rganish uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Bu uslub orqali o'quvchilar orasidan yetishib chihayotgan iste'dodli, iqtidorli yoshlar aniqlanib, ular bilan alohida ish olib boriladi. Bolalar ijodini quyidagi jarayonlarda ham aniqlash mumkin: fan olimpiadalari, mavzular bo'yicha konkurslar; maktablar bo'yicha ko'rgazmalar; musobaqalar; sayohatlar va boshqalar.

Ilmiy tadqiqotda test, so'rovnomalar uslubi yetakchi bo'lib sanaladi. So'rovnoma - anketa metodi qo'llanilganda yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, o'quvchilarning yakka yoki guruhli fikrlarini, qarashlarini, qanday kasblarga qiziqishlarini, kelajak orzu-istaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi.

Test sinovlarini o'tkazishdan maqsad kam vaqt orasida o'quvchilarning bilimlarini yoppasiga aniqlash va baholashdir. Test savollarining o'rni va ularning mazmunan rang-barang qilib tuzili-

www.ziyouz.com kutubxonasi

shi, o'quvchilarning mustaqil fikrlarini o'stiradi, kelajakni real baholash qobiliyatini taraqqiy ettiradi.

Maktab hujjatlarini tahlil qilish. Bu uslub orqali o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasi ularning pedagogik faoliyati haqida aniq ma'lumotlar olinadi. Maktab hujjatlari deyilganda, o'qituvchi va o'quvchilarning soni, o'quvchilarning shaxsiy hujjatlari, sinf jurnallari, kundalik daftarlari, buyruq daftarlari, pedagoglar kengashining qarorlari daftari, maktabning rejadagi pul hisobi va uning sarflanishiga doir hujjatlar, turli inventarlar daftari va boshqalar tushuniladi.

Eksperiment - tajriba-sinov uslubi «eksperiment» so'zi lotincha «sinab ko'rish», «tajriba qilib ko'rish» ma'nosini anglatadi. Eksperimental tajriba ishlari, asosan ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tatbig'i jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Eksperiment uslubi sharoitga qarab 3 xilda o'tkaziladi:

1. Tabiiy eksperiment.
2. Laboratoriya eksperimenti.
3. Amaliy tajriba.

Statistika ma'lumotlarini tahlil qilish pedagogik tadqiqot statistika ma'lumotlarisiz, ularning tahlilisiz o'zligini namoyon etolmaydi. Nafaqat ilmiy izlanishlar borasidagi, balki xalq ta'limi sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag'larning oshirilishi, xalq ta'limi muassasalarining o'sib borishi, darslik va o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurollar, o'qituvchi kadrlar tayyorlash, maktab qurilishi, xo'jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag'lar statistika usuli orqali aniqlanadi. Statistik omil aniq, hayotiy bo'lsa bajarilayotgan ta'lim-tarbiya yoki ilmiy tadqiqotning qimmati yuqori bo'ladi.

Pedagogik tadqiqotda matematika va kibernetika uslubi «Kibernetika» so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, «rolni bajaraman», «idora etaman» degan ma'nolarni anglatadi. Kibernetika ishlab chiqarishni, texnikani, tirik organizmlarni, kishilik faoliyatini boshqarishning umumiy qoidalarini va vositalarini ishlab chiqadi. Uning mazmuni axborot berish, dasturlashtirish, algoritmlar, boshqaruvchi tizim, model yasash singari asosiy nazariyalarda o'zligini namoyon etadi. Mazkur usuldan bugungi kunda pedagogikada ham keng foydalanilmoqda.

www.ziyouz.com kutubxonasi

O'qitish nazariyasi, amaliyotida hisoblash matematikasi va kibernetika mashinalari yordamida bir tildan ikkinchisiga tarjima qilish, dasturli ta'lim va uni mashina orqali boshqarish, o'qitishni mustahkamlash, baholash orqali ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, differensial va individual ta'lim berish, maktab hisobotini mashinalar yordamida tuzish kabi jarayonlar bajarilmoqda.

Demak, pedagogika fani o'z mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan usullari bilan o'rganadi.

Ilmiy-pedagogika tadqiqotlarning tarkibi, unga ilmiy izlanishlarning u yoki bu elementini kiritish bilan bog'liq ravishda har xil o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Bizningcha, ilmiy-pedagogik tadqiqotlar tarkibini bir muncha umumlashgan ko'rinishda tasvirlash mumkin. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar to'rtta yirik blokdan iborat:

1-blok-tayyorgarlik ishlari.

2-blok tadqiqotni o'tkazish.

3-blok-tadqiqotga yakun yasash.

4-blok-tadqiqot natijalarini baholash.

Tayyorgarlik ishlari jarayoni (1-blok) - birinchi boskichda ta'limning jamiyat ehtiyojlari maydonga tashlagan rivojlanish yo'llari o'rganiladi va ilmiy-pedagogik tadqiqot muammosi qo'yiladi (ifoda etiladi).

Bu bosqichda muammoning ishlanganlik darajasi ko'rsatiladi, uning ta'lim tizimi yoki pedagogika nazariyasining muhim muammolarini ishlab chiqish uchun zarurligi asoslab beriladi. Tadqiqotchi mazkur muammo bo'yicha bilimlarni jamiyat ehtiyojlari uchun naqa-dar zarur ekanligini yakkol anglab ytishi kyrak. Dastlabki ma'lumotlar bilan qo'shni fan sohalarida qanchalik darajada hal qilinganligini ham nazarda tutishi kerak. Ilmiy-pedagogik tadqiqotning bu bosqichidagi eng muhim masala bu mavzu qirralari muammolarini aniqlab olishdir, chunki busiz ilmiy ishning keyingi bosqichiga o'tish mushkul.

Tayyorgarlik ishlaridagi ikkinchi bosqich — bu mavzu tanlash va uning dolzarbligini ilmiy jihatdan asoslashdir. Mavzu bilan muammoning bevosita bog'liqligi pedagogika fani metodologiyasida eng muhim masalalardan biri sanaladi. Mavzuga nisbatan «yo'nalish» tushunchasi ancha umumiy, chunki u bir xil mavzularni bog'lovchi bo'lib hisoblanadi. Bunday holatda muammoni mavzuning mazmun jihatdan tavsifi sifatida qarash lozimga o'xshaydi, chunki

www.ziyouz.com kutubxonasi

unda pedagogik faoliyatning qandaydir bir qismining muammoli vaziyati aks etadi.

Tayyorgarlik ishlarining keyingi bosqichida tadqiqot obyekti aniqlanadi, uning maqsad va vazifalari ifoda qilinadi, shuningdek, ishchi gipoteza (ilmiy faraz) ishlab chiqiladi.

Tadqiqot ob'yektini aniqlayotib, nima qaralayotir, degan savolga javob berish lozim. Tadqiqot predmyti esa ilmiy-tekshirish qirrasini belgilaydi, obyekt qanday qaralishi haqida tasavvur hosil qiladi.

Tadqiqot maqsadlari pedagogik jarayonning qandaydir bo'g'inida yangilikka erishish sifatida gavdalanadi.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar olib borishga tayyorgarlik ishlarining navbatdagi bosqichida ishchi reja-prospekt tuziladi.

Odatda, reja-prospekt o'z ichiga quyidagilarni qamrab olishi kerak:

1. Kirish. Muammoning qo'yilishi. Mavzuning dolzarbligini asoslash.

2. Tadqiqot muammosi, uning maqsadi, tadqiqot gipotezasi, obyekt, predmet, tadqiqot masalalari (vaziflari).

3. Tadqiqotning taxminiy tarkibi (rejasi). Boblar va paragraflarning nomlari.

4. Tadqiqotda ko'zda tutilgan mazmun.

5. Tadqiqot metodikasi. Ish jarayonida tadqiqotning qanday metodlari va shakllari (umumiy va maxsus, ya'ni pedagogika va boshqa fanlardan o'zlashtirib olingan) qo'llanilishi asoslab beriladi.

6. Tajriba (eksperement)ga doir materiallar, eksperiment olib borish uchun hujjatlar ko'rsatiladi.

Tadqiqot o'tkazish (2-blok) quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

tanlangan muammo bo'yicha materiallar to'planadi va ular o'rganiladi;

- eksperimental materiallarni ishlab chiqish va ularni dastlabki tekshiruvdan o'tkazish;

pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ularga tuzatishlar kiritish;

- eksperiment o'tkazish, uning natijalarini maydonga tashlangan ilmiy farazga mosligini aniqlash.

Birinchi bosqichda tadqiqotchi muammoning nazariya va amaliyotidagi ishlanganlik holatini tahlil qilish kerak. Tadqiqot ishlariga

www.ziyouz.com kutubxonasi

kirishayotib, tadqiqotchi shu yo'nalish bo'yicha avvalgi tadqiqotchilar qanday ishlar qilganliklarini aniqlashi, bunda ma'lumni noma'lumdan ajrata olishi kerak. Masalaning holati nazariyada qanday ekanligini tahlil qilmasdan turib to'laqonli tadqiqot o'tkazish mumkin emas.

Muammoning nazariyadagi ishlanganlik darajasi, odatda, tadqiqotning kirish qismida va qolgan qismlarda aks ettiriladi.

Tadqiqot olib borishning navbatdagi bosqichida eksperimental materiallar ishlab chiqish va ularni tekshirib ko'rish amalga oshiriladi. Maydonga tashlangan farazni tekshirish maqsadida tadqiqotchi tomonidan sinov, yoki tekshiruv, yoki oydinlashtiruvchi eksperiment tashkil qilinadi. Bunda eksperimental ishlar metodikasining o'zini puxta ishlab chiqish zarur, tadqiq etilayotgan muammo bo'yicha kerakli eksperimental materaillarni tanlash lozim. Barcha eksperimental materiallar amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini tekshirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Dastlabki tekshiruvlarga yakun yasashda reja va ishchi gipotezaga tuzatishlar kiritish kerak, bu esa ilmiy-pedagogik tadqiqotlar ustida olib boriladigan keyingi ishlar samaradorligiga ham yordam beradi. Dastlabki eksperimental tekshiruvlar ilmiy-tadqiqotlar olib borishning navbatdagi bosqichida zarur pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ularga tuzatishlar kiritishga imkon beradi.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar tarkibi ikkinchi blokining so'nggi bosqichi eksperimental ishlar olib borishni nazarda tutadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ishlab chiqilgan materiallarni eksperimental tekshiruv;
- materiallarni har xil vaziyatlarda sinovdan yoki muhokamadan o'tkazib ma'qullash;
- tadqiqot natijalarini muhokama qilish;
- tadqiqot ishlari materiallarini matbuotda chop etish.

Ilmiy-pedagogik eksperiment ilmiy farazlarni, gipotezani tekshirib ko'rishni o'zida gavdalantiradi.

Ilmiy-pedagogik tadqiqot tarkibining uchinchi bloki tadqiqotga yakun yasash bo'lib, u ikki asosiy bosqichdan tuzilgan:

- tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish;
- tadqiqot ntijalarini amaliyotga tatbiq etish.

Tadqiqot natijalari, odatda, xulosalar va xotimada qayd qilinadi. Ayni mana shu tadqiqotning qaymohi, mag'zi hisoblanadi. Shu bilan birga shuni e'tiborda tutish kerakki, tadqiqotga yakun yasash

www.ziyouz.com kutubxonasi

qo'lga kiritilgan natijalarni umumlashgan variantda gavdalanadigan ilmiy ish ko'rinishida rasmiylashtirishni nazarda tutadi. Bunda tadqiqotchi qo'lga kiritilgan tadqiqot natijalarini keng ilmiy jamoatchilikka aniq va mantiqan yuqori saviyada bayon qilishga intilishi kerak.

Olib borilgan tadqiqot natijalari amaliyotga ikki usul (yo'l) bilan tatbiq etiladi:

bevosita, ya'ni olingan natijalar to'g'ridan-to'g'ri iste'molchilarga tavsiya etiladi;

- bilvosita, ya'ni olingan natijalar nazariyaga kiritiladi va u nazariyani boyitgan holda u bilan birga tarkibiy qism sifatida amaliyotga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Real hayotda, odatda, tadqiqot natijalari amaliyoti har ikkala yo'l bilan o'zaro aloqada tatbiq etiladi.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar tarkibining so'nggi, to'rtinchi bloki tadqiqot natijalarini baholashni nazarda tutadi va o'z ichiga tadqiqot samaradorligi mezonlarini ishlab chiqish hamda o'rganilayotgan muammo bo'yicha yangi yo'nalishlarni aniqlashni ko'zda tutadi.

Fundamental tadqiqotlar samaradorligining yetakchi mezonlaridan biri-tadqiqotning nazariy ahamiyatidir. Fundamental pedagogik tadqiqotning bosh mezoni, eng avvalo, uning natijalarini nazariyani rivojlantirishga, uning ichki mantiqiga ta'siridir.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar samaradorligining, ikkinchi, yana bir muhim mezoni - bu uning yangiligidir.

Bu mezon tadqiqotning nazariy ahamiyati bilan mustahkam bog'langan.

Pedagogika sohasidagi tadqiqotlar samaradorligining navbatdagi mezoni deb ilmiy ishning konseptualligini, ya'ni tadqiqotchining nazariy va metodologik nuqtai-nazarini, o'rganilayotgan muammoning har tomonlama asoslab burilishini aytish mumkin. Tadqiqot konseptualligi ilmiy asoslanganlik bilan mustahkam aloqada bo'ladi. Bundan tashqari, tadqiqotning istiqboliligi, uning natijalarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari katta ahamiyat kasb etadi.

Tatbiqiy tusdagi tadqiqotlarni baholashda asosiy ko'rsatkichlar bo'lib ishning amaliy jihatdan ahamiyati va dolzarbligi hisoblanadi.

Tatbiqiy tusdagi tadqiqotlarni baholash uchun zamonaviy metodlardan unumli foydalanish kerak, shundagina olingan natijalarning ishonchlilik darajasi haqqoniy bo'ladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari qanchalik to'g'ri tanlansa, ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanadi, pedagogika fani ham boyib boradi. Shu sababli, pedagogik ilmiy-tadqiqot usullariga dogmatik yondashish mumkin emas. Ikkinchi tomondan, ilmiy tadqiqot usullari tizimi hali hozircha fanda to'la yaratilgan va ishlab chiqilgan emas.

MUSTAQIL ISH BOSQICHLARI

1-bosqich: Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini aks ettiruvchi chizmalar yaratishga harakat qiling va «eng namunaviy ko'rgazma» konkursida ishtirok eting.

2-bosqich: Internet tarmog'i orqali «Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari» mavzusida ma'lumot yig'ing va ularni tahlil qiling.

3-bosqich: Nazariy dalillarga asoslangan holda quyidagi savollarga yozma javob bering:

1. «Metod» so'zining mohiyatini qanday tushunasiz?
2. Pedagogikada qanday ilmiy tadqiqot metodlari qo'llaniladi?
3. Pedagogik kuzatish va suhbat uslublariga qanday talablar qo'yiladi?
4. Qanday yo'llar bilan bolalar ijodini o'rganish mumkinh.
5. Pedagogik tadqiqotda test va so'rovnomalarning o'rni qanday?
6. Pedagogik eksperimentlarning fan taraqqiyotiga ta'siri to'g'risida mushoqada qiling.
7. Ilmiy tadqiqot metodlariga ijodiy yondashuv deganda nimani tushunasiz?

Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. A. Barkamol avlod – O'zbekiston Taraqqiyotining poydevori. – Toshkent. «Sharq», 1997.
2. Karimov I.A. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar – Toshkent, «O'zbekiston», 2000.
3. Karimov I.A. Sog'lom avlod – xalqimiz kelajagi. «Xalq so'zi» gazetasi, 8 dekabr 1999.
4. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. - Toshkent, 1997.

www.ziyouz.com kutubxonasi

5. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. – Toshkent, 1997.
6. Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – Toshkent, «Fan», 2005. 25-31-b.
7. Abdullayeva Sh. A. O'quvchilarni pedagogik tashxislashda qo'llaniladigan metodlar // Xalq ta'limi, 2003 ,№3, 40–45-b.
8. Abdulloh Avloniy. Muxtasari tarixi anbiyo va tarixi islom. - T., «Fan», 1994. 293-b.
9. Клауер К. Педагогическое диагностирование. М.: Логос,1999, 421-стр.

www.ziyouz.com kutubxonasi

II BO‘LIM

TARBIYA NAZARIYASI

www.ziyouz.com kutubxonasi

6-MAVZU: TARBIYA JARAYONINING JAMIYAT TARAQQYOTIDAGI O'RNI. IJTIMOIY TARBIYANING MAQSADI, VAZIFALARI VA MAZMUNI

«Tarbiya biz uchun yo hayot,
yo mamot, yo najot, yo halokat,
yo saodat, yo falokat masalasidir»

Abdulla Avloniy

Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi.

Tarbiya jarayoni shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtiriladi va tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq ikki faoliyatni - o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o'quvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari va turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, iroda-viy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi. Tarbiya jarayonida o'quvchida jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlar hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga (ta'lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizi-mli va muntazam ta'sir etib boriladi. Tarbiyalash jarayonida bular-dan birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e'tibordan chetta qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi.

Islom madaniyatining tarkibiy qismi-tasavvuf (sufizm) falsa-fasida inson ma'naviyatining, ruhiyati o'ziga xos uslublar orqali aks ettirilgan. Hazrat Abu Hamid al-G'azzoliy, Attor, Ahmad Yassa-

www.ziyouz.com kutubxonasi

viy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubroning ta'lim-tarbiyaga, xulq axloqiga oid qarashlari, Abu Nasr Farobiyning «Fozil odamlar shahri», «Kitob al Musiqi al-Kabir», «Katta musiqa», «Ritmlar tartibi haqida», Beruniyning «Mas'ud qonuni», «Hindiston», «Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Saydona», «Axloq haqida risola»sidagi ma'naviy-ma'rifiy masalalar, Abu Ali ibn Sinoning «Tadbiri manozil», «Axloq haqida risola», «Donishnoma», «Salamon va Ibsol», «Xay ibn Yakzon», «Tib qonunlari», Alisher Navoiyning: «Makorim ul-axloq», («Mukarram xulqlar»), «Badoiy ul-bidoya», («Go'zallikning boshlanishi»), «Navodir un-Nihoya», («Nodirliklar nihoyasi»), «Xazoyin ul-Maoniy», («Ma'nolar xazinasi») asarlarida insonni tarbiyalash g'oyalari hozirgi zamon bilan hamohangdir.

Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon asarlaridagi ma'naviy-ma'rifiy qarashlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotganicha yo'q. Buyuk ma'rifatparvar ziyolilarning g'oyalari milliy g'oya va istiqlol mafkurasining teran tomirlari bo'lib qolaveradi.

Inson tarbiyasi va uning tarbiyalanganlik darajasi o'z davrining ilmiy-amaliy mezonlari bo'yicha tadqiq etishlik ko'p asrlik fan tarixiga ega. Insoniyatning yer yuziga kelishidan e'tiboran kishilar muayyan sotsiumning a'zosi tariqasida shaxslararo munosabatga kirishishi, muloqot o'rnatishi, muomala maromiga rioya qilishi lozim, deb belgilanishi tarbiyalanganlik o'lchovlarining vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Taraqqiyot, ijtimoiy ong, aql-zakovat, komfortga intilish hissi tarbiyalanganlikning ham harakatlantiruvchisi, ham mexanizmi, ham zarurat ekanligini ta'kidlovchi omil bo'lib xizmat qilgan va bundan keyin ham ko'p funksional vazifani ado etaveradi.

Tarbiyalanganlikning asosiy belgilari quyidagilardan iborat, deb hisoblaydi mutafakkir Alisher Navoiy:

- jahl chiqqanda o'zini bosa olish; har bir ishni qilganda «yetti o'lchab bir kesish», sir saqlay olish, mulohaza qilib, ayrim gaplarni ichga yutish;

- doimo ishonch bilan yashash va olg'a intilish; andisha chegarasidan chiqmagan holda dadil bo'lish;

bir ishni boshlagandan keyin uni oxiriga yetkazmay qo'ymaslik;

www.ziyouz.com kutubxonasi

- topgan-tutganini tejab-tergab sarflash va hokazolar.

Az-Zamaxshariyning fikricha, tarbiyalanganlikning o'nta nishonasi farqlanadi:

- birinchisi - xalq to'g'ri deb topgan narsani noto'g'ri deb qaramaslik;
- ikkinchisi - o'z nafsiga erk bermaslik;
- uchinchisi - birovdan ayb qidirmaslik;
- to'rtinchisi - yomonlikni yaxshilikka yo'yishlik;
- beshinchisi - agar gunohkor uzr surasa, uzrini qabul qilish;
- oltinchisi - muhojirlar hojatini chiqarish;
- yettinchisi - el g'amini yeish;
- sakkizinchisi - o'z aybini tan olish;
- to'qqizinchisi - el bilan ochiq yuzli bo'lish;
- o'ninchisi - odamlar bilan shirin muomalada bo'lish.

«Xushxulqlik, yaxshi muomala, shirin so'zlilik va olijanoblik - tarbiyalanganlikning asl belgilaridan», - deb ta'kidlaydi G'aybulloh as-Salom[1].

«Xushxulqli, yaxshi tarbiya ko'rgan kishi yaqinlari, yoru do'stlari uchun misli o'chmas chiroqdir»,- deb yozadi Servantes.

«**Tarbiyalanganlik**-jamiyatda qabul qilingan axloqiy normalarga bo'ysunish va o'zgalarning nafratini qo'zg'atadigan xatti-harakatlardan o'zini tiya bilish"[2].

Abdulla Avloniyning fikricha: «...xulq-nafsning suvrati» bo'lsa, Hamza Hakimzodaning ta'riflashicha: «Axloq xulqni ja'midur. Axloq ikki qism bo'lur. Biri axloqi husniya (yaxshi xulqlar), ikkinchisi axloqi zamima (yomon xulqlar)dur. Axloqi husniya insoniyat olamining bir gulshanidirki, anda hayo, qilm, saxo, qanoat, rizo, shukr, sabr, tavba, sidh, tavoz'u, ajz, faqrga o'xshash adolat gullari bila muzayyan va muattar o'lur. Axloqi zamima bir sho'razoredurki, oni aksincha jafo, zulm, hasad, kibr, kufr, tama', g'azab, nifoq, gasb, namima, kizb, bo'hton, g'iybat, buxl, xiyonat, isrof, qirs, poyriq, ta'jil, fitna, hosil; bunga o'xshash turlu qabohat nimarsadan boshqa shaylar ko'karmaslar». Demak, tarbiyalanganlik barcha ijobiy xulqlarni o'zida mujassamlashtirib, salbiy xulqlardan forig' bo'lish demakdir.

---

[1] G'aybulloh as-Salom. Ezgulikka chog'lan, odamzot. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi san'at va adabiyot nashriyoti, 2000, 67-b.

[2] M. Qurbonov. Ijtimoiy pedagogika. - Toshkent, 2003, 41-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Yoshlarda axloqiy xislatlar bilan birga, umuminsoniy fazilatlarni, ma'naviy sifatlarni tarbiyalashda pedagogik diagnostika va kooreksiyalash faoliyatiga murojaat etish zarur. Buning uchun, eng avvalo, inson fazilatlarining o'zaro munosabatlarini va o'rnini aniqlab olmoq lozim. Ma'naviyat esa aqliy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z navbatida inson ijobiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi.

Rejali va maqsadli o'qitish va tarbiyalash jarayonida natijalarni aniqlash zaruriyati pedagogik diagnostikani vujudga keltirgan. O'z ibtidosida bu natijalar oddiy pedagogik metodlar orqali aniqlangan.

Tarbiyaviy metodlar: So'z orqali ifodalash, ko'rgazmalilik, amaliy namuna, rag'batlantirish, jazo uslublari va h.k.

Tarbiya jarayonida an'analar, udumlar, rasm-rusumlar roli. Vatan tuyg'usini shakllantirish, ona tilimizga muhabbat uyg'otish, milliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish, ezgulik timsoli bo'lgan yo'lni ulug'lash, umuminsoniy qadriyatlarga, millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, dunyoviy ilmlarga intilish va ilg'or madaniyatni shakllantirish, dinning dunyoviylik bilan qarama-qarshi emasligini anglash, xuquqiy madaniyat-sog'lom dunyoqarashning muhim omili ekani to'grisidagigi ma'lumotlarni ko'paytirish, ma'rifatning shaxs intellektual salohiyatini oshirishdagi imkoniyatlari kengligini isbotlash kabi tamoyillari to'grisidagi – bularning barchasiga tarbiya metodlari orqali erishiladi. Har tomonlama barkamol, bilimli, malakali yoshlarni voyaga yetkazishda.

Quyidagi tarbiya turlarining ahamiyati salmoqlidir:

- Aqliy tarbiya: bilim, ilm, malaka, ko'nikma; aql, ong, fahm.
- Axloqiy tarbiya: axloq, odob, xulq, yaxshilik, adolat, insof, diyonat, sharm, hayo, vatanparvarlik va boshqalar.

Mehnat tarbiyasi: faollik, ishchanlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, aqliy ish, jismoniy mehnat, foyda, maosh.

- Jismoniy tarbiya: chiniqish, sport, o'yinlar, sog'lom tan.
- Estetik tarbiya: go'zallik, kiyinish, tozalik, yurish turish, saranjom-sarishtalik.

Ekologik tarbiya: tabiat, atrof-muhit, o'simlik va xayvonot dunyosiga ongli munosabat.

Iqtisodiy tarbiya: tejamkorlik, bozor iqtisodiyoti, sarf, isrof; foyda, mulk, mulkka egalik.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Huquqiy tarbiya: fuqaro, tenglik, to'g'rilik, halollik, jinoyat, jazo, huquq, burch kabi kategoriyalarni qamrab oladi.

Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining bir qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil etilishi masalalarini o'rganadi. U Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribasiga tayanadi.

Pedagogika tarixidan ma'lumki, ta'lim-tarbiyadan, tarbiya rivojlanishdan ajratib tekshirilmagan. XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib Rossiya pedagogikasida tarbiya masalalarini alohida ko'rish hollari uchraydi. «1806-yilda chiqarilgan Rossiya Akademiyasi lug'atida birinchi bor tarbiya so'zi pedagogik tushuncha sifatida alohida keltiriladi»[1], - deb ta'kidlaydi I.Tursunov.

«Tarbiya-ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari ehtiyojlarining nazarda tutgan holda o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqotidir»[2].

«Tarbiya-tarbiyachi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun tarbiyalanuvchining ruhiyatiga muayyan suratda va tizimli ta'sir ko'rsatish jarayonidir»[3].

Qat'iy ishonch bilan aytish lozimki, degan edi Prezident I.Karimov O'zbekiston teleradiokompaniyasi muxbiri bilan mulöqotda, ma'naviy boylik moddiy boylikdan ming bor ustun, shu bois biz ta'lim-tarbiya masalasiga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida yondoshmoqdamiz. Kadrlar tayyorlash haqida Qonun qabul qilingan milliy dastur ham mohiyat e'tibori bilan shu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan.

Biror-bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi:

a) o'quvchining qaysi xislatini shakllantirish yoki yo'qotish maqsadida rejalashtiriladi.

b) shu xislatlarni tarbiyalash yoki yo'qotish uchun xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi.

d) belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qaerda ishlatish rejalashtiriladi.

---

[1] I. Y. Tursunov. U.N. Nishonaliyev. Pedagogika kursi. - T.: «O'qituvchi», 1997, 172-b.

[2] N G'aybullayev Pedagogika. -T., «Universitet», 2000, 48-b.

[3] J. Hasanboyev, H. Sariboyev, G. Niyozov. Pedagogika. – T., «Fan», 2006, 17-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Bunday rejaga solinib, olib borilgan tarbiya mohiyatini ta'lim-tarbiya tizimi jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyati tashkil qiladi.

Tarbiya jarayonining xususiyatlari

Tarbiya jarayonining xususiyatlari				
Ko'p qirrali jarayon	Uzoq muddat davom etadi	Yaxlit holda va konsentrik asosda amalga oshadi	Ikki tomonlama xususiyat, bolaning faolligi	Qarama-qarshiliklar ko'pligi

Tarbiyaning birinchi xususiyati uning ko'p qirrali jarayon ekanligi bo'lib, unda maktab, oila, bolalar va o'smirlar tashkilotlari, mahalla, keng jamoatchilik, kinoteatr, televideniye, adabiyot va san'at ishtirok etadi.

Tarbiyaning yana bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Ta'limdan farqli ravishda u bola tug'ilganidan boshlanadi, maktab yillarida, undan keyin va butun umr bo'yi davom etadi.

Tarbiyaning ta'limdan farqlantiruvchi yana bir xususiyati shundaki, u yaxlit holda va konsentrik asosda amalga oshiriladi. Tarbiyaning turli tomonlari bir-biri bilan uzviy bog'langan. Boshlang'ich sinfda ham, o'rta va yuqori sinfda ham ayni bir narsa, masalan, do'stlik, ahillik, vatanparvarlik va boshqalarni tarbiyalash ko'zda tutiladi.

Tarbiyaning yana bir xususiyati shundaki, bu jarayon ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lib, unda bolaning o'zi ham faol ishtirok etadi.

Tarbiyada qarama-qarshiliklarning ko'pligi yana bir xususiyatdir. Bu qarama-qarshiliklar bolalarda o'z tushunchalariga muvofiq dastlabki paydo bo'lgan sifatlar bilan tarbiyachi tomonidan tarkib toptirilayotgan sifatlar o'rtasida o'quvchilarga qo'yilgan talablar bilan uni bajarish imkoniyatlari o'rtasidagi kurashlarda namoyon bo'ladi.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Mutafakkir olim Abu Nasr Forobiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin egallagan insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Insonning mushohada qilishi qobiliyatni tarbiyalaydi va aqlni peshlaydi. Aql ongni saqlaydi. Ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson asta-sekin takomillashib, komillikka erishib boradi. Ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchilardan uzoq davom etadigan mas'uliyat, sharafli mehnat va qunt, irodani talab etadi. Bunda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatini e'tiborga olishi zarur.

Tarbiyaning samarali bo'lishi ko'p jihatdan jamiyatdagi ijtimoiy institutlarning rivojlanishiga bog'liq. Ma'naviy va insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va munosabat muhim o'rin egallaydi. Bolalarni taqlidchanlik xususiyati mavjudligi tufayli ularni tarbiyalashda ota-onaning ongi, ma'naviyati, bilimi, tarbiyalanganligi muhim ahamiyatga egadir.

Aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyachining qanday metoddan foydalanishiga bog'liq.

Metod, ya'ni usul axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab:

1. So'z orqali ifodalash usuli.
2. Ko'rgazmalilik usuli.
3. Amaliy namuna usuli.
4. Rag'batlantirish va jazo usullariga bo'linadi.

Bu metodlar o'z navbatida quyidagi guruhlarga bo'linadi.

Birinchi guruh - so'z orqali uzatish, maslahat berish, ma'lumotlarni eshitish orqali qabul qilish, hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqa usullarga.

Ikkinchi guruh kinofilmlar, tasviriy san'at, badiiy san'at va boshqa ko'rish orqali tarbiyalash usullariga.

Uchinchi guruh - tarbiya jihatlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish, o'rnak ko'rsatish, boshqalar mehnatini misol tariqasida ko'rsatish.

To'rtinchi guruh yaxshi bajarilgan ishlarni o'rtoqlari oldida ma'qullash, minnatdorchilik bildirish, iqtisodiy va ma'naviy rag'batlantirish.

Jazo - bu bolaning noto'g'ri qilgan ishiga o'zini iqror qildirish.

Tarbiya Har bir insonning hayotida, yashashi mobaynida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko'nikmasini o'zgalarga berish jarayoni.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Tarbiyalanganlik - jamiyatda qabul qilingan axloqiy normalarga bo'ysunish va o'zgalarning nafratini qo'zg'atadigan xatti-harakatlardan o'zini tiya bilish.

Beruniy insonning kamolatga yetishishida ilmu ma'rifat, san'at va amaliyot asosiy rol o'ynasada, nasl-nasab, ijtimoiy muhit va turmush qonuniyatlari ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha inson kamolga yetishuvining eng muhim omillari ilm ma'rifatli bo'lish va yuksak axloqlilikdir. Axloqlilikning belgilari yaxshilik, to'g'rilik, adolat, kamtarlik, saxovat, oliyjanoblik, do'stlik va hamkorlik, mehnat, poklik, go'zallikka intilish kabilardir.

Adolat hayotiy masalalarni axloqiy va huquqiy normalarni rioya etgan holda hal etishdir.

Adolat tushunchasi bilan bog'liq jihatlar juda keng qamrovli bo'lib, adolatli inson, adolatli jamiyat kabi tushunchalar shunday jihatlar jumlasiga kiradi. Adolatparvarlik tushunchasi esa adolat tamoyili amal qilgan holda ish olib borish, yo'l tutish, faoliyat yuritish demakdir. Prezidentimiz I.A.Karimov «O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz» (1999-yil, 13-fevral) mavzusidagi «Turkiston» gazetasi muxbirining savollariga javoblari biz uchun dasturilamal bo'ldi.

- Vatan, millat taqdiri hal bo'ladigan qaltis vaziyatda to'g'ri yo'lni tanlash uchun avvalo tarixni yaxshi bilish, hayotning achchiq-chuchugini bilish kerak.
- Adolat biz qurayotgan jamiyatning mezoni bo'lmog'i darkor.
- endi, eski jamiyatni inkor qilish yoki ma'qullash kayfiyatidan voz kechib, bunyodkorlik kayfiyatiga o'tish kerak.
- Millat, davlat, jamiyat taqdiri hal bo'layotgan pallada o'zligimizni anglash, ma'naviy ildizlarimizni unutmaslik.
- Insonlar tafakkurini boyitish, uni yangi ma'no va mazmun bilan to'ldirish lozim.

Mamlakatimizning huquqiy demokratik davlat qurish jarayonida o'tmishimizning hali o'rganilmagan sahifalarini tadqiq etish, davlat va siyosiy arboblarimiz nomlarini xalqimizga qaytarish, huquqiy qadriyatlarimizni tiklashga alohida e'tibor berilmoqda. «Biz uchun mustaqillik - eng avvalo, o'z taqdirimizni qo'limizga olish, o'zligimizni anglash, milliy qadriyatlarni, urf-odatlarni tiklash, mo'tabar shu zaminda, tinchlik-osoyishtalikni, barqarorlikni saqlashdir[1]».

---

[1] I.A.Karimov. Ozbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: «Sharq», 1997, 98-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Shu nuqtayi nazardan, yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish tarbiyaviy masalalarni hal qilish mavzui doirasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, «adolat» keng qamrovli tushuncha sifatida ijtimoiy munosabatlarning barcha jabhalarini qamrab oladi. «Adolat, axloq va huquq kategoriyasi sifatida axloqiy-huquqiy munosabatlarni nazorat qilib turuvchi, odamlarning faoliyatiga baho beruvchi zaruriy o'lchovdir[1]», - deb yozadi F. Nizomov.

Har qanday jamiyat ijtimoiy adolat normalariga rioya qilishi bilan yuksalish darajasi belgilanadi. Tarixga nazar tashlasak, turli jamiyatlarda adolat nizomi yaratishda xilma-xil yondashuvlarga amal qilib kelinganligining guvohi bo'lamiz.

Istiqlol sharofati bilan ko'plab ajdodlarimizning ilmiy merosi va ularda ilgari surilgan adolat to'grisidagigi g'oyalar atroflicha o'rganish zamon talabi bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasida chuqur huquqiy bilimlarga ega, sotsiomadaniy darajasi rivojlangan, amaliy ko'nikma-malakalarni egallagan, raqobatbardosh kadrlar talab qilinadi. Shu sababli yoshlarda ijtimoiy adolat to'g'risidagi tushunchalarni kamol toptirish uchun zamin yaratish lozim. Kelajakda mutaxassis bo'lib yetishuvchi kadrlar, bugungi kun uzluksiz ta'lim qatnashchilari huquqiy davlat muammolarini to'g'ri baholay oladigan, chuqur huquqiy bilimlarga ega, ijtimoiy hayot sohalari ichki qonuniyatlari to'g'risidagi tushunchalarni egallab borishlari zarur. Hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda yoshlar rivojlanayotgan huquqiy demokratik davlatdagi ijtimoiy sohadagi islohotlar, aqloqiy-huquqiy munosabatlar kabi masalalarga alohida e'tibor berishlari lozim.

Mazkur tushunchalarni shakllantirishda uzluksiz ta'lim tizimi shaxsning ijtimoiy munosabatlarga kirishishida asosiy bo'g'in bo'lib hisoblanadi. Hayotda adolat me'yorlariga rioya etish ijtimoiy-axloqiy, ma'naviy-ruhiy jarayondir.

Huquqiy tarbiya muammolari va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish muammolariga bag'ishlab ilmiy izlanish olib borgan olimlar: A. Saidov, B. Karimov, I. Ergashev, A. Begmatov qarashlari qimmatli ahamiyatga molikdir.

---

[1] Nizomov Fazlixon. Adolat g'oyasi, yoxud Sohibqiron Amir Temurning huquqiy qarashlari haqida // Hayot va qonun, 2004, 77-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Ma'lumki, inson jamiyatda erishishi mumkin bo'lgan narsalar: - mulk, daromad, ijtimoiy maqom, hokimiyat, huquqlar insonlararo munosabatlari **adolatga** bog'liq. Moddiy ne'matlar va xizmat turlari, ijtimoiy (obro', hurmat-ehtirom), siyosiy ne'matlar (siyosiy erkinliklar, shaxs huquqi), sog'liqni saqlash kishilarning ijtimoiy ahvoli kabi sohalarda odamlar adolat muammolariga katta e'tibor beradilar. Mutafakkir Shahobiddin Imom Odil shoh g'oyasini ilgari surar ekan, ayni paytda hukmdorga adolat me'yorlariga rioya qilish lozimligini o'qtiradi. Jamiyatdagi mavjud sotsial guruhlar, sinflar, tabaqalarga nisbatan moddiy ma'naviy ne'matlarni ulashishiga «chun xurshed meboyat zist», ya'ni quyosh singari barchaga baravar, barchani birday ko'rib, adolat yuzasidan taqsimlash lozimligini ta'kidlaydi. Alloma o'z madhiyalarida ilm ahli, ziyolilar dehqon, hunarmand, xizmatchilariga alohida ahamiyat qaratish, jamiyat barqarorligi va taraqqiyot yo'lida qilayotgan mehnatlarini qadrlash kerakligini aytib, o'z faoliyatida ham shunga erishishga intiladi.

«Mutafakkir Imom Buxoriy «Adolat-Allohning benazir inoyatidir, undan barchani bahramand qiling», degan g'oyani ilgari surgan. Bu borada mashvarat (kengash)ga alohida ahamiyat berib, jamiyatni adolatli bajarishda uning vazifasi muhim ekanligiga e'tibor qaratadi».[1] Bu bilan davlatning kuch qudrati faqatgina iqtisodiy imkoniyatlar, kuchli qo'shin, mirshab va qozilarga emas, balki adolat tamoyilining amal qilishga hamda uning amaliy faoliyatiga ham bog'liqligini ko'rsatib beradi.

Tarbiya jarayonida o'qituvchi, tarbiyachilarning asosiy vazifasi ta'lim-tarbiya berish, o'quvchilar bilim, ko'nikma malakalarini muttasil oshirib borish, ularda tafakkur, ilmiy dunyoqarash va mafkuraviy tushunchalarni shakllantirishdan iboratdir.

Mafkura - inson ruhiyati, tafakkur va dunyoqarashini o'zgartiradigan kuchli vositadir. Uning g'oyalari xalqning ishonch - e'tiqodi, intilish va manfaatlari ifodasiga, aylansa, yetarlicha samara beradi. Shuning uchun ham mafkura sohasidagi targ'ibot va tashviqot ishlarini, o'quvchilarning tushunchasi, aql-idroki va tafakkur darajasini inobatga olgan holda marifiy yo'l va usullar orqali amalga oshirish taqozo etiladi.

---

[1] B. Arimov. Adolat—Ollohning benazir inoyatidir // Jamiyat va boshqaruv, 2003, 2-son, 45-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

1. Mahallada tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish uchun tavsiyalar ishlab chiqing.

2. Masalani yeching: ota o'z o'g'lining yetuklik attestatini olishi va 16 yoshga to'lishi munosabati bilan ziyofat berdi. O'g'lini bugungi baxtli kuni bilan tabriklab unga qadah uzatdi. Oila a'zolari bu voqeaga quyidagicha munosabat bildirishdi:

Dadasi: «o'g'lim muborak yoshing bilan tabriklayman, shu munosabat bilan bir qadah ko'taraylik!».

Buvisi: «jon bolam, spirtli ichimliklarga o'g'lingni o'rgata ko'rma, ichkilikbozlikning oxiri voy bo'lishi mumkin».

Bobosi: «...mayli, otangning so'zi yerda qolmasin».

Oyisi: «...o'g'lim, otang senga qadahni spirtli ichimliklarning qanchalik zararli ekanligini bilishing yoki bilmasligingni sinab ko'rish uchun uzatdi».

Savol: Siz oila a'zolarining bu voqeaga bo'lgan munosabatlarini qaysi birini to'g'ri deb o'ylaysiz?

3. Quyida amerikalik yozuvchi Lengston Xyuzning **«RAHMAT, MEM!»** nomli hikoyasini o'qing.

RAHMAT, MEM!

Kechqurun soat o'n birlar, qorong'i tushgan. Gavdali ayol katta va og'ir sumkasini yelkasiga ortib ko'chada ketib bormoqda. To'satdan qorong'ulikdan bir yigitcha paydo bo'ldi-yu, uning orqasidan kelib, sumkasini tortib olmoqchi bo'ldi. Bolakay orqadan sumkani shunday kuch bilan tortdiki, uning qayishi uzilib, yerga tushib ketdi. Lekin sumka shunchalik og'ir, bolakay esa shunday kichik ediki, u muvozanatini yo'qotib, qochish o'rniga, oyoqlarini osmonga cho'zgancha, orqasi bilan trotuarga yiqilib tushdi. Barvasta ayol keskin qayrilib, bolaning tor jinsi kiygan orqasiga tepdi. Keyin engashib bolani yelkasidan ko'tardi va kuch bilan silkitdi.

- Ey bolakay, sumkamni olib ber, - dedi ayol.

Bola sumkani olish uchun biroz oldinga qadam tashladi.

- Senga uyat emasmi?

Ha, MEM, - deb g'uldiradi bola. Ayol uni avvalgidek yoqasidan ushlab turardi.

- Nega bunday qilding?

www.ziyouz.com kutubxonasi

- Men atayin qilganim yo'q.

- Senga ishonib bo'pman.

Ularning yonidan ikk-uch kishi o'tdi, kimdir ularga qayrilib qarab, yana yo'lida davom etdi, kimdir to'xtab ularni tomosha qila boshladi.

- Agar seni qo'yib yuborsam - qochib ketasanmi?

- Ha, MEM.

- Unda qo'yib yubormayman, - dedi ayol.

- Xonim, kechiring, - shivirladi bolakay.

- Aftingga qara, qanday iflos. Nima uyingda hech kim yuzingni yuv demaydimi?

- Hech kim yo'q, MEM.

- Endi kimdir bo'ladi. Bugun yuzing ham har qachongidan toza bo'ladi, - deb ayol bolani sudragancha ko'cha bo'ylab keta boshladi.

Ko'rinishdan bola 14-15 yoshlarda, oriq, nimjon bo'lib, krossovka va jinsida edi.

Afsus, sen mening o'g'lim emassan, dedi ayol. Bo'lmasam ko'rsatib qo'ygan bo'lardim. Menga tegish kerak emasdi. Endi qutila olmaysan. Missis Luella Beyts Vashington Jonsni endi uzoq vaqt unutmaysan.

Bola qo'ldan chiqishga harakat qilardi. Lekin ayol uni qo'yib yubormay, uyigacha olib keldi. Bolani xonasiga itarib olib kirdi, dahliz bo'ylab tortib, oshxonaga olib o'tdi. Ayol hamon uni qo'ltig'i ostidan ushlab turardi.

- Isming nima?

- Rodjer, - javob berdi bola.

- Hozir borib yuzingni yuvasan. Uqdingmi?

Rodjer eshikka qaradi, so'ngra ayolga, yana eshikka... va chanoqqa bordi.

Meni qamoqqa olib borasizmi? deb so'radi bola, chanoqqa engashib.

- Shunday iflos bashara bilan hech qayerga olib bormay-man. Kechki ovqat tayyorlayman. Balki sen ham hali ovqat yemagandirsan?

- Uyimda hech kim yo'q, - javob berdi bola.

- Demak, unda birga ovqatlanamiz. Sen och qolgandirsanki, sumkamni o'g'irlashga qaror qilibsan.

- Men zamshadan tikilgan ko'k tufli olishni xohlagan edim,- dedi bola.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Bola yuzini yuvib, artindi. Keyin nima qilsam ekan deb o'girildi. Eshik ochiq edi. Dahlizga yugurib chiqish va qochib ketish mumkin.

Ayol o'rindiqda o'tirardi.

- Men ham yoshligimda ko'p narsa xohlar edim,- deb ayol jim bo'ldi. Uzoq sukunat cho'kdi.

- Ha, men ham shunday narsalar qilganmanki, bu haqda gapirmaslik ma'qul, o'g'lim. Kim bilan bunaqa ishlar bo'lmaydi deysan. O'tir, men hozir biror yegulik tayyorlayman.

Xonaning boshqa chetida, to'siqning ortida gaz plitasi va sovutgich bor edi. Missis Jons o'rnidan turib, har daqiqada qochib ketishi mumkin bo'lgan bolaga ham, uning yonida turgan sumkasiga ham e'tibor bermay, to'siq ortiga o'tdi. Biroq bola qochishni o'ylamasdi. Buning ustiga u ayol ko'z qiri bilan kuzatishi mumkin bo'lgan xonaning uzoq burchagiga, sumkadan nariroqqa o'tirdi. U ayol unga ishonishini xohlardi.

Ayol sovitgichdan yegulik oldi, kakao qaynatdi va stolga qo'ydi. U boladan qayerda yashashini ham, ota-onasini ham, umuman uni noqulay ahvolga soladigan hech nimani so'ramadi. Bolaga o'zi to'grisida gapirib berdi, mehmonxonadagi kechgacha ochiq turadigan sartaroshxonada ishlashini aytib berdi. Bolaga ovqat yeb bo'lgach, pirog kesib berdi. Ovqatlanib bo'lgach, dasturxondan turib, o'n dollarlik kupyurani bolaga uzatdi va dedi:

Ma ol, o'ntalik, o'zingga zamshadan tikilgan ko'k botinka sotib ol. Bundan keyin birovlarning narsasiga ko'z olaytirma. Yodingda bo'lsin: Harom pulga poyabzal sotib olsang, ular butun umr tovoningni kuydiradi. Ayol uni uzun dahlizdan chiqishgacha kuzatib qo'ydi.

Xayrli tun, bundan keyin o'zingni yaxshi tut, - dedi ayol eshikdan tashqariga qarab.

Shalog'i chiqqan zinadan yugurib tushib, bola pastdan yuqoriga qarab, eshik oldida turgan ayolga «Raxmat, MEM» deb, yana nimalardir demoqchi bo'ldiyu, ammo labi pichirlagani bilan, ovozi chiqmasdi. Bola ovoz chiqarib minnatdorchilik ham bildira olmadi[1].

---

[1] Xalqaro ochiq jamiyati institutining «Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari» fanlararo dasturi. 78–82-betlar.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Matn yuzasidan topshiriqlar

1. Sizning fikringizcha, Rodjer yana o'g'irlik qiladimi? Javoblaringizni izohlang.

2. Matn yuzasidan ikki qismlik kundalik tuzing. (Ikki qismlik kundalik usuli mohiyati: Qog'oz o'rtasidan uzunasiga chiziq chiziladi. Uning chap tomoniga matndan sizga ko'proq ta'sir ko'rsatgan parcha, yoki hayron qoldirgan timsol, qiziqtirgan, o'ylantirgan yoki ma'qul bo'lmagan fikr yoziladi.

Varaqning o'n g tomoniga ushbu parcha yoki fikr bo'yicha sharh yozish kerak. Nima uchun ushbu parchani yozib oldingiz? Bu nima haqda o'ylashga, eslashga majbur etdi? Shu yuzasidan qanday savollar tug'ildi?)

Ikki qismli kundalikni quyidagi shaklda tuzish mumkin:

Parcha	Sharh

3. Rodjerning 10 yildan keyin Missis Jonsga yozgan xati qanday bo'lishi mumkin? **Rodjer nomidan xat yozing** (10 minut-lik esse).

Mavzu yuzasidan savollar

1. Pedagogikaning «Tarbiya nazariyasi» bo'limi nimalarni o'rgatadi?
2. Tarbiya jarayoni mohiyati nimadan iborat?
3. Tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati qanday bo'ladi?
4. Tarbiya jarayonining o'ziga xos qanday xususiyatlari bor?
5. Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roliga qanday baho berasiz?
6. Mafkuraviy tushunchalarni shakllantirishda tarbiya jarayonining ahamiyati qanday?

Mavzu yuzasidan kerakli manbalar

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning ma'naviy merosimizni o'rganish to'g'risidagi bildirgan fikrlari aks ettirilgan maqolalari, nutqlari, asarlari;

www.ziyouz.com kutubxonasi

b) pedagogika fani konsepsiyasi;
s) sharq allomalarining asarlari.

TOPSHIRIQLAR

1. Ommaviy axborot vositalari, Internet tarmog'i orqali mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy sohalarda islohotlar haqidagi ma'lumotlarni to'plang va ularni tahlil qiling.

2. «Xalqimizning o'tmishda yaratgan madaniy merosi» mavzusida esse yozing.

3. Insert strategiyasidan foydalanib, tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari to'g'risidagi Pedagogika fani konsepsiyasida yoritilgan materiallarni, o'rganing va tahlil qiling[1].

4. Nazariy dalillarning qisqacha mazmuniga tayangan holda quyidagi mavzularda referat tayyorlang.

- Tasavvuf ilmi namoyondalarining pedagogik qarashlari;
- Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinoning pedagogik qarashlari;
- Alisher Navoiy asarlarida insonni tarbiyalash muammolari;
- Tasavvuf ta'lim otining yorqin namoyondalari al-G'azzoliy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband ilmiy qarashlarida ma'naviy kamolotga erishish masalalarining talqin qilinishi;
- Ta'limda samaradorlikka erishish to'grisidagi Abu Rayhon Beruniy tavsiyalari;
- Abu Ali ibn Sino ilmiy merosini O'zbekistonda o'rganilishi;
- Tabbarruk ma'naviy manbalarimiz bo'lmish «Qur'on», Hadislar, ajdodlarimiz ma'naviy merosi hisoblanmish «Qobusnoma», «Shohnoma», «Temurnoma», «Boburnoma», «Guliston», «Temur tuzuklari», «Qutadg'u bilig», «Maxbub ul-Qulub» kabi durdona asarlarida inson shakllanishida tarbiyaning ahamiyati;

---

[1] Insert – bu o'qish jarayonida o'z anglashini faol kuzatish uchun o'quv-chilarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir, chunki shunday hollar borki, odam matnni oxirigacha o'qib, u yerda nima yozilganligi tog'risida eslay olmasligi mumkin. Bu hol odam o'qishga faol qatnashmay, o'z anglashini kuzatmaganda ro'y beradi. Insert – matn bilan ishlaganda faollikni qo'llab-quvvatlash vositasidir. Matn o'qilgach, undagi fikrlarga quyidagi belgilarni yozish mumkin // V = «bilgan fikrlarga quyidagi belgilarni olib boradi: V = «bilganlarimni tasdiqlaydi»; + = «yangi axborot»; – = «bilganlarimga zid keladi»; = «meni o'ylantirib qo'ydi».

www.ziyouz.com kutubxonasi

• Abu Ali ibn Sinoning «Tadbir al-manozil», «Burch haqida risola»laridagi g'oyalar;

• Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon kabi progressiv ma'rifatparvarlarning sog'lom fikr, yaxshi xulq, madaniyatga intilish xislatlari to'g'risidagi g'oyalari;

• Abdulla Avloniy, Mahmudxuja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Aburauf Fitrat, Cho'lpon asarlarida tarbiya masalalari;

• Tarbiya jarayonida ta'lim muassasalarining roli;

• Tarbiyaning asosiy mezonlari;

• Tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari;

• Yuksak dunyoqarash va e'tiqod tarbiyasi;

• Mas'uliyat, iymon, vijdon, adolat va tarbiya;

• Mafkuraviy tarbiya oiladan boshlanadi;

• Bobolar va momolar tarbiyasi-savodxonlik maktabidir;

• Mahalla - tarbiyachi sifatida;

• Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli;

• «O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz» (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Turkiston» gazetasi muxbirlarining savollariga javoblari asosida);

• Har tomonlama barkamol, malakali yoshlarni voyaga etkazishda jamiyatimizda qabul qilinayotgan islohotlar;

• Yusuf Xos Hojibning oilada ota-onalarning mavqei haqida;

• Zahiriddin Muhammad Bobur ilm ahli va axloqiy fazilat haqidagi qarashlari;

• Abdulla Avloniyning vatanparvarlik tarbiyasi haqida.

5. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da «tarbiya» kategoriyasiga berilgan ma'lumotlarni to'plang va tahlil eting.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning ma'naviy-ma'rifiy qarashlari aks ettirilgan asarlarini qunt bilan o'rganing.

7. Sharq va G'arb mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini o'rganish.

8. «Qush uyasida ko'rganini qiladi» mavzusida kichik esse yozing.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Axborot manbalari

1. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T., 1997 y;

2. I.A. Karimov. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T.: «O'zbekiston», 1998.

3. I.A. Karimov. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. - T.: «O'zbekiston», 1998.

4. Xalqaro ochiq jamiyat institutining «Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari» dasturi. 2002

5. Зимняя И.А. Педагогическая психология. М: «Логос», 2002.

6. Pedagogika. A.Munavvarov tahriri ostida, T., 1996-y. 118-119-betlar.

7. Tursunov I.Y., U.N. Nishonaliyev. Pedagogika kursi. - T., «O'qituvchi», 1997-y, 172-173- betlar.

8. Галагузова М.А. и др. Социальная педагогика. М.: «Владос», 1999, 416-стр.

www.ziyouz.com kutubxonasi

7-MAVZU: MUSTAQIL O'ZBEKISTON RIVOJLANISHINING MA'NAVIY, AXLOQIY NEGIZLARI

Jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda, jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol uynaydi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» (1992), «O'zbekiston: madaniyat, iqtisod, mafkura» (1996) asarlarida ma'naviyat, tarbiya masalalariga katta e'tibor berilgan. Mamlakatimiz rahbari o'zining deyarli barcha nutqlari va asarlarida ma'naviyatga, tarbiyaga juda katta e'tibor qaratadi, ayniqsa, uning quyidagi fikrlarida buni yaqqol ko'rish mumkin:

«..Har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir»[1], yoki. Abdulla Avloniyning: «tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir» degan fikri asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir»[2], - deydi Prezidentimiz o'zining «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin» nutqida.

Haqiqatan ham yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: «..Ma'naviy va axloqiy poklanish, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan kelmaydi. Hammasining zaminida tarbiya yotadi»[3].

---

[1] Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., «Sharq» 1998 y, 5-b.

[2] Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: «Sharq», 1999, 39–40-betlar.

[3] O'sha asar, 53-bet.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Mamlakatimiz rahbarining «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» (1998) asarida mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari, tarbiya sohasidagi vazifalarimiz o'z ifodasini topgan.

Asarda yoshlar tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish, ayniqsa, ijtimoiy va ma'naviy sohada quyidagilarga e'tibor qaratilganligi ta'kidlanadi:

1) insonparvarlik g'oyalariga sodiqlik;

2) ma'naviy va axloqiylikni qayta tiklash;

3) qadimgi va zamonaviy madaniy boyliklarni, adabiyot va san'atni bilish hamda ko'paytirish;

4) milliy va madaniy boyliklarni bilish hamda rivojlantirish;

5) hur fikrlilik, vijdon va din erkinligi qoidalarini qaror toptirish;

6) ijtimoiy adolat qoidalarini ro'yobga chiqarish;

7) hamma uchun ma'qul tibbiy xizmat;

8) umumiy ta'lim olish, kasbni va tegishli maxsus tayyorgarlikni o'tishni erkin tanlashda barchaga barobar huquq berish;

9) ijodning barcha turlarini rivojlantirish;

10) milliy istiqlol g'oyasi tushunchalari asosida milliy mafkurani shakllantirish hamda uning asosiy tamoyillarini o'quvchilar ongiga singdirish.

Ana shu ma'naviy axloqiy negizlarning har birini yoshlarimiz ongida shakllantirish, ular ongi va qalbida mafkuraviy immunitet hosil qilishning muhim omillaridan biridir. Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, milliy g'oya va istiqlol mafkurasi yurtimizda yashayotgan barcha kishilarning ma'naviy boyligiga dunyoqarashining negiziga aylanishiga erishish biz uchun eng asosiy maqsaddir.

Bu o'rinda O'zbekistonda rivojlanishining ma'naviy-axloqiy negizlari nimalardan iborat ekan? – degan savolning tug'ilishi tabiiy.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyoti bevosita uning ma'naviy-axloqiy negizlarining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov qayd qilgandek, bu negizlar:

1. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
2. Xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
3. Insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
4. Vatanparvarlikdan iboratdir.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Mustaqil O'zbekistonning kuch - qudrat manbayi - xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Umuminsoniy qadriyatlar adolat, tenglik, ahil qo'shnichilik va vatanparvarlik bo'lib hisoblanadi. Xalqimiz bu qadriyatlarning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab - asrab kelmoqda. Insonparvarlik bu o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Bugungi kunda hur va ozod xalqimiz barcha xalqlar va davlatlar tomonidan yaratilgan ma'rifatda, fan va texnikada, madaniyat va san'atda nimaiki yangi va ilg'or jihatlar bo'lsa, shunga dadillik bilan intilmoqda. O'zbek diyorida, tarixda ko'p marta bo'lganidek, yana yangidan o'zimizning betakror va ilg'or, iqtidorli va eng muhimi-insonlarga kerakli qadriyatlarimiz barpo etiladi.

Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun va insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda etilgan. Ma'naviyat turli xalqlar va mamlakatlar kishilarini qon-qardosh qiladi. Ularning taqdirini o'zaro hurmat asosida yaqinlashtiradi. Bizning ma'naviyatimiz asrlar davomida million-million kishilar taqdiri asosida shakllangan. Ma'naviyat taqdirning ehsoni emas. Ma'naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan, aql va qo'l bilan mehnat qilishi kerak. Xalqimizning xotirasi ajoyib nomlarga boy. Butun jahonga mashhur bo'lgan Beruniy, al-Xorazmiy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Ulug'bek, Navoiy va boshqa ko'pgina allomalar ma'naviyati keng va ayni vaqtda qismati og'ir bo'lgan siymolardir. «Ma'naviyat-insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir»[1]. Vatan va jahon madaniyatining, adabiyot va san'atning yutuqlari har bir oilaga yetib borishi uchun oilaning moddiy ta'minlanganligidan qati nazar qulay sharoitlar yaratish talab etiladi. Ijodiy xodimlarning ma'naviy kuchiga erkinlik berish, ularga har tomonlama yordam ko'rsatish ham katta ahamiyatga egadir.

Insonning o'zi va o'z oilasining baxt-saodati yo'lida mehnat qilishga shaxsan tayyor ekanligi uning ichki imkoniyatlarini tashkil

[1] I.A. Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. - T., "O'zbekiston", 1992.

www.ziyouz.com kutubxonasi

etadi. Shaxs imkoniyatlari bizda juda chuqur asoslarga egadir. Respublikamizda jahon fani va texnikasi, falsafa va huquq yutuqlarini egallab olgan va shu bilan birga o'z xalqiga sodiqligini saqlab qolgan kishilar juda ko'pdir. O'tkazilayotgan islohotlar respublika fuqarolarining mehnatsevarligi, ishbilarmonligi va fidoyiligini namoyon etishda ularga yangi imkoniyatlar ochib beradi. O'z-o'zini rivojlantirishga, o'zini kamol toptirishga bo'lgan intilish insonning g'ururini, uning haqiqiy fazilatlarini yuksaltiradi.

O'zbekiston fuqarosining vatanparvarligi - bu qayta o'zgarishlar yo'lini ko'rsatuvchi, ko'zlangan maqsaddan chetga chiqmaydigan yo'lchi yulduz, ishonchli komposdir. Xalqning vatan-parvarlik his-tuyg'ulari, uning ozodlikka va baxt-saodatga intilishi har bir o'zbekistonlik uchun muqaddas mazmun kasb etayotgan mustaqil O'zbekistonning davlat ramzlarida o'z ifodasini topgan. Davlatimiz ramzlari: bayroq, tamg'a, madhiya O'zbekiston xalqlarining shon-sharafi, g'ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi. Mana shu ramzlarni e'zozlash-o'zining qadr-qimmatini, o'z mamlakatiga va shaxsan o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash demakdir. Vatanga sodiqlik, vatanparvarlik, o'zining qudratli ildizlari bilan o'z oilasining avlod-ajdodlarining nomus-origa chuqur ehtiromga, insonning shaxsiy vijdoniga, burchga va o'z so'ziga sodiqlikka borib taqaladi. Kishilarimizning vatanparvarligi hamma vaqt sevimli xalqning shon-sharafi, qadr-qimmati, madaniyati va an'analariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda o'z ifodasini topib keldi. Vatanparvarlik fuqarolar yakdilligi yosh va mustaqil O'zbekiston davlati barpo etilayotgan negizdir. Ayni shu narsa jamiyatni qayta o'zgartirish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga, hamjihatlik va hamkorlikka erishishga yordam beradi.

Ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchilik faolligini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, keksa avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi. Bizning davlatimiz mutaxassislar tayyorlashning ilg'or jahon tajribasini faoliyatga keng tatbiq etadi. Avvalo, O'zbekistonning o'zida yuqori sifatli ta'lim uchun sharoitlar yaratadi. Bizning xalqimizning doimiy fazilati bo'lgan haqiqatni bilish yo'lidagi saboqni fan, texnika, texnologiya, boshqaruv va informatikada erishilgan jahon yutuqlarini o'zlashtirishga yo'naltirish kerak bo'-

www.ziyouz.com kutubxonasi

ladi. Faqat ana o'shandagina O'zbekiston o'zining barcha boyliklarining chinakam egasi va haqiqiy madaniy davlat bo'ladi.

Bugungi kunda respublikadagi har bir o'quv dargohi o'zining ta'lim tizimini mukammallashtirishga harakat qilmoqda. Yangi avlod darsliklarining yaratilishi, ta'limda reyting tizimlarining joriy etilishi, turli yo'nalishlardagi nazoratlar, ta'lim jarayonida faol o'qitish metodlaridan foydalanish va boshqa shu kabi tashkiliy ishlar amalga oshirilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, har qanday ish uslubi joriy etilganda ham, o'quvchi shaxsi, uning bilimga intilishi, mustaqil mushohada qilishi, ma'naviy jihatdan o'sishi asosiy muammo bo'lib qolaveradi. Shaxsning har tomonlama rivojlanishida kreativ belgilar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, fikrni kashf etishga, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat kreativlik sifati bilan bog'lanib tushuntiriladi. Kreativlik-shaxsning muhim tavsifiy belgisi bo'lib, u birovlarnikiga o'xshamagan tarzda, noyob, takrorlanmas fikrlashga imkon beradi. Bu ayniqsa, mustaqillik sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlarda kreativlikning bir qancha tavsiflari mavjud. Amerikalik olim D. Veksler tavsifi eng qulay tasniflardan biridir. Uning fikricha «kreativlik» (lotincha «kreatio» - «noyob fikrlash» degan ma'noni bildiradi) fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o'ziga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi».[1]

Ma'lumki nutq faoliyati tafakkur bilan uzviy va chambarchas bog'liqdir. Tafakkur-inson ongining bilish obyektlari hisoblanmish narsa va hodisalar o'rtasida murakkab, har tomonlama aloqalarning bo'lishini ta'minlovchi umumlashgan va mavhumlashgan aks ettirish shakli bilan uzviy va chambarchas bog'liqdir.

Vilgelm Vund, S.L. Rubinshteyn, E. G'oziyev fikrlaricha «tafakkur va fikrlash jarayonlari bilish jarayonlari deb ham nomlanadi.

«Nutq rivojlangan sari inson tafakkuri ham rivojlanib boradi»[2].

---

[1] Векслер Д. Интеллект и креативность как составляющее. - М.: УП, 2001, 222-стр.

[2] Вильгельм В. Познавательные процессы в человеческой деятельности. - М.: «Логос», 2002, 43-стр.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Zamonaviy o'qituvchining bugungi kundagi asosiy vazifasi o'quvchi shaxsining tafakkur va fikrlash jarayonlarining o'ziga xos tomonlarini ochishga, uni o'stirish yo'llarini topishga qaratilgan.

Oxirgi yillardagi fan kashfiyotlari shuni ko'rsatadiki, fikrlash jarayonlarini sinf sharoitida va sinfdan tashqari paytlarda ham o'stirish, bunga qisqa, qulay yo'llar bilan erishish mumkin.

Mustaqil rivojlanayotgan, erkin demokratik davlat qurilishiga o'z hissasini qo'sha oladigan, analitik va tanqidiy mushohada qilish qobiliyatiga ega, fikrlash jarayonida yangilik, noyoblik, qaytarilmaslik elementlarini o'zida mujassamlashtirgan tafakkur egasini, ijodiy parvoz, yangiliklarni kashf etishga har tomonlama qodir shaxsni, shakllantirish o'ta dolzarb masaladir.

Ma'lumki, tarbiya jarayonida kreativ qobiliyatning ahamiyatini ilmiy-nazariy asoslab bergan o'zbekistonlik olimlar: S.S. G'ulomov, Malla Ochilov, Vasila Karimova; rus olimlari: V. Platov, Yu. Geronimus, V. Burkov; amerikalik olimlar: M. Forverg, J. Moreno, J. Torndayk, E. Bernlarning qarashlari qimmatli ahamiyatga molikdir.

O'zbekistonda ta'lim-tarbiyani isloh qilishda ajdodlar merosidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa insoniyat tarixida odamlar ongi va shuuriga **adolat, haqiqat, ezgulik, mehnatsevarlik** kabi yuksak g'oyalar urug'ini sepgan (Zardo'sht yaratgan) «Avesto» kitobi, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy qarashlaridan, Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Imom Buxoriy, Imom Termiziylarning ta'limotlarida va xalq og'zaki ijodiyotimizda aks etgan komil inson g'oyalaridan, ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan foydalanish samarali natija beradi.

Shunday qilib, har bir atomi bilan shiddatli taraqqiy etayotgan XXI asrda yoshlarni jamiyatning faol ishtirokchilari qilib tarbiyalash dolzarb masalalar qatoridan o'rin oladi. Bu muammo negizida yoshlarga nafaqat umumiy ma'lumot va tarbiya, balki foydali kasbkorga yo'nalish olishiga, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni o'z ichiga oluvchi yagona uzluksiz milliy ta'lim tizimini yaratish vazifasi qo'yilmoqda. Bunday vazifalarning yechimini topishda xalqning milliy-ruhiy turmush tarzi, ta'limdagi butun jahon va Sharq tarbiyasining pozitiv yutuqlari har tomonlama e'tiborga olinishi; Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimining tubdan qayta isloh qilinishi, o'quv muassasalarining yangi shakllarining rivojlanishi,

www.ziyouz.com kutubxonasi

malalakali kadrlar tayyorlash tizimi yangi xususiyatlarining takomillashuvi natijasida inobatga olinishi zarur. Zotan bunday vazifalar yechimini topish mamlakatning iqtisodiy, ma'rifiy va madaniy rivojlanishini yuksaltiradi hamda yoshlar ma'naviy-axloqiy e'tiqod va tushunchalarini shakllantirishga ko'mak beradi.

TOPSHIRIQLAR

1) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning mamlakatni rivojlantirishning ma'anaviy-axloqiy negizlari ko'rsatib o'tilgan asarlarini o'rganing.

2) Umuminsoniy qadriyatlar-ularga sodiqlik mohiyatini tahlil qiling.

3) Mamlakatimizda xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot to'plang.

4) Buyuk mutafakkirlar va allomalarimizning asarlaridan, odob-axloqqa oid qarashlaridan foydalangan holda tarbiyaviy tadbir uchun ishlanma tuzing.

5) Mustaqil O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining ma'naviy, axloqiy negizlari to'g'risidagi tushunchaga ega bo'lish, ijtimoiy-ma'naviy sohada tarbiyaga e'tiborning kuchayishi masalalarini tahlil qiling.

6) Ta'lim-O'zbekiston xalqi ma'naviyatining yaratuvchisi sifatida ekanligini ommaviy axborot vositalari, Internet tarmog'i orqali olingan ma'lumotlar asosida tahlil qiling. Mamlakatimizda shaxsning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilayotganligini hayotiy misollar bilan asoslab bering.

Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar

1. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: 1998-y;

2. I.A. Karimov. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T.: «O'zbekiston». 1998.

3. I.A. Karimov. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. - T.: «O'zbekiston», 1998.

www.ziyouz.com kutubxonasi

4. I.A. Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: «O'zbekiston». 3-66-betlar.
5. I.A. Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. - T.: 1992.
6. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - T.: «O'zbekiston», 2000.
7. Pedagogika. A.Munavvarov tahriri ostida, - T.,1996.

www.ziyouz.com kutubxonasi

8-MAVZU: TARBIYA QONUNIYATLARI, PRINSIPLARI VA METODLARI

1. Tarbiya qoidalari va ularning mohiyati:

a) Tarbiyaning maqsadga qaratilganlik qoidasi.

b) Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya qoidasi.

s) Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorlik qoidasi.

d) Tarbiyada izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning uyg'unligi va uzluksizlik qoidasi.

2. Tarbiya usullari haqida tushuncha:

a) Ijtimoiy ongni shakllantirish usullari.

b) Faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirish usullari.

s) O'z-o'zini tarbiyalash usullari.

d) Rag'batlantirish va jazolash usullari.

Inson paydo bo'libdiki, tarbiya jarayoni va qoidalari mavjud. Xo'sh, tarbiya qoidalari nima uchun kerak ekan?

Tarbiya qoidasi pedagogik ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang'ich holat, rahbarlik asosidir. Tarbiya qoidalari-o'qituvchi va tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar hisoblanadi. Tarbiya qoidalariga quyidagilar kiradi:

Tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganlik qoidasi. Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad har tomonlama ma'naviy rivojlangan aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Tarbiyaviy ish ma'lum maqsadni ko'zlovchi va uzluksiz davom etadigan jarayondir. Tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi qoidasi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollarini ko'ra bilishga yordam beradi.

• **Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya qoidasi.** O'qituvchining bilim saviyasi ma'naviyati jamiyatni harakatga keltiruvchi, taraqqiyotgga eltuvchi yetakchi omillardan biridir. Yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda Qur'oni Karim, Hadisi Sharif-

www.ziyouz.com kutubxonasi

lardan foydalanish juda muhim. Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smirning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini hisobga olish lozim. Tarbiyani demokratiyalash - bu tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. O'qituvchi o'quvchiga avvalgidek tarbiya obyekti emas, xuddi o'zi kabi subyekt deb qarashi darkor. Tarbiyaviy faoliyatni demokratiyalash va insonparvarlashtirish uning mohiyatini va mazmunini qayta tafakkur etishni ko'zda tutadi. Shaxsning rivojlanishi va o'zligini anglashni ta'minlaydi.

• **Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi qoidasi.** O'quvchilarni Vatanimiz qadriyatlari, boy madaniyati bilan tanishtirish, madaniy va diniy bilimlarini egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish malakalarini oshirib, tobora boyitish, estetik tushunchalarni shakllantirish juda muhim. Xalqimizning ko'p asrlik qadriyatlarini, ulkan, boy va madaniy merosini chuqur bilmasdan, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. U yaratgan madaniy boyliklar yoshlar tarbiyasida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali o'quvchilar go'zal axloq, baxt, insof, poklik, mehr-shavqat, ota-onani hurmat qilish qoidalari haqida keng tasavvurga ega bo'ladilar. Insoniylik - o'z tarkibiga insonning eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini, do'stlik, ota-onaga sadoqatlilik, mehnatsevarlik, diyonatlilik kabi fazilatlarni qamrab oladi. Shu sababli, insondagi eng yaxshi fazilatlar avloddan - avlodga ko'chib kelgan.

• **Tarbiyada izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning uyg'unligi va uzluksizlik qoidasi.** Tarbiya ishida izchillik juda muhim. Tarbiyachi avvaliga bolalardan biror narsani talab qilib, so'ngra o'zi bu talabni unutib qo'ysa, bu hol tarbiyaga yomon ta'sir qiladi. O'qituvchi subutli, o'z lafziga sobit bo'lmog'i kerak. O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda izchillikka rioya qilish va bir xil talab qo'yish muvaffaqiyat qozonishning eng muhim shartlaridan biridir. Tarbiya uzoq davom etadigan jarayon, unda ota-ona, o'qituvchi, jamoatchilik qatnashadilar. Shu sababli, ularning ishida izchillik va davomiylik bo'lishiga rioya qilish kerak. Bu qoida tarbiyani amalga oshiradigan barcha bo'g'inlarni (oila, maktab, o'quvchilar jamoasi, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, keng jamoatchilikni)

www.ziyouz.com kutubxonasi

birgalikda ish ko'rishlarini nazarda tutadi. Chunki tizimlilik faqat yoshlarni emas, balki aholining barcha qatlamlarini qamrab olishi kerak.

Bola o'qishni, tarbiya olishni ulg'ayib jamiyat hayotida faol ishtirok etishni xohlaydi. Pedagog uni qay usulda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonda tarbiyalash lozimligini bilishi kerak, shu bilan birga, bola o'zini o'zgartirishda faol ishtirokchi ekanligini ham unutmasligi lozim.

Tarbiya usuli tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyat hamda o'zaro ta'sir ko'rsatish usullaridir.

Nimalarni tarbiya vositasi deb hisoblash mumkin?

Tarbiya vositalari biron-bir tarbiyaviy masalani maqsadga muvofiq yo'l bilan hal qilishni tashkil etish uchun ishlatiladi. (Ko'rsatmali ko'nikmalar, kitoblar, radio, televidenie). Bundan tashqari, o'quvchilar jalb qilingan faoliyat turlari kinofilmlar, san'at asarlari, o'qituvchining jonli so'zi, bolalar o'yini, sport, badiiy havaskorlik to'garaklari va boshqa faoliyat turlari tarbiya vositalari bo'lishi mumkin.

Tarbiya vositalari tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun o'qituvchi-tarbiyachining tarbiya tizimiga kiritilishi lozim. Masalan, maktab kutubxonasi tarbiya vositasi bo'lishi uchun o'qituvchi va kutubxonachi yozuvchilar bilan uchrashuv, o'qilgan va yangi kitoblarning muhokamasini, taqdimotini uyushtirishi lozim.

Tarbiya usullarini to'g'ri tanlashning tarbiya jarayonidagi ahamiyati qanday?

Tarbiya natijasi tarbiya jarayonining usullari, uslubi, vositalari va shakllaridan mohirona foydalanishga bog'liq. Tarbiyachilar ta'sir etishning bola shaxsiyatiga mos usulini, eng maqbul usulini tanlab olishi, uning shaxsini o'zgartirishi uchun kerakli shart-sharoit yaratishlari lozim. Tarbiya usullari har bir bolaga, har qaysi bolalar jamoasiga alohida munosabatda bo'lishni nazarda tutadi.

Xalq pedagogikasi o'zbekona axloq, odob va tarbiyaning murakkab barcha qirralarini o'zida mujassamlashtiradi. Xalq pedagogikasida turli xil tarbiya usullari va vositalaridan foydalaniladi. Bu usul vositalar nihoyatda rang-barang bo'lib, ko'p tomonlari bilan ilmiy pedagogikaning shakllanishida ham o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Xalq pedagogikasida qo'llanilgan juda xilma-xil tarbiya usullari quyidagi tarzda umumlashtirilgan:

www.ziyouz.com kutubxonasi

1. Tushuntirish (maslahat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar haqida so'zlash, o'rnak bo'lish).

2. Nasihat berish (o'git, undash, ko'ndirish, iltimos qilish, oq yo'l tilash, yaxshiliklar haqida so'zlash, raxmat aytish, duo qilish).

3. Namuna bo'lish (maslahat so'rash, o'rnak bo'lish).

4. Jazo (ta'kidlash, ta'na-gina, tanbeh berish va h.k.)

Axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab tarbiya usullari quyidagi turlarga bo'linadi:



14-rasm.



15-rasm.

www.ziyouz.com kutubxonasi



16-rasm.

Tarbiya usullarini o'rganish, tahlil qilish - bu usullardan pedagogik jarayonda foydalanish ko'nikma va malakalarni egal-lashni osonlashtiradi. Ularni shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1) ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar; 2) faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq va tajribalarni shakllantirish usullari; 3) o'z-o'zini tarbiyalash usullari; 4) rag'batlantirish va jazolash usullari.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar. Bu guruhga o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e'tiqodni ma'naviy va siyosiy g'oyalarni shakllantirish maqsadida ularni ongi, hislari, irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari kiradi. Bu guruq usullarining mohiyati shundan iboratki, ular orqali jamiyat o'quvchilar ongiga qanday talablar qo'yayotgani etkaziladi. Yoshlarning dunyoqarashini shakllantirish, hayot mazmunini tushunib olishlariga ko'maklashishi uchun ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar ishlatiladi. O'quvchilarda siyosiy onglilik va ijtimoiy faolligini tarbiyalash lozim. Tushuntirish bu ijtimoiy ongni shakllantirishda eng muhim ishlatiladigan omildir.

Tushuntirishning vazifasi o'quvchilarni yuksak madaniyatli, milliy g'ururli qilib tarbiyalashga yordam berishdan iborat.

Tushuntirishda o'quvchilarda mamlakatimiz fuqarosining o'z davlatiga nisbatan huquqlar va burchlar bilan bog'langanligi borasida ma'lumotlar beriladi. Bunda davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi, konstitutsiyasiga sadoqat ruhida tarbiyalashning roli katta.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Suhbat va hikoya. O'quvchi shaxsini g'oyaviy-axloqiy shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirli usul hisoblanadi.

Suhbat turli mavzularda uyushtirilishi mumkin. Axloqiy mavzular (kishilarning jamiyatdagi axloq mezonlari, o'zini tutish qoidalari), estetik mavzularda (tabiat go'zalligi hamda inson go'zalligi), siyosiy mavzularda (davlatning ichki va tashqi siyosati), ta'lim va bilimga oid mavzularda (koinot, hayvonot dunyosi).

Suhbat davomida o'quvchilarni qalbidagi fikrlarini aytishga, jasoratini uyg'otishga, o'quvchilarni fikrlashga majbur qiluvchi savollar berish juda muhimdir. Bu borada bahs va munozaralarning ahamiyati katta.

Hikoya. O'quvchilar, odatda, hayotdan va boy badiiy adabiyotdan olingan aniq misol bilan to'liq hikoyalarni tinglaydilar. Ularga axloq mezonlari, tarix qoidalari, Vatanimizning tarixiy, tabiiy boyliklari, san'at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot, radio, televidenie, Internet tarmoqlaridagi, gazeta va jurnallardagi maqolalar ham qimmatli material bo'ladi. Suhbat ham, hikoya ham o'quvchilarning yoshiga mos mavzularda ular tushunadigan so'zlar orqali ravon va jonli o'tkazilishi kerak.

Namuna. O'quvchilar o'z atrofidagi kishilarda hamma yaqin axloqiy sifatlarni ko'rishlari va namuna olishlari nihoyatda muhimdir. O'qituvchining shaxsan o'zi namuna bo'lishi, ayniqsa yoshlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Ular o'qituvchining darsda va hayotda o'zini qanday tutishini, muomala qilishini, o'z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar. O'quvchilar o'zlariga yaqin kishilarning xulq-atvoriga taqlid qiladilar. Xulq-atvor bolalarda yaxshi sifatlarning, ba'zan esa yomon sifatlarning ham tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi va ota-onalar har qanday holatda ham o'zlarini tuta bilishlari kerak. Maktablarda ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuvlar o'tkaziladi. Bolalar o'z ota-onalarining ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyatlari bilan faxrlanadilar. Ularga taqlid qilishga intiladilar. Namuna xalq pedagogikasida ham keng foydalanilgan. Ota-bobolarimiz o'z farzandlarini hamisha yaxshilardan, donolardan, ulug' kishilardan ibrat olishga da'vat qilib kelganlar. Masalan, «Qush inida ko'rganini qiladi», «Onasini ko'rib qizini so'ra», «Axloqni axloqsizdan o'rgan», «Bola oldida birovlarning g'iybatini qilma, bolang g'iybatchi bo'ladi». Shu oddiy iboralar ostida qancha fikrlar jamlanib yotganligining guvohi bo'lamiz.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirish usullari. Bola rivojlanishining, o'zligini bilishning asosiy omili - bu faoliyatdir. Faoliyat nuqtai nazaridan yondashilgan qoida maktab hayotining hamma jabhalarida ta'lim-tarbiya jarayonlariga singib ketadi. Faoliyat o'quvchilar bilimlarini mustaqil egallashga undaydi, ularni qay ixtisosga moyilliklarini aniqlashga, ijodiy faoliyat tajribasini, hissiy qadriyat munosabatlarini o'zlashtirishlariga yordam beradi. O'quvchilarni birinchi sinfdan boshlab imkoniyat darajasidagi foydali mehnat bilan shug'ullanishlariga erishish lozim. Bunday mehnat ko'pchilik jamoa bo'lib bajarilganida yaxshi natija beradi.

Mashq va o'rgatish usullari. Bolalar faoliyatini oqilona maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil qilish mumkin. Mashq-bolalarni axloq mezonlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. O'quvchilar odatlarni yaqinlaridan meros qilib olmaydilar, balki ular bilan muntazam muloqotlari tufayli taqlid qilish, tarbiya orqali hosil qilinadi. Oxir-oqibatda odat ehtiyojga aylanadi.

Mashq muayyan xatti-harkatlarni ko'p marotaba takrorlashni o'z ichiga oladi. Mashq natijasida ko'nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi. Mashq va odatlantirish o'quvchi uchun ongli ijodiy jarayondir.

O'rgatish. Ijodiy xulq-atvorning odatiy shakliga aylantirish maqsadida o'quvchilarning bajarishlari uchun rejali izchil tarzda tashkil qilinadigan turli harakatlar amaliyot ishlaridir. O'rgatish bir necha izchil harakatlar yig'indisidir. O'qituvchi bu harakatlarni ko'rsatib berishi, tushuntirishi lozim. Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli xillari mavjud. Faoliyatda mashq qilish mehnat ijtimoiy faoliyat, jamoadagi faoliyat, o'zaro munosabat odatlarini tarbiyalashga qaratilgan. Kun tartibi mashqlari maktabda, oilada o'rnatiladigan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog'liq o'z istak va harakatlarini boshqarish hamda bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanish odatiga o'rgatadi.

Topshiriq. O'quvchilarning mehnat topshiriqlarini jamoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik talab - bu usul tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Talab - bu o'quvchining turli vazifalarni bajarishi; ijtimoiy

www.ziyouz.com kutubxonasi

xulq-atvor mezonlarini ifodalashi; u yoki bu faoliyatga qatnashib, bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo'lishi; u yoki bu haraktda rag'batlantiruvchi yoki uni to'xtatuvchi bo'lishi; oqilona harakatlarga undovchi bo'lishi mumkin[1].

O'z-o'zini tarbiyalash usullari. O'quvchida o'z-o'zini tarbiyalashga, ya'ni o'z ustida ongli batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblasa bo'ladi. O'z-o'zini tarbiyalash o'quvchilarning o'zini-o'zi idora qilishi organlari faoliyatida qatnashishlari, ularning ijtimoiy faollik mavqeini shakllantirishning ta'sirchan vositasidir. O'quvchilar o'qishda, tarbiyada, dam olishda o'z-o'zini tarbiyalash usullaridan foydalanadilar, o'z-o'zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydilar. O'z-o'zini tarbiyalash sifatlari bola bunga tayyor bo'lganda, u o'zini shaxs deb anglay boshlagach, amaliy ishlarga mustaqillik ko'rsata boshlagan vaqtda paydo bo'ladi.

O'z-o'zini tahlil qilish – o'z shaxsini, fazilatlarini tahlil qilishga xatti-harakatlari haqida o'ylashga o'rgatadi. O'z-o'zini nazorat qilish uchun o'quvchi o'zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy odatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O'z-o'zini baholash - o'quvchining qobiyalitini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordam beradi. O'z-o'zini baholash o'zining imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, baholash, chetdan turib xolisona baho berish, o'zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.

Tarbiyada rag'batlantirish usulidan qanday foydalaniladi, uning qanday turlari va ahamiyati bor, degan savol ko'pchilikni qiziqtirsa kerak. O'quvchi, bolalarning har biri o'sib, kamol topib borayotganidan xursand bo'layotganini sezishi kerak. Faqat shundagina bola o'zining olg'a siljib borayotganini ko'ra biladi. Bunga erishish uchun rag'batlantirish usulidan foydalaniladi. Rag'batlantirish bolaga ishonishga, unda bo'lgan ijobiy qobiliyat va fazilatlarning kuchini e'tirof etishga asoslangan. Rag'batlantirish o'quvchining ko'nglini oladi, uni quvontiradi, yanada yaxshiroq bo'lishga undaydi.

Rag'batlantirishning quyidagi turlari mavjud:

---

[1] Pedagogika. O'quv qo'llanma. A.Munavvarov tahririda. T., «O'qituvchi», 1996, 129-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

O‘quvchining kuchi etadigan mas’uliyatli topshiriq berish orqali bolaga ishonch bildirish; maqtash: (ota-ona, jamoa oldida); esdalik sovg‘a berish; maqtov yorlig‘i berish; stipendiya bilan taqdirlash; teleko‘rsatuvlarda maqtash; hurmat taxtasiga rasmini qo‘yish; qo‘llab-quvvatlash; ma’muriyat va jamoaning minnnatdorchiligi; musobaqalarda bayroq ko‘tartirish; gazetada e’lon qilish; televidenieda ko‘rsatuv uyushtirish (17-rasm).



17-rasm.

Rag‘batlantirish pedagogik talab asosida bo‘lishi lozim. Tarbiyalovchi oshirib maqtashi, boshqa o‘quvchi-yoshlarga taqqoslab kesatishga yo‘l qo‘ymasligi, rag‘batlantirishga bo‘lgan talabchanligini oshirish lozim.

Pedagogikada jazolash usuliga qanday qaraladi, uning qanday turlari qo‘llaniladi, degan savolning tug‘ilishi tabiiy.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Jazolash tarbiyalanuvchining xatti harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir.

Jazo bu tarbiyalanuvchi manfaati uchun qo'llaniladigan tarbiya usuli.

O'quv muassasalarida qo'llaniladigan jazo turlari xilma-xildir (18-rasm).



18-rasm.

Tanbeh berish - eng yengil jazo chorasi bo'lib hisoblanadi.

Ogohlantirish noma'qul xatti-harakatlarning oldini olish uchun ishlatiladi.

Hayfsan berish - tanbeh va ogohlantirish kutilgan natija bermasa, o'quvchi intizomni buzaversa, hayfsan beriladi.

Uyaltirish - odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or - nomus, sharmuhayodir.

Odamda, izzat - nafs, odamiylik qancha kuchli bo'lsa, o'zini-o'zi, avvalo, hurmat qilsa, unda or-nomus kuchli bo'ladi.

Xalqimiz uyat o'limdan qattiq, deb bejiz aytmagan. Shu sababli bolani hadeb uyaltirmasdan, boshqa vositalarni ham qo'llash kerak.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Jazo haqqoniy me'yorda qo'llanilsa samarali bo'ladi.

Shunday qilib, tarbiya jarayoni inson hayotida rivojlanib, takomillashib boradi. Yuqorida ta'riflab berilgan tarbiya tamoyillari va umumiy metodlari o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish sohalarining hammasini qamrab olmaydi.

Pedagogika fani va amaliyoti har doim rivojlanib boradi, shuning uchun ham tarbiya jarayoni ham, uning qoida va usullari ham takomillashib boraveradi. Tarbiyaning samarasi - bu qoida va usullarning to'g'ri qo'llanishiga, tanlangan vosita va usullar muayyan ijtimoiy guruhda tarbiya tizimidan qanchalik o'rin olganiga, ularning tarbiya vazifalari va maqsadlariga qanchalik javob berishiga bog'liqdir.

Muammoli pedagogik vaziyatlarni eching

1. Ikkinchi sinfda har xil buyumlar: qalam, ruchka, rezinka va boshqalar yo'qola boshladi. Bir kuni sinfdagi qizchaning bosh kiyimi yo'qoldi. O'qituvchi topilmalar byurosining faoliyati haqida gapirib berdi. Bolalar topib olingan narsalar qaytarib berilishi to'grisidagi kattalardan eshitgan misollarni aytishdi.

O'qituvchi qanday tarbiya metodini qo'llagan? Bu metodning samaradorligi nimalarga bog'liq? Har doim ham ushbu metod samara beradimi?

2. Muallim quyidagicha hikoya qiladi: «O'g'lim (9 yosh) qorong'idan va balandlikdan qo'rqadi. Men imkon boricha uni ko'proq ana shu qo'rquvni yenga oladigan sharoitga qo'yaman: Goho ob-havo qandayligini bilib kelish uchun kechqurun hovliga, goho go'yo esdan chiqqan narsani olib kelish uchun qorong'i xonaga yuboraman.

O'yin paytida ayrim paytlari chuqurlikka sakraymanda, «Daraxtning hov anavi novdasini menga olib ber. Uni emas, narigi, yuqoridagisini» deyman.

O'qituvchi to'g'ri qiladimi? Bu qanday tarbiya metodi? U nima uchun samarali?

3. Dars boshlanishidan oldin o'qituvchi yerda g'ijimlangan qog'oz parchasi yotganini ko'rib, bir o'quvchiga «qog'ozni ol», deb murojaat qildi. O'sha o'quvchi sekin partadan turib «men tashlamaganman, nega olarkanman» deb, yana joyiga o'tirdi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

O‘qituvchi nima qilishi kerak? Sinfning ta’sirlanishi qanday bo‘ladi va bu nimaga bog‘liq?

4. O‘qituvchi o‘zini-o‘zi darsdan chiqarib yuborgan holni eshitganmisiz? Bunga quyidagi voqea sabab bo‘lgan edi: o‘qituvchi dars o‘tish uchun sinfga kirsa, tanaffusda navbatchilar sinfni darsga tayyorlamagan, doska o‘chirilmagan, latta yo‘q, bo‘r yo‘q. O‘qituvchi: «Shunday oddiy masalani hal qila olmagan yomon o‘qituvchi dars o‘tishi mumkin emas», - deb sinfdan chiqib, o‘qituvchilar xonasiga ketdi. Uch minutdan keyin esa sinf o‘quvchilaridan vakillar borib, o‘qituvchidan kechirim so‘rab, uni sinfga qaytishini iltimos qilishdi.

Vaziyatni tahlil qiling, o‘qituvchi to‘g‘ri yo‘l tutdimi? O‘quvchilarda ongli intizomni tarbiyalash usullari qaysi hollarda samara beradi?

Mavzu yuzasidan savollar

1. Tarbiya jarayonida tarbiya qoidalarining ahamiyati qanday?
2. «Tarbiyaning maqsadga qaratilgan bo‘lishi», deganda nimani tushunasiz?
3. Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya qoidasining hozirgi kundagi ahamiyati qanday?
4. Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini ta’minlash nima uchun zarur deb o‘ylaysiz?
5. Tarbiya usullariga nimalar kiradi? O‘zbek xalq pedagogikasida qanday usullar qo‘llanilgan?
6. Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullarga nimalar kiradi?
7. Tarbiyada rag‘batlantirish va jazolash usullariga qo‘yilgan talablar to‘grisida fikr bildiring.

Axborot manbalari

1. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1998.
2. Васильев А.С. *История религии* Востока. М., «Феникс», 1999. 425-стр.
3. Pedagogika. A.Munavvarov tahriri ostida, T., 1996. 118-132-betlar.

www.ziyouz.com kutubxonasi

4. Pedagogika. Ma'ruzalar matni. N.G'aybullayev va boshqalar.- T., 2000.
5. Подласый И.П. Педагогика. - М., «Владос», 2003.
6. I.Y Tursunov, U.N. Nishonaliyev. Pedagogika kursi. - T., 1997, 176-182-betlar.

www.ziyouz.com kutubxonasi

9-MAVZU: O'QUVCHILAR JAMOASI. TARBIYA JRAYONIDA ULARNING O'ZARO ALOQADORLIGI

1. Ijtimiiylashuv agentlari to'g'risida tushuncha.
2. Jamoaga qo'yilgan umumiy talablar.
3. Sinf jamoasini jipslashtirish va shakllantirish yo'llari.
4. Jamoaning bolalar tarbiyasiga ta'sir ko'rsatish shakl va usullari.

Ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning subyekti bo'lmish individga shaxs deyiladi (Mazkur darslikning «Shaxsning biologik va psixologik rivojlanishi» mavzusida shaxs to'grisidagi fikr bildirib o'tgan edik). Jamiyatda rivojlanuvchi, til yordamida boshqa odamlar bilan munosabatga kirishuvchi odam shaxsga-voqelikni biluvchi hamda faol o'zgartiruvchi subyektga aylanadi. Odamning insonlik jinsiga mansubligi individ tushunchasi bilan ifodalanadi. Xo'sh, shaxs va individ bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?

«...Normal odamlarni ham, chaqaloqlarni ham, tilni va oddiy malakalarni o'zlashtira olmaydigan telbalarni ham individ deb atash mumkin. Biroq bulardan faqat birinchisigina shaxs, ijtimoiy mavjudot hisoblanadi, ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchi va ijtimoiy taraqqiyotda faol qatnashuvchi odamgina shaxs deb ataladi»[1], - deb ta'kidlashadi A.V. Petrovskiy, L.S. Rubinshteyn, A.Ya. Kolomenskiylar.

«Ijtimoiylashuv - bu chaqaloqning boshqa odamlar bilan muloqatga kirishish orqali o'zini anglaydigan, o'zi tug'ilgan madaniyatni tushunadigan aqlli mavjudotga aylanish jarayoni»[2].

Zigmund Freyd o'z asarlarida bayon qilgan nazariyaga ko'ra, bola agar atrof-muhitning talablari va ong ostidagi qudratli mayllarni muvozanatda ushlab tura olsagina, mustaqil mavjudotga ay-

[1] Петровский А.В. Общая психология. - М., 1994, 147-стр.
[2] Entoni Giddens. Sotsiologiya. - T., "Sharq", 2002, 111-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

lanadi. Bizning o'zimizni anglashga bo'lgan qobiliyatimiz ongsizlik xurujlarini bosish yo'li bilan rivojlanadi.

J.G. Mid fikriga ko'ra, bola boshqalar uning o'ziga nisbatan o'zlarini qanday tutayotganliklarini ko'rib, o'zini alohida mavjudot sifatida anglay boshlaydi. Keyinroq, o'yinlarda qatnashib, o'yin qoidalarini o'rganib bola «umumlashtirilgan o'zga» - umumiy qadriyatlar va madaniy me'yorlarni tushuna boshlaydi.

Jan Piaje bolaning dunyoni ongli idrok etish qobiliyatining rivojlanishida bir nechta asosiy bosqichlarni ajratib ko'rsatadi. Har bir bosqich yangi bilish qobiliyatlarini o'zlashtirish bilan tavsiflanadi va oldingi bosqichning muvaffaqiyatliligiga bog'liq bo'ladi. Piaje fikriga ko'ra, kognitiv rivojlanishning bu bosqichlari ijtimoiylashuvning umumiy xususiyatlari hisoblanadi.

Ijtimoiylashuv agentlari bu eng muhim ijtimoiylashuv jarayonlari yuz beradigan tuzilmaviy guruqlardir. Barcha madaniyatlarda bola ijtimoiylashuvining asosiy agenti oila hisoblanadi. Bundan tashqari, tengdoshlar guruhlari, maktab, ommaviy axborot vositalari ham ijtimoiylashuv agentlaridir.

Shuni ta'kidlash joizki, ijtimoiylashuvda jamoaning o'rni beqiyosdir. «Jamoa ijtimoiy-foydali ahamiyat kasb etuvchi umumiy maqsad va birgalikdagi faoliyat uchun jipslashgan o'quvchilarning guruhidir».[1]

Jamoaga qanday talablar qo'yiladi? Sinf faqat o'quv faoliyati birligi bo'libgina qolmasdan, balki o'quvchilarga tarbiya berishni tashkil etishning muhim jamoa shakli hamdir. Z. G'oziyevning fikricha, «jamoaga qo'yilgan umumiy talablarga ko'ra jamoa a'zolari quyidagilardan qoniqish hosil qilishlari kerak:

- o'zaro munosabatlardan;
- o'qish va mehnat jarayonidan;
- rahbarlikdan;
- uyushqoqlikdan;
- ongli intizomdan;
- oqilona va foydali faoliyatdan;
- xotirjamlikdan;
- o'z qadr-qimmatini saqlashdan;
- jamoa bilan faxrlanishdan;
- himoyalanganlikdan.

---

[1] Подласый И.П. Педагогика. – М., «Владос», 2003, 236-с.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Ijtimoiylashuvda inson, shaxs va individuallikning o'ziga xos hususiyatlari mavjud (19-rasm).



19-rasm.

Jamoa a'zolariga:

- ixtiyoriylik;
- demokratik faoliyat;
- so'z erkinligi;
- tashabbuskorlik;
- mustaqillik;
- faollik;
- ijodiy faoliyat ko'rsatishlari uchun imkoniyat yaratilishi kerak»[1].

Jamoa va unga qo'yilgan talablar haqida so'z ketar ekan, **turli yoshdagi sinflarda jamoa tashkil etishning farqli tomonlari bormi? Ularning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat,** degan savol tug'ilishi tabiiy.

[1] Z. G'oziyev. Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish. T., 1997, 49-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

O'quvchilar jamoalarini tuzish guruhlarda, sinflarda turli farqlar bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun barcha sinflar uchun bir xildagi yo'l-yo'riqlarni belgilab bo'lmaydi.

Ayniqsa, boshlang'ich, V va IX sinflarda o'quvchilar jamoasini tashkil etish va jipslashtirish katta qiyinchiliklar tug'diradi. Bu sinflarda ko'pincha o'quvchilar tarkibi mutloq yangi yoki qisman o'zgaradi. Shunday ekan, o'quvchilar jamoasini yangidan tuzishga to'g'ri keladi.

VI-VII sinflarda o'quvchilar faollari kengayib boradi. Ular ko'proq jamoatchilik ishlarida qatnashadilar, o'zlarining axloqiy tajribalarini boyitadilar, mehnat qilish malakalari va ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Sinf rahbari quyi va o'rta sinflarda bu ishlarni amalga oshirishda bolalar va o'smirlar uyushmasiga, yuqori sinflarda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati yordamiga tayanadi.

Sinf jamoasini jipslashtirish yo'llari:

1. Jamoatchilik topshirig'i berish.
2. Sinf faollarini to'g'ri tanlash.
3. O'quvchilarni istiqbolga chorlash.
4. Sinfda ijobiy an'analarni qaror toptirish.
5. O'quvchilarga yagona talablar qo'yish.

Jamoatchilik topshirig'i. Jamoa bo'lib ishlash, amaliy faoliyat ko'rsatish sinf jamoasini jipslashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu faoliyat sinf jamoasi hayotini mazmundor va qiziqarli qiladi. Sinfdagi barcha o'quvchilarga, hatto qoloq, inti-zomi bo'sh o'quvchilarga ham jamoat topshirig'i berish kerak.Bu bolalarni mehnatsevarlik, tejamkorlik va tartib-intizomga o'rgatadi.

Sinfdagi faollarni aniqlash. Sinf rahbari dastlabki kunlarda-noq o'quvchilarni jamoat topshiriqlari orqali kuzatib boradi. Ular ichidan faol bolalarni tanlab oladi. Shunday ongli, tashabbuskor, tashkilotchi, a'lochi o'quvchilardan sinf faollarini saylaydi.

Jamoat ishini faqat faollar zimmasiga emas, balki barcha o'quvchilar orasida taqsimlash maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarni istiqbolga chorlash. Istiqbol - bu yorqin, qiziqarli va quvonchli voqealar manzilidir. Sinfda yorqin va jozibador istiqbollarning bo'lmasligi, bu jamoada bir xillik va zerikarli holatlarni keltirib chiqaradi.

Istiqbol, odatda, oddiy kundalik ishlar: sinf xonasini jihozlash, kutubxona tashkil etish, musobaqalarga tayyorlanishdan boshlanib,

www.ziyouz.com kutubxonasi

sayr-tomoshalarga chiqish, kino, teatrlarga jamoa bo'lib borish orqali davom ettiriladi. So'ngra murakkabroq istiqbolli vazifalar qo'yiladi: kecha tayyorlash, dramatik to'garak tashkil qilish, olimpiadalarda qatnashish, sovrinlarni («Zulfiya», «Nihol» kabi) qo'lga kiritish uchun harakat qilish kabi.

Sinfda ijobiy an'analarni qaror toptirish deganda nimani tushunasiz?

«An'ana» - asli arabcha so'z bo'lib, uzoq zamonlardan beri avloddan-avlodga, otalardan bolalarga o'tib, davom etib kelayotgan urf-odatlar, axloq mezonlari, qarashlar va shu kabilardir»[1]. Bu jamoa hayotiga mustahkam o'rnashib qolgan ijobiy tajribalardir. Turli bayramlarni nishonlash, ijodiy ko'riklar tashkil etish, maktabni bitirganlar bilan uchrashuvlar, tug'ilgan kunlarni muborakbod etish kabi an'analar bo'lishi mumkin.

Har qanday an'ana sinf o'qituvchilari va ota-onalar nazaridan chetda qolmasligi kerak. Ular qo'llab-quvvatlagan taqdirdagina bu boqiy an'anaga aylanadi. Yaxshi an'ana sinf jamoasining jipslashuviga ko'maklashadi.

O'quvchilarga yagona talablar qo'yishning jamoani jipslashtirishdagi ahamiyati qanday?

O'quvchilar jamoalarining tarbiyalanganlik darajalari pastligi ko'pincha maktabda o'quvchilarga qo'yiladigan yagona talablarning yo'qligi bilan izohlanadi. Yagona talablar o'quvchilarda javobgarlik *munosabatini*, *yuksak o'zaro talabchanlikni tarbiyalashga*, ularda yuksak axloqiy odatlarni tarkib toptirishga, mustahkam an'analar yaratishga yordam beradi.

Yagona talablarni ishlab chiqishda o'quvchilarning o'zlari, sinf rahbari, ota-onalar qatnashishlari mumkin. Uni tuzishda har bir maktabning o'ziga xos xususiyatlari, mahalliy imkoniyatlari hisobga olinishi zarur. Yagona talablar buyruqbozlikka nisbatan katta afzalliklarga ega. U barcha o'quvchilar tomonidan g'oyat adolatli deb idrok etiladi, tirishqoqlik bilan bajariladi.

Sinf jamoasining shakllanishi va uning rivojlanib, uyushib borishida o'qituvchining roli juda katta. U jamoani tarbiya maqsadiga muvofiq rivojlantirishga yo'naltiradi.

Jamoaning faoliyatida sinf faollarining o'rni ham muhim bo'lib, ishonchli, faollarni tanlash uchun o'qituvchi o'quvchilarning

---

[1] A.Q. Munavvarov. Oila pedagogikasi. T., "O'qituvchi", 1994, 7-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

faoliyatini, sinf ishlariga kim qanday munosabatda bo'lishini kuzatishi, har bir o'quvchi bilan shaxsan suhbatlashib ijtimoiy ish bilan shug'ullanish istagini bilishi, ishning uddasidan chiqadigan bolalarni aniqlashi zarur. Jamoani uyushtirishda jamoatchilik topshirig'idan, o'quvchilarni istiqbolga chorlash, sinfda ijobiy an'analarni qaror toptirish va o'quvchilarga yagona talablar qo'yishdan o'z o'rnida foydalana olishi lozim.

O'qituvchilik kasbini egallagan har bir inson o'quvchilar jamoasini jipslashtirishda o'qituvchi shaxsiga xos xususiyatlarni o'zida mujassam etishi, ruhiy-pedagogik talablarga qo'yiladigan qator talablarga javob berishi, maxsus kasbiy tayyorgarlikning to'la xajmi va mazmunini uzlashtirgan bo'lishi, tanlangan ixtisos yuzasidan kerakli doirada pedagogik mahorat, texnika, nazokat, ziyraklik va kuzatuvchanlik, bilimlarni bolalarga yetkaza olish qobiliyatiga ega bo'lmog'i juda muhim. Zero, o'qituvchilar ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgata olishlari, jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarga, voqea-hodisalarga adekvat baho berishga o'rgatishlari, e'tiqodi mustaxkam vatanparvarlar qilib tarbiyalashlari bugungi kunning asosiy qirrasi bo'lib xizmat qiladi.

Muammoli pedagogik masalalar yechish

1-masala. Sinfda qator yillar davomida saylangan qat'iy «faollar» boshqarib, «passiv»lar unga bo'ysinib keldi. Lekin keyin ular bu holatga qarshi chiqa boshlashdi. Yangi sinf rahbari oldingi o'qituvchining xatosini to'g'rilash maqsadida qat'iy chora ko'rdi. Sinfda qayta saylov o'tkazilib, «faollar» o'rnini «passivlar» egalladi. Lekin bir-ikki haftadan so'ng saylov o'zini oqlamaganligi aniq bo'ldi. Yangi faollarning bir qismi o'z majburiyatini bajarishdan bosh tortsa, ikkinchi qismi kuch bilan tartib o'rnatishga harakat qilishdi. Sinfda yangi guruhlar tashkil topib, «passivlar» ikki barobar ortdi.

O'qituvchi qanday xatoga yo'l qo'ydi? Bu vaziyatda qanday yo'l tutish kerak edi? Qanday hol aktiv jamoani jipslashtirishga yordam berardi? Maktabda o'z-o'zini boshqarishning qanday xususiyatlari bor?

www.ziyouz.com kutubxonasi

2-masala. VI «B» sinf rahbari o'quvchilar o'rtasida norasmiy so'rov o'tkazishi natijasida kamsuqum Anvar sinfdagi eng faol Baxtiyordan ko'ra katta obro'ga ega ekanligini aniqladi. Baxtiyor sinfkom edi.

Shunga asoslanib Baxtiyor noto'g'ri saylangan, uni Anvar bilan almashtirish kerak, degan xulosaga kelish mumkinmi? Sinf rahbari qanday yo'l tutishi kerak?

3-masala. Yosh o'qituvchini IX sinfga sinf raqbari etib tayinladilar. Bu ancha murakkab bo'lgan va yaqinda tashkil topgan sinf edi. Sinf jamoa bo'lib uyushmagan, o'quvchilar tarqoq edi. Sinf rahbari ularni sinf va maktab ishlarini bajarishga chorlash bilan uyushtirishga harakat qildi. Bunga kuzgi ekskursiya ham yordam berdi. Bu o'qituvchiga har bir bolaning qiziqishi va imkoniyatini bilishga sharoit yaratdi. Sinfda tashkil etilgan har bir tadbir o'zaro sog'lom munosabatlarni o'rnatishga, yuqori sinf o'quvchilarining jamoadan talablarini qondirishga qaratilgan edi. Sinf o'quvchilaridan biri o'z inshosida shunday yozadi: «Men sinfga faqat o'qish uchun bormayman. Bu yerda mening doimo yordamga tayyor bo'lgan do'stlarim bor. Ilgari mening faqat ko'chada do'stlarim bor edi. Ular bilan juda ma'nosiz hayot kechirgan ekanman. Meni unday hayotdan sinfim olib chiqdi. Men go'zallikni qadrlashga, odamlarni sevishga, ularning mehriga ishonishga, o'z xatti-harakatim uchun javob berishga o'rgandim. Men sinfimga biror-bir ziyon etkazishdan xavotirlanaman».

Yosh o'qituvchi faoliyatini tahlil qiling. Ancha tarbiyasi murakkab bo'lgan sinfda ijobiy natijalarga erishishga nima yordam berdi deb o'ylaysiz?

Topshiriqlar:

I. «Bola tarbiyasiga jamoaning ta'siri» va **«Jamoaga bolaning ta'siri»** mavzularida munozara va debat uyushtiring. Ikki guruhga bo'linib, birinchi guruh jamoaning bolaga (shaxsga) ta'sirini, ikkinchi guruh shaxsning (bolaning) jamoaga ta'sirini yoritib, o'zaro munozara uyushtiring. Bunda har bir guruh o'z qarashlari va g'oyalarini hayotiy misollar bilan asoslab berishga harakat qilishi lozim.

Munozarada quyidagi ma'lumotlarga tayanishni unutmang. Jamoaning bola tarbiyasiga ta'sir ko'rsatish shakl va uslublari quyidagilar:

www.ziyouz.com kutubxonasi

1. Jamoaning jamoat fikriga tayanishi.
2. O'quvchilar jamoasida tanqid va o'z-o'zini, tanqidni rivojlantirish.
3. O'quvchilarning sinf majlisi.
4. Sinf devoriy gazetasi.
5. Makro- va mikro guruhda liderning o'rni.

II. «Men guruh sardori bo'lganimda. .» mavzusida 5 minutlik esse yozing.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Individ, shaxs va jamoa tushunchalarini qanday tushunasiz?
2. Jamoaga qanday talablar qo'yiladi?
3. Sinf jamoasini jipslashtirish va shakllantirish yo'llari nimalardan iborat, deb o'ylaysiz? Bunda sinf raqbarining o'rni qanday?
4. Jamoa bola tarbiyasiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin?
5. Sinf rahbari o'quvchini va sinf jamoasini qanday yo'llar bilan o'rganishi mumkin?

Axborot manbalari

1. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T., 1998.
2. Entoni Giddens. Sotsiologiya. - T., «Sharq», 2002.
3. Pedagogika. A.Munavvarov tahriri ostida. - T.,1996.
4. Pedagogika. Ma'ruzalar matni. N.G'aybullayev va boshqalar. - T., 2000.
5. A.V. Petrovskiy va boshqalar. Umumiy psixologiya. T., 1992.
6. Z. G'oziyev. Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish. - T., 1997.

www.ziyouz.com kutubxonasi

10-MAVZU: OILADA TARBIYA ASOSLARI. OILA TARBIYASINING ASOSIY FUNKSIYALARI

> «Xalqimiz qadim-qadimdan oilani muqaddas deb bilgan. Oila ahil va totuv bo'lsa, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikka erishiladi, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Oila farovonligi milliy farovonlik asosidir».
>
> *I.A.Karimov*

Oila jamiyat ijtimoiy tuzumining birlamchi bo'g'ini bo'lib, inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi. Oila-murakkab ijtimoiy guruh. U biologik, ijtimoiy, axloqiy, mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi, shu sababli oilalar birlashib, jamiyatni tashkil etadi.

«Oila-kishilarning qon-qarindoshlik, mulk va manfaat umumiyligi va talab-ehtiyojlarini birgalikda qondirishga asoslangan, maqsadi yagona bo'lgan majmua. Ya'ni mikroijtimoiy tuzilmadir»[1], - deb ta'kidlaydi o'zbekistonlik olim A. O'lmasov.

Jamiyatdagi o'zgarishlar oilaga ta'sirini ko'rsatganidek, oiladagi o'zgarishlar ham jamiyatga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Oila davlatning, jamiyatning asosiy tayanchi ekan, uning mustahkamligi, tinch-totuvligi, farovonligi va barqarorligidan jamiyat manfaatdordir. Oilada ma'naviy va jismoniy yetuk avlodni shakllantirish, yoshlarni oilaviy hayot qurishga tayyorlash, zamonaviy kasb-hunar sirlari bilan qurollantirish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 25-maydagi PF-3434 raqamli farmoni va unda ko'zda tutilgan maqsad va vazifalar, Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5-iyuldagi «Oilada tibbiy

---

[1] A. O'lmasov. Oila iqtisodi.-T., «Mehnat», 1998, 4-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

madaniyatni oshirish, ayollarning sog'ligini mustahkamlash, sog'lom avlod tug'ilishi va uni tarbiyalashning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishning maqsadli dasturi to'g'risida»gi 242-sonli qarorining bajarilishi mamlakatimizda sog'lom oilalarning vujudga kelishiga zamin yaratmoqda.

Oila-jamiyatning boshlang'ich ijtimoiy bo'g'inidir. U o'zida oila a'zolarining ehtiyojlari, qiziqishlari, mayllari, tarbiyasi va boshqa ijtimoiy faoliyat turlarini aks ettiradi. Ota-onalarning bola shaxsiga ilmiy dunyoqarash asoslari, ma'naviy-axloqiy, nafosat, mehnat va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida tizimli ta'sir ko'rsatish jarayoniga oilaviy tarbiya deyiladi.

Oilalar respublikamiz shahar va qishloqlarining yagona ijtimoiy-iqtisodiy umumiyligi asosida rivojlanadi. Ayni paytda oilaviy turmush va oilaviy tarbiya o'zining milliy xususiyatlariga ham egadir. Pedagogik diagnostikada oila tarbiyasi o'z milliy va demografik xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanishini hisobga olish zarur. Oilaviy tarbiyada oilaning moddiy farovonligi, madaniy-ma'naviy saviyasi, osoyishtaligi, oila a'zolarining soni, tarkibi alohida ahamiyat kasb etadi.

O'quv maskanlarida beriladigan ta'lim-tarbiya darajasi bilan o'quvchi-talaba shaxsining oilaviy turmush tarzi orasidagi aloqadorlikning pedagogik jihatdan ta'minlanganligi hamda ta'lim oluvchilarning yutuqlari, ularda shaxsiy sifatlarning tarkib topib borishini jadallashtiradi.

Yoshlarning xulqida uchraydigan nuqsonlar: yolg'onchilik, agressivlik, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda o'quv maskanlarida beriladigan ta'lim-tarbiyaning ta'sirini oshirish yo'llarini tadqiq etishda oila diagnostikasining muhim ahamiyati mavjud.

Pedagogika va psixologiya fanlarida ota-onalar bilan ish olib borishga doir turli xil yondashuvlar mavjud. Bulardan K. Leongard, Myunstenberg, Dembo-Rubinshteyn, E. Klimov, I. Grebennikov, A.Q. Munavvarov, M. Qur'onov, O. Musurmonova, L. Mahmudovalar tomonidan yosh va pedagogik psixologiyaga asoslangan holda yaratilgan ma'rifiy-axborotli yondashuvlardir. Bu yondashuvlarning mazmuni va mohiyatidan kelib chiqqan holda ota-onalarga uzluksiz va ma'lum tizim asosida yordam berish maqsadida oila uchun ommaviy ta'lim dasturlari ham ishlab chiqilgan. Bu dasturlar asosida oilaning yoshlar tarbiyasidagi rolini faollashtirishga muvaffaq bo'linmoqda.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Ma'lumki, aniq manzilga qaratilgan har qanday faoliyat o'z samarasini beradi, shuning uchun muayyan ijtimoiy-pedagogik yordamga muqtoj oilalarni ijtimoiy pedagogik tashxis asosida aniqlab, ularga real yordam ko'rsatish, ya'ni oilada valeologik sog'lom turmush tarzini shakllantirish va bolalarga to'g'ri tarbiya berish maqsadga muvofiqdir. Oila tarbiyasida aynan oila diagnostikasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir oilaning ehtiyojlarini inobatga olgan holda ularga ijtimoiy-pedagogik yordam berishda maxsus amaliy ishlar (spes-praktikumlar) muhim ahamiyatga ega.

Oilada sog'lom turmush tarzini barqarorlashtirish bo'yicha amaliy ish quyidagicha amalga oshiriladi:

- maqsadni belgilash, ya'ni oiladagi erishilgan yutuqlarni aniqlab, ularga suyangan holda ota-onalarning yana qanday imkoniyatlarga ega ekanliklarini hamda qanday yordamga muhtoj ekanligini belgilash;

- harakatlar algoritmi, ya'ni ota-onalar orasida oila tashxisini o'rnatishga doir anketalar tarqatish, ularga javoblar olish, tahlil etish, ularning tavsifiga ko'ra, ota-onalarni kichik guruhlarga ajratish va tashxis natijalari bilan tanishtirish kabi faoliyatdir;

- diagnostika asosida pedagogik konsiliumlarni tashkil etish, psixologik xizmatni amalga oshirish rejalarini tuzish ishlari amalga oshiriladi.

Bu oilaviy tarbiyaning o'ziga xosligi shundaki, u bolalarga ota-ona, qon-qardoshlik, avlod-ajdod xislatlarini uzatadi, uning davomiyligini saqlaydi, farzandni shaxs sifatida shakllantiradi, hayotga tayyorlaydi.

«Oilaviy tarbiya doimo o'zining murakkab va ko'p qirraliligi, ajoyib va serjiloligi bilan ajralib turadi» (42,54), - deb ta'kidlaydi A. Munavvarov. Har bir oila o'ziga xos bir olam, olam ichidagi va shu bilan birga olamga sig'magan olam, u tarbiya ishida o'ziga xos, takrorlanmas xususiyatlarni o'zida namoyon qiladi. Ana shuning uchun ham oilaviy tarbiyaning hammaga ma'qul tushadigan yo'l-yo'riqlari mavjud emas.

O'zbek xalqining milliy xususiyatlari: axloqiylik, o'zini-o'zi anglash, milliy tuyg'u, milliy madaniyat, milliy kiyinish va yurish-turishda o'z aksini topadiki, o'zbek oilasining tuzilishi va shaxslararo munosabatini o'rganishda bularni chetlab o'tish mumkin emas. O'zbek oilalari tuzilishiga quyidagi sifatlar xosdir: ko'p

www.ziyouz.com kutubxonasi

bolalilik; oilada otaning bosh tarbiyachi sifatida namoyon bo'lishi; qarindoshchilik, bir necha avlodlarning birgalikda yashashi.

Oilashunos olimlar: D.Abdullayeva, N.Ismoilova, F.Habibullayevlar tomonidan oilaning asosiy funkciyalari turlicha klassifikatsiya qilingan. Bu o'rinda oila funksiyalarini sanab o'tish bilan kifoyalanmay, balki ularni bir tomondan odamlarning moddiy, xo'jalik-maishiy va ikkinchi tomondan, emosional va ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarini qondiruvchi funksiyalarga farqlash muhim.

Jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lmish-oilalarning vazifalari turlituman (20-rasm):



20-rasm.

Shaxs tarbiyasida oila vazifalari

Har bir oila ijtimoiy tizim sifatida jamiyat oldida quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi: iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ, regulativ (boshqaruv).

Oilaning iqtisodiy funksiyasi uning asosiy **tarbiyaviy funksiyasidir**. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoning faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmay, balki uning so'ngi g'ishti qo'yilguncha javobgardir. Jamiyatning komil fuqarosini shakllantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining muhim funksiyasi darajasiga kiradi. Chunki shaxsning ijtimoiylashuvi dastavval oilada amalga oshadi (37, 41).

Oilaning kommunikativ funksiyasi oila a'zolarining o'zaro muloqot va o'zaro tushunishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Oilaning rekreativ funksiyasi. Nikoh-oila munosabatlari yuzaga kelgan dastlabki, ibtidoiy zamonlardan buyon unga xarakterli bo'lgan xususiyatlardan biri, oila a'zolarining axloqiy-psixologik himoyalanishini ta'minlash, yosh bolalarga va mehnatga yaroqsiz kishilar yoki keksa qarindoshlarga moddiy-ma'naviy va jismoniy yordam ko'rsatish kabilardan iborat bo'lib kelgan.

Bu holat oilaning rekreativ funksiyasini tashkil qiladi. Oilaning rekreativ funksiyasi - o'zaro jismoniy, moddiy, ma'naviy va psixologik yordam ko'rsatish funksiyalaridan biri hisoblanadi.

Oilaning muhim bo'lgan funksiyalaridan yana biri - bu **uning reproduktiv** (jamiyatning biologik uzluksizligini ta'minlash, bolalarni dunyoga keltirish) funksiyasidir. Bu funksiyaning asosiy mohiyati inson naslini davom ettirishdan iboratdir. Oilaning vazifasi faqatgina yangi avlodni dunyoga keltiribgina qolmasdan, insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab yashab kelayotgan ilmiy va madaniy yutuqlari bilan tanishtirgan holda, ularning salomatligini saqlab turishdan ham iboratdir. Tabiatan berilgan avlod qoldirish instinkti insonda farzand ko'rishga ularni o'stirishga va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojga aylanadi. Bu ehtiyojlarni qondirmasdan turib, kishi, odatda, o'zini baxtiyor his eta olmaydi.

Oilaning felisitologik funksiyasi. Hozirgi zamon oilasining tobora ahamiyati ortib borayotgan funksiyalaridan biri uning felisitologik funksiyasidir (italyancha «felicite» - baxt degani). «Shaxsiy farovonlikka erishishga intilish oilaviy munosabatlar tizimida ko'p jihatdan hal qiluvchi omil bo'lib bormoqda. Oilada, erxotinning bir-birini to'liq tushunishi-ularning o'zlarini baxtli his qilishlarini ta'minlaydi. Shuningdek, o'zidagi mavjud tabiiy-ijodiy imkoniyatlarni (iqtidorni) ro'yobga chiqarish, jamiyat va oila doirasida sarflash ham insonga o'zini baxtli his qilish imkonini beradi»[1]. Keyingi vaqtlarda insonning imkoniyatlari ortgan sari uning baxtga intilish darajasi ham ortib bormoqda.

Oilaning regulativ funksiyasi oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqarish tizimini, shuningdek, birlamchi ijtimoiy nazoratni, oilada ustunlik va obro'ni amalga oshirishni ifodalaydi. Bunda kattalar tomonidan yosh avlodni nazorat qilish va ularni moddiy hamda ma'naviy tomondan qo'llab-quvvatlash nazarda tutiladi.

---

[1] G. Shoumarov. Oila psixologiyasi. – T., "Mehnat", 2000, 42-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Oilaning relaksatsiya funksiyasi uning eng asosiy funksiyalaridan biridir. Bu degani oila a'zolarining jinsiy, emotsional faoliyatini, ruhiy-jismoniy quvvatini, mehnat qobiliyatini yana qayta tiklash demakdir[1].

Oila funksiyalarining muvaffaqiyatli bajarilishi har qanday oila baxtini ta'minlovchi mezon hisoblanadi. Shuning uchun oilaning o'z funksiyalarini muvaffaqiyatli bajarishi nafaqat uning ichki holatiga, shu bilan birga jamiyatning ijtimoiy sog'lomligiga ham ta'sir etadi.

Bola maktabga kelgunga qadar oilada tarbiyalanadi. Oila bolaning dunyoqarashi, xulqi va didiga ta'sir ko'rsatishi tabiiy qoldir. Ota-onalarning bolalarni tarbiyalashdagi eng birinchi vazifalari ularning sog'ligini saqlashdir. Buning uchun bola to'yib ovqatlanishi, gigiyena talablariga rioya etishi lozim bo'ladi. Ota-onalar o'zlarining mehnat faoliyatlari, xulq-atvorlari bilan ham bolaga namuna bo'lishlari shart. O'zaro oilaviy jamoada yaxshi iborali so'zlashuvni tashkil etish lozim.

Ota-onalar bolalarining maktab-o'quv vazifalarini yaxshi bajarilishini ta'minlash uchun quyidagilarga rioya qilsalar maqsadga muvofiqdir:

bolalarning darsga kech qolishlariga va sababsiz dars qoldirishlariga yo'l qo'ymaslik;

- ularning mashg'uloti uchun uyda qulay sharoit yaratish;

bolalarning uy vazifalariga halollik bilan qarashga o'rgatish, ularning g'ayrat va chidamliligini oshirish;

- bolalarni vijdonli va rostgo'y bo'lishga, mustaqil ishlarga o'rgatish.

Oiladagi sog'lom muhit, odamiylik, insonparvarlik munosabatlari farzandning ruhiy dunyosiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ota-onaning o'zaro yaxshi munosabati, mehribonligi, g'amxo'rligi oiladagi farzandlarning munosabatlarini to'g'ri shakllantirishga yordam beradi. Ona qizida muloyimlik, shirinsuxanlik, qizlarga xos oriyat, uyatchanlik, ibo, iffat kabi fazilatlarni tarbiyalash bilan birga, unga uy-ro'zg'or yumushlarini o'rgatish ham lozim. Ota o'g'lida to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik, olijanoblik, fidoiylik, saxovatpeshalik kabi hislatlarni shakllantirishi bilan birga uyda erkaklar bajaradigan barcha yumushlardan xabardor qilishi kerak. Ayrim statistik ma'lu-

[1] O'sha joy. 54-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

motlarga qaraganda, bugungi intensiv turmush tarzini kechirayotgan oilalarda ideal siymoga yaqin ota haftasiga farzandlari tarbiyasiga atigi 1,5 soat, ona - 4-5 soat, ish bilan mashg'ul deb qaraluvchi ota - 12 minut, ona - 3 soat vaqtini ajratar ekan[1]. Bundan ko'rinib turibdiki, bu ajratilgan vaqt bolalarning barkamol shaxs sifatida qaror topishida yetarli emas.

Ayrim oilalarda erkaklarning bola tarbiyasidagi ishtiroki kam vaqtni egallaydi. Shu sababli, bugungi kunda ko'cha bezori, deviant xulqi buzilgan bolalar paydo bo'lmoqda.

Ma'lumki, oila va qarindoshlik munosabatlari har qanday kishi hayotining zaruriy qismi hisoblanadi. Oilaviy munosabatlar er va xotin, ota-onalar va bolalar, aka-ukalar va opa-singillar o'rtasidagi munosabatlar har jihatdan iliq va qoniqarli bo'lishi mumkin. Ammo bu munosabatlar yoshlarni chuqur umidsizlik va gunohkorlik tuyg'ulariga yetaklovchi muammolar va ixtiloflar bilan ham to'ladir. «Oilaviy hayotning «qorong'u tomonlari» televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalarida namoyish qilinadigan ayrim ko'rkam manzaralariga ziddir. Oilaning buzilishiga va ajralishiga olib keladigan ziddiyatlarni, janjallarni hisobga olgan holda, oilaviy hayotning o'ziga tortmaydigan ko'pgina salbiy tomonlari ham mavjud. Ba'zan ruhiy kasalliklar ham oilaviy munosabatlar xarakteriga ta'sir etadi. O'zining salbiy oqibatlariga ko'ra, oilaviy hayotdagi agressivlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik va boshqa illatlar og'ir holatlar hisoblanadi» (30, 450).

«Ayniqsa, ota-onalar ajralishining bolalarga o'tkazadigan salbiy ta'sirini baholash juda qiyin. Ajralish oldidan ota-onalar o'rtasidagi tortishuvning qanchalik kuchli ekanligiga, bolalarning yoshiga, ularning qarindoshlari bor-yo'qligiga, farzandning ajralgan ota-onaga bo'lgan munosabatlariga, har ikki ota-onaning tez-tez ko'rishib turish imkoniyatining bor-yo'qligiga ko'p narsa bog'liq. Bular va boshqa bir qator omillar bolaning ko'nikish jarayoniga ta'sir ko'rsatadilar. Hatto oiladagi ruhiy-ma'naviy tanglikni bolalar tezda seza olish qobiliyatlariga egadirlar. Ajralish holatlarining salbiy oqibatlari ular uchun nihoyatda og'ir kechadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalari ajralganidan so'ng, ko'p holatlarda bolalar o'zlariga kela olmay, xomush yurishadi.

---

[1] Sh. Abdullayeva. O'spirinlarning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish. – T., «Fan», 2005, 87-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Navoiy, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarining tumanlari va shaharlarida yaqin ora (2002-2006 yillar)da ajralgan ellik sakkizta oilalarning bolalari turmush tarzini hamda hayotini o'rganish shundan dalolat berdiki, mazkur oilalardagi 4-6 yoshli maktabgacha davr yoshidagi, 7-11 kichik maktab yoshidagi hamda 12-14 yoshli o'smirlar va 15-17 yoshli ilk o'spirinlar stress ta'siri ostida ekanligi aniqlandi. 2001 yilning kuz oyida o'tkazilgan so'rovda qatnashgan 142 ta bolaning qariyb barchasi ajralish vaqtida o'tkir emotsional holatni boshidan kechirganlar. Maktabgacha yoshdagi bolalar ba'zan yuz bergan holat uchun o'zlarini aybdor hisoblab, kuchli tashvish va iztirob chekishgan. 12-14 yoshdagi o'smirlarning 69 tasida, ya'ni 48,6 foizi ajralish natijasida xulqida qo'rslik, qo'pollik alomatlari kuzatildi. 15-17 yoshdagi 57 nafar o'spirin ota-onalarining niyatlarini tushunsalarda, lekin ajralish oqibatlari va o'zlarining kelajaklari uchun xavotirda ekanliklarini bildirdilar. Ularning 40,1 foizida g'azablanish va agressivlik holatlari kuzatildi. Biroq to'rt yillik davr oxirida (2005-yil) bolalarning 2/3 qismi uydagi hayotidan va tevarak-atrofdagilari bilan muloqotidan har holda ko'nikkanliklarini bildirishdi. Ularning 1/3 qismi yolg'izlik va yaqin odamlarini yo'qotish qayg'usida o'z hayotlaridan qoniqmaganliklarini namoyish etishdi. O'tkazilgan so'rovnoma natijalaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, bolalar ota-onalarining har ikkalasi bilan muntazam muomalaga kirishishi o'ta zarur pedagogik jarayondir. Bu jarayonda ularning xulqida ijobiy sifatlarni shakllantirish mumkin» [1].

Oilada pedagogik muhitni tashxislash bo'yicha 1954 yili T. Liri, R.L. Laforje, R.F. Sucheklar tomonidan ota-onalarning interpersonal xulqini tashxislash metodikasi yaratildi. Mazkur metodikadan dunyoning ko'pgina rivojlangan mamlakatlarida hanuzgacha foydalanishadi, chunki u o'zining dolzarbligini yo'qotganicha yo'q. Ma'lumki, inson doimiy ravishda tevarak-atrofdagilar bilan muloqotda bo'ladi, shu sababli uning interpersonal xulqini 16 ko'rsatgich bo'yicha turkumlash mumkin (21-rasm).

Bizning fikrimizcha, ota-onalarning oilada individual interpersonal xususiyatlari bola tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

---

[1] Sh. A. Abdullayeva. O'spirinlarning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalash. – T., «Fan», 2005, 142-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi



21-rasm. Ota-onalarning interpersonal xulqlaridagi asosiy omillar.

Rasmda tasvirlangan ota-onalarning interpersonal xulqlaridagi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

A - ota-onaning oiladagi dominantlik xususiyati-hukm qilishadi; Ish joyida boshqara oladi, rahbarlik qila oladi, mustaqil qaror chiqaradi, o'z bolalarida hurmat tuyg'usini o'yg'otadi;

B Ota-onaning egotsentrik xususiyati-maqtanadi, kiborli, o'z-o'ziga o'ta oro beradi, qat'iyatli, o'ziga ishonchi komil, mustaqil;

C - raqobatlilik xususiyatiga ega, ekspluatatsiya qilishga moyil, ishonchsizlik bildirishga usta, bolalarida pessimistik tuyg'ularni shakllantiradi;

D - agressiv, kinoyali va kinoyaomuz xulqqa ega, qat'iyatli;

E - harakatchan, muholiflarcha harakat qiladi, ochiq, tanqidiy xatti-harakatga ega;

F - tanqidiy-shikoyatchi, jahldor, zug'um o'tkazishga moyil, ginachi, haqiqatparvar, boshqalarga o'xshamaydi;

www.ziyouz.com kutubxonasi

G shubhachi-ishonchsiz, o'zini o'zgalardan kam biladi, hushyor; bolalarida ishonchsizlik alomatlarining paydo bo'lishiga sabab bo'lishadi;

H — kamtarin - o'z-o'zini tanqid ostiga oladi, o'zini aybdorlarcha his etadi, xulqida tez-tez o'zgarishlar seziladi, orqa o'rinda bo'lishni yoqtiradi;

I - o'zini xo'rlangan, kamsitilgan his etadi, kuchsiz iroda va xarakterga ega, o'z ishini sidqidildan bajaradi, to'g'ri so'z bo'lishga harakat qiladi, o'zgalar fikrini ustun qo'yadi; bolalaridan itoatgo'ylikni talab qilishadi;

J - konformli-tez muloqotga kirishadi, kirishuvchan, o'ta mehribon, nazokatga ega, o'zgalar maslahati va rahbarligini tan oladi, o'zgalar g'alabasini chin dildan qabul qiladi, bolalarining fikrini inobatga oladi;

K - giperkonformli-kompromiss (yon berish)ga boradi, yordamga muqtoj, farzandlarining fikrini tan oladi, ishonuvchan, takallufli;

L kooperativ-kompromissga boradi, doim ko'nadi, mehribonlikka loyiq, oila a'zolari bilan hamkorlikda ishlashni hush ko'radi, kirishuvchan;

M giperaffiliativ-do'stona munosabatda ish qilishni xush ko'radi, ko'ngilchan, yoqimtoy, kirishuvchan, o'ta mehribon; bolalari bilan o'z tenqurlari kabi munosabatda bo'lishadi;

N - giperprotektiv ota-onalar-yumshoq, o'ta his-hayajonga beriluvchan (ijobiy munosabatda bo'lishga loyiq), kirishuvchan, ko'ngilchan. Bolalarining qiziqishlarini inobatga olishadi;

O mas'uliyatli-bildirilgan ishonchni oqlashga harakat qilishadi, yordamga tayyor, tashabbuskor, o'zgalar g'amini yeydi. Bolalarida mas'uliyatlilik hissini o'stirishga moyil;

P - avtokratik-hurmat va izzattalab, pedant, dogmaga moyil, boshqaruvchilik qobiliyatiga ega, maslahat berishga usta, o'zgalarni o'rgatishni xush ko'radi.

Har bir ota-ona interpersonal omillarning besh bosqichini o'z boshidan albatta kechiradi. Ayniqsa, 1, 2, 5-bosqichlar muhim ahamiyatga ega. 1-bosqich toifasiga mansub ota-onalar o'zgalar tomonidan qabul qilingan xulq-atvor normalarini qabul qilishga tayyor kishilar deb baqolanadi. 2-bosqich guruhiga moyil insonlar esa ko'proq yaqin kishilarining ota-onasi, rafiqasi, qarindosh-urug'i, do'stlari va hokazolarning axloq normalariga bo'lgan qarashlarini inobatga oladi va mazkur qoidalarga binoan yashashga

www.ziyouz.com kutubxonasi

harakat qilishadi. 5-bosqich insonlarning idealiga mos ravishda, o'zining axloqiy «Men»ini aks ettiradi.

Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, 16 ta omilning barchasi «Bo'ysunish dominantaligi» va «Do'stona-muholiflik» omillariga aloqador. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, barcha interpersonal omillar ushbu to'rtta bosqichga tobedir. Ularning kombinasiyasi shaxsning vertikal o'q orqali to'rtga bo'lingan aylanadagi bo'laklar o'rnini belgilaydi (bo'ysunish-dominantlik) va gorizontal o'q (do'stona-muholiflik).

Alohida interpersonal omillar quyidagi aspektlarda belgilanadi (22-rasmga qarang).

1) ichki aylana - adaptiv xulq;
2) o'rta aylana - o'zgalar ta'siri ostida paydo bo'luvchi xulq;
3) tashqi aylana - ekstremal holatdagi xulq.



22-rasm. Ota-onalarning interpersonal xulqlaridagi asosiy kategoriyalar.

22-rasmda raqamlar bilan quyidagilar belgilangan:

1-rahbarlik qilishga moyillik, o'z ortidan ergashtirish hissining mavjudligi;

www.ziyouz.com kutubxonasi

2-o'z-o'ziga ishonch, erkinlik hissining mavjudligi

3-musobaqalashishga istak-xohishning mavjudligi;

4-agressivlik, qat'iyatlilik;

5-samimiylik, to'g'ri so'zlik, tanqidiylik;

6-realistik tuyg'ularga ega, o'zini oqlashga moyil, nostandart xatti-harakat qiladi;

7-ehtiyotkorlik, sezgirlik, ziyraklik, kamtarinlik;

8-oiladagi deyarli barcha vazifalarni bajarishga moyillik, tobelik xususiyatiga ega;

9-hurmat ko'zi bilan qarash, o'zgalarga mahliyo bo'lish, tobe bo'lish;

10-maslahat so'rashga tayyor, oilada yangilik kiritish istagining kuchliligi, o'z yordamini ayamaslik, ishonuvchanlik;

11-hamkorlikda ishlashga moyillik, umumiy ishlarda qatnashishga bo'lgan istakning kuchliligi;

12-mehribon, muruvvatli, saxiy;

13-dilkash, sevgiga o'ch, mehribon;

14-yordamga tayyor, olishdan ko'ra berishga moyil;

15-ishni boshqarishga moyil, rahbarlik xususiyatlariga ega;

16-oilada ustunlik qilishga usta, uddaburon, qat'iyatli;

17-maqtanchoq, kiborli, izzattalab;

18-ekspluatatsiya qilishga moyil, barcha narsani inkor va shubha ostiga olishni yoqtiradi;

19-jazolashni, do'q-po'pisa, masxaralashni yoqtiradi;

20-agressiv, g'animlarcha ish ko'rishni xush ko'radi;

21-qattiqqo'l, agressiv, cho'rtkesar;

22-barcha narsadan ko'ngli to'lmaydi, agressiv,shubhali xatti-harakatni xush ko'radi;

23-xavotirli, o'zini qattiq tanqid ostiga oladi, ko'p vaziyatlarda o'zini aybdorlarcha his etadi;

24-bo'ysunuvchan, irodasiz, subutsiz, bolalariga qattiqqo'llik qila olmaydi;

25-bo'ysunuvchan, gapga kiruvchan, ta'sirchan;

26-sadoqatli, izzatli, farzandlaridan ham shuni talab qiladi;

27-kompromissga moyil, kirishuvchan;

28-hatti-harakatlarida tizimsiz, o'rtoqlashishga moyil;

29-rahmdil, mehribon, muhabbatli;

30-mas'uliyatli, ekstremal vaziyatda operativ xatti-harakat qiluvchi;

www.ziyouz.com kutubxonasi

31-pedant, dogmaga moyil, izzattalab.

O'zgaruvchanlar orasidagi munosabat aylanada kamayuvchi funksiyani tashkil etishini ko'zda tutsak, ballar yig'indisi (vertikal o'qdagi) AR omillar dominantalik qiluvchi indeksda o'z aksini topadi. Aylana markazidan olingan ko'rsatkichlargacha bo'lgan masofa shaxsning interpersonal xulqidagi adaptatsiyaga yoki ham adaptatsiyalikka moyillikni bildiradi.

Yuqorida keltirilgan ota-onalarning interpersonal xulq kategoriyalariga qarab oilada ular bilan ijtimoiy-pedagogik diagnostikani olib borish mumkin.

Fikrimizcha, ota-onalarning interpersonal xulqini nafaqat 16 omilli tizim bo'yicha, balki xulq omillarini sakkiz ko'rgazmali xulq kategoriyalari bo'yicha ham tavsiflash mumkin. Buning uchun yonma-yon joylashgan qo'shni omillar bittaga umumlashtirilib, izlanuvchi 8 kategoriyani topish mumkin (23-rasm). Bu o'spirinlar ota-onalarining interpersonal xulq-atvorini, u yoki bu vaziyatga nisbatan bildirishadigan munosabatini ham o'rganishga imkoniyat yaratadi. Masalan, AR kodli shaxsning A (dominantalik) va R(tan olingan mashhurlik) omillari uchun quyidagi xususiyatlar ustunlik qilar ekan.

Hukm, kuch va ambitsiya (tez xafa bo'lish) xususiyatlarini namoyish etishadi. Adaptatsion shaklda bu inson qobiliyatlariga asoslangan energetik mutasaddi xulq va obro' bo'lsa, ekstremal holatda avtokratik, diktat va pedantizmga xos maniakal xususiyatni namoyish etishi mumkin. Bunday tipdagi ota-onalar IJ (Harflar aylanadagi xulq turlariga mansub belgilarni bildirishadi) xulqiga mansubligini namoyon etadi.

Egocentrik shaxs - VS (o'zligini namoyish etuvchi): V - o'ziga ortiqcha erk berish; S - raqobatga asoslangan o'zligini namoyish etish.

Adaptiv holatda bunday ota-onalar bolalari bilan erkin muloqotga kirishishi, ularda ishonch hissini hosil qilishlari, o'sib kelayotgan avlodda esa hurmat nissini o'yg'otishlari mumkin. Ekstremal (kutilmagan, g'ayritasodifiy) vaziyatlarda ularda egoizm, egocentrizm, eksgibicionizm xislatlari kuchayadiki, bu ularni o'z bolalaridan uzoqlashtiradi, yoshlarning his-tuyg'ularini tushunmaslikka olib keladi. Natijada, bola tarbiyasida salbiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu xulq GHIJ bilan belgilanadi.

www.ziyouz.com kutubxonasi



23-rasm. Subyektning interpersonal diagnostik chizgisi.

Agressiv shaxs - DE (agressivlik va dushmanlik): D - mehrsizlik va qattiqqo'llik; E takallufsizlik va tanqidiylik. Mazkur xulqdagi ota-onalar bola tarbiyasida o'ta qattiqqo'lligi tufayli ikki muholiflik lageri: ota-onalar va bolalar guruhiga bo'linib, oilada mushkul vaziyat yuzaga kelish xavfi bor. Adaptiv holatda bu me'yorli vazminlik va qattiqqo'llik bo'lishi, kam adaptiv holatda esa hissiz rigidli psixopatiya, sovuqlik va shafqatsizlik holati (vaziyatni adekvat baholay olmaydigan shaxslar sababli) bo'lishi mumkin. Bunda yoshlar kattalardan hayiqa boshlab, ularga o'z sirlarini aytmaslikka harakat qilishadi va ko'p hollarda ularning ichki dunyosi ota-onalarga qorong'uligicha qoladi. Natijada, bir-biriga yot odamlar bir oilada yashayotganliklarining guvohi bo'lamiz. Bu xulqatvorlilar - FGN bilan belgilanadi.

Shubhachi ota-onalar - FG (barcha narsaga ishonchsizlik bildiruvchilar): F - o'ta ishonchsizlik; G - o'ta shubhalilik. Bu tipdagi ota-onalar ijtimoiy muhitga nisbatan bo'lgan shubhasini bolalariga ham o'tkazishga harakat qilishadi va o'zgalar bilan ma'lum masofada muloqotga kirishishi natijasida ko'p hollarda farzandlari ham kam komformli, ichimdagini top qabilada ish ko'ruvchan qilib tarbiyalanadilar.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Adaptiv holatda ijtimoiy muhit tanqid ostiga olinsa, kam adaptiv holatda shubhali xulq oqibatida ijtimoiy normalardan chetlashiladi va natijada, umidsizlik, hayotdan sovush kabi hislar ularga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Bu VSD bilan belgilanadi. Bo'ysunuvchan shaxs - HI (fan tilida: «submissivlik» deb nomlanadi): H - kamtarinona uyatchanlik; I - boshqaruvchan pas-sivlik. Mazkur xulqdagilar kamtarinligi, kuchsizligi, ayrim holatlarda subutsizligi bilan ajralib turishadi. Adaptiv holatda bunday ota-onalar emotsional his-tuyg'ularini bosiqlik bilan ko'rsatishadi, kam adaptiv holatlarda ular passiv, gipersubmissivlik, vaziyatga mos bo'lmagan xatti-harakatlar ko'rsatishadi. Ular VS va DE bilan belgilanadi.

Giperkonformli shaxs — JK (subutsizlik bilan bo'ysunuvchanlik): I - minnatdorlik hissining mavjudligi; K - xavotirli ishonch.

Tobeli konformlilik, yumshoq ko'ngillik, maslahatgo'ylikka o'chlik mazkur tipdagi shaxslarni tavsiflaydi. Adaptiv holatlarda bunday ota-onalar o'z bolalarining o'qishi va xulqiga katta e'tibor berishadi, ularning axloqiy shakllanishida eng yaqin do'st sifatida ish yuritishadi. Bu yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy kamol topishida ijobiy natijalarga olib keladi. Kam adaptiv holatlarda esa bu xulqqa mansub ota-onalar bola tarbiyasining tizginini o'z oqimiga qo'yib yuborishadi, ayrim holatlarda o'ta-ona ko'ngilchanliklari natijasida yoshlarda e'tiqodsizlikni va o'z so'zida tura olmaslik kabi xislatlarni shakllantirishadi. Jiddiy pedagogik masalalarni o'zlari hal eta olmaydilar. Bu AR va NO bilan belgilanadi.

Giperaffiliativ shaxs - LM (affiliatsiya): L - ishonchli kooperativlik hissi; M - do'stona muhabbat.

Bunday tipdagi insonlarda do'stona muloqot va o'zgalar bilan o'rtoqlashish hissi kuchli rivojlanganligi bilan tavsiflanadi.

Adaptiv holatda: ekstravertiv do'stona xulq, hamkorlikda ishlashga moyillik, konformizmga ishtiyoq, ijobiy ijtimoiy munosabatga kirishish; kam adaptiv holatda stereotipga asoslangan yoqimli, mehribon-o'zgalar hohishini qoniqtirishga tayyor, ijobiy munosabatlarni xushlaydigan. Bu MN bilan belgilanadi.

Giperprotektiv shaxs - NO (protektivlik, homiylik): N - yuqori darajadagi takalluflik; O - altruistik mas'uliyat. Bu xulqdagi insonlar omadli, dunyoqarashi keng, mustaqil, kuchli xarakterga ega bo'lgan shaxslardir. Adaptiv holatda oilada, ko'chada, uyda, jamoada o'zgalar va oila a'zolari, yaqinlari bilan do'stona munosabatda bo'lishadi, yordamga, emotsional kontakt qilishga tayyor kishilar.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Bunday oilada tarbiyalangan farzandlar deyarli ko'pchiligi mehribon, o'z so'zida tura oladigan, o'zgalar manfaatini hisobga oluvchi, kirishimli, nazokatli, ayrimlari altruist bo'lib voyaga yetishadilar. Kam adaptiv holatda KL bilan belgilanuvchi bunday shaxslar faol xatti-harakatda bo'lishadi, mas'uliyatliliklari bilan ajralib turishadi.

Intiqoviy ma'noda mazkur metod 128 ta sifatlovchi belgilarni o'z ichiga qamrab olishi mumkin. Ularning sakkiztasi doimiy ravishda interpersonal xulqning o'n oltita omillari bilan o'sish tartibida shunday joylashadiki, bunda xulqning past, o'rta va ekstremal intensiv holatini to'liq aks ettira oladi. Amaliyotda ko'p hollarda interpersonal xulqning ko'rsatilgan sakkiz omili: dominantli-submissivlik va muholifona-affiliativ o'zgaruvchanliklari qo'llaniladi (23-rasm).

Savol va ko'rsatkichlar o'rtasidagi munosabat bisserial korrelatsion koeffitsientini o'lchash bilan aniqlanadi. Bunda ularning mohiyati asosan o'rtacha ahamiyatni kasb etgan holda 0,12-0,61 diapazon atrofida tebranadi. Savollarning ijtimoiylashuvi oilalarda ota-onalarning muayyan xususiyatlari va tavsiflarini qiyoslash asosida besh ballik shkala bo'yicha aniqlandi. Alohida omillar va oktantlar uchun korrelyatsiya ahamiyati sifatida 0,993 dan 0,999 gacha qabul qilindi. Savolning qabul qilinishi va uning ijtimoiylashuvi orasidagi ahamiyati 2-bosqichdagiga nisbatan 5-bosqichda yorqin namoyon bo'ldi (bunda 20 % korrelatsiya koeffitsiyenti statistik ahamiyatlilikdan past darajada belgilandi). 2-bosqichda esa - 39 foizi korrelatsiya koeffitsiyenti statistik ahamiyatlilikdan past darajada ekanligi aniqlandi.

Ichki kelishuvchanlik koeffitsiyenti 2-bosqichda 0,35 dan 0,72, 5-bosqichda esa 0,16 dan 0,66 gacha, ayrim oktantlar uchun 2-bosqichda - 0,62 dan 0,75 gacha, 5-bosqichda - 0,46dan 0,74 gacha ahamiyatli ko'rsatkichlarga molik bo'ldi. Vaqtdagi stabillik (10 kundan so'ng tadqiqot takrorlandi) korrelatsiya koeffitsiyentlarining ishonchliligini ko'rsatdi. Bunda ayrim omillarning 0,63 dan 0,81 gacha, oktantlar uchun esa - 0,69 dan 0,80 gacha ekanligini ko'rsatdi. Mazkur metod va 16 ta RF o'rtasidagi munosabatni belgilovchi korrelyatsion matritsa 30 foizi yaqin korrelyatsiyalar statistik ahamiyatlilikka ega ekanligini yaqqol namoyish etdi.

Aylanma diagnostik modelning tahlili (ayrim og'ishlarni inobatga olmaganda) interpersonal xulqning aylanma o'zgaruvchilari joylashuvi nuqtalarining to'g'ri ekanligini isbot etdi. Omillar natija-

www.ziyouz.com kutubxonasi

lari tahlili ikki ortogonal omil (DOM va LOW) mavjudligini ham isbotladi.

Oila maktab, mahalladagi pedagog-psixologlar, faollar bilan hamkorlikda ish olib borsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu, albatta, yoshlarning ma'naviy-marifiy sohada yuksak samaradorlikka erishishlariga yordam ko'rsatadi va ularning tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi. Davlatimiz, Prezidentimiz I. Karimov tomonidan bugungi kunda bu masalaga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz farmoni bilan 2003-yil «Obod mahalla», 2004-yil «Mehr-muruvvat», 2005-yil «Sihat-salomatlik» yillari deb e'lon qilindi. Mahallalarning obodonligini ta'minlash, yoshlar orasida tarbiyaviy ishlarni olib borish maqsadida qator tadbirlar amalga oshirildi, dasturlar ishlab chiqildi. Shunday amalga oshirilayotgan ishlardan biri sifatida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2002-yil tasdiqlangan «Mahalla pedagog-tarbiyachisi to'g'risidagi Nizom»ini keltirish mumkin. Mahallaning jamiyat hayotidagi faoliyatini yanada oshirish, oila va maktab bilan hamkorligini mustahkamlash, undagi yoshlar va voyaga yetmaganlar bilan ishlashni takomillashtirish maqsadida bu lavozim tashkil etilib, har bir mahallaga pedagog lavozimi kiritildi.

Ushbu Nizom bo'yicha mahalla pedagoglari quyidagi faoliyatni amalga oshirishadi:

1. Pedagog-tarbiyachilar ishini tashkil etish.
2. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tizimlari, kasb-hunar kollejlari, litsey va maktab ma'muriyatlari bilan hamkorlikda tadbirlarni o'tkazish.
3. Sport-sog'lomlashtirish tashkilotlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritish.
4. Mahalladagi fuqarolar yig'inlari va tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan vazifalar.
5. Ijtimoiy ta'minot va mehnat bo'limlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan vazifalar.

Mahalladagi ma'naviy va ma'rifiy, axloqiy tarbiya bo'yicha mutasaddilarning xizmat faoliyatida qonunchilikka qat'iy rioya qilishi, yuqori darajada madaniyatli bo'lishi lozim. Bu lavozimga mahallada doimiy istiqomat qiluvchi, kamida 5 yillik pedagogik stajga ega, voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlashga qobiliyatli, tashabbuskor, jismonan sog'lom, ma'naviy jihatdan yetuk, hurmat-

www.ziyouz.com kutubxonasi

e'tiborli, pedagogik hamda tarbiyaviy yo'nalishda oliy ma'lumotli, sudlanmagan kishi tayinlanishi lozim.

Mahalladagi ma'naviy va ma'rifiy, axloqiy tarbiya bo'yicha mutasaddilarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

mahalla hududida yoshlar va voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish yo'nalishida tegishli muassasalar bilan hamkorlikda har chorakka mo'ljallangan ish rejasini ishlab chiqadi va shu asosda tadbirlarni amalga oshiradi;

mahallada voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, unga qarshi kurashda profilaktika inspektori bilan hamkorlikda tarbiyaviy-profilaktik ishni amalga oshiradi;

- xuquqbuzarlik va jinoyat sodir etishga moyilligi bor yoshlarni aniqlaydi, ular bilan tarbiyaviy-profilaktik ishlar olib boradi;

- mahallada voyaga yetmaganlar orasida jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida huquq-tartibot idoralari, huquqshunoslar, taniqli sportchilar, san'atkorlar, psixologlar, tibbiyot xodimlari ishtirokida tarbiyaviy aksiyalar, uchrashuvlar, davra suhbatlarini tashkillashtiradi;

yoshlarni vatanparvarlik, milliy g'urur, milliy ong, milliy istiqlol g'oyasi, milliy odob, fidoiylik fazilatlarini shakllantirishda ta'lim muassasalari, ijodiy tashkilotlar va boshqalar bilan hamkorlik qiladi;

- yoshlar orasida har qanday ko'rinishdagi separatizm va eksterimizmga qarshi qaratilgan bilim beruvchi qiziqarli uchrashuvlar tashkil etadi;

- ota-onalarga farzandlarning tarbiyasi bo'yicha amaliy-uslubiy yordam ko'rsatadi. Farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ota-onalarni mahallada faollar o'rtasida muhokama qiladi;

mahalla hududida istiqomat qiluvchi yoshlarning qanchasi o'quv yurtlariga o'qishga kirgani, nechtasi ishga joylashgani, qanchasi o'qimay-ishlamay yurganligi haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Mahalla pedagogi «Kamolot» yoshlar harakati tizimlari, «Xotin-qizlar qo'mitasi», sport tashkilotlari, fuqarolar yig'ini va ijtimoiy ta'minot bo'limlari bilan hamkorlikda qator ishlarni amalga oshiradi.

Shunday qilib, oilaviy tarbiyani oqilona tashkillashtirib, ta'lim bosqichlari, oila, mahalla, keng jamoatchilik bilan birgalikda ta'limiy va tarbiyaviy masalalarni ijobiy hal qilish mumkin.

www.ziyouz.com kutubxonasi

MUSTAQIL ISHLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Oila kodeksining mohiyatini o'rganing va tahlil qiling.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning oila, uning muqaddasligi to'g'risidagi bildirgan fikrlari aks ettirilgan maqolalari, nutqlarini o'rganing.

3. Ommaviy axborot vositalari, Internet tarmog'i orqali mamlakatimizda ijtimoiy sohada o'tkazilayotgan islohotlar, kam ta'minlangan oilalarga Davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik, mahallalarda diniy va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha maslahatchilar tomonidan olib borilayotgan ishlar aks ettirilgan ma'lumotlarni to'plang va ularni tahlil qiling.

4. Sharq va G'arb mutafakkirlarining oila muqaddasligi haqidagi qarashlarini o'rganing. Hozirgi zamon oilasining qanday asosiy turlari farqlanadi? Nikoh-oila munosabatlari qanday yuzaga kelgan? «Avesto» da oila-nikoh masalalari qanday bo'lgan?

5. Hozirgi zamon oilasining qanday asosiy funksiyalari mavjud?

6. Oilaning ijodiy va reproduktiv funksiyalari nimadan iborat? Davlatimizda bu borada qabul qilingan qanday me'yoriy hujjatlarni bilasiz?

7. Oilaning tarbiyaviy funksiyasi deyilganda nima nazarda tutiladi?

8. Oilaning kommunikativ funksiyasi nimadan iborat? Javobingizni izohlang.

9. Oilaning rekreativ funksiyasi nimadan iborat?

Oilaning felitsitologik funksiyasi jamiyatimizning faravonligida aks ettirgan dalillarni keltiring.

10. Oilaning regulyativ funksiyasi nimaga xizmat qiladi?

11. Oilaning relaksatsiya funksiyasi deganda nimani tushunasiz?

12. Nazariy dalillarga asoslangan holda «Oila farovonligi-milliy farovonlik asosidir» mavzusida o'tkaziladigan bahs-munozaraga tayyorlaning.

Bahs - munozara rejasi

1. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini. Oila, uning maqsadi va vazifalari.

2. Oila tarbiyasini takomillashtirish omillari.

3. Oilaning o'quv dargohlari va jamoatchilik bilan hamkorligi.

4. Oila tarbiyasida ota-onaning obro'si. Ota-onaning farzand oldidagi va aksincha burchlari.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Mustaqil ishlash uchun zarur manbalar

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning oila, uning muqaddasligi to'g'risidagi nutqlari, asarlari;

b) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;

s) Oila Kodeksi;

d) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 25-maydagi PF-3434 raqamli farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5-iyuldagi «Oilada tibbiy madaniyatni oshirish, ayollarning sog'lig'ini mustahkamlash, sog'lom avlod tug'ilishi va uni tarbiyalashning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishning maqsadli dasturi to'grisida»gi 242-sonli qarori.

Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent, «Sharq», 1997, - 118-b.
2. Karimov I.A. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., 2000.
3. Karimov I.A. Buyuk kelajak sari. Toshkent, «O'zbekiston», 1998.
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent., «Sharq», 1998.
5. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent, «O'zbekiston», 1994.
6. Ahwardt W. Die handschritteverzei chnisse der konislichen bibliotek zu Berlin. Sechzenter band Berlin, 1992, - 124 r.
7. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent, «Sharq», 1999, 17-70, 77-90-betlar.
8. Buronov K. Tasavvuf haqida. //Til va adabiyot ta'limi, 2001, 3-son, 31-35-betlar.
9. Irisov A. Abu Rayxon Beruniy. - Toshkent, «Fan», 1994.
10. Ibn Sino. Donishnoma. - Dushanbe: Irfon, 1990, 388-b.
11. Komilov N. Tasavvuf. Toshkent, «O'zbekiston», 1999.
12. Xasanboyeva O., Xasanboyev J. Pedagogika tarixi. – Toshkent, Ilm manbayi, 2004, 234-b.
13. Shoumarov G' Oila psixologiyasi. Toshkent, «Mehnat», 2000, 42–54-betlar.

www.ziyouz.com kutubxonasi

11-MAVZU: ILMIY DUNYOQARASH, KADRLARDA MILLIY ONG, MAFKURA VA DEMOKRATIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH

1. Bilim ilmiy dunyoqarashning asosidir.
2. Dunyoqarash mohiyati va uning turlari.
3. Kishilar ongi, dunyoqarashida yangicha fikrlashni shakllantirish zarurati.
4. Milliy istiqlol mafkurasi mohiyat-mazmuni. Tarbiya jarayonida milliy ong va tafakkurni shakllantirish.

Yosh avlodda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamma davrlarda millatning ilg'or kishilari diqqat markazida bo'lib kelgan. Insoniyat boshidan kechirgan barcha tuzumlarda davrning o'qimishli, ziyoli, bilimdon kishilari dunyo ilm faniga umuminsoniy madaniyatiga salmoqli hissalarini qo'shganlar. Bilim ilmiy dunyoqarashning asosi bo'lib hisoblanadi. Bilim olish, albatta, yoshlikdan boshlanadi. «Yoshlikda olingan ilm toshga o'yilgan naqshdir», - deydi dono xalqimiz. Bilimli kishi hech qachon tarix sahifalaridan, xalqimizning qalbidan o'chmaydi. Shunday kishilar qatorida Sharq musulmon dunyosi mutafakkirlaridan al-Kindiy, G'azzoliy, Beruniy, Xorazmiy, Naqshbandiy, Yassaviylarni, G'arb allomalari I. Kant, F. Gegel, L. Feyerbax, A. Shopengauerlarning nomlarini tilga olmasdan bo'lmaydi. Eng buyuk allomalaru donishmandlar, o'zlarining noyob asarlari, ta'lim otlari bilan insoniyat rivojiga ulkan hissa qo'shganlar. Ular umrlarini ilmu fanga bag'ishlab, bu yorug' olamdan ketar chog'i «hayot ilmini chuqur egalladingizmi?», degan savolga «hech narsa bilmay ketyapman», – degan ekanlar. Ne ajab, hayot ilmi sirli va murakkabki, anglab yetmoqqa butun insoniyat umri ham etmaydi.

Dunyoqarash, uning shakllari. Bilim ilmiy dunyoqarashning asosi. **Dunyoqarash** faqat insongagina xos xususiyat bo'lib, hay-

www.ziyouz.com kutubxonasi

vonot dunyosi boshqa narsa, buyumlar va mavjudodlar uchun bu hol yotdir. Ularda dunyoqarash kishilarning olam va uning o'zgarishi, rivojlanishi haqidagi ilmiy falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik diniy, qarashlari va tasavvurlari tizimidan iborat. Demak, dunyoqarash bu olam haqidagi yaxlit umumiylashtirilgan bilimlar to'plamidir. Kishilar tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar to'g'risida qancha ko'p ma'lumotlarga, bilimga ega bo'lsa, ularning dunyoqarashi ham shu darajada mukammal va puxta bo'ladi. Avvalo ta'kidlash lozimki ilmiy dunyoqarash turlicha bo'ladi. Turli kasb egalari turli xil dunyoqarashga ega bo'ladi.

Dunyoqarash kishilarda olam haqida yaxlit umumlashtirilgan bilimlar, g'oyalar turkumini hosil qiladigan, ularni muayyan ijtimoiy guruhlar, sinflar, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, davlatlar maqsadidan kelib chiqib baholaydigan va shunga qarab hayotdagi o'z o'rnini, amaliy faoliyat yo'nalishlarini, maqsadlarini aniqlab olishga imkoniyat beradigan ko'p qirrali va sermazmun tushunchadir.

Dunyoqarashning ikkita darajasi mavjuddir. Birinchisi, kishilarning kundalik hayotiy amaliy tajribasi hamda kasbiy faoliyati asosida to'plangan bilimlar, tasavvurlar, qarashlar tashkil qilsa, ikkinchisini ilm-fan tufayli to'plangan nazariy bilimlar, g'oyalar yig'indisi tashkil etadi. Ularning ikkalasi bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, bir-birini to'ldiradi.

Dunyoqarash ijtimoiy borliqning in'ikosidir. Unda ijtimoiy turmush aks etadi va u ijtimoiy tuzumga bog'liq bo'ladi.

Dunyoqarashning doimo o'zgarib, rivojlanib turishi uning tarixiy turlarining almashuvida yaqqol namoyon bo'ladi.



24-rasm.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Mifologik (yunoncha - mifos-naql, rivoyat, logos-tushuncha, ta'limot) dunyoqarash ijtimoiy taraqqiyotning eng boshlang'ich davriga xos bo'lgan xalq og'zaki ijodi-naql va afsonalarda gavdalantirilgan *ijtimoiy ongning asosiy shaklidir.*

«Olam qanday paydo bo'lgan? Quyosh, oy va yulduzlarni kim yaratgan? Bu sir-sinoatga to'la borliqning so'ngi qayerda?» degan savollar odamzotni azaldan qiziqtirib kelgan.

Ushbu savollarga odamzot topgan dastlabki javoblar miflarda ifodalangan va ular butun bir mifologik tizimni hosil etgan.

Qadimiy turkiy xalqlarda ham shunday mifologik tizim mavjud bo'lgan. Misol tariqasida yer, osmon, yulduzlarning paydo bo'lishi, tuzilishi va o'zaro munosabati haqidagi mifologik naqllarni keltiramiz:

1. Yer(ning) ustidan osmon do'ppiday yopib turadi. Eng balandda, o'rtada Temir qoziq yulduzi turadi. Jami yulduz yer bilan temir qoziqning atrofida chir aylanadi. Yerning ostida ham bir temir qoziq yulduzi bor. Ikki temir qoziq tortishib, yer qimirlamay turadi.

2. Hulkar avval yetti yulduz bo'lgan. Birovini yetti qaroqchi olib, oltitasi qolgan. Yetti qaroqchi Hulkar bilan Qambarning o'rtasi tushib, ularni yuz ko'rmas qilib qo'ygan. Avval ular bir-birini yaxshi ko'rishgan. Hozir Hulkar botsa, Qambar chiqadi. Qambar botsa, Hulkar tug'adi. Hulkar-qiz, Qambar-yigit deyishadi. Oxiri qiyomatda Hulkar bilan Qambar ko'risharmish.

3. Osmon qavat-qavat bo'lar ekan. Nechanchidir qavatida bir daraxt bor ekan. Har bir odamning oti yozilgan barg shu daraxtda bo'lar ekan. Odam o'lsa, barg so'lib, uzilib tushar ekan. Barg yerga tushayotganda, biror odamga tegib ketsa, shu odamning qulog'i chimirlar ekan. Shunday vaqtda kalima qaytarishi kerak ekan.[1]

Diniy dunyoqarash mifologiya (afsona) negizida shakllangan va rivojlangan, voqelikning kelib chiqishi, rivojlanishi, istiqbolini xayoliy obrazlar, tasavvurlar va tushunchalarda aks ettiruvchi dunyoqarashdir[2]. Diniy dunyoqarashning xalq ongiga singib, qalbida chuqur ildiz otib ketishining boisi shundan iboratki, ular oddiy

---

[1] Sh.Turdimov. Sir to'la dunyo // «Maktabgacha tarbiya», 1992-yil, 2-son, 40-bet.

[2] J.Tulenov, Z.G'ofurov. Falsafa. Darslik. T., «O'qituvchi», 1997-y. 25-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

kishilarning ruhiyatiga moslab, ularning hissiyoti, tafakkuriga ta'sir etadigan va ko'p vaqtgacha esda saqlanib qoladigan yorqin obrazlar, afsona va rivoyatlar shaklida izhor qilinishidadir.

Islom ta'limotidagi har bir afsona va rivoyatlarda katta hikmat, falsafiy fikr, ma'no mavjuddir. Shuning uchun ham ular barhayot bo'lib, avloddan-avlodga o'tib, bizning davrimizgacha yetib keldi. Bunday ma'naviy boylikni ehtiyot qilishimiz lozim.

Falsafiy dunyoqarash - bu olam haqidagi yaxlit va tizimlashtirilgan bilimlar yig'indisidir. Mifologik va diniy dunyoqarash hissiy a'zolarimiz orqali erishilgan ma'lumotlar asosida shakllansa, falsafiy dunyoqarash hissiy va aqliy a'zolarimiz tufayli ilm-fan yordamida to'plagan bilimlar yig'indisidir. Falsafiy dunyoqarash kishilarga tabiat, jamiyat, inson tafakkuri rivojlanishining umumiy qonuniyatlari haqida ma'lumot beradi. Shu bilan birga u insonni qurshab turgan olamni, dunyoni va uning taraqqiyot qonunlarini bilish mumkinligini, bilish esa murakkab, ziddiyatli jarayondan iboratligini ta'kidlaydi.

Hozirgi kunda dunyoqarashda yangicha fikrlashni hosil qilish mohiyati

Hozirgi kunda kishilarning ongi dunyoqarashida yangicha fikrlash yo'sini mustahamlanmasa, milliy istiqlol g'oyasi, mazmuni va mohiyati ularga tushuntirilmasa katta o'zgarish sodir bo'lmasligi mumkin. Hozirgi muhim dolzarb masalalardan biri kishilarning eskicha dunyoqarashini o'zgartirish, iqtisodiy, siyosiy, madaniy jabhalarda fikrlashni o'rgatish, mustaqillikni mustahkamlashda o'z haq-huquqlarini anglab olish va noo'xshov holatlarning hayotga kirib qolmasligiga qarshi kurashishga undashdan iborat.

Milliy ong va mafkurani shakllantirish xozirgi kun talabi ekan, bu tushunchalar mohiyatini ham chuqur bilishimiz zarur.

Milliy ong va mafkura. Ongni arabcha «aql» so'zidan olingan, deb ta'kidlaydi bir qator olimlar. Lekin ong va aql iboralari o'rtasida farqlar ham bor.

Odamning fikrlash qobiliyati nazarda tutilganda, ong va aql atamalari bildirgan ma'nolar bir-biriga mos keladi, ong ham, aql ham odam miyasining mahsulidir. «Odam onglaydi (anglaydi), aql yuritadi, fikrlaydi. Ong, shuningdek, kishining ruhiy, ruhoniy, siyo-

www.ziyouz.com kutubxonasi

siy, falsafiy nuqtayi nazarlari, diniy, badiiy qarashlarining ham majmuyi hisoblanadi».[1]

Milliy ong - bevosita har bir millat yoki elatning uzoq tarixiy etnogenez davri, turmush tarzi, iqtisodiy ishlab chiqarish usuli, diniy e'tiqodlari, madaniyati, boshqa xalqlarning o'zaro ta'siri tufayli shakllangan dunyoqarashi, iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy va madaniy-ma'naviy sohalarda faollik darajasi.

«Milliy ong - O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashning samarali omillaridan biridir»[2]. Milliy ongni davr talabi darajasiga ko'tarish uchun davlatimizda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda ta'lim-tarbiya muassasalarining roli ayniqsa muhimdir.

Mafkura (arabcha «mafkura» - nuqtayi nazarlar va e'tiqodlar tizimi, majmuyi) - jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalar majmuyi.

Mafkura ijtimoiy borliqning, ya'ni keng ma'noda jamiyat hayotining ma'naviy-siyosiy in'ikosidir, uning inson ongida aks etishi, inson tomonidan anglanib, bir butun tizim holiga keltirilishi va bu tizimning amaliy faoliyatda nazariy asos hamda ruhiy tayanch bo'lib xizmat qilishidir.[3]

Ongimiz va dunyoqarashimizda milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishimiz kerak ekan, dastlab bu mafkuraning mohiyatini chuqur anglab olishimiz kerak. Bu haqda oldingi mavzularda, boshqa fanlarni o'tish jarayonida ham ko'p to'xtab o'tilgan. Shu fikrlarni, bilimlarni yana bir esga tushiraylik.

«Aqliy hujum» usuli qo'llaniladi. Talabalar guruhlarga bo'linib, «Milliy istiqlol mafkurasi - xalqimiz manfaatlari ifodachisi», «Milliy mafkuraga qo'yilgan talablar», «Milliy mafkuraning vazifalari», «O'quvchilarga milliy mafkurani singdirish yo'llari» haqida guruh bilan muhokama qilib, o'z xulosalarini beradilar.

«Aqliy hujum» qoidalari yozilgan chizma doskaga osib qo'yiladi.

Muhokamalardan so'ng chiqariladigan xulosa:

O'zbekiston jamiyatining milliy istiqlol mafkurasi, o'z mohiyatiga ko'ra, xalqimizning asosiy maqsad muddaolarini ifoda-

---

[1] A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Jo'rayev. Vatan tuyg'usi. T., «O'zbekiston», 1996, 30-b.

[2] Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug'at. T., «Sharq», 133–134-b.

[3] Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug'at. T., «Sharq», 106–107-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

laydigan, uning o'tmish va kelajagini bir-biri bilan bog'laydigan, asriy orzu-istaklarini amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalar tizimidir.

Milliy istiqlol mafkurasi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi;
- xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlanrimizning o'lmas merosidan oziqlanadi;
- adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalari hamda xalqimizning ishonch va e'tiqodini aks ettiradi;
- yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi;
- jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi;
- millati, tili va dinidan qat'i nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptiradi;
- jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma xilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda ma'rifiy yo'l bilan singdiriladi.

Milliy mafkura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham dolzarb siyosiy-ijtimoiy masala, jamiyatni sog'lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o'z muddaolariga erishishi uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor bo'lib kelgan.

U har bir vatandoshimizning oilasi, jamiyat, el - yurt oldidagi burch va mas'uliyatini qay darajada ado etayotganini belgilay-digan ma'naviy mezondir.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas.

Bu qoida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan partiyalar, harakat va ijtimoiy-siyosiy guruhlardan birortasining dasturiy g'oyalari yagona davlat mafkurasi bo'la olmasligini anglatadi.

Milliy istiqlol mafkurasi turli siyosiy partiya va ijtimoiy gurhlar mafkurasidan ustun turadigan sotsial fenomen - ijtimoiy hodisadir. Bu mafkurada biron-bir dunyoqarash mutloqlashtirilmaydi yoki u

www.ziyouz.com kutubxonasi

mavjud siyosiy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida siyosiy qurolga aylantirilmaydi. Milliy istiqlol mafkurasi, o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi, barcha siyosiy partiyalar, guruh va qatlamlarning butun xalqimizning quyidagi umumiy manfaatlarini ifodalaydi:

- mamlakatning mustaqilligi, hududiy yaxlitligi, sarhadlar dahlsizligi;
- yurtning tinchligi, davlatning harbiy, iqtisodiy, g'oyaviy, ekologik, informatsion tahdidlardan muhofaza etilishi;
- mamlakatda fuqarolararo va millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlik muhitini ta'minlash;
- har bir oila va butun xalqning farovonligi;
- jamiyatda adolat ustuvorligi, demokratiya, o'z-o'zini boshqarish tamoyillarining amal qilishi.

Istiqlol mafkurasi tom ma'nodagi milliy mafkuraga aylanishi uchun quyidagi talablarga javob berishi zarur:

- inson qalbi va ongiga ijobiy ta'sir etadigan tushuncha va tuyg'ular, go'zal va hayotiy g'oyalar tizimini o'zida mujassam etishi;
- millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch-e'tiqod manbayi bo'lishi;
- har qanday ilg'or g'oyani o'ziga singdirishi va har qanday yovuz g'oyaga qarshi javob bera olishi;
- zamon va davr o'zgarishlariga qarab, o'zi ifodalaydigan manfaat, maqsad-muddaolarni amalga oshirishning yangi-yangi vositalarini tavsiya etadi.

Milliy istiqlol mafkurasi ana shu talablarga javob bergan taqdirdagina quyidagi asosiy vazifalarni bajara oladi:

- mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurni shakllantirish;
- hur fikrli, mutelik va jur'atsizlikdan holi bo'lgan, o'z bilimi va kuchiga ishonib yashaydigan insonni tarbiyalash;
- odamlarimiz, ayniqsa, yoshlarimizning irodasini baquvvat qilish, iymon-e'tiqodini mustahkamliligiga xizmat qiladigan ma'naviy muhit yaratish;
- vatandoshlarimiz tafakkurida o'zlikni anglash, tarixiy xotiraga sadoqat, muqaddas qadriyatlarimizni asrab-avaylash, vatanparvarlik tuyg'usini kamol toptirish;

www.ziyouz.com kutubxonasi

- xalqimizga xos bo'lgan iymon-e'tiqod, insof-oqibat, sharmu - hayo kabi fazilatlarni yanada yuksaltirish;
- mamlakatimizning ko'p millatli xalqi ongi va qalbida «O'zbekiston yagona Vatan» degan tushunchani shakllantirish va rivojlantirish.

«Mafkura jamiyatda yashaydigan odamlarning hayot mazmunini, ularning intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi»[1].

Istiqlol mafkurasini yoshlar qalbi va ongiga singdirishda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish, ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Dunyoqarash deganda siz nimani tushunasiz?
2. Mifologik, diniy, falsafiy dunyoqarash turlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Bilim-ilmiy dunyoqarash asosi ekanligini, ularning o'zaro munosabatini tahlil qiling.
4. Inson ongiga milliy istiqlol mafkurasini singdirish yo'llari nimalardan iborat?
5. Milliy istiqlol mafkurasiga qanday talablar qo'yilgan?
6. Milliy istiqlol mafkurasining vazifalarini nimalar tashkil qiladi?
7. «Oilada milliy istiqlol mafkurasini yoshlar ongiga singdirish yo'llari» mavzusida esse yozing.
8. G.Tulenovaning «Milliy ong va milliy iftixor o'sishining tarbiyaviy ahamiyati»[2] maqolasi bilan tanishib chiqing.

Axborot manbalari

1. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T., «Sharq», 1998.

---

[1] Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., «O'zbekiston», 2000, 43–46-b.

[2] G.Tulenova. Milliy ong va milliy iftixor o'sishining tarbiyaviy ahamiyati // «Xalq ta'limi», 1997, 2-son, 14–19-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

2. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - T., «O'zbekiston», 2000.

3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. (Ma'ruza matnlari uchun materiallar). T., «Yangi asr avlodi», 2001.

4. Pedagogika. Ma'ruzalar matni. N.G'aybullayev va boshqalar. T., 2000.

5. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at. T., «Sharq», 1998, 106, 133–135-b.

6. A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Jo'rayev. Vatan tuyg'usi. - T., «O'zbekiston», 1996, 30–34-b.

7. J.Tulenov, Z.G'ofurov. Falsafa. Darslik. - T., «O'qituvchi», 1997, 20–33, 176–191-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

12-MAVZU. MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA. KOMIL INSON. MUSTAQIL FIKRLASHNI TARBIYALASH

1. Axloq va axloqiylik haqida tushuncha. Axloqiy tarbiya mazmuni.
2. Ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirish yo'llari.
3. Komil insonning ma'naviy sifatlari. Inson komilligi mezonlari.
4. Mustaqil fikrlashni tarbiyalash.

Axloq, xulq va atvor so'zlari arabcha bo'lib, ular o'zbek tilida ham o'z ma'nosida ishlatiladi. Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri, ijtimoiy qoida bo'lib, bu tartib-qoida ijtimoiy hayotning istisnosiz hamma sohalarida kishilarning xatti-harakatlarini tartibga solish funksiyasini bajaradi. Axloq-ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, har bir kishining jamiyat va oiladagi yurish-turishi, tartib qoidalarining yig'indisi sifatida gavdalanadi. Demak, jamiyatga, oilaga, mehnatga bo'lgan munosabatlarda axloq namoyon bo'ladi.



25-rasm.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Donolar axloq haqida turlicha fikr bildirsalarda, ularning barchasi insonni mukammallikka erishtirishga xizmat qilivchi mesonlardan tashkil topganligini guvohi bo'lamiz.

«Axloq ilmi insonlarni yaxshi xulqlarga chaqirib, yomon xulqlardan qaytarmoq uchun yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini bayon qiladurgan, bildiradurgan bir ilmdir. Har kim axloq ilmini bilib amal qilsa, bu dunyoda aziz, oxiratda sharofatlik bo'lur.

Agar bir kishining o'zidan, ishidan, so'zidan boshqa kishilar ozor topmasalar, yaxshi xulq deyulur. Agar ozor topadurgan bulsalar yomon xulq deb atalur».[1]

«Axloq insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur.

Agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa, yaxshilikka tavsif bo'lib, «yaxshi xulqlar», agar tartibsiz o'sib, yomon ishlar qiladurg'on bo'lib ketsa, yomonlikka tavsif bo'lib, «yomon xulqlar» deb atalur».[2]

«Axloq tarbiyasi insonni axloqiy barkamollikka yetkazish va uning bashariyat jamiyatiga foydali inson qilib tarbiyalashdan iboratdir...

Bolalar suvga o'xshaydilar. Suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi, bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar o'sha muhitning shunday odat va axloqini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundan iboratki, bolalar ko'proq yaxshi va yomon axloqni o'z uylaridan, ko'chadagi o'rtoqlaridan, maktabdagi o'quvchilardan qabul qiladilar»[3]. Demak, axloq butun insoniyatga hos bo'lgan tushunchadir. Uning mohiyati shaxs xatti-harakatlari, turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi.

---

[1] Qori Nizomiddin bin mulla Hasan. «Ilmi axloq». T., «Yozuvchi», 1994, 3-b.

[2] Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T., 1994, 5-b.

[3] Abdurauf Fitrat. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Tuzuvchilar: S. Ochil, K. Qosimov. - T., «O'qituvchi», 1999, 55-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Axloqiy tarbiya mazmuni

Axloqiy tarbiya mazmuni asosan quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

1. Jamiyatga, Vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash. Bu xildagi munosabatlar shaxsning vatanparvarligi, fuqaro yetukligi, baynalminallik kabi fazilatlarda aks etadi, uning maqsadlarida vatan boyliklarini ko'paytirish, mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan amaliy ishlarida namoyon bo'ladi.

2. Mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash. Bu axloqiy munosabat shaxsning mehnat jarayonida namoyon bo'ladigan yuksak ongida, mehnatning hayotdagi rolini anglashida, xususiy va jamoa mehnatiga tayyorlik, mehnatsevarlikda ifodalandi.

3. Atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat. Shaxsning jamoatchilik, ko'pchilik manfaatini o'z shaxsiy manfaatidan ustun qo'yishidir.

4. Shaxsning o'ziga, o'z xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalashi - bu o'quvchini ongli intizom ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Axloqiy tarbiyani amalga oshirish yo'llari

Maktabda o'quvchilarga axloqiy tarbiya berishda xilma-xil usullar qo'llaniladi:

dars, ta'lim jarayonida axloqiy tarbiyani qo'shib olib borish;

ahil, inoq uyushtirilgan intizomli jamoa orqali axloqiy tarbiya berish;

to'g'ri rejalashtirilgan tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish orqali;

maktabda ijobiy emotsional sharoit yaratish orqali. Masalan, Mustaqillik kuni, Navro'z bayrami;

barcha o'quvchilarning maktabdagi umumiy va yagona tartib qoidaga rioya qildirish orqali;

turli tushuntirish, uqtirish, suhbat, munozara, rag'batlantirish, jazolash usullaridan foydalanish orqali;

tarbiyaviy soatlar, «Odobnoma», «Ma'naviyat asoslari» darslari saviyasini oshirish orqali;

mehnat ilg'orlari, ilm-fan xodimlari, mehnat faxriylari, hojilar bilan uchrashuvlar uyushtirish orqali;

www.ziyouz.com kutubxonasi

maktabda turli kechalar, olimpiada, festival, musobaqalar o'tkazish, turli axloqiy-ma'rifiy teleradio eshittirishlaridan foydalanish;

dars va tarbiyaviy tadbirlar jarayonida milliy qadriyat va an'analarimiz aks etgan asarlarni o'qib-o'rganish orqali.

Insonning ma'naviyati uning odobi, xulqi, madaniyatidan tashkil topadi. Ma'naviyat esa aqliy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi.

Sifat alohida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalovchi kategoriyadir.

Fazilat - alohida shaxs, el, elat, xalq ulusga taalluqli bo'lgan ijobiy axloqiy sifat majmuyi.

Odamning inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamolat darajasi odob, axloq, madaniyat, ma'naviyat elementlarining unda qanchalik mujassamlashganligi bilan belgilanadi. Shu o'rinda bu kategoriyalarning mohiyati ustida to'xtalib o'tish joizdir.

Odob har bir insonning o'zi bir inson yoki jamoa bilan bo'lgan muloqotida hamda yurish-turishida o'zini tuta bilishidir.

Axloq jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq-odob normalari majmuyi.

Madaniyat - jamiyat va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to'plangan barcha ijobiy yutuqlar majmuasi.

Ma'naviyat - inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy, ruhiy, intellektual fazilatlar majmuasi.

Mushohada qilish aqlning peshlanishiga olib keladi. Aql ongni sayqallaydi, ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson sekin - asta takomillashib, komillikka erishib boradi.

Musulmon axloqining asoslari mazmunan boy va rang-barang ko'rinishlarda namoyon etadi. Qur'oni Karimdagi, hadisi sharifdagi asrlar davomida ota-bobolarimiz hayotida tarkib topgan milliy urf-odatlar, ma'naviyatimiz sarchashmalari Forobiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa olimu yozuvchilarning axloq haqidagi fikr mulohazalari hozirgacha o'z qadr-qimmatini yo'qotmagan.

Milliy istiqlol mafkurasining ma'naviy, madaniy va yuksak axloqiy-ruhiy qadriyati shundaki, u hamma vaqt har qanday sharoitda kishini halollikka da'vat etadi. Zotan uning siyosiy ahamiyati va ma'naviy qadriyati ham xuddi shu bilan belgilanadi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Ma'naviy-axloqiy tarbiyada vijdonning o'rni

Tarbiyada vijdon eng oliy ma'naviy-insoniy sifatdir. Vijdon tushunchasi, insonning vijdoniy sifati, uning ongi, qalbi, aqli va irodasiga bog'liqdir. Chunki insonning ichki ruhiy kechinmalarida yaxshilik va yomonlik doimo kurashda bo'ladi. Agar inson biror ma'naviy vaziyatda o'z qalbiga quloq solib, irodasini ishga solsa, g'arazgo'ylik, mansabparastlik, molparastlik kabi g'ayri insoniy illatlardan ustun chiqib oqilona ish ko'rsa uning vijdoniy sifati yuqoriligini ko'rsatadi. Inson qalbida g'ayri insoniy illatlarning ustun bo'lishi aslida ma'naviy kasallikdir. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida shunday deyiladi: «Milliy mafkura insonga faqat moddiy boyliklar va ne'matlar uchun emas, avvalo, Alloh taolo ato etgan aql-zakovat, iymon-e'tiqod tufayli yuksak ma'naviyatga erishish uchun intilib yashash lozimligini anglatadigan, bu murakkab va tahlikali dunyoda uning taraqqiyot yo'lini yoritadigan mayoqdir»[1].

Har bir kishi o'z-o'ziga, kasbiga, davlatiga, xalqiga, insoniyatga, olamga vijdoniy munosabatda bo'lishi lozim.



[1] Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - T., «O'zbekiston», 2000, 6-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Jamiyat mafkurasi - milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda katta rol' o'ynaydi. Ularning merosini o'rganish talabalarni ruhiy-ma'naviy barkamol inson etib tarbiyalashga katta yordam beradi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturning ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy qimmati, eng avvalo, shundan iboratki, u jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. Mamlakatimiz Prezidenti «Tafakkur» jurnali bosh muharririning savollariga bergan javobida aytgandek, bunday odamlar uyushgan jamiyatni, u barpo etgan ma'naviy-ruhiy muhitni soxta aqidalar, baqiriq-chaqiriqlar, havoyi shiorlar bilan aslo buzib bo'lmaydi. Ularni aql-idrok va qalb amri bilan o'zlari tanlab olgan hayotiy maqsadlaridan ham chalg'itib bo'lmaydi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'zda tutilgan asosiy maqsadlardan yana biri insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim, ya'ni maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim va oily o'quv yurtlaridan keyingi ta'lim tizimi orqali har jihatdan barkamol shaxs-fuqaroni shakllantirishdan iboratdir.

Komillikning asosiy belgilari

M. Mahmudov yurtboshimizning «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat qilsin» asarini tahlil qilib, komil inson shaxsi kontekstida qaraladigan yuzdan ortiq deskriptor[1] mavjudligini aytib, ularni qisqartirilgan holda keltiradi. Bular: 1) o'zini anglash; 2) o'zligini anglash; 3) an'analarini anglash; 4) xalqning orzu-istaklarini bilish; 5) jamiyat oldidagi maqsadni tushunish; 6) yagona milliy bayroq ostida birlashish; 7) xalq va davlat xavfsizligi to'g'risida qayg'urish; 8) vatanni sevish; 9) el-yurtga sadoqat; 10) insonparvarlik hissi; 11) odamiylik fazilatlari; 12) o'tmish va kelajak o'rtasidagi vorislik; ulug' ajdodlar merosini egallash; 14) milliy qadriyatlarni bilish; 15) umum-bashariy qadriyatlarni egallash; 16) yurt birligi to'g'risida qay-g'urish; 17) o'z oldiga maqsad qo'ya bilish; 18) Ta'lim-tarbiya birligi; 19) ta'lim-tarbiyaning ongni o'zgartirishi; 20) ong, tafakkurning jamiyatni

[1] Deskriptor- (lotincha «descripto») yozaman, tavsiflayman.

www.ziyouz.com kutubxonasi

o‘zgartirishi; 21) mustaqil fikrlash; 22) ijtimoiy-siyosiy iqlim o‘zgarishi; 23) insonning hayotda o‘z o‘rnini topishi; 24) iymoni butunlik, 25) sog‘lom fikrlilik; 26) zehn-zakovatli yoshlarni tarbiyalash va shakllantirish[1].

«Komillik-mehr-muruvvat, adolat, to‘g‘rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi ko‘plab asl insoniy xislat va fazilatlarning majmuyidir»[2].

Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodni voyaga yetkazish haqida qayg‘urmagan xalqning, millatning kelajagi bo‘lmaydi. Komil inson g‘oyasi azal-azaldan o‘zbek xalqimizning ezgu orzusi, millat ma’naviyatining uzviy bir qismi bo‘lib kelgan.

Yoshlarda mustaqil fikrlay olish va o‘zining shaxsiy, to‘g‘ri xulosasini chiqara olish fazilatini tarbiyalash

Mustaqil fikrlash komillikning asosiy belgisidir. Komillik uch bosqichdan iborat:

1. Jismoniy salomatlik.
2. Axloqiy poklik.
3. Aqliy yetuklik.

Bu bosqichlarni shakllantirishda mustaqil fikrlash yetakchi ustuvor o‘rin egallaydi. Mustaqil fikrlash sarchashmasi fahmlash, ya’ni anglashdan, fikr yuritishdan boshlanadi.

Anglash - biror bir g‘oyani (fikrni) tub mazmuniga tushunib yetish.

Tafakkur inson ongidagi mavjud ilmiy va hayotiy bilimlar majmualaridan keragini saralab olish va amaliyotga qo‘llash.

Amaliyotda (praktikada) qo‘llash - hayotda bir necha bor qo‘llangan o‘zining ijobiy hosilasini bergan, ishonchli muammolar yechimi bilan solishtirib, xulosa qilish so‘ng tafakkur saviyasiga tayanib yagona echimini tanlash va undan amaliyotda foydalanishdir.

Inson mustaqil fikrlash orqali voqelikni umumlashtirib, bilvosita va bevosita aks ettiradi, narsa va hodisalar o‘rtasidagi ichki,

---

[1] Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T., «Yangi asr avlodi», 2001, 131-b.

[2] M.Mahmudov. Komil inson shaxsi va ijtimoiy tajriba // «Pedagogik mahorat», 2002, 4-son, 6–10-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

murakkab bog'lanishlar, munosabatlar, xossalar, xususiyatlar hamda mexanizmlarni anglab etadi. Binobarin inson muayyan qonun, qonuniyat va voqealarning vujudga kelishi, kechishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko'rib turish imkoniyatiga egadirlar.

Fikr - inson faoliyati uning o'zligini kuch - qudratini o'zagini tashkil qiluvchi ma'naviy-insoniy sifatdir.

Yoshlarimiz ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasiga ayniqsa biz pedagoglar kuproq mas'ulmiz. Bu vazifani muqaddas bilib, amaliy faoliyatimizda hayotga tatbiq etaylik. Barkamol avlod mustaqilligimizning kafolatidir.

Mustaqil fikrlashni shakllantirish omillari

Hal qilinishi zarur bo'lgan muammo inson tomonidan anglab olinishi

Muammo yoki masalani hal qilish uchun zarur bo'lgan bilimlarni qo'llay olish

Shaxsiy tajribada uchragan holatni xotirada saqlash va shunga o'xshagan muammolarni yechishda ko'llash

Masala yoki muammoga taalluqli faraz ilgari surilib, uni echish variantlari taxlil qilinadi

Muammo oldiga qo'yilgan gipotezani tekshirish

Mustaqil fikrlash bosqichlari

Mushohada
G'oya yoki fikrni mantiqan talqin qilish

Anglash
biror bir g'oyaning tub mazmuniga tushunib etish

Tafakkur
inson ongidagi mavjud ilmiy va hayotiy bilimlar majmualaridan keragini saralab olish va amaliyotda qo'llash

26-rasm.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Axloq va axloqiylik deganda nimalarni tushunasiz? Yaxshi va yomon xulqlarga nimalarni kiritasiz?
2. Axloq va vijdonning qanday bog'liq tomonlari bor deb o'ylaysiz?
3. Axloqiy tarbiyaning maqsadi nimadan iborat, uning mazmunini nimalar tashkil etadi?
4. Sizningcha qanday kishini komil inson deb hisobash mumkin? Komillikning mezonlari nimalar?
5. Musulmon axloqining mohiyatini qanday tushunasiz va ahamiyati nimadan iborat deb o'ylaysiz?
6. Mustaqil fikrlashning komil inson shakllanishidagi o'rnini qanday tushunasiz?

1. Uchinchi sinf o'quvchilari shuhratparastlik va manmanlik so'zlarining mazmuni bir xil yoki boshqacha ekanligi to'g'risida bahslashib qoldilar. Nima uchun bolalar bu masalani tushunib olishlari qiyin? Ularga qanday qilib yordam berish mumkin?
2. «Uning vijdoni toza emas», «Bu - vijdonsiz kishi», «Bu ishni qilishga mening vijdonim yo'l qo'ymaydi», degan gaplarni siz qanday tushunasiz? Vijdonning kishi axloqiy tarbiyasiga qanday-dir aloqasi bormi? Bu qanday aloqa?
3. Televideniye orqali namoyish etilayotgan chet el seriallarining yoshlar tarbiyasiga qanday ijobiy va salbiy ta'siri bor deb o'ylaysiz? Ularni tomosha qilish va unga munosabat bildirishda ota-onalar qanday yo'l tutishlari lozim deb hisoblaysiz?
4. Siz insonlarda qadrlaydigan, ulug'laydigan axloqiy fazilatlar qaysilar va siz «axloqsizlik» deb qaraydigan sifatlar nimalar?

Axborot manbalari

1. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T., 1998.
2. I.A. Karimov. Ma'naviy yuksalish yulida. T., «O'zbekiston», 1998.
3. I.A. Karimov. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. - T., «O'zbekiston», 1998.

www.ziyouz.com kutubxonasi

4. A.Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq». - T., 1994.
5. Mutafakkirlar axloq va adolat haqida. T., «Adolat», 1995.
6. Pedagogika.O'quv qo'llanma. A.Munavvarov tahriri ostida, - T., 1996, 139-145-b.
7. M. Mahmudov. Komil inson shaxsi va ijtimoiy tajriba // «Pedagogik mahorat», №2, 6-10-b.
8. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at. T., «Sharq», 1998.
9. A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Jo'rayev. Vatan tuyg'usi. - T., «O'zbekiston», 1996.
10. Qori Nizomiddin bin Mulla Hasan. Ilmi axloq. T., «Yozuvchi», 1994.

www.ziyouz.com kutubxonasi

13-MAVZU. YAGONA O'QUV-TARBIYA JARAYONIDA FUQAROLIK VA VATANPARVARLIK TARBIYASI

1. Fuqarolik va vatanparvarlik tarbiyasi jarayonida milliy istiqlol g'oyalarining mazmun, mohiyati.
2. O'zbekiston fuqarosining o'z Vatanini sevishi.
3. Qur'oni Karim va hadislarda huquqiy tarbiya.
4. Yagona o'quv-tarbiya jarayonida fuqarolik va vatanparvarlik g'oyasini yoshlar qalbi va ongiga singdirish yo'llari.

Ijtimoiy hayotda fuqarolik madaniyatining shakllanishi jamiyat manfaatlari hamda fuqaroning birgalikdagi manfaatiga mos keladi.

Istiqlol mafkurasi ko'p millatli O'zbekiston xalqining ezgu g'oya-ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu-intilishlari hayotiy ideallarini o'zida aks ettiradi.

Milliy g'oya va istiqlol mafkurasi haqida gap borar ekan, biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab, serqirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodani, tugal namunasi hali hanuz yaratilmagan tushunchalarni o'zimizga tasavvur qilishimiz kerak. Bu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g'oyalarning ma'no-mazmunini teran anglab yetishga xizmat qiladi.

Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan millati, tili va dinidan qat'i nazar har bir fuqaroning yagona Vatan baxt - saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizga munosib bo'lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchanlik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir.

www.ziyouz.com kutubxonasi

O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi-ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Bu g'oya xalqimizning azaliy ezgu intilishlari, bunyodkorlik faoliyatining ma'no-mazmunini belgilaydi.

Milliy istiqlol mafkurasida fuqarolik va vatanparvarlik tarbiyasining talqini

Yosh avlodga yagona pedagogik jarayonda axloqiy tarbiya malakasini singdirishda, avvalo, fuqaroviylik yo'nalishini berish muhim masala sifatida qaralmog'i lozim. Zero ta'lim tizimida yoshlar ongida fuqaroviylik tushunchasini hosil qilish vatanparvarlik g'oyalari asosida shakllanadi. Shuning uchun ham fuqaroviylik tarbiyasi vatanparvarlik tarbiyasi bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi.

Vatan – insonning kindik qoni to'kilgan tuproq, uni kamol toptiradigan, hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan tabarruk maskandir. U ajdodlardan avlodlarga qoladigan buyuk meros, eng aziz xotira. Vatan – ota-bobolarimizning xoki poylari jo bo'lgan, vaqti-soati yetib har birimiz bosh qo'yadigan muqaddas zamindir.

Barcha fuqarolarning qonun oldidagi huquqiy tengligi va qonun ustuvorligini, jamiyat munfaatlari va aholi xavfsizligining muhofazasini kafolatlovchi huquqiy davlatni barpo etish yo'lidan borayotgan ekanmiz, biz barpo etayotgan yangi jamiyat yuksak ma'naviyva axloqiy qadriyatlarga tayanadi va ularni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Bu jarayon milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasiga, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga asoslanadi.

Vatanparvarlik haqida gapirganda ona zaminga bo'lgan muhabbat, uni sevish, ardoqlash va uning ravnaqi yo'lida g'amxo'rlik qilish tushuniladi.

Millatimizning vatanparvarligi - bu xalqimizning qoniga singib ketgan iymon va isnof, mehr-muhabbat, vijdon va andisha, or-nomus, ona yurtga, elatiga sadoqat kabi azaliy axloqiy-ma'naviy qadriyatlar haqidagi g'oya va qarashlari yig'indisidir.

Jamiyatni ma'naviy yangilanishdan ko'zlangan bosh maqsad: yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga eri-

www.ziyouz.com kutubxonasi

shish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ko'p muhim masalalardan iborat. Misol uchun Vatan tuyg'usini olaylik. Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tug'iladi, ya'ni inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qancha chuqur bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo'ladi.

Qur'oni Karim va Hadisi Sharif huquqiy munosabtalarni tashkil etish manbayi sifatida. Markaziy Osiyo xalqlari, shu jumladan, o'zbek xalqi ko'p ming yillik boy huquq va huquqiy madaniyat tarixiga ega. Payg'ambar alayhissalom vafotlaridan so'ng islom olamida yangi qonun va qoidalarning paydo bo'lish jarayoni to'xtadi. Ana shu davrdan boshlab barcha huquqiy muammolar Qur'oni Karimda va Payg'ambar alayhissalom sunnatlarida ko'rsatib bergan qonun va qoidalar asosida hal etilib huquqiy tarbiya beriladigan bo'ldi. Islom huquqshunosligi asosan Qur'oni Karim va sunnati Naboviya asosida shakllanadi va sunnatning negizini tashkil etuvchi hodisalarni jamlab kelajak avlodning huquqiy ehtiyoji vujudga keladi. Buyuk islom olimi faqih Burhonuddin-al Marg'iloniy Qur'oni Karim va hadis ilmini mukammal egallab, fiqh-islom huquqshunosligi borasida benihoya chuqur ilmga ega bo'lgan va huquqiy tarbiya sohasida beqiyos durdona hisoblangan «Al Hidoya» asarini 573-yil (milodiy 1170-y) da yozgan. «Al Hidoya» bir necha asrlar davomida ko'p musulmon mamlakatlarida, jumladan Markaziy Osiyoda huquqiy tarbiyaga oid eng yirik asosiy manbalardan biri bo'ldi.

Bugungi kunda mamlakatimiz mustaqil demokratik huquqiy davlat qurish yo'lidan borayotganligini quyidagicha asoslab berish mumkin:

- istiqlol mafkurasi umumbashariy qadriyatlarni e'tirof etishi va ulardan oziqlanishida ham ko'rish mumkin;
- qonun ustuvorligi;
- inson haq-huquqlari va hur fikrlilik;
- turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash;
- diniy bag'rikenglik;
- dunyoviy bilimlarga intilish, ma'rifatparvarlik;

www.ziyouz.com kutubxonasi

• o'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish va hakozo.

O'zbekiston insonparvarlik qoidalariga asoslangan millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlat. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi huquqiy tarbiyada asosiy dastur bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining mustaqil bo'lishi munosabati bilan maktablardagi ta'lim-tarbiya ishlari rivojlanib takomillashib borayotir. Mamlakatimizda juda katta o'zgarishlar ro'y berganligi yangi jamiyat barpo etilganligi natijasida qonunchilik va huquq tartibotini yanada mustahkamlash, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish tobora katta ahamiyat kasb etmoqda.

Har bir pedagog ta'lim bilan tarbiya berishga jiddiy e'tibor berishi lozim. O'quvchi yoshlarga tarbiya berishda ularga yuksak fuqarolik his-tuyg'ularni sifat va xislatini tarkib toptirishda ta'lim va tarbiya birligi muhim ahamiyat kasb etgan. Maktabda o'qitiladigan har bir fanning o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyati va imkoniyatlari bor. Ana shu imkoniyatlardan o'z o'rnida to'g'ri foydalanish o'qituvchining bilim, tajriba va mahoratiga, izlanishiga bog'liq. Ta'limiy-tarbiyaviy omil va vositalar ko'p. Shulardan biri davlat ramzlaridan darslarda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'rinli foydalanishdir. Davlat ramzlaridan pedagogik maqsadlarda foydalanish, ta'lim va tarbiya jarayonida ularning ahamiyatini o'quvchilarga tushuntirish, ularning xulq atvoriga chuqur ta'sir etadi. Hozirgi vaqtda Davlat ramzlaridan foydalangan holda o'quv tarbiya ishlarini tashkil etish muhim masalalardan biri. Hayotga qadam qo'yuvchi har bir o'smir o'z respublikasining qomusini bilishi, unga amal qilishi kerak. O'quvchilarda O'zbekiston respublikasi Madhiyasi, Gerbi va Bayrog'iga nisbatan hurmat tuyg'ulari tarbiyalanishi zarur.

Hozirgi davrda bolalar va o'smirlar o'rtasida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning yangi shakllari qo'llanilmoqda. Yoshlar o'rtasida huquqiy tarbiya ishlarini tashkil etish va sodir etiladigan huquqbuzarliklarni oldini olish borasida pedagogik faoliyatni yanada kuchaytirish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

www.ziyouz.com kutubxonasi

1. Umumiy ta'lim maktablarida huquqiy bilimlarni targ'ib qiladigan xonalar tashkil etishga alohida ahamiyat berish.

2. Barcha maktablarning sud, prokuratura, advokatura, birinchi navbatda esa voyaga yetmaganlar inspeksiyasi va voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalar bilan aloqalarini mustahkamlash.

3. Doimiy ravishda yangi tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va ularni hayotga keng tatbiq etish. To'plangan ilmiy bilimlardan pedagogik tajribalarda oqilona foydalanish, o'smirlarga davlatimiz qonunlariga muntazam rioya qilish ko'nikmalarini singdirish huquqiy tarbiyaning samarali amalga oshirish garovidir.

Asrlar davomida insoniyat bosqichma-bosqich dunyoviylik sari intilib keldi. Umume'tirof etilgan tamoyillar va qonun ustuvorligi, siyosiy plyuralizm, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'ri-kenglik kabi xususiyatlar dunyoviy jamiyatning asosini tashkil etadi.

Insonning haq-huquqlari va erkinliklari, jumladan, vijdon erkinligi ham qonun yo'li bilan kafolatlanadi. "Taraqqiyotning o'zbek modeli" - yurtboshimiz tomonidan jamiyatni isloh qilishning chuqur ilmiy asoslangan tamoyillaridan birida shunday deyiladi: «Jamiyat hayotining barcha sohalarida qonunning ustuvorligi, demokratik yo'l bilan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etishi lozim»[1].

Shunday ekan, o'quv-tarbiya jarayonida fuqarolik va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish uchun o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, vatan, jamiyat uchun fidoiy insonlar etib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Milliy istiqlol g'oyasining mohiyatini qanday tushunasiz?
2. Milliy ongni shakllantirish qanday yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin?
3. Fuqarolik tarbiyasining asosini nimalar tashkil qiladi?

[1] Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., «O'zbekiston», 2000, 37-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

4. Fuqaroning vatanparvarligi nimalarda namoyon bo'ladi deb o'ylaysiz?

5. Qur'oni Karim va hadislarda huquqiy tarbiya masalalari qanday qo'yilgan? Unga munosabatingizni bildaring.

6. Huquqiy tarbiyaning maqsadi nima va uning mazmunini nima tashkil etadi?

7. Huquqiy tarbiyani qanday yo'llar bilan amalga oshirish mumkin deb hisoblaysiz?

8. «Vatanparvarlik bu -...» mavzusida esse yozing.

1. «Tarbiya jarayonida davlat ramzlaridan foydalanish» mavzusida kichik ma'ruza tayyorlang.

2. Vatanparvarlik his-tuyg'usini baholashga oid test-so'rovnomalariga[1] javob bering.

3.Quyidagi testlarni yeching.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan va necha bob, bo'lim, moddadan iborat?.

A. 1991-yil 31-avgustda, XXV bob, 6-bo'lim, 125-moddadan.

V. 1992-yil 2-iyulda. XXVI bob, 5-bo'lim, 127-moddadan.

S. 1992-yil 8-dekabrda. XXVI bob, 6-bo'lim, 128-moddadan.

D. 1992-yil 18-noyabrda. XXVI bob, 4-bo'lim, 125-moddadan.

2. «Har kim bilim olish huquqiga ega» degan ibora Konstitutsiyaning nechanchi bob va moddasida yozilgan?

A. IX bob, 41-modda.

V. IX bob. 40-modda.

S. IX bob. 31-modda.

D. X bob, 43-modda.

3. Huqiqiy tarbiyaga oid eng yirik asar «Al-hidoya» kimning qalamiga mansub?

A. Al-Termiziy.

V. Al-Buxoriy.

S. Al-Marg'inoniy.

---

[1] Q. Quvvatov, E. G'oziyev. Vatanparvarlik his-tuyg'usini baholash mezonlari // «Xalq ta'limi», 1997, 2-son, 4–9-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

D. Ahmad Yassaviy.

4. Konstitutsiyamizning 31-moddasida nima haqida so'z bora-di?
A. Fikr yuritish erkinligi haqida.
V. Bir joydan ikkinchi joyga ko'chish haqida.
S. Ilm olish huquqi haqida.
D. Vijdon erkinligi haqida.
5. O'zbekistonning davlat ramzlariga nimalar kiradi?
A. O'zbekiston bayrog'i va gerbi.
V. O'zbekiston madhiyasi.
S. O'zbekiston Konstitutsiyasi
D. Yuqoridagilarning barchasi.

6. Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari Prezident I.A.Karimovning qaysi asarida o'z aksini topgan?
A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari.
V. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li.
S. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.
D. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.

7. «Men nechun sevaman O'zbekistonni» she'rining muallifi kim?
A. Abdulla Oripov.
V. Erkin Vohidov.
S. Muhammad Yusuf.
D. Omon Matchon.

Axborot manbalari

1. I.A. Karimov. Vatan sajdagoh kabi miqaddasdir. — T., «O'zbekiston», 1995.
2. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T., «Sharq» 1998.
3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - T., «O'zbekiston», 2000.
4. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. (Ma'ruza matnlari uchun materiallar) - T., «Yangi asr avlodi», 2001.

www.ziyouz.com kutubxonasi

5. Pedagogika. Ma'ruzalar matni. N.G'aybullayev va boshqalar. - T., 2000.
6. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug'at. -T., «Sharq», 1998.
7. A.Ibroximov,X.Sultonov, N.Jo'raev. Vatan tuyg'usi. T., «O'zbekiston», 1996, 30–34-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

14-MAVZU. O'QUVCHILARNING MEHNAT, KASB VA JISMONIY TARBIYASI

> «Har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning-ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rtaga qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsa ularning sobit-qadam g'ayrat shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanligini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir».[1]

1. Yosh avlodni tarbiyalashda mehnat tarbiyasining o'rni.
2. Yoshlarni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirish.
3. Sog'lom avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiyaning ahamiyati.
4. O'zbekistonni dunyoga tanitishda sportning o'rni.

Mehnat umuminsoniy, milliy va ma'naviy qadriyatlar taraqqiyotining negizidir. Har tomonlama yetuk, barkamol avlodni yetishtirishda mehnat tarbiyasining roli va o'rni beqiyos kattadir. Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. Shuningdek bolaning har tomonlama shakllantirish vositasi, uning shaxs sifatida ulg'ayish omili hamdir. Buyuk ajdodlarimiz mehnat tarbiyasi to'g'risida to'xtalib, qimmatli fikrlarini bildirib o'tishgan. Masalan, Abdurahmon Jomiy: «Oltin topmaginu

[1] I.A. Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: «O'zbekiston», 1992, 9-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

o'rgan-gin hunar, hunarning oldida xasdir oltin-zar», - degan fikr bildirsalar, ulug' mutafakkir Alisher Navoiy: «Umrni zoye etma, mehnat qil, mehnatni saodatning kaliti bil», - deydilar.

Fransuz adibi Anatol Franc: «Eng yaxshi axloqiy va estetik dori – mehnat», - degan fikrni ilgari suradi.

Bir qator o'zbek xalq maqollarida ham inson hayotida mehnat alohida ulug'lanadi. Masalan, «Mehnat baxt keltirar», «Mehnat e'tibor garovi», «Mehnatsiz rohat yo'q», «Mehnat qancha og'ir bo'lsa, keti shuncha shirin bo'lar» va boshqalar.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va boshqa bir qator me'yoriy hujjatlarda yoshlarning mehnat tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Mehnat yoshlar uchun ham zaruriyat, ham burch bo'lishi, buning uchun uyda ham, o'quv yurtlarida ham mehnat qilish uchun sharoitlar yaratish lozim. Agar bola kichikligidan mehnat qilishga o'rgatilsa, o'yindan mehnat qilishga hech bir qiyinchiliklarsiz o'tadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 23-moddasida «Har bir inson mehnat qilish, mehnat turini ixtiyoriy tanlash, adolatli, qulay mehnat sharoitida ishlash huquqiga ega», - deb ta'kidlangan.

Shunday ekan, bugungi kunda O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash, xalq farovonligini ta'minlash yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan kishilar bilan faxrlanish va o'rnak olish lozim. Yoshlar mehnati dastlab oilada, keyin esa o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. Bu jarayonda ayniqsa akademik litsey, kasb-hunar kollejlarning o'rni va ahamiyati beqiyos kattadir. Ta'lim to'g'risidagi qonunning 13-moddasida ta'kidlanganidek, «kasb-hunar kollej o'quvchilarining kasb-hunarga moyilligi, mahorati va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishini ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-hunar o'quv yurtidir»[1].

Inson faoliyatining asosiy turi mehnat, atrof-muhitni o'zlashtirish, bunyod qilish orqali ham ijtimoiy, ham shaxsiy ehtiyojlarini qondiradi. Shuning uchun mehnatga murakkab ijtimoiy hodisalar sifatida qaraladi. Mustaqillik milliy kadrlar tayyorlash ko'lami va sifatini oshirishni taqozo qilmoqda. Yirik korxonalarda milliy kadr-

[1] O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1998, 23-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

larda), **irodasiga** (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta'sir etib boriladi.

Pedagogik diagnostika va korreksiya jarayonida shaxsning tafakkuri, ongi, hissiyoti, irodasi, qarashlari e'tibordan chetda qolsa, u holda maqsadga erishish qiyinlashadi.

«Muayyan bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining moqiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi. U o'quvchining qaysi xislatini shakllantirish yoki illatini yo'qotish maqsadida rejalashtiriladi»,- deb yozadi Fleyk Xobson o'zining «Развитие ребёнка и его отношение с окружающими» asarida (82,185). Uning fikricha, shu xislatlarni tarbiyalash yoki illatlarni yo'qotish uchun xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi va belgilangan maqsadni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarning qaysisini va qaerda ishlatish mumkinligi rejalashtiriladi.

Reja asosida o'tkazilgan tarbiya moqiyati ta'lim-tarbiya tizimini, jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyatini tashkil qiladi. Pedagogik diagnostika va korreksiya reja asosida, tizimli va maqsadli olib borilsa, komil insonni tarbiyalashdek asrlardan beri azaliy orzuni amalga oshirish istiqbollari, imkoniyatlari ko'lami yanada kengayadi.

Islom Karimovning: «Ma'naviyat haqida gap ketar ekan, men, avvalo, insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon- irodasini, e'tiqodini mustapkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli kuchni tasavvur qilaman» (5,73) deyishida chuqur nazariy va ilmiy ma'no bor.

Respublikamiz olimlari: R.Q. Jo'ranev, R.G'. Safarova, X.I. Ibragimov, U.Q. Musayevlar tomonidan yaratilgan «Pedagogika fani Koncepsiyasi»da ham pedagogika fani ta'lim-tarbiya darajasi hamda shaxsning ma'naviy qiyofasi, uni sotsiokorreksiya qilish yo'llari va qonuniyatlari, insonning intellektual salohiyati orasidagi aloqadorlikni har tomonlama o'rganib, ilmiy jihatdan asoslab beri-shi kerakligi aloqida ta'kidlangan. «Bunda pedagogik diagnostika hamda diagnostikaning asosiy yo'nalishlaridan biri-kognitiv diagnostika usulidan foydalanish ko'zda tutiladi», deb alohida qayd etiladi. Xuddi shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda, o'quv muassasalari ta'lim-tarbiya ta'sirchanligini oshirish yo'llarini tadqiq etish taqozo etiladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

«Pedagogikada ilgari yetarli darajada e'tibor berilmagan yo'nalish-pedagogik diagnostika shaxsning ma`naviy qiyofasini sotsiokorreksiyalash, xususan, o'qish va xulq-atvordagi nuqsonlarni bartaraf etish masalalari bugungi kunda salmoqli ahamiyatga ega bo'lib borishi bilan belgilanadi va u quyidagilarda o'z aksini topadi:

1. Mafkuraviy tizimning o'zgarishi, ijtimoiy yangilanish tarbiyalanganlikka yangicha yondashish, qarash, munosabat, mezon, talab, mohiyat, mazmun, shakl, atribut taqozo etishi.

2. Milliylik bilan diniylikning uyg'unlikka ega ekanligi, millatlararo munosabatlardagi bag'rikenglik tarbiyalanganlik fenomenologiyasi ko'lamini yanada kengaytirishni talab qilishi.

3. Bilimdonlik va tarbiyalanganlik zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol yondashuv asosida talqin qilinishiga ijtimoiy zarurat tug'ilishi.

4. Pedagogik tadqiqotlarda psixologik nazariya va amaliy-ilmiy apparatni qo'llanilishi, muhitga muvofiqlantirilishi tendensiyasi kuchayishi.

5. Test, testologiya (prinsiplari, funksiyalari, parametrlari, interpretatsiyasi) hamda matematik statistika imkoniyatlaridan foydalanilishi, diagnostika, korreksiya turkumlari tatbiqiyligi namoyish etilishi.

6. Xulq-atvorda og'ish, ya'ni deviant holati ko'lami kengayishi va uni bartaraf qilish ehtiyoji umumbashariy ahamiyat kasb etishi kabilar.

Yoshlar jamoasida pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiya ishlari metodik jihatdan to'g'ri yo'naltirilganda jamiyatning har bir a'zosi ongiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirishda, mafkuraviy immunitet hosil qilishda, ularning o'zligini anglashda, vatanparvarlik va fidoiylik tuyg'ularini, millatlararo totuvlikni, diniy bag'rikenglikni, tolerantlikni shakllantirishda hamda komil insonga xos bo'lgan fazilatlarni: sofdillik, to'g'ri so'zlik, adolatparvarlik, saxovatlilik, or-nomuslik, tantilik sifatlarini tarkib toptirishda ijobiy samaralarga erishish mumkin.»[1] Bu yo'nalish mustaqil O'zbekistonning har tomonlama rivojlanishida, jamiyat a'zolarining ma'-

[1] Sh. Abdullayeva. O'spirinlarning tarbiyalanganlik dárajasini diagnostika qilish va xulqidagi nuqsonlarni korryksiyalash. – T., «Fan», 2005, 7-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

naviy-ma'rifiy hayotida paydo bo'lgan muammolarini muvaffaqiyatli hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik diagnostikaning ilmiy-nazariy yo'nalishini belgilashda **xorijiy olimlardan**: Karlxaync Ingenkamp, Ingo Xartman, Linert, Frike, Lyumann, Rorshax, Diderix, Xeginger, Baxmayr (Germaniya); Bol'sho, Burk, Rollet, Royleke (Angliya); Jorj Fisher, Jeyms Rays, T.Stoun (Amerika); A.V. Mudrik, V.D. Semyonova, G.N. Filova, S.D. Smirnov I.V. Dubrovina, Y. Langmeyer, G.M. Breslav, L.P. Fridman, E.I. Rogov (Rossiya), va tadqiq qilinayotgan muammoga daqldor o'quv-uslubiy adabiyotlar, respublikamiz olimlari: M. Quronov,R. Safarova, O. To'raeva, R. Mavlonova, V. Karimova, X.I. Ibragimov, O. Musurmonova, O. Qasanboeva, K. Zaripov va L. Maxmudovalarning pedagogik diagnostikaga oid tadqiqotlari, o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqolalari, qarashlari salmoqli o'rin tutadi.

Oliy, o'rta maxsus va umumiy o'rta Ta'lim muassasalari taqsil oluvchilarining bilimdonlik darajasini diagnostika qilish masalalari muayyan darajada o'rganilgan bo'lsa-da, lekin bugungi kunga qadar yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va xulqiy nuqsonlarini korrekciyalashni ta'minlaydigan yaxlit pedagogik nazariyasi va amaliyotga tatbiq etish yo'llari tadqiq etilmagan.

Pedagogik diagnostikaning jamiyatimizdagi yosh avlod ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishdagi ahamiyatini ilmiy asoslab berish, ularning ma'naviy qiyofasi, ularni sotsiokorreksiya qilish yo'llari va qonuniyatlari, intellektual salohiyati orasidagi aloqadorlikni aniqlash, mavjud ma'naviy-ma'rifiy ishlarning bugungi holatidan kelib chiqqan holda uning ta'lim bosqichlari aro uzviylik va uzluksizligini ta'minlaydigan metodikani yaratish dolzarb muammo hisoblanadi.

Agar:

- *birinchidan*, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy soqadagi bilimlari, ularning individual-psixologik xususiyatlari, motivatsion sohasi atroflicha o'rganilganda;

ikkinchidan, ularning tarbiyalanganlik darajasini tashxislaydigan va xulqiy nuqsonlarini qorrekciyalaydigan mavjud metodikalar chuqur taqlil etilib, ulardan amalda foydalanish tizimi ishlab chiqilganda;

www.ziyouz.com kutubxonasi

- *uchinchidan,* yoshlar uchun yaxlit uzluksiz tarbiya tizimini ta'minlaydigan metodik majmualar yaratilganda;

to'rtinchidan, turli tarbiyaviy tadbirlar (suhbatlar, kechalar, treninglar, sport-shoulari, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi bellashuvlar) uyushtirilib, ularning imkoniyati, qiziqishlari, kamolot bosqichlari, jinsiy tafovutlari inobatga olingan holda turli jamiyat, klub va to'garaklarga jalb qilinganlarida;

- *beshinchidan*, ularning intellektual rivojlanishlari va qobiliyatlari, oila, mahalla, guruh va o'quv muassasadagi pedagogik-psixologik muhit atroflicha o'rganilganda, oliy va o'rta ta'lim maktabi bilan oila hamkorligi rivojlantirilganda;

- *oltinchidan,* ijtimoiy pedagog nufuzi va imtiyozlari yuqori darajaga ko'tarilganda;

yettinchidan, barcha davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida ijtimoiy pedagog ishchi o'rni joriy qilinib, ularning maxsus dastur va reja asosida faoliyat ko'rsatishlari uchun qulay imkoniyatlar yaratilsa, pedagogik diagnostika va korreksiyalash markazlari tashkil qilinsa, yoshlarning bilim olish va tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va xulqini korreksiyalash jarayoni samarali kechishi mumkin.

«O'zining maqsadi, vazifalari, tatbiq qilish sohasi bo'yicha pedagogik diagnostika hamisha mustaqil yo'nalish bo'lgan. Ammo hanuzgacha pedagogik diagnostikani mavhum va turli bahs-munozaralarga sabab bo'luvchi yo'nalish, uni «dastur sifatidagina qabul qilish mumkin», - deb hisoblaydigan olimlar ham yo'q emas. Shu sababli bugungi kunda «*pedagogik diagnostika*» atamasining bir necha talqinlari mavjud bo'lib, ular mazmun-moqiyatiga ko'ra xilma-xildir.

Bir qator tadqiqotchi olimlar (G. Royleke, R. Rollet, K. Leongard, A. Bass, A.E. Lichko, A. Shmelev) **pedagogik diagnostikani:** «Pedagogik faoliyatni optimallashtirishda, qulaylashtirishda zarur bo'lgan axborotni qo'lga kiritish jarayoni» (34, 54), - deb ta'kidlaydilar.

X. Feger, N. Petillon, V. Bogaskiylar pedagogik diagnostikani psixologik diagnostikadan ajralib chiqqan, degan fikrni ilgari surishadi.

Ya. Yirasek, A. Kern yoshlarning bilim olishga moyilliklarini aniqlovchi yo'naltiruvchi testlari, D.B. Elkoninning «Grafik dik-

www.ziyouz.com kutubxonasi

Maktab yoshidagi bolalarni qaddi-qomatini to'g'ri-mutanosib shakllantirish, suyak-bo'g'inlarini va muskullarini uyg'unlashgan tarzda rivojlantirish, yurak-qon tomir hamda nafas olish a'zolarini, asab tolalari majmuasini mustahkamlash muhim.

Tana a'zolarini mo'tadil faoliyati uchun harakat juda zaruriydir. Qadimda xalqimiz badantarbiyani riyozat deb atashgan Buyuk hakim Abu Ali ibn Sino: «Badantarbiya-sog'liqni saqlashda ulug'vor usuldir», deydiki, bu fikr: «Kimki qilsa harakat-sog'lig'ida bo'lar barakat» degan naqlni eslatadi. Ulug' mutafakkirning «Tibbiy doston» («Urjuza») asarida riyozat-badantarbiyasi haqida batafsil fikr bildirilgan. Olim jismoniy mashqlar bilan o'rtacha shug'ullanish sog'liqqa foydali ekanligini bunday ta'riflaydi:

«Bilsang riyozat turlari necha-necha
Sharofatli bo'lur esa u o'rtacha.
To'g'ri va mo'tadil bo'lib o'sgay badan
Kir-chir ila chiqindidan qutular tan».

Buyuk donishmand jismoniy mashqsiz yurish badanda yomon xidlarning yig'ilishiga sabab bo'lishini alohida uqtirib, bunday deb yozadi:

«Riyozatsiz yotishdan ko'p topma rohat,
Bu rohatdan topolmassan hech manfaat.
Jim yotsang iflos xilt-la to'lar badan,
G'izocha hech hozirlanmas biror maskan».

Jismoniy mashqlarning sihat-salomatlikka foydasi cheksiz ekanligini D. Adisson bunday ta'riflaydi: «Mutolaa asl uchun qancha zarur bo'lsa, jismoniy mashqlar ham badan uchun shuncha zarur deydi.

Suqrot hakim esa bunday deydi: «Gimnastika yordami ila badanimning muvozanatini to'g'rilab olaman.

Shuni ham aytish kerakki, o'quvchilarning sog'lig'ini jismoniy tarbiya darslari hamda maktab sharoitlarida o'tkaziladigan maxsus tadbirlar hisobigagina mustahkamlash qiyin. Chunki bu jarayon ota-ona, tarbiyachi, butun pedagoglar jamoasining ishi bo'lib, sog'lomlashtirish bilan bolalarni muntazam ravishda, butun yil davomida shug'ullantirish kerak.

www.ziyouz.com kutubxonasi

O'quvchilarda yangi harakat turlariga qiziqish, ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'sitish jarayonida o'quvchilar harakat, ko'nikma va malakalarini egallaydilar. Bu malaka va ko'nikmalar jismoniy tarbiyalar bo'yicha tuzilgan o'quv dasturida nazarda tutilgan bo'lib, ulardan ba'zilari, masalan, tez yurish, yugurish, sakrashlar amaliy mashqlardir. Shu bilan birga, bu mashqlar gimnastika asbob-anjomlarida mashq qilish, akrobatika, badiiy gimnastika harakatlarini muvofiqlashtirishga, shuninigdqk, yangi harakatlarini osonroq va qisqa vaqt ichida o'rganib olishga ko'maklashadi, ko'nikma va malakalar hosil qiladi.

Jismoniy tarbiya darslarining asosiy vazifalaridan biri - o'quvchilarning yoshiga, jinsiga muvofiq keladigan (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilikni) asosiy harakat sifatlarini rivojlantirish. Yuqorida aytilgan jismoniy sifatlar alohida mavjud bo'lmay, balki ulardan biri u yoki bu faoliyat turida yetakchi o'rinni egallaydi. Masalan, harakatli va sport o'yinlarida-chaqqonlik, qisqa masofaga yugurishda-tezkorlikni aytish mumkin. Maktab dasturi o'quvchilarining harakatlari, sifatlarini har tomonlama rivojlantirish hamda ularining jismoniy rivojlanishlari va umumiy ish qobiliyatlarining ortishi uchun kerakli sharoitini yaratadi, albatta. Shu bilan birga, o'quvchilarda ahloqiy-irodaviy sifatlarini tarbiyalash, xulq-atvor madaniyati ko'nikmalarini tarkib toptirish kerak.

O'quvchilarda o'z sog'lig'iga ongli munosabatni tarbiyalash zaruriy bo'lib, bu ularning ozoda-sarishtalik tartibida, gigiyena qoidalariga rioya qilishlarida, ertalabki gimnastika bilan shug'ullanishlarida hamda sport mashg'ulotlarida muntazam qatnashishlarida namoyon bo'ladi. Badantarbiyaning sihat-salomatlikka foydasini o'quvchi qancha yaxshi bilib olsa, unga bo'lgan qiziqishi shunchalik ortadi.

Mo'tadil ravishda, o'z vaqtida badantarbiya bilan shug'ullanuvchi odam davolanishga muhtoj bo'lmasligini chuqur anglab olishi kerak.

Olim va shifokorlarning kuzatishilaricha, badantarbiya tug'ma issiqlikni oshiradi. Chunki ular yengilgina issiqligini paydo qiladi, a'zolardan to'planuvchi chiqindilarni yo'qotadi.

Badantarbiya mashqlari tartibli va yo'li bilan bajarilsa, fikrni uyg'unlashtiradi, qon yurishiga yordam beradi, hazmni yaxshilay-

www.ziyouz.com kutubxonasi

di, asabni quvvatlantiradi, tana haroratini orttiradi, zehnni charhlaydi.

Inson jismoniy sog'lom va bardam-baquvvat bo'lsa, hayot go'zalliklarini idrok etadi, aql-zakovati yuksala boradi, atrof-muhitni ziyrak bo'lib kuzatadi. Shu nuqtayi nazardan, insonning sog'lom-baquvvat bo'lishida badantarbiya muhim omil ekani aniq. Demak, bu tarbiya asliy, ahloqiy va estetik tarbiyaning zamini ekan. Ta'bir joiz bo'lsa, bir yerda turib qolgan ko'lmak suv hech foydasiz deyilsa, harakatsiz odam ham ko'lmak kabidir, sharqirab oqqan suvning o'zi go'zal bo'lishi bilan birga, dala-bog'larini yashnatgani kabi, serharakat, jismoniy mashqlar bilan shug'ul-lanadigan odamning ham o'zi (jismonan) go'zal, ham aqli go'zal, ham odob-axloqi go'zal bo'ladi.

Badantarbiya insonni har tomonlama tetik, hushyor, qobilyatli bo'lib kamolga yetkazadiki, donolar jismoniy tarbiya-go'zallik tarbiyasidir, deb bejiz aytishmagan.

Inson jismonan sog'lom, har tomonlama yetuk rivojlanishi uchun ma'lum maqsadni ko'zlagan holda tejamli harakat qilishi, tabiat qo'ynida yoki ozoda-shinam sport zalida harakatli mashqlar bilan shug'ullanishi-bularning hammasi unda nafosat his-tuyg'usini, aqliy tushinchasini va didini tarbilaydi. Shubha yo'qki, xilma-xil, aniq, ifodali bajarilgan jismoniy mashqlar estetik kechinma, hislarni yuzaga keltiradi. Jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida harakatlar maqsadining ham shakl, ham mazmun jihatidan bir-biriga mos kelishi esa uning go'zaligini ta'minlaydi.

Go'zallik - bu avvallo, harakatlarning sodda, yengil, izchil va tugal bo'lishidirki, o'qituvchi ham o'quvchi ham bunga intilsalar, nafosatga erishiladi. Albatta, jismoniy tarbiyaning vazifasi o'quvchida faqat go'zallikni idrok etishgina shakllantirish bo'lib qolmay, balki ularni kishi harakatidagi bolalarni jismoniy chiniqtirishda sinf rahbarlarining ma'suliyati katta. U jismoniy tarbiya o'qituvchisi bilan hamkorlikda bolalarni muntazam ravishda ertalabki badan tarbiya qilishga odatlantiradi, maktabda jismoniy tarbiya bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlarga jalb etadi. Bolalarni chiniqtirish masalasini faqat jismoniy tarbiya darslarida hal etib bo'lmaydi. Jismoniy tarbiya bo'yicha olib boriladigan ishlar darsdan tashqari vaqtlarda, sinfdan va maktabdan tashqari tashkil etiladigan tadbirlar jarayonida amalga oshiriladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Sinf rahbari o'quvchilar o'rtasida «Sport tinchlik elchisi», «Olimpiadachilar oramizda», «Donolar sport haqida», «O'zbek sportchilari - bizning faxrimiz» kabi mavzularda suhbatlar, sinf soatlari, mashhur sportchilar bilan uchrashuvlar tashkil etsa, bolalar jamoasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga zamin yaratiladi.

Yosh avlodni jismonan chiniqtirishda o'quv yurtlari rejasi bo'yicha o'tiladigan jismoniy tarbiya darslarining roli, ahamiyati beqiyos kattadir. To'g'ri tashkil etilgan jismoniy tarbiya, shaxsning me'yoriy jismoniy taraqqiyotini ta'minlaydi, salomatligini mustahkamlaydi, yoshlarni mehnatga, turmushga tayyorlaydi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

I.

1. Komil inson shakllanishida mehnat va jismoniy tarbiyaning tutgan o'rnini qanday tushunasiz?
2. Mehnat va jismoniy tarbiyaning maqsadi, mazmuni va vazifalari nimalardan iborat?
3. Mehnat va mehnatsevarlik haqida mutafakkirlarimizninng qarashlaridan misollar va maqollar keltira olasizmi?
4. O'quvchilarni to'g'ri kasb tanlashga yo'llash uchun qanday ishlar olib borish lozim deb o'ylaysiz?
5. Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan jismoniy tarbiyaga e'tibor kuchaytirilishining sabablari nimada deb bilasiz?
6. Mehnat va jismoniy tarbiyani qanday yo'llar bilan amalga oshirish mumkin?

II. «O'zbekistonni dunyoga tanitayotgan mashhur sportchilar» mavzusida kichik esse yozing.

III. Muammoli masalalar yechish.

1-masala: Ko'p bolali oilaning otasi mamnun bo'lib hikoya qiladi: yer ag'darish biz uchun hech gap emas. 1-2 kg konfet, pechenye sotib olib kelamanda, qani bolalar bu sizlarga, lekin oldin yerni chopib beringlar, deyman.

- Bolalar konfetsiz yer ag'darishmaydimi, - so'radik biz.
- Uncha tirishib ishlashmaydi-da, - tushuntirdi ota.

Ota qo'llagan rag'batlantirish usuliga qanday baho berasiz?

www.ziyouz.com kutubxonasi

2-masala: 3-sinf O'quvchisining onasi hikoya qiladi: Avvallari o'g'limning hamma ishi joyida edi. Men ishlamasdim, unga ko'p vaqt ajratardim. Ishga kirganimdan so'ng «ikki baholar» ola boshladi. Kechqurun darsini tekshirsam, topshiriqlarning bir qismi bajarilmagan, bajarilgani esa iflos, tushunarsiz bo'lgani uchun uni qayta ko'chirish kerak. Lekin qachon ulgurardi. Uxlash vaqti bo'lib qolardi.

Ota-onaning xatosi nimada. Siz qanday yo'l tutardingiz?

Axborot manbalari

1. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T., 1998.
2. I.A.Karimov. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T., «O'zbekiston», 1998.
3. I.Karimov. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. - T., «O'zbekiston», 1998.
4. Pedagogika. O'quv qo'llanma. A.Munavvarov tahriri ostida, - T., 1996, 157–159, 168–172-b.
5. O'zbek bolalar an'anaviy o'yinlarining tarixiy asoslari // «Pedagogik mahorat», 2002, 4-son, 52–56-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

15-MAVZU: TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKCIYA VAZIFALARI

Diagnostika (yunon tilida «dia»-shaffof, «gnosiss»-bilim degan ma'noni bildiradi) - o'rganilayotgan obyekt yoki jarayon to'g'risidagi aniq ma'lumot olishning umumiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Diagnostikaning ahamiyatini meditsina nuqtayi nazaridan qarasak, kasallik belgilari va ularni kelib chiqish sabablari to'g'ri aniqlansa, davolanish natijasida bemor tuzalib ketishining kafolati oshadi. Xato diagnoz esa faqat shifokorlarning aqliy harakatini yo'qqa chiqaribgina qolmay, balki kasalning tuzalish imkoniyatini ham susaytirishi mumkin. Tana a'zolari salomatligi to'g'risidagi aytilgan ushbu fikrlar ruhiy sog'liqqa ham bevosita aloqadordir.

Inson jismoniy rivojlanishini diagnoz qilish ancha oson kechadi, buning uchun ayrim mashqlar bajarilgach, uning natijasiga binoan xulosa chiqarish mumkin. Lekin ruhiy, ma'naviy, ijtimoiy rivojlanishni diagnostika qilish mashaqqatli faoliyatning mahsulasi hisoblanadi. Bu maqsadda qo'llanayotgan metodikalar muayyan darajada murakkab bo'lib, har doim ham to'g'ri natija beraveradi, deb xulosa chiqarish, shoshilinch qaror qabul qilish noxush oqibatlarga olib keladi. Pedagogik amaliyotda pedagog-psixologlar va o'qituvchilar shaxsning alohida sifatlarini o'rganadilar, lekin olingan natijalarga asoslangan holda, rivojlanishning barcha tarkiblariga umumiy baho berishga har doim ham musharraf bo'lavermaydilar. Chunki tajriba uzluksizligini ta'minlash integrativ yondashishni taqozo etadi, ko'p omillik tahlilgina uning yechimiga ijobiy ta'sir etadi, xolos.

Ta'lim oluvchilarning shaxsiy-xarakterologik sifatlarini aniqlashning, hech bo'lmaganda oddiy metodikasini egallash, uni tatbiq etish, kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning muhim unsurlaridan biridir. Oliy va o'rta maxsus o'quv maskanlari o'qituvchilari ko'pincha o'quvchi-yoshlarning aqliy qobiliyatlarini o'rganishga e'tibor qaratadilar, ammo ularning tarbiyalanganlik darajalarini (keng

www.ziyouz.com kutubxonasi

ma'noda) va xulqiy nuqsonlarini korreksiyalash muammolarining uzluksiz ta'lim tizimida yagona uzviylik va yaxlitlik nuqtai nazaridan talqin qilishga, uning yechimlarini topishga urinishmaydi. O'quvchilar va talabalarning aqliy rivojlanishlari ko'p jihatdan mustaqil fikrlashga, umumiy tarbiyalanganlik darajasiga bog'liq. Ularning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish xususiyatlarini o'rganish, zarur bo'lsa xulqiy nuqsonlarini bartaraf etish hozirgi davrning muhim talablaridan biridir.

Ijtimoiy pedagogik diagnostika - pedagogik omillarning samaradorligini oshirish maqsadida shaxsga axloqiy, intellektual, estetik, jismoniy, sotsiologik, ekologik va ijtimoiy-psixologik ta'sir ko'rsatish haqidagi axborotlarning majmuyi. Yoshlar jamoasidagi har bir shaxsning tarbiyalanganlik darajasini tashxis qilish uchun avvalambor «tarbiya» va «tarbiyalanganlik» atamasining tarkibiy qismlari, mezonlari nimalar bilan belgilanishini tushunish zarur.

Jahon pedagogikasida «tarbiya» atamasi keng qamrovli tushuncha sifatida baholanganligi tufayli, uning mohiyati xususida turli nazariyalar mavjud. Tarbiyani kattalar (o'qituvchilar, murabbiylar va ota-onalar)ning bolalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni sifatida tushunish eng ko'p tarqalgan tendensiyadir. Bu o'rinda kattalar to'g'ri deb hisoblaydigan, baholaydigan ideallar, maqsadlar, vazifalar, normalar va talablarga muvofiq tarzda ta'sir ko'rsatish ko'zda tutiladi, albatta.

Tarbiyani bunday tushunish haqiqatga yaqinroq, biroq u bir tomonlama xususiyatga ega bo'lib, mazkur jarayonning faqat muayyan qismini aks ettiradi, xolos. Tarbiyaga bunday ta'rif berishda bolaga kattalarning ta'siri yo'naltirilgan obyekt sifatidagina qaraladi. Pedagogik tashxislashning asosiy maqsadi ham tashabbuskor va mustaqil shaxslarni tarbiyalashni nazarda tutadigan bo'lsa, u tarbiyalanuvchiga pedagogika jarayonida faol harakat qiluvchi subyekt rolini beradi.

Bugungi kunda pedagogik nazariya va amaliyot muammolarini tadqiq qilish va yechimini topishda pedagogik diagnostika hamda korreksiya muhim ahamiyat kasb etadi.

«Pedagogik diagnostika» atamasi ilk bor 1968-yili nemis olimi Karlxayns Ingenkamp tomonidan fanga kiritildi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

K. Klauer (Germaniya), B.Burk, Rollet (Angliya), S.D. Smirnova, I.V. Dubrovina (Rossiya) va boshqa bir qator olimlarning «pedagogik diagnostika»ning «psixologik diagnostika» zamirida tug'ilganligini ta'kidlashlari, albatta, o'rinsiz. Bir paytlari psixologik diagnostika biologiya va tibbiyotning tashxis modellarini andoza qilib olgani kabi pedagogik diagnostika ham zarur bo'lganda psixologik ilmiy-tadqiqot metodlardan o'z o'rnida foydalandi.

Pedagogik, psixologik, sotsiologik adabiyotlar tahlili tashxislashga turli qarashlar mavjudligini ko'rsatdi. Bu pedagog shaxsining diagnostikasi (o'zini-o'zi tashxislash), ota-onalar, pedagoglar tomonidan o'quvchilar jamoasini tashxislash; ma'muriyat, mutasaddi mutaxassislar va ta'lim bo'limlari uslubiyotchilari tomonidan o'quv dargoqining faoliyatini tashxislash va hokazolar bo'lishi mumkin.

Pedagogik diagnostika o'z mohiyatiga binoan korreksion tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

«**Korreksiya** - deb ta'kidlaydi M. Quronov-hayotiy chekinishlarga uchragan bolalar va o'smirlar bilan olib boriladigan aniq faoliyatdir»[1].

Bir qator olimlar: (R.S. Nemov, D.V. Olshanskiy, G. Broyer, G. Mattes) «**Pedagogik korrekciya** - tarbiya jarayonida yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy sohalarda oldin yo'l qo'ygan nuqsonlarini bartaraf etish jarayonidir», - deb hisoblaydilar.

Fikrimizcha, **korrekciyalash** jarayoni-yoshlarning ongiga, his-tuyg'ulariga ta'sir etuvchi va turli ijobiy qobiliyatlari hamda shaxsiy fazilatlarni shakllantiruvchi faoliyat turidir.

Korreksiyalash ta'sirida ularning g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga nisbatan ilmiy qarashlari tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi va shu bilan birgalikda tarbiyaviy masalalar amalga oshiriladi.

Korreksiya jarayonida yoshlarda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulq-atvor malaka va odatlari hosil qilinadi. Bunga erishish kezida yoshlarning **ongiga** (ta'lim jarayonida), **hissiyotiga** (darsda va sinfdan tashqari ish-

[1] M. Quronov, Z. Qurboniyozova. Ijtimoiy pedagogika. T., «Universitet», 1994, 42-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

larning kamligi etuk mutaxassislarning migratsiyasi ushbu muammoga davlat nuqtayi nazaridan jiddiy yondashishni talab yetmoqda.

Yoshlar mehnatining mazmuni mamlakat oldida, ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy vazifalar, viloyat va tumanlardagi kadrlarga bo'lgan ehtiyoj, o'quv yurtlarining ichki imkoniyatlari va talablari asosida belgilanadi. Avvalo, bolalar ta'lim jarayonida mehnat haqida dastlabki bilim va tasavvurlarga ega bo'ladilar. O'qish ham mehnat ekanligini tushunib oladilar. O'quv rejasiga kiritilgan mehnat darslarida esa mehnat qilish malakalarini egallaydilar. Bu jarayonda o'z mehnatlarining natijalarini ko'rib zavqlanadilar va yanada yaxshiroq mehnat qilishga harakat qiladilar. Mehnat qilish jarayonida sinfdan va maktabdan tashqari mehnat, o'z-o'ziga xizmat qilish mehnati, ijtimoiy foydali mehnat turida faol ishtirok etadilar va chiniqadilar. Pedagogika fani mehnat tarbiyasini tashkil qilishda qo'yayotgan talablar quyidagilar:

mehnatning ijtimoiy axloqiy ahamiyatiga alohida e'tibor berish;

mehnat o'quvchining yoshi, hayoti tajribasi va imkoniyatlariga mos bo'lishi;

- o'quvchilarning mehnat faoliyatlari ijodiy xarakterda bo'lishi;
- o'z vaqtida turli kasblar haqida ma'lumotlar berib borilishi;
- mehnat ahllari bilan doimo suhbat va uchrashuvlar tashkil qilish.

Mehnat tarbiyasi fan asoslarini o'rganish jarayonida o'quvchilarning olgan bilimlarining aniq maqsadga yo'nalganligi, ishlab chiqarish jarayonining ilmiy asoslarini, bilim va kasbiy qiziqishlarni ko'zda tutadi.

Mehnat jamoalari inson umrining asosiy qismi o'tadigan, uning tafakkuri, hayotga munosabati shakllanadigan ijtimoiy-ma'naviy muhitdir. Ular kishida jamoa ruhi, mehnatsevarlik, omilkorlik, adolat tushunchasi, mehr-oqibat tuyg'ularini tarbiyalaydigan o'ziga xos maskan bo'lib hisoblanadi. Kasb tanlash jiddiy va mas'uliyatli ishdir. O'z hayot yo'llarini jiddiy suratda belgilab borish jiddiy masala. Buning uchun maktablardagi politexnika tizimidagi to'garaklar muhim o'rin tutadi, fan to'garaklarida bolalar texnik saviya va bilimlarini kengaytiradi, kasb tanlashga tayyorlanadi. Maktabda yuqori sinf o'quvchilari uchun «ishlab chiqarish asoslari,

www.ziyouz.com kutubxonasi

kasb tanlash» kursi o'qitiladi. Kasbga yo'naltirish umumiy o'quv tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda ota-onaning ham roli kattadir.



27-rasm.

Kasbga nisbatan qiziqishni vujudga keltirish o'qituvchining pedagogik faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Ta'limni oqilona, optimal yo'l bilan tashkil qilish va olib borish orqali turli yoshdagi maktab o'quvchilarida mehnatga ongli munosabatni tarkib toptirish, kasb-hunarga nisbatan qiziqishni o'stirish mumkin.

Barkamol avlodni jismoniy komilliksiz tasavvur qilib bo'lmaydi, bu tarbiyaning bosh maqsadi jismonan chiniqqan, mard va sabotli, qat'iyatli vatanparvarlarni kamol toptirishdir.

Jismoniy tarbiyaning inson kamolotidagi o'rni. Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida barkamol insonni tarbiyalash eng asosiy, kechiktirib bo'lmaydigan muhim vazifalardan biridir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: «Sog'lom avlodni tarbiyalash buyuk davlat poydevorini, faravon hayot asosini qurish deganidir»[1]. Shunday ekan, mamlakatimizda sog'lom avlod dasturi harakatining keng tus olgani, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida ta'lim-tarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug'vor vazifani amalga oshirish yo'lidagi muhim qadamdir.

Huquqiy demokratik davlatimiz, ochiq fuqarolik jamiyatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sanalmish ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi bu jarayonning sifati va

[1] I.A. Karimov. Sog'lom avlod tarbiyasi–barchamizning muqaddas insoniy burchimiz. – T., «O'zbekiston», 2000, 242-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuasidan iborat. Shu boisdan mamlakatimiz mustaqilligidan so'ng yosh avlodning tarbiyasiga, sog'ligiga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Prqezidentimiz Islom Karimov tomonidan chiqarilgan «Mamlakati-mizda sportni rivojlantirish to'g'risida», (2003), O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Madaniyat ishlari vazirligi hamda Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasining «o'suvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va foydali mashg'ulotlar bilan ta'minlash to'g'risidagi (1999-yil, 21-sentyabr, 277201693 sonli byrug'i), kabi me'yoriy hujjatlarda yoshlarning jismoniy kamoloti masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

2001 yilning «Sog'lom avlod yili» deb atalishi ham bejiz emas edi, chunki hayot tajribasi «sog'lom tanda - sog' aql» bo'lishini allaqachon isbotlagan.

Jismoniy tarbiya yosh avlodni taraqqiy ettirishda muhim vosita hisoblanadi. Tana a'zolarining mo'tadil faoliyati uchun harakat juda zaruriydir. Buyuk hakim, mutafakkir Abu Ali ibn Sino: «Badantarbiya - sog'liqni saqlashda ulug'vor usuldir», deydiki, bu fikr: «Kimki qilsa harakat-sog'ligida bo'lar barakat» degan naslni eslatadi.

Jismoniy tarbiyaga e'tiborni kuchayganligini maktab o'suvchilari o'rtasida «Umid nihollari», kollyej va litsey talabalari ishtirokida «Barkamol avlod», oliygoh talabalari o'rtasida «Universiada» sport musobaqalarining tashkil etilganligi va muntazam o'tkazilib kelinayotganligida, yoki sportning ko'plab turlari bo'yicha O'zbekistondan Olimpiada va jahon chempionlari yetishib chiqib, O'zbekiston nomini butun dunyoga yoyayotganida ham ko'rish mumkin. Bundan tashqari, barcha maktablarda, mahallalarda ham turli sport musobaqalari tashkil etilmoqda, ayrim oilaviy musobaqalar ham o'tkazish yo'lga qo'yilib borilmoqda.

Jismoniy tarbiyaning maqsadi - O'quvchilar tanasidagi barcha a'zolarini sog'lom o'sishini ta'minlash barobarida ularning aqliy va jismoniy mehnatga, shuningdek, Vatan mudofaasiga tayyorlashdan iborat. Abdulla Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq va ilm - ma'rifatga ega bo'lmoq uchun badanni tarbiya qilish zarur.

Jismoniy tarbiya kishilarga katta ta'sir ko'rsatib, salomatligini mustahkamlaydi, ishlash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr ko'rishga yordam beradi.

www.ziyouz.com kutubxonasi



28-rasm.

Jismoniy madaniyat mazmuniga quyidagilar kiradi:

1. Inson a'zolarining tuzilishi va ularning funksional kamoloti.
2. O'quvchilarning sog'ligini mustahkamlash.
3. Gigiena qoidalariga ko'nikish.
4. Bo'lajak ishchi-mehnatchilarning jismoniy va fiziologik sifatlarini kasb ahamiyati jihatidan shakllantirish, ish qobiliyatlarini oshirish.
5. O'quvchilarda iroda, chidamlilik, qat'iy intizom, do'stlik hissini kamol toptirish.
6. Shaxsiy jismoniy qobiliyatlarni tarbiyalash.

Insonning kuch va qobilyatlarini tahlil etganda, u uchga bo'linadi: jismoniy, aqliy va axloqiy. Shunga binoan insonning bu kuch-qobilyatlarining taraqqiysi, yuksalishini ta'min etadigan tarbiya ham uch qismga ajraladi, bular badan tarbiyasi, asl tarbiyasi, axloq tarbiyasidir.

Badan tarbiyasi inson hayotida katta ahamiyatga ega. Birinchidan, hayotda har kimning mukammal sog'-salomatlikka, kuch-quvvatga ega bo'lishi ehtiyoji bor. Ikkinchidan, tan sog'lig'i fikr va axloqning ham sog'lig'ini ta'min etadi. Fikr va axloq bilan mijoz va sog'lomlik uzviy bog'liq.

Badan tarbiyasining maqsadi har tomonlama yetuk: jismonan chiniqqan, sof fikrli, mard, sabotli, qat'iyatli, Vatanni himoya qila oladigan shaxslarni kamol toptirishdan iborat.

O'quvchilarni jismoniiy tarbiyalash jarayonida quyidagi asosiy vazifalar hal etiladi. Birinchi vazifasi-sog'liqni mustahkamlash, tana a'zolarini chiniqtirish, jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlanish hamda uning ish qobilyatining oshishiga ta'sir etishdir.

www.ziyouz.com kutubxonasi

tant»i, A.L. Vengerning «Nuqtalar do'yicha chizish», I. Shvansarning «Aqliy rivojlanishni diagnostika qilish», V.V. Xolmovskayaning «Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning qobiliyatlarini tashxislash» kabi metodikalari mashhurdir.

Germaniyaning «Ta'limni rivojlantirish yagona rejasi»da shunday deyiladi: «Pedagogik diagnostika tushunchasi pedagogika sohasidagi barcha jarayon va muammolarni yoritilishini, o'zlashtirishni va o'quv jarayoni samaradorligini o'lchashni, ta'lim olish sohasidagi har bir kishining imkoniyatlarini aniqlash choralarini, ayniqsa, maktab ta'limi tizimida xohlagan kasbni va ta'limning uchinchi bosqichini tanlash choralarini nazarda tutadi»[1].

Bu yerda asosiy e'tibor kasb tanlashga yordam berishga Qaratilgan.

Nemis olimi Mauermanning yozishicha: «Pedagogik diagnostika o'zlashtirish va o'quv jarayoniga tayyorgarlik o'rtasida aloqa o'rnatadi, o'quv jarayonida kechadigan o'quv maqsadini to'g'ri belgilaydi va o'quv-tashkiliy shakllarni sharoitga mosligini baholaydi».[2]

K. Klauer pedagogik diagnostikaga ta'rif bergan bir qator olimlarni tanqid ostiga olib, shunday fikrlarni bildiradi: «Pedagogik diagnostika (tashxislash) vazifalarini birvarakayiga klassifikatsiyalash (turkumlash)ni, bir paytning o'zida amalga oshirishi mushkul, shu sababli u pedagogik diagnostika atamasining mohiyatini belgilamasligi kerak. Pedagogik diagnostika dolzarb pedagogik qarorlarni, hukmlarni chiqarishga bo'lgan urinishlar majmuyidan iborat».

Rus olimi V.I. Zverev: «Pedagogik diagnostika - bu turli pedagogik vaziyatlarni o'rganish, aniqlash, ta'lim tizimi qatnashchilarining xilma-xil qobiliyatlari darajasini bilishdan iborat jarayon» (34,12), - degan fikrni ilgari suradi. Boshqa rus olimasi L. Denyakina: «Pedagogik diagnostika bu pedagogning o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashxislashda individual-malakaviy sifatlarini belgilovchi,

---

[1] Germaniyada ta'lim tizimi uch bosqichdan iborat: 1-bosqich-boshlang'ich maktab, 2-bosqich - o'rta maktab, real maktab va gimnaziya, 3-bosqich - oliy o'quv yurti.

[2] M.Mauerman. Testaufbau und Testanalyse. Weinheim: Beits, 1999, - 188 p.

www.ziyouz.com kutubxonasi

shaxsning ijodiy taraqqiy topishida ko'makchi, pedagogik jamoaning muvaffaqiyatini oshiruvchi faoliyatdir» (34,66), - deb yozadi.

«Pedagogik diagnostika o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, mazmunini boyitish va attestatsiya uchun qo'llaniladi»[1].

Barcha tavsiflarni umumlashtirib, quyidagicha fikr bildirishni joiz deb o'ylaymiz: **pedagogik diagnostika** - pedagog shaxsining va u bilan muloqotga kirishuvchilarning pedagogik tizim natijalarini taqlil qilish, kafolatlash va tavsiyalar berish jarayoni.

Pedagogik diagnostika: birinchidan, individual ta'lim jarayonini qulaylashtirishi, *ikkinchidan*, jamiyat talabidan kelib chiqqan holda, ta'lim-tarbiya natijalarini to'g'ri aniqlashni taminlashi, kafolatlashi, *uchinchidan*, o'ziga xos ta'lim yo'nalishi va mutaxassislikni oqilona tanlashga yordam berishi kerak. Pedagogik diagnostika yordamida ma'naviy-ma'rifiy jarayon tahlil qilinadi va ta'lim-tarbiya natijalari aniqlanadi.

Tashxislashda nafaqat ta'lim-tarbiya natijalarini sarhisob qilish, balki ularning o'zgarish dinamikasini ham nazarda tutish lozim.

Shakllanib borayotgan demokratik huquqiy davlatning yoshlarga nisbatan amalga oshirayotgan siyosati yigit va qizlarga o'z qobiliyati va iste'dodini to'la ro'yobga chiqarishda, yangilanish va taraqqiyot jarayonlariga faolroq qo'shilishga yordam berishdan iboratdir. Shu jihatdan ta'lim-tarbiya jarayonini diagnostika qilishga zarurat oshmoqda.

Yoshlarning kamolot darajasini diagnostika qilishda va xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalashda intellektual va tarbiyalanganlik darajasi orasidagi aloqadorlikni aniqlash, xalq pedagogikasi tajribalarini zamon talablari bilan uyg'unlashtirish, ta'lim-tarbiya tizimini qulaylashtirish, komil inson fazilatlarini shaklllantirishga qaratilgan milliy qadriyatlar va ilg'or metodikalar uzluksiz ta'lim tizimida tahsil olayotgan yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini takomillashtirishda muhim yo'nalish sifatida qaralmoqda.

Ta'lim jarayonini diagnostika qilishning bir necha funksiyalari farqlanadi.

---

[1] Морено К. Педагогическое диагностирование. М., Логос, 1999, 86-с.

www.ziyouz.com kutubxonasi



1. Nazoratning diagnostik funksiyasi. Nazorat natijasida bilim, iqtidor va ko'nikmalarning shakllanganlik darajasi aniqlanadi.

2. Nazoratning talabalarda bilim olishga ishtiyoqini o'stirish funkciyasi. Nazorat natijasida talabalarda o'z bilim, iqtidor va ko'nikmalarini yanada takomillashtirish ehtiyoji uyg'onadi.

3. Nazorat jarayonida talabalarning shaxsiy xislatlari shakllantiriladi va eng asosiysi rivojlantiriladi. Rivojlanish faol o'quv orqali, shu jumladan, nutq faoliyati orqali amalga oshiriladi.

4. Tahsil funksiyasi. Nazorat jarayonida talabalar o'z bilimlarini mustahkamlaydilar. O'quv materiali yanada chuqur o'zlashtiriladi, hodisalar o'rtasida yangi bog'lanishlar o'rnatiladi, shu bilan aqliy faoliyat yanada takomillashadi.

5. Nazoratning tarbiyaviy funksiyasi. Nazorat jarayonida o'quvchilarning psixologik ijobiy xislatlari shakllanib bormog'i lozim.

6. Nazoratni baholash funksiyasi. Nazorat natijasida sifat o'zgarishlarining me'yori aniklanadi.

Yuqorida kursatilgan funksiyalar albatta bir-biriga uzviy boglangan holda yuz beradi.

Nazorat — ko'p qirrali murakkab jarayon hisoblanadi, tahsil oluvchilarda doimo jonli qiziqish uyg'otib, aqliy faoliyatni faollashtiradi.

Dastlabki nazorat - yangi mavzuni boshlashdan oldin uni o'zlashtirishga qanchalik tayyorgarlik darajasini aniqlash maqsadida amalga oshiriladigan nazorat turi.

Joriy nazorat - o'quv jarayonining hamma jabhalarida judayam chuqur bo'lmasa-da, tez-tez o'tkazilib turilishi zarur bo'lgan, uquv materiali ustida tizimli ishlashni ta'minlaydigan nazorat turi.

Mavzu asosidagi nazorat - o'qituvchi tomonidan nazorat ish kichik va katta kollokvium, maxsus seminar shaklida bir mavzu

www.ziyouz.com kutubxonasi

yoki bo'lim tugagandan so'ng, semestr mobaynida 3-5 marotaba o'tkaziladigan nazorat turi.

Natijaviy nazorat - o'quv fanining bir qismi yoki butunicha tugatilgandan keyin, agarda dastlabki, joriy tematik va bo'sag'ali nazorat natijasida kursga mo'ljallab tayyorlangan testlar bo'yicha o'tkaziladi.

Nazorat jarayonini faollashtirish maqsadida turli nazorat shakllarini o'ziga qamrab oluvchi mezon - reyting uslubi xisoblanadi.

Reyting - baholash, tartibga keltirish, klassifikaciyalash, birorta hodisani oldindan belgilangan shkala buyicha baholash tushuniladi.

Shkalalash - (ingl. - o'lchov birligini aniqlash) - real jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish.

Reyting bo'yicha nazoratni amalga oshirishda test usulidan ham foydalaniladi.

O'zlashtirishni nazorat qilish va baholash quyidagi pedagogik sharoitlarni bajarish asosida amalga oshiriladi:

1. Obyektivlik.
2. Loyiqalash.
3. Modellashtirish.
4. Oshkoralik.
5. Mazmunlilik.
6. Tadqiqotchilik.
7. Izchillik.
8. Individuallik.
9. Differensiatsiya.

Jamiyatimizda tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda bosh omil-yoshlarni Vatanga muqabbat, milliy g'urur, muloqot odobi, o'zbek va jahon madaniyati, san'ati, xalq yodgorliklarini tushunish va ardoqlash kabi yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish, shaxs milliy dunyoqarashini kamol toptirishdir. Shu sababli bugungi kunda diagnostika ta'limiy-tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshirishda, muhim tarbiyaviy vazifalarni hal etishda yetakchi o'rinni egallab kelmoqda.

Pedagogik diagnostikaning natijalari kadrlar tayyorlash va ularning kasbiy malakalarini oshirishda katta ahamiyatga ega. Tashxislashda mavjud pedagogik muammolar ravshanlashadi, ularning yechimini topish zarurati borligi aniqlanadi. Muammolar yechimi

www.ziyouz.com kutubxonasi

faoliyatning tarkibiy qismlarida, vazifalarni oqilona taqsimlashda o'z aksini topishi mumkin. Pedagogik diagnostika funksiyalari (vazifalari) aynan shu nuqtai nazardan kelib chiqadi:

- **teskari aloqa funkciyasi** - ko'zlangan o'quv-tarbiyaviy maqsadlarga erishish shakllari va yo'llarini tahlil qilish;
- **maqsad va vazifalarni belgilash funkciyasi** - jamoaning taraqqiy qilish istiqbollarini, istiqboliy rejalarini aniqlash;
- **taqsimot funksiyasi** - jamoa a'zolari o'rtasida burchlarni, vazifalarni taqsimlash;
- **yaratish funksiyasi** kattalarning yoshlar bilan muloqot qilishining sog'lom muhitini tarkib toptirish;
- **pedagogik tajribani o'rganish** va umumlashtirish funksiyasi;
- **pedagogik korrekciyalash funkciyasi** - yoshlar xulqidagi, ta'limiy faoliyati, tarbiyaviy jarayondagi nuqsonlarni bartaraf etish vazifasini o'taydi, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarni attestatsiyalashda qo'l keladi;

motivatsiya va rag'batlantirish funksiyasi o'quvchi-yoshlarning hamda tarbiyachi-o'qituvchilarning ta'lim olish va ta'lim berish faoliyatini rag'batlantirishni, tashqi stimullarni adekvat qabul qilishni nazarda tutadi. Tarbiyaviy jarayonda komillikka intilishni kuchaytiradi;

nazorat funksiyasi ta'limiy-tarbiyaviy jarayonda turli xil nazorat turlarini o'tkazishni nazarda tutadi, chunki diagnostika ma'aviy-ma'rifiy jarayon holati to'g'risidagi axborotga ega bo'lishni bildiradi.

Rus olimi N.S. Sunsov ta'kidlashicha, pedagogik diagnostika quyidagi tamoyillar asosida olib boriladi: maqsadga yo'naltirilganlik; aniqlik va ishonarlilik; tizimlilik va uzviylik (66, 48).

Diagnostikaning *maqsadga yo'naltirilganligi* avvalambor, tashkiliy shakl, vosita va metodlarning oxirgi natijalar bilan mutanosibligi va pedagoglarning kasbiy talablari: O'quv-tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirishga qaratilganligi bilan belgilanadi.

Diagnostikaning *ma'lum obyektga yo'naltirilganligi* ta'lim berishda o'quvchi-yoshlarning, tarbiyachi-o'qituvchilarning individual tafovutlarini hisobga olish, ularning intellektual rivojlanishlari, jinsi, ijtimoiy nufuziga qarab belgilanadi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Diagnostikaning *aniqlik va ishonarlilik* muolajalari metod va vositalarning ilmiy asoslariga bog'liqligi bilan belgilanadi.

O'quvchi-yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini uzviy va tizimli diagnostika qilish ko'p jihatdan ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatning ko'p qirraligi va shaxsning ijtimoiy-individual xususiyatlarining xilma-hilligi bilan tavsiflanadi. Ma'lumki, o'quvchi-yoshlarning bilimlarni idrok etishiga uning ilgarigi tajribasi, aqliy rivojlanish darajasi salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Agar yangi materialga aniq bo'lmagan yoki noto'g'ri tasavvurlar va tushunchalar qo'shilsa, bu yangi taassurot yoshlar ongida noadekvat tarzda joy egallaydi. Natijada ularda xato bilimlar, noto'g'ri malakalar to'planib qolishi mumkin. Bu esa o'quvchi-yoshlarning hatti-harakatlarida, axloqiy xulq normalaridan chekinish alomatlarining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bunday paytlarda ular ongida xato tarzda paydo bo'lgan tushunchalarni korreksiyalash tadbirlarini zudlik bilan o'tkazish lozim bo'ladi.

Pedagogik diagnostika o'quv-tarbiyaviy ishlarning yakuniy natijalar ko'rsatkichlarini hamda mazkur jarayonning kechish holatini yaqqol aks ettirish xususiyatiga ega.

Yoshlar orasida pedagogik diagnostikani tashkil qilishda beriladigan nazariy bilimlarni yoshlar qalbiga yetkazish, ularni kundalik ehtiyojiga yo'naltirish uchun quyidagi ish usullariga e'tibor berish lozim:

- o'quv muassasa, mas'ul shaxslar sinf, guruh jamoasining ruhiy holati, ya'ni har bir shaxsning faoliyati, qiziqish darajasiga;
- o'quvchi-yoshlarning tartib-intizomiga, davlat mulkiga bo'lgan munosabatiga;

O'quvchi-yoshlarning ijtimoiy hayotdagi faolligiga;

yoshlar bilan o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarga bo'lgan munosabatiga (ijobiy, salbiy, befarqligiga);

- yoshlarning kattalar, o'z tengdoshlari bilan axloqiy muomala va munosabatlariga;
- o'quv maskanlarida tashkil etilgan qonun-qoidalarga munosabat va ularga amal qilishga;
- o'quv muassasasidagi ijtimoiy fikrga bo'ysunuvchanligiga.

Yuqoridagilarga amal qilinganda pedagogik diagnostikani o'tkazish yo'nalishlarini to'g'ri tashkillashtirishga imkoniyat yaratiladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Mustaqil ish yo'nalishlari

a) Pedagogik diagnostika va korrekciyaning mohiyatini o'rganish;

b) Pedagogik diagnostika funkciyalari va ijtimoiy tamoyillari to'grisidagi ma'lumot to'plash;

s) Pedagogik diagnostikaning jamiyatimizdagi yosh avlod ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishdagi ahamiyatini taqlil qilish.

Mustaqil ish bosqichlari

1-bosqich: «pedagogik diagnostika va korreksiya» matnini sinchiklab o'king va Insert strategiyasidan foydalanib taqlil qiling.

2-bosqich: pedagogik diagnostika metodlari orqali guruhingizdagi biron talabaning tarbiyalanganlik darajasini aniqlashga harakat qiling. Kuzatuvlaringizni daftarga qayd eting.

3-bosqich: reyting, test, dasturlashtirilgan topshirik usullaridan foydalanib, mutaxassisligingizga oid fanlar bo'yicha diagnostika o'tkazing.

KERAKLI MANBALAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning ta'lim-tarbiyani rivojlantirishga qaratilgan asarlari.

2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi».

3. Pedagogika Fani Koncepciyasi.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maqkamasining ta'lim sohasidagi qarorlari.

5. Oliy va o'rta maxsus ta'lim, Xalq ta'limi vazirliklarining «Reyting asosida baholash» to'g'risidagigi me'yoriy hujjatlari.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstituciyasi. T.: O'zbekiston, 2003, 38-b.

2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. - T., 1997.

www.ziyouz.com kutubxonasi

3. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. - T., 1997.

4. Karimov I.A. O'zbekistan the road of independenge and progress. - T., «O'zbekiston», 1992, - R. 70.

5. Abdullayeva Sh. A. O'quvchilarni pedagogik tashxislashda qo'llaniladigan metodlar // Xalq ta'limi, 2003, №3, 40–45-b.

6. Abdulloh Avloniy. Muxtasari tarixi anbiyo va tarixi islom. - T.: «Fan», 1994, 293-b.

7. Клауер К. Педагогическое диагностирование. - М., Логос, 1999, 421-с.

www.ziyouz.com kutubxonasi

III BO‘LIM

TA’LIM NAZARIYASI (DIDAKTIKA)

www.ziyouz.com kutubxonasi

16-MAVZU: TA'LIM JARAYONINING TA'LIMIY, TARBIYAVIY VA RIVOJLANTIRISH FUNKSIYALARI

«O'z mustaqil fikriga ega bo'lgan, o'z kuchiga, o'zi tanlagan yo'lning tug'riligiga ishongan inson doimo kelajakka ishonch bilan qaraydi. U jamiyatdagi fikrlar xilma-xilligidan cho'chimaydi, balki zamonaviy bilim va falsafiy qarashlarga, hayot haqiqatiga suyangan holda har qanday g'arazli niyat, tahdid va intilishlarni fosh qilishga qodir bo'ladi».

I.A.Karimov

Bilim jarayonining ilmiy, nazariy, uslubiy va amaliy asoslarini, ya'ni ta'lim, bilim berish, o'qitish nazariyasi bilan pedagogikaning mustaqil bo'limi didaktika-ta'lim nazariyasi shug'ullanadi.

Didaktika grekcha so'z bo'lib, "didasko", ya'ni «o'qitish», «o'rgatish» ma'nolarini bildiradi. Ta'lim qonuniyatlarini o'rganish, tahlil qilish jarayonida ta'lim tushunchasi uning mohiyati, mazmun va vaziflari, o'qitish principlari, shakllari haqidagi bilimlar bayon etiladi. Didaktika pedagogikaning «nimaga o'qitish», «nimani o'qitish» va «qanday o'qitish» kabi savollariga javob izlaydi.

Ta'lim insoniyat tajribasining ma'lum tomonlarini, ya'ni o'quvchilar ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan faoliyatdir. O'qituvchi ta'lim jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi, balki bu jarayonda o'quvchi, talabaga ta'sir ko'rsatadi, bu esa ularning bilim olishlarini yanada faollashtiradi, natijada o'quvchi ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Ta'limdagi yutuqlar, avvalo, o'qituvchiga bog'liq. Mutaxassis sifatida o'z fanini chuqur bilishi, pedagogik muloqot ustasi bo'lish

www.ziyouz.com kutubxonasi

psixologik-pedagogik va uslubiy bilim va malakalarni egallashi, har xil pedagogik vaziyatlarni zudlik bilan o'rganish va baholash, pedagogik ta'sir ko'rsatishning maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ega bo'lish kerak.

Mustaqil ishlash iste'dodini shakllantirish, kasbiy layoqat hissini, pedagogik voqea va hodisalarni taqqoslash, tahlil qilish va xulosalash ko'nikmalarini rivojlantirish-bularning barchasi ta'lim jarayoning asosiy vazifalaridir.

Ta'lim jarayoni - ma'lumot mazmuni hamda unga oid faoliyat usullarini o'quvchilarning o'zlashtirishi uchun o'qitish va o'qish faoliyatlarining real aloqalashuvi, sababiyatli bog'lanishi, bir-biriga muvofiqlashuvi asosida ta'limning aktlar, zvenolar, cikllar shaklida makon va zamonda harakatlanadigan maqsadga muvofiq shirkat faoliyatidir[1] (29-rasm).



29-rasm. Ta'lim jarayoni.

Ta'limning asosiy vazifalari shaxsni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Ta'lim inson bilish faoliyatining bir turi sifatida bir necha ma'noni bildiradi, ya'ni ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish hamda ularning qobiliyatlarini o'stirishdir.

[1] O. R.Roziqov va boshqalar. Didaktika. T., "Fan", 1997, 111-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Ta'lim orqali yosh avlodga insoniyat tajribasi orqali to'plangan bilimlar beriladi, zaruriy ko'nikma va malakalar hamda e'tiqodlar shakllantiriladi. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, u ikki tomonlama xarakterga ega, ya'ni unda ikki tomon o'qituvchi va o'quvchi faol ishtirok etadi. O'qituvchi aniq maqsadni ko'zlab, reja va dastur asosida bilim, ko'nikma va malakalarni singdiradi, o'quvchi esa uni faol o'zlashtirib oladi. Bildirish, bilish murakkab, qiyin, ziddiyatli jarayondir. Bu jarayonda inson psixikasiga tegishli sezgi, idrok tassavvur va tafakkur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi va muhim rol o'ynaydi. Ta'lim berish, yoshlarga bilim berish, ularda ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ya'ni haqiqatlarni ocha olishga qodir bo'lgan jiddiy mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir (30-rasm).

Bilim o'zlashtirilayotganda psixikaning namoyon bo'lish shakllari

Psixik jarayon	Psixologik holatlar	Shaxsning xususiyatlari
Bilish jarayoni	Xissiy irodaviy	Individuallik
Sezgilar	Emotsiyalar	Yo'nalishlar
Idrok	E'tiqodlilik	Temperament
Xotira	Bardamlik	Xarakter
Tafakkur	Tetiklik	Qobiliyatlar
Xayol	Apatiya	Iqtidor
Nutq	Qiziquvchanlik	Aqliy salohiyat
Diqqat	Qayratlanish	Xulq motivatsiyasi
	Ishonchililik	Ish uslubi
	Ijodiy ruxlanish	Mas'uliyat

30-rasm. Bilim o'zlashtirilayotganda psixikaning namoyon bo'lish shakllari.

www.ziyouz.com kutubxonasi

O‘qituvchi, o‘quvchi va talabalardagi fikrlash jarayonni to‘g‘ri yo‘lga solish uchun amaliyot har qanday bilishning negizidir, degan qoidani hisobga olish zarur. Ta’limda o‘qituvchi bilim berish bilan cheklanmaydi, u o‘quvchilarning fikrlash faoliyatiga ham rahbarlik qiladi, o‘quvchilarda ishdagi mustaqillik, ijodkorlik qobiliyatlarini o‘stiradi va shu tariqa o‘rganilayotgan narsaning ongli ravishda o‘zlashtirib olishga erishiladi, materialni idrok qilishlari va tushunib olishlari bilan birga, uni puxta esda saqlab qolishlari to‘grisidagi ham g‘amho‘rlik qiladi (31-rasm).



31-rasm. O‘qitish faoliyati tarkibi.

O‘qituvchi o‘quvchi talabaning bilish faoliyatlarini tashkil qilish maqsadida o‘quv ishlarni olib borar ekan, avvalo ta’lim jarayoni orqali uch vazifani, ya’ni bilim berish orqali uch maqsadni hal qilish lozimligini unutmasligi kerak. Bu maqsadlar o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyatini birlashtiradi:

1. **Ta’limiy maqsad** - O‘quv materialining mazmunini bilish, ya’ni ushbu fanga tegishli ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish va amaliyotga tatbiq qila olishdir.

2. **Tarbiyaviy maqsad** - fan asoslarini o‘zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g‘oyalar, dunyoqarashlar ta’sirida o‘zining shaxsiy sifatlarini, imon - e’tiqodlarini shakllantirishdir.

3. **Rivojantiruvchi maqsad** - ta’lim jarayoni ta’sirida shaxsning aqliy kamolatini, bilish qobiliyatini, o‘qishga, mehnatga bo‘lgan munosabatini rivojlantirishdan iborat.

Bu maqsadlarni amalga oshirish natijasida o‘quvchi - talabada mustaqil ishlash iste’dodi paydo bo‘ladi. Uni o‘ylashga o‘rgatadi, ta’lim jarayonida tafakkur qukmronlik qiladi

www.ziyouz.com kutubxonasi

Bu bog'liqlikni, avvalo, ta'limni amalga oshirish bosqichlarda ko'rishimiz mumkin. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat:

Birinchi bosqich - o'quv materiallarini idrok qilishdan iborat. Bunda o'quvchi talaba ta'limning mazmuni bilan tanishib, o'zining bilish vazifalari nimalardan iborat ekanligini tushunib oladi. Bunda sezgi, idrok, tasavvur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi.

Ikkinchi bosqich - ular o'quv materiallarini tushunib oladilar, uning mohiyatini anglaydilar va umumlashtiradilar. Natijada ularda yangi bilimlar paydo bo'ladi. Buning uchun ular analiz, sintez, taqqoslash, xulosa chiqarishdan foydalanadilar.

Uchinchi bosqich - yangi bilimlar, mashqlar, mustaqil ishlar o'qituvchining qo'shimcha izoqlari orqali mustahkamlanadi.

To'rtinchi bosqichda - ular o'zlashtirib olgan bilimlarni imkoniyatga qarab amaliyotga tatbiq qiladilar.

Bularni bilish orqali o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarishi mumkin. Shuning uchun o'quv jarayonining hamma bosqichlarida o'qituvchi etakchilik va boshqaruvchilik rolini o'ynaydi. Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqaradigan bo'lsak, o'qitish jarayoni bilish faoliyatining muhim tarmog'i sifatida qator vazifalarni bajaradi. Jumladan:

1. O'quvchi va talabalarda bilim ko'nikmalari va malakalarini hosil qiladi.

2. Ularda dunyoqarash, ishonch va e'tiqodlarini o'stiradi.

3. Yoshlarni muayyan darajada o'qimishli, muayyan tarbiyali kishilar bo'lib etishishlariga, qobiliyat va is'tedodlarini o'stirishga erishiladi.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun o'qituvchida o'z kasbiga layoqat bo'lishi lozim. Layoqatlilik pedagogik mehnatni muvaffaqiyatli bajarishga qodir bo'lishdir. Bu, avvalo, pedagogik kasbning ijtimoiy roli va zaruriyatini yaqqol tasavvur qila olishda ko'rinadi. Bundan tashqari o'qituvchi o'quvchiga qiziqib qarashi, uning ehtiyoj va xususiyatlarini tushuna bilish lozim.

O'qituvchi keng ko'lamdagi didaktik bilimlarga, pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim. Shundagina o'qituvchi kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari darajasida ta'lim jarayonini tashkil qiladi va boshqaradi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar

1. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T., «Sharq», 1997.

2. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. — Toshkent, «O'zbekiston», 1998.

3. Abduqodirov A. Umumta'lim maktablari uchun elektron darslik yaratishning nazariy asoslari // «Pedagogik mahorat». 2003. 2-son, 6-10-betlar.

4. Pedagogika. O'quv qo'llanma. A. Munavvarov tahriri ostida. - T., 1996. 68-74-betlar.

5. Roziqov O. va boshq. Didaktika. Darslik. T., «Fan», 1997, 81-109-betlar.

6. Tursunov I.Y., Nishonaliev U. Pedagogika kursi. T., «O'qituvchi», 1997, 89-92-betlar.

7 Musayev U. va boshq. Darslik bilim, ma'lumot va axborot manbai // «Ma'rifat gazetasi», 2003-yil 26 fevral.

8. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika. O'quv qo'llanma. - T., «Fan», 2004, 234-239-betlar.

Topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasinig ta'lim to'g'risidagi Qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida aks ettirilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillarini o'rganing.

2. Ommaviy axborot vositalari, Internet tarmog'i orqali mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy sohalarda islohotlar haqidagi ma'lumotlarni to'plang va ularni tahlil qiling.

3. Nazariy dalillar ruknini sinchiklab o'qing va: a) ta'lim jarayonining tuzilishi (bosqichlari) aks etgan chizma tayyorlang; b) ta'lim jarayonining mohiyati va vazifalari, o'qitish jarayonining ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantirish funksiyalari haqida og'zaki gapirib bering.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Mavzu yuzasidan zarur manbalar

a) O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi Qonuni;
b) Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi;
s) Pedagogik ta'lim Konsepsiyasi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

17-MAVZU: TA'LIM MAZMUNI. DAVLAT TA'LIM STANDARTLARI. O'QUV REJALARI VA VOSITALARI

1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'grisidi"gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» qabul qilindi. Bu qonunda ta'kidlanishicha, ta'limning mazmuni har bir o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotga va dunyoviy demokratik jamiyat baxt - saodati yo'lidagi yuqori unumli mehnatiga barkamol avlod qilib tayyorlash bilan belgilanadi.

Ta'limning asosiy mazmuni uning vazifalarida oydinlash-tiriladi. Asosiy vazifalarga aqliy tarbiya bilan bog'liq bo'lgan vazifalar kiradi.

Yangi demokratik jamiyat qurishda ta'limning mazmuni bu jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib quyidagilarga amal qilgan holda belgilanadi:

- ilmiy bilimlarni etakchi roli to'grisidagigi qoidaga;
- insoniyatning madaniy-ma'rifiy merosiy boyliklarini umuminsoniy qadriyatlarni egallab olish haqidagi "Milliy dastur" ko'rsatmalariga;
- tarbiyalanuvchi shaxsni barkamol qilib rivojlantirish, iymon-e'tiqodini, ilmiy dunyoqarashini tarkib toptirish;
- ilmiy hayot bilan yangi demokratik jamiyat qurilishi tajribasi bog'liqligi haqidagi qoidaga;
- ta'limning bir maqsadga qaratilganligi;
- ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplariga va didaktik prinsiplariga muvofiqligiga amal qilinadi.

"Yangi demokratik jamiyat qurayotgan bizning mamlakatimizda ta'limning mazmunini quyidagi yo'llar bilan takomillashtirishni nazarda tutiladi:

www.ziyouz.com kutubxonasi

- fan va tajribadagi eng yangi muvaffaqiyatlarni aks ettirish;
- ikkinchi darajali va ortiqcha murakkablashtirilgan materiallardan qutilish;
- o'rganilayotgan fanlar ro'yxatini va materiallar hajmini aniqlash hamda o'quvchi yoshlar, albatta, o'zlashtirib olishi kerak bo'lgan malaka va ko'nikmalarning optimal hajmini belgilash;
- o'quv fanlariga oid asosiy tushunchalarni va yetakchi g'oyalarni juda ham aniq bayon qilish;
- o'quvchilarni pedagogik texnologiyalar: komp'yuter, kserks, elektron pochta va shu kabi boshqalar to'g'risidagi bilimlar bilan qurollantirish hamda ularda shu texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish.

Umumiy ta'lim - bu o'quvchilarning har tomonlama umumiy tayyorgarligini va rivojlanishini ta'minlovich fan asoslarini egallab olishdir.

Kasbiy ta'lim - insonning o'zi tanlagan, nisbatan tor yo'nalishdagi mehnat faoliyatiga xizmat qiladi.

Politexnika ta'limi o'quvchilarning hozirgi zamon ishlab chiqarish asoslari, uning energetikasi haqidagi bilimlar sistemasi bilan ta'minlaydi hamda inson faoliyatining turli sohalaridagi ish operatsiyalarini o'zlashtirib olish uchun baza ahamiyatiga ega bo'lgan bir qator mehnat ko'nikma va malakalarini egallash nazarda tutiladi.

Ma'lumot mazmuni - yoshlarning ma'lumoti, taraqqiyoti, tarbiyasini mo'ljallab, hozirgi zamon fani, texnikasi, ishlab chiqarishi, fikrlashining umumiy asoslarini didaktik ishlov berish yo'li bilan tanlangan bilimlar, ko'nikma-malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi va munosabatlardir[1].

Ta'lim mazmuni-yoshlarni ma'lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalash maqsadida ma'lumot mazmunidan tanlanib, ta'lim jarayoniga olib kirilgan bilim, ko'nikma-malaka, faoliyat usullari hamda tabiat, jamiyat va tafakkur hodisalarini emotsional baho-

[1] O.R. Roziqov va boshqalar. Didaktika. T., "Fan", 1997, 111-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

lashga doir munosabatlardir. Ta'lim mazmuni ma'lumot mazmuni asosida tanlanadi. Ta'lim mazmunini o'rgatish va o'zlashtirish yo'li bilan ma'lumot mazmunini amalga oshirishga, binobarin, yoshlarni ma'lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalashga qarab boriladi.

Ma'lumot mazmunini tanlashga oid nazariyalarning ayrimlari uzoq o'tmishga borib taqalsa, ayrimlari XX asrda paydo bo'lgan.

Moddiy ta'lim nazariyasi XIX asrning keyingi choragida kirib keldi (1879-y, F.Doerfeld. «Didaktik materializm» kitobi). Moddiy ta'lim nazariyasi asoschilari maktabining vazifasi bolalarga imkoniyati yetguncha ko'proq bilim o'rgatishdan iborat deb hisoblardilar.

Formal ta'lim tushunchasi 1791 yili (E.Shmidtning «Empirik psixologiya» kitobida) ishlatilgan.

Formal ta'lim nazariyasi tarafdorlari maktabning vazifasini bolalar taraqqiyotida ko'rishadi. Ular maktabning ishi bilim berish emas, aksincha, bolalarda turli qobiliyatlarni rivojlantirishdan iborat, deb bilishadi. Bilimlarni esa har kim o'zi istagancha, o'z qobiliyatiga yarasha o'rganadi.

Ta'lim mazmuni quyidagi davlat hujjatlari va rasmiy hujjatlarda o'z aksini topadi:

1. O'quv rejasi.
2. O'quv dasturi.
3. Darslik.

O'quv rejasi - davlat hujjatidir. Unga barcha umumta'lim maktablari so'zsiz amal qiladi. Bu hujjatda sinflar bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv fanlari va shu fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlari ko'rsatiladi. Bu hujjat maktabning yagona o'quv rejasi hisoblanib, u xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqla-nadi. Alohida aniq bir fanning o'quv rejasi - shu fanni o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatlaridir.

O'quv-rejasini tuzishda quyidagi omillarga asoslaniladi:

- o'quv tarbiya ishining maqsadi, o'quvchilarga aniq ilmiy bilim berish, olgan bilimlarini ko'nikmaga aylantirib, uni hayotga qo'llay olishga o'rgatish.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Maktab o'quvchilariga bilim berish yoshiga qarab tizimga solinadi va qoidalarga asoslanadi:

a) boshlang'ich ta'lim - 1-4 sinflar;

b) umumiy o'rta ta'lim - 5-9 sinflar;

v) o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari.

Shu o'rinda ta'lim tizimining yangi zamonaviy bo'g'ini bo'lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlariga ham to'xtab o'tsak.

Ta'lim to'g'risidagi qonunga asosan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining maqomi tenglashtirilgan. Shu bilan birga, akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'z oldiga qo'yilgan maqsadlar bilan bir-biridan ma'lum ma'noda farq qiladi.

Akademik litseylar - o'quvchilarning qiziqishlarini va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishini chuqurlashtirilgan, ixtisoslashtirilgan holda o'qitishni ta'minlaydi. Akademik litseylar, asosan oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi. Akademik litseylarda har bir o'quvchi o'zi xohlagan mutaxassislik bo'yicha o'qishi mumkin.

Akademik litseylarda o'quvchilarni iqtidorlilari o'zlarini qiziqtirgan mutaxassisliklarda o'qib, o'z iqtidorlarini ocha oladilar, ana shu maqsadni amalga oshirishga iqtidorli, iste'dodli bolalarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Kasb-hunar kollejlari esa o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligini, layoqatlarini, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallash imkonini beradi. Kasb-hunar kollejlari oldingi bilim yurtlaridan ham mazmunan, ham shaklan farq qiladi. Bu farq bularning eng, avvalo, o'quvchilarni o'qishga qabul qilishdan boshlab, o'quv jarayonining tashkil etilishi, mazmuni bilan mezonan va bir necha kasb-hunar egasi, ustasi, kichik mutaxassis bo'lib o'qishni tamomlashdan iboratdir. O'quv jarayoni Davlat ta'lim standartlari, yangi zamon talablariga javob beradigan o'quv reja va dasturlar asosida tashkil etiladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Kasb-hunar kollejlarida o'quv dasturlarida oldingi bosqichi-umumiy o'rta ta'lim maktablarida, oliy o'quv yurtlarining o'quv dasturlari bilan o'zaro ta'limning uzluksizlik va izchillik prinsiplariga amal qiladi.

O'quv dasturi har bir alohida fan uchun tuziladi. Dastur o'quv rejasiga asoslanadi. Dasturda fanning mazmuni, mavzu ketma-ketligi, ikkinchi mavzu birinchisini to'ldirishi, izchilligi bilan yoritiladi va ma'lum mavzular orqali ko'rsatiladi. O'quv dasturida mavzu maqsadi qisqacha izohlanadi.

Fanning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda yo'nalishlari ajratiladi. Ular boblarga bo'linadi. Boblar katta-katta mavzularga, katta mavzular esa kichik mavzularga bo'linadi va o'quvchilarga tushuntiriladi. O'quv dasturining o'zini amal qilishi kerak bo'lgan qoidalari mavjud.

1. Dasturning aniq bir g'oyaga asoslanganligi.

Dastur mustaqil jamiyatimiz taraqqiyotining tamoiyllariga asoslangan holda isloh qilingan har bir fan, texnika, ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlar qirralaridagi erishilgan yutuqlar darajasini ilmiy asosda aks ettirishi lozim. Dastur uzohni ko'ra bilishi qoidalariga asoslanishi kerak.

2. Dastur ilmiylik prinsiplariga asoslanadi.

Har bir ta'lim va tarbiya g'oyalari, ilmiy jihatdan tekshirilgan, ishonchli dalillar, kuzatishlar, manbalar va materiallar asosida kiritiladi.

3. O'quv dasturi aniq mazmun va mantiq g'oyalarini o'zida aks ettirishi lozim. Dasturda fanning maqsad va vazifalari undagi bilim asoslari misollar va masalalar orqali o'rganiladi. Aks holda tushuntirish qiyin bo'ladi.

4. Nazariyot bilan amaliyotning birligi prinsiplari.

Talabalar nazariy olgan bilimlarini amalda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutiladi.

5. O'quv dasturini tuzishda fanning tarixiy saboqlari inobatga olinadi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Vaqt o'tishi bilan fan olamida yangi-yangi kashfiyotlar, ma'lum bir ilmiy qonun-qoidalar paydo bo'lib, fan takomillashib boradi.

O'quv dasturi davlat tomonidan tasdiqlangan reja asosida bakalavriat, magistratura, litsey, gimnaziya, kollejlarga alohida-alohida tuziladi.

Darslikni hammamiz bilamiz. Undan uzoq yillar davomida foydalanib kelganmiz, ayrimlarga u eng yaqin do'st bo'lib qolgan.

Darslik. Darslik o'quv jarayonining asosi. O'quvchining uydagi muallimi, yordamchisi. Darslik quyidagi talablarga amal qilgan holda yaratiladi:

1. Darslikda aks etgan ilmiy bilimlar sinf o'quvchilarining yosh xususiyatiga mos kelishi kerak.

2. Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asosi, g'oyalari tizimli va izchil bo'lishi talab qilinadi. Ular hayotdan olingan, ishonarli bo'lishi lozim.

3. Nazariy bilimlar ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'langan bo'lishi kerak.

4. Darslikda mavzu sodda ravon tilda yozilishi hamda tegishli qoida va ta'riflar berilishi kerak. Darslik ichidagi va muqovasidagi rasmlar va bezatilishi o'quvchining yoshiga mos, fanning xarakteriga monand bo'lishi kerak.

5. Mavzulardagi fikrlar aniq va qisqa bo'lishi, ilmiylikka asoslanishi kerak.

O'quv predmetlari. Har bir o'quv predmetida o'ziga oid fanning umumiy asoslari beriladi. Fan va o'quv predmeti bir-biridan quyidagi belgilariga ko'ra farq qiladi:

Birinchidan, fan hajm va mazmun jihatidan keng bo'lib, unda shu fanga oid g'oyalar, qarashlar, bilimlar, tushunchalarning barchasi o'z aksini topadi. O'quv predmeti hajmi nisbatan tor bo'lib, unda bolalarning hayotiy tajribalari, real imkoniyatlariga mos keladigan bilimlarni o'rgatish ko'zda tutiladi.

Ikkinchidan, fan hamma uchun yoshu-qari, o'zbeku-qozoqqa bir xil xizmat qiladi. O'quv predmetlari esa faqat yoshlarga mo'ljallab tuziladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Uchinchidan, fan va o'quv predmetining faqat o'zigagina xos vositalari mavjud.

To'rtinchidan, fan o'zini-o'zi rivojlantiradi. O'quv predmetlari esa yoshlarni ma'lumotli qiladi, rivojlantiradi, tarbiyalaydi.

Lekin farqlariga qaramasdan ular o'zaro uzviy bog'langan. Fan rivojlangan sari o'quv predmetlari sayqallashib, takomillashib boradi.

TOPSHIRIQLAR

1. Ta'lim to'g'risidagi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablarni tatlil qiling.

2. Ta'lim mazmunining belgilanishini o'rganing, uning tarixiy xarakterini tahlil qiling.

3. Umumiy o'rta ta'lim davlat standartlari asosida ta'lim mazmunining ifodalanishini o'rganing.

4. Ta'lim mazmunini aks ettiruvchi normativ hujjatlar:

a) o'quv rejalari;

b) dasturlar;

v) darsliklar va ularning tuzilishiga qo'yilgan talablarni o'rganing va mutaxassislik fani buyicha DTS asosida kalendar-reja tuzishni mashq qiling.

5. Moddiy ta'lim va formal ta'lim nazariyalari g'oyalarini T-chizma asosida[1] solishtirib, tahlil eting:

Moddiy ta'lim nazariyasi		Formal ta'lim nazariyasi	
Ijobiy tomonlari	Salbiy tomonlari	Ijobiy tomonlari	Salbiy tomonlari

6. Hozirgi kunda yangi pedagogik texnologiyalar qo'llanilishi munosabati bilan qanday yangi o'quv adabiyotlari paydo bo'ldi va qo'llanilmoqda? A. Abduqodirovning «Umum ta'lim maktablari

[1] T-chizma-innovatsion strategiya bo'lib, unda tahlil qilish, mushohada yuritish ko'nikmalari shakllantiriladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

uchun elektron darslik yaratishning nazariy asoslari» («Pedagogik mahorat», 2003, №2, 6-10-betlar) maqolasini Insert usulida o'qib, tahlil qiling.

7. Mutaxassisligingizga oid darslikdan birorta o'quv materialini tanlab, quyidagi ishlarni bajaring:

- o'quv materialini o'quv elementlariga ajrating;
- o'quv elementlari bo'yicha beriladigan savollarni belgilang;
- o'quv materiali mazmunini hisobga olib ko'rgazmali qurol yasang;
- mazmunga mos keladigan o'quv topshiriqlari tiplarini aniqlang.

8. Mutaxassislik faningiz buyicha DTS, o'quv dasturga asoslanib, chorak uchun kalendar-tematik ish reja tuzishni mashq qiling.

9. Erishilgan natijani o'lchash, baholash: Mutaxassisligingizga oid fanning o'quv dasturini va o'shanga tegishli darslikni olib birbiriga solishtirib ko'ring. Darslikning dasturga muvofiqligini tahlil qiling.



32-rasm. Ta'lim mazmunini tanlash ehtiyojlari.

www.ziyouz.com kutubxonasi



33-rasm. Bilimlar tizimi.

Axborot manbalari

1. Karimov I. A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – Toshkent, «O'zbekiston», 1998.

2. Abduqodirov A. Umumta'lim maktablari uchun elektron darslik yaratishning nazariy asoslari // «Pedagogik mahorat». 2003, 2-son, 6-10-betlar.

3. Oliy ta'lim me'yoriy hujjatlar to'plami. - T., «Sharq», 2001.

4. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – Toshkent, «Fan», 2004, 234-239-betlar.

5. Петиллон П. Диагностика социальных и эмоциональных признаков. - М., Торговый дом Гранд, 2003, 137-стр.

6. Плаже Ж. Ребёнок и его развитие. - М., Знание, 1984, 45-49-стр.

7. Подласый И.П. Педагогика. - М., Владос, 2003, 162-стр.

www.ziyouz.com kutubxonasi

8. Райгородский Д.Я. Практическая психодиагностика. М., Бахрах, 1998, 67-стр.

9. Roziqov O. va boshq. Didaktika. Darslik. - T., «Fan», 1997, 81-109-betlar.

10. Tursunov I.Y., Nishonaliev U. Pedagogika kursi. T., «O'qituvchi», 1997, 89-92-betlar.

11. Musayev U. va boshq. Darslik - bilim, ma'lumot va axborot manbai // «Ma'rifat gazetasi», 2003 yil, 26 fevral.

www.ziyouz.com kutubxonasi

18-MAVZU: TA'LIM TAMOYILLARI (PRINSIPLARI)

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi va kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlaridan biri, deb ta'kidlanadi, kadrlar tayyorlash milliy dasturida. Uzluksiz ta'lim tizimi o'quv-tarbiya jarayonining hamma bosqichlarini qamrab oladi hamda har tomonlama yetuk barkamol avlodni yetishtirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Dasturda uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari ham o'z ifodasini to'liq topgan. Bular:

ta'limning ustuvorligi,
ta'limning demokratlashuvi,
ta'limning insonparvarlashuvi,
ta'limning ijtimoiylashuvi,
ta'limning milliy yo'naltirilganligi,
ta'lim va tarbiya uzviy bog'liqligi,
iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori darajada bilim olishlari uchun shart-sharoit yaratish[1] kabilardir.

Pedagogikada ta'limning ilmiy-nazariy, uslubiy asoslari alohida, ya'ni didaktika qismida o'rganiladi. Bu jarayonda ta'lim prinsiplariga alohida to'xtaladi. Xo'sh, ta'lim prinsiplari kim uchun va nima uchun kerak? U o'quvchi faoliyatiga ham dahldormi?

Ta'lim jarayoni murakkab hamda ko'p qirralidir. Bu jarayonning muvaffaqiyatli va samarali natijasi ta'lim jarayonining qonun qoidalari, ya'ni ta'limga qo'yilgan didaktik talablarga qay darajada amal qilishlariga bog'liq.

Ta'lim prinsiplari o'quv tarbiya jarayoniga qo'yiladigan ijtimoiy talablar, ta'limni tashkil etish va boshqarishda rioya qiladigan qoidalar sifatida amal qiladi.

---

[1] Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1998, 43–44-betlar.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Ko'pchilik adabiyotlarda «O'qitish prinsiplari» iborasi ishlatiladi. Lekin ta'lim prinsiplari ta'lim jarayonining ikkala subyektiga - o'qituvchi va o'quvchiga ham daxldor. Shuning uchun ularni ta'lim prinsiplari deb atagan ma'qul, deb ta'kidlaydi prof. O. Roziqov.

Ta'limni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar, qoidalar ta'lim prinsiplari deb ataladi.

Prinsiplar umumdidaktik kategoriya bo'lib, ular ta'limning barcha turlari, darajalari, subyektlari, o'quv-tarbiya jarayonining hamma komponentlariga dahldor umumiy qoidalardir.

«Prinsiplar va ta'lim qonuniyatlari uzviylikda mavjuddir. Qonuniyatlar prinsiplarning ayrim tomonlarini yoritadi. Prinsip umumiylik xususiyatiga ega bulib, ta'limda barcha uquv fanlarini uqitish bosqichlarida qo'llanadi».[1]

O'qitish bilish faoliyatining ajralmas qismi sifatida, insonning tevarak - atrofdagi dunyoni bilishining umumiy qonunlari asosida sodir bo'ladi. Shuning uchun o'qitish tamoyillari ta'lim jarayonining eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi.

Ta'lim tamoyillari o'quv yurtlari oldida turgan ulkan vazifalar asosida belgilanadi. Ular o'zaro bir-biri bilan mustahkam bog'liq holda bir sistemani tashkil etadi. Har bir darsda didaktik tamoyillarning bir nechtasi ishtirok etishi mumkin. Ular ta'lim oldida turgan asosiy maqsadlarni hal etishga o'z hissasini qo'shadi. Ta'lim tizimi isloh qilinayotgan hozirgi jarayonda o'quvchi talabalarga mustahkam bilim berish, ularni erkin, mustaqil fikrlay oladigan insonlar qilib tarbiyalashda, ta'lim tamoyillarning mohiyatini chuqur anglash va hayotga tatbiq etish muhim muammolardan biridir.

O'quv yurtlarida beriladigan bilim ilmiy xarakterga ega bo'lishi, texnika va fanning so'nggi yutuq va kashfiyotlarini o'zida ifoda etishi lozim. Shunday ekan o'quvchi ilm fandagi yangiliklardan xabardor bo'lishi lozim.

O'qitishning ilmiylik tamoyillari ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarni hozirgi zamon texnika fan taraqqiyoti darajasidagi ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, ayniqsa, talaba yoshlarni ilmiy tad-

[1] A. Zunnunov, U. Mahkamov. Didaktika. – T., «Sharq», 2006, 49-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

qiqot usullari bilan tanishtirishga qaratiladi. Ilmiylik ta'limning mazmuniga va usullariga aloqadordir. Shunday ekan bilim ilm-fan bilan o'quv predmeti o'rtasida hamkorlik, o'zaro bog'liqlik bo'lishiga erishish lozim. Ta'limning hamma bosqichlarida ilmiy izohlashlardan foydalanmoq lozim.



34-rasm. Ta'lim tamoyillari.

Bilimlarni tizimli va izchil o'zlashtirish qoidasi ta'limning ilmiyligi va tushunarliligi qoidalari bilan uzviy bog'liq. Tizimlilik (sistemalilik) didaktik kategoriya sifatida YA.A.Komenskiyning asarlarida asoslab berilgan edi. U tabiatda bir narsa ikkinchi narsa bilan bog'liq bo'lganidek, ta'limda har bir narsa ikkinchisi bilan aloqada bo'lmog'i, har bir mashg'ulotda o'rganilgan bilim keyingi o'rganiladigan bilimlarga yo'l ochishi lozim, deb hisoblaydi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Professor O.Roziqov tizimlilikni ta'lim qoidasi sifatida quyidagi belgilarga ega ekanligini ta'kidlaydi: tartibga solinganlik, tashkiliylik, yaxlitlik, rejalilik, davomiylik, vorisiylik, istiqbolga yo'nalganlik.[1]

Ta'limning tizimli bo'lishi uning izchil bo'lishi bilan bog'liqdir. Izchillikka asoslangan ta'limning xarakterli belgisi shundaki, u o'quvchilarning oldindan o'zlashtirgan bilim va malakalari zamirida yangi bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularning o'zaro bog'lanishlarini takomillashtirish va aksincha, yangi bilimlarni bayon qilish jarayonida oldindan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yanada chuqurlashtirish, kengaytirish va mustahkamlashni ta'minlashga qaratilgandir.

Tizimlilik va izchillik o'quv fanlarining bir-biri bilan bog'liq bo'lishini ham nazarda tutadi.

Nazariy bilimlarning amaliyot bilan, turmush tajribalari bilan bog'lab olib borish ta'limning yetakchi qoidalaridan hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya sohasidagi yutuqlar, eng avvalo nazariya bilan amaliyotning o'zaro bog'liqligiga asoslanadi. Shundagina o'quvchi-talaba o'rganayotgan o'quv materiallarining tub mohiyatini tushunib yetadi va amaliyotda ulardan foydalana oladi. Buning uchun o'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishlariga erishmog'i lozim. Faol ishtirok esa bilimlarni ongli tushunib o'zlashtirishga olib keladi.

Ta'limdagi onglilik va faollik, o'quvchidagi ko'tarinki kayfiyat, ko'proq bilishga intilish, mustaqil fikrlash va xulosalar chiqarishga undaydi. Bilimlarni ongli va faol o'zlashtirish o'qitish jarayonining psixologik tomonlarida o'z ifodasini topadi. O'qitishda nazariy bilimlar qanchalik qat'iy bayon etilsa, o'quvchi talabaning fikr yuritishi shunchalik aniq va ravshan bo'ladi va o'quv materiallarini ongli o'zlashtirish darajasi ham oshadi.

Ta'lim tizimi isloh qilinayotgan hozirgi jarayonda yoshlarning mustaqil fikr yuritishi, mustaqil suratda bilim olishga intilishi talab qilinadi. Buning natijasida bilimlarni o'zlashtirish jarayoni ijodiy tus oladi. Bunday jarayonda o'qituvchi o'kuvchining mashg'ulotlarga munosabati va bu jarayonda o'zini qanday tutishga e'tibor bermog'i lozim. Shunday ekan, ta'limning samaradorligi o'qituv-

[1] O.R. Roziqov va boshqalar. Didaktika. T., «Fan», 1997, 111-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

chining o'quvchilarni o'qishga izchil va muntazam qiziqtirib borishga bog'liqdir. Buning uchun o'qituvchi ularni o'qishga ijodiy munosabatda bo'lishga, mustaqillikka, ishchanlikka odatlantirishi lozim.

Ta'lim jarayoni, uning mazmuni, unda ko'tarilgan hayotiy masalalar yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ta'lim shaxsni shakllantirishning asosiy manbaidir.

O'qitib tarbiya berish deganda ta'lim va tarbiyaning bir-biridan ajralmasligini tushunamiz. Har bir o'quv fani hatto, ayrim mavzu va mavzuchalari ham shubhasiz, tarbiyalovchilik xarakteriga ega.

Tabiiy fanlar - matematika, kimyo, biologiya va boshqalarni o'zlashtirish orqali o'quvchilarda ilmiy e'tiqod, dunyoqarash shakllana boradi. Ular dunyoni o'rganish mumkinligini ilmiy asosda anglab oladilar. Har bir narsa yuzasidan haqqoniy hukm chiqarishga o'rganadilar.

Gumanitar fanlarning tarbiyaviy ahamiyati yanada kengroq bo'lib, ular komil insonning axloqiy sifatlarini shakllantirishga har tomonlama yordam beradi.

O'quvchi-talaba ilmiy bilimlarni o'zlashtirar ekan, uning dunyoqarashi, iymon-e'tiqodi va qobiliyati o'sib rivojlanib boradi. Ta'limning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish o'qituvchining, avvalo, ta'limni uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etishiga, o'quv materiallarining mazmuni bilan bog'liq tarbiyaviy maqsadlarni aniq belgilashiga va o'quvchilarning bilim olishga qiziqtira olishiga bog'liqdir. Shu bilan birga o'qituvchining o'quvchilar oldidagi obro'-e'tibori muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Ta'limning ko'rsatmalilik qoidasi ta'lim jarayoni sifatini oshiradi, o'quvchilarning bilim olishlarini osonlashtiradi. Bu qoida o'qitish jarayonida ko'rish, eshitish, hid, ta'm, maza bilish, terimuskul harakati kabi sezgi organlarining bir yo'la obyekt ustida safarbar qilinishini talab etadi.

Ta'lim jarayonida **ko'rsatma materiallar** o'quv predmetlarining xarakteri va mazmuniga qarab turli-tuman bo'lishi mumkin.

Jumladan:

a) buyum va narsalarni aslini tabiiy holda ko'rsatish;

b) tasviriy ko'rsatmali materiallarni namoyish qilish;

v) narsa va buyumlarni shartli belgilar orqali ko'rsatish;

www.ziyouz.com kutubxonasi

g) ovozli ko'rsatmali materiallarni ko'rsatish.

Ta'limda ko'rsatmalilikning samarali natijalar berishi uchun uning quyidagi tomonlariga ham e'tibor berish kerak:

Birinchidan, ishlatiladigan ko'rsatmali qurollar u yoki bu sinf o'quvchilarining yoshi va o'ziga xos xarakter xususiyatlari, umumiy tayyorgarligi - saviyasiga mos keladigan bo'lishi lozim.

Ikkinchidan, foydalaniladigan ko'rsatmali qurollar o'tilayotgan dars mavzusining mazmunini ochib berishga yordam beradigan materiallar bo'lishi lozim.

Uchinchidan, dars jarayonida foydalanish uchun belgilangan ko'rsatmali materiallardan unumli foydalanmoq uchun zarur bo'lgan ta'lim usullari to'g'ri tanlangan bo'lishi lozim.

Ta'lim jarayonida muvaffaqiyatlarga faqat bilim berishda o'quvchi talabaning o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarini hisobga olganda erishish mumkin. Shuning uchun o'qituvchilarda bolalar psixologiyasiga oid bilimlar etarli bo'lishi lozim. Sinf o'quvchilar jamoasiga xos umumiy xususiyatlar va har qaysi o'quvchiga tegishli xususiyatlar ta'limning har bir bosqichida e'tiborga olinishi kerak. Bunga erishish uchun o'qituvchi o'quvchilarni kuzatishi va ularning ruhiy olamini o'rganishi lozim. Faqat shundagina o'quvchidagi kamchiliklarning kelib chiqish sabablari aniqlanadi va ularni bartaraf qilish uchun izlanishlar olib boriladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim qoidalari umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonlarining yo'nalishi, o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, bilim va ko'nikmalar hosil qilishning asosiy qonun va qoidalari yig'indisi bo'lib, ular bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Ta'lim prinsiplarining ahamiyati nimada?
2. Ta'lim prinsiplari tizimiga nimalar kiradi? Ta'limning ilmiy bo'lishi prinsipi mohiyatini qanday tushundingiz?
3. Ta'limda nazariya bilan amaliyotning bog'liq bo'lishi prinsipini mutaxassisligingizga bog'lab tushuntira olasizmi?
4. Ta'limda onglilik va faol harakatda bo'lish prinsipi o'quvchiga nima beradi?

www.ziyouz.com kutubxonasi

5. Ta'limni tarbiyalovchilik imkoniyatlaridan foydalanishning pedagogik jarayondagi ahamiyati nimadan iborat?

6. Ta'lim jarayonining ko'rsatmali bo'lishi ta'lim samarasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

7. Bilimlarni puxta va sistemali o'zlashtirib olish prinsipiga misol keltiring.

8. Ta'lim jarayonida o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish prinsipining mohiyati nimadan iborat?

9. Ta'limning tizimlilik va izchillik prinsiplarini amalga oshirish qoidalarini mutaxassisligingizga oid mavzu misolida bayon eting.

10. Ko'rgazmalilik va onglilik prinsiplarining o'zaro bog'liqligi, xususiyatlari va ularni amalga oshirish qoidalari to'g'risida mini ma'ruza tayyorlang.

11. **Pedagogik muammoli masalalarni yeching:**

O'quvchi she'rni yaxshi ayta turib, birdan to'xtab qoldi, yana boshladi va to'xtadi. So'ngra yig'lab «Yodlagan edim», dedi. O'qituvchi «Mayli hayajonlanma, Dilbar javob bersin, keyin aytib berasan» - dedi.

O'quvchi o'zini tutib olib, she'rni tuxtamay aytib berdi. O'qituvchi 5 baho qo'ydi.

Darsdan sung darsni kuzatgan talabalar o'rtasida bahoni oshirib qo'ymadimikin degan munozara boshlandi. O'qituvchi esa, men bahoni tushira olmayman, u juda intiluvchan, harakatchan, lekin doskada hayajonlanib qoladi. Masalan, Anvar shunday xato qilsa kechirmayman, chunki u o'qimagan bo'ladi.

O'qituvchi haqmi? Bu yerda qaysi ta'lim prinsipi qo'llanilayapti?

AXBOROT MANBALARI

1. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T., 1998.

2. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. - T., «O'zbekiston», 1998.

3. Umumiy o'rta ta'lim muassasa (maktab)larida o'quvchilar bilimini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risida muvassat Nizom. G «Xalq ta'limi», 2000, 4-son, 10-24-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

4. Farberman B., Musina R., Jumaboyeva F. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. - T., 2002.
5. Roziqov O. va boshq. Didaktika. Darslik. T., «Fan», 1997.
6. Tursunov I.Y., Nishonaliyev U. Pedagogika kursi. T., «O'qituvchi», 1997.
7. Zunnunov A., U. Mahkamov. Didaktika. - T., «Sharq», 2006, 49-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

19-MAVZU: TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI

O'qitish metodi deganda ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati tushuniladi. O'qitish usullari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi. O'qitish usullari har ikkala faoliyatning: a) o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish; b) o'quvchilar tomonidan berilayotgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida qo'llanadigan yo'llarni o'z ichiga oladi. Ta'lim berish o'qituvchidan izlanishni, pedagogik mahoratni talab qiladi. Ilmiy salohiyati boy bo'lgan ustozgina mavzuni talabalarga mahorat bilan etkazib beradi. Mavzuning maqsadiga qarab, ta'lim metodlarini tanlay biladi, kerakli vositalardan o'z o'rnida foydalaniladi.

Ta'lim metodi ta'limning maqsadi va vazifalariga bog'liq. Metodlar o'quvchilarning yoshiga ta'limning mazmuniga va funksiyasiga qarab tanlanadi.

Metodlarni har qanday muammoni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin:



35-rasm. Ta'lim metodlari.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilarining bilim saviyasi, o'zlashtirish qobiliyati, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda quyidagi metodlar qo'llaniladi:

- o'qitishning og'zaki metodi;
- o'qitishning amaliy ishlar metodi;
- o'qitishning ko'rgazmali metodi;
- muammoli evristik modellashtirish metodi;
  o'qitishning muammoli izlanish va reproduktiv metodi;
  o'qitishning induktiv va deduktiv metodi;
- o'qitishda rag'batlantirish va tanbeh berish metodi;
- o'qitishda nazorat va o'z-o'zining nazorat qilish metodi.
- Metodlar o'z navbatida guruhlarga bo'linadi:

(Ta'lim metodlarini solishtirib o'rganish maqsadida quyidagi shakldagi T-chizmadan foydalanamiz. Uning mohiyati va qo'llanish qoidalari oldingi mavzularda berilgan).

Ta'limning og'zaki metodlari		Ta'limning amaliy metodlari		Ta'limning muammoli metodlari	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi

O'quv informasiyasini so'z orqali uzatish va axborotni eshitish orqali qabul qilish metodlariga nimalar kiradi va ularga qanday talablar qo'yiladi?

O'qitishning og'zaki metodlari uch turga: a) o'qituvchining hikoyasi; b) suhbat; v) maktab ma'ruzasiga bo'linadi.

Hikoya usuli boshlang'ich sinflarda ko'p qo'llansa, yuqori sinflarda ma'ruza usuli ko'p qo'llaniladi. Ta'lim mazmuni notanish bo'lsa hikoya va ma'ruza usullari qo'laniladi.

Ta'lim mazmuni o'quvchiga qisman tanish bo'lsa suhbat usuli qo'llaniladi. Og'zaki bayon qilish usulida har ikkala faoliyatning o'qituvchining bayon qilishi va o'quvchilarning shu bayon qilingan bilimlarini diqqat bilan tinglab ongli va mustahkam o'zlashtirishlari birligiga amal qiladi.

Hikoya maktab ta'lim tizimida eng ko'p qo'llanadigan usul bo'lib, u hamma sinflarda barcha fanlarni o'qitishda, maktab ta'limining hamma bosqichlarida qo'llaniladi. Boshlang'ich sinflarda bu ancha qisqa va aniq bo'ladi, sinflarning o'rta guruhiga kelib hikoya

www.ziyouz.com kutubxonasi

ancha kattaroq hajmda va davomli bo'ladi. Yuqori sinflarda hajmi katta bo'ladi, ma'ruzadagi kabi butun darsni band qilmaydi.

Nutq madaniyatini o'stirishda hikoyaning o'rni katta bo'ladi. Shu jihatdan o'qitishning og'zaki usullari ta'limda doimo eng ko'p qo'llaniladi

O'quv ma'ruzasi o'quv materialini og'zaki bayon qilish uchun muljallangan. Uning hajmi hikoyadan katta bo'ladi. O'quv ma'ruzasi dars yoki mashg'ulotning barcha qismini egallab oladi.

Ma'ruza, asosan, yuqori sinflar, kollej va oily o'quv yurtlarida qo'llaniladi. Maktab ma'ruzasi o'tilayotgan mavzuning haqiqiy ilmiy mohiyatini ochib berish, ulardan ilmiy xulosalar chiqarish va umumlashtirish yo'li bilan to'liq mashg'ulot davomida bilimlarni izchillik bilan bayon etishdir.

O'quv materialini og'zaki bayon qilish usuli quyidagi bir qator didaktik qoida va talablarga asosan qo'llaniladi:

1. Bayon qilinayotgan materiallar g'oyaviy jihatdan mazmunli, ilmiy hamda nazariyani amaliyot bilan bog'lashga qaratilgan bo'lishi kerak.

2. Bayon qilinadigan materiallarning tarbiyaviy ahamiyatini to'g'ri ko'rsatish orqali o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish.

3. Bayon qilishda o'qituvchining nutqi yagona manba hisoblanadi va u nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

4. Bayon qilishda o'qituvchi ishlatadigan ta'riflar, qoida va qonunlar kitob matnidan farq qilishi, mazmuniga mos bo'lishi kerak.

Qanday hollarda suhbat usuli qo'llaniladi? Uni qo'llashda qanday qoidalarga amal qilish lozim?

Suhbat usuli - savol-javob usuli deb ham yuritiladi.

O'quvchilar darsga etarli darajada tayyor bo'lsa o'qituvchi rahbarligida muammoli savollarga javoblarni o'zlari axtarib topadigan suhbatlar maqsadga muvofiqdir. Bunday suhbatlar evristik izlanish, axtarib topish xarakterida bo'ladi.

O'qitish jarayonida o'rganilayotgan mavzu yuzasidan kirish, asosiy va yakunlovchi suhbatlar ham qo'llaniladi.

Suhbatlar, ayniqsa, o'qitishning tarbiyalovchilik xarakterida dunyoqarash, e'tiqodni tarkib toptirishda qo'l keladi. Suhbatlar butun sinf hamda o'quvchilarning ayrim guruhlari bilan ham o'tkaziladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Suhbatlar orqali: a) o'quvchilarning o'z hayotlarida uchratgan voqea, hodisalar yuzasidan savollar berish orqali o'quvchilarning mustaqil fikr qilishlarini amalga oshiradigan holatlarga e'tibor qilish; b) o'quvchilarning ilgari o'rgangan tayanch bilimlarini esga tushirishga erishish lozim. Suhbat usuli bilan ish ko'rganda o'qituvchi quyidagilarga amal qilishi lozim:

1. O'qituvchining suhbat uchun tayyorlab kelgan savollari sinf o'quvchilarining hammasiga taalluqli bo'lib, so'roq o'rtaga tashlanishi kerak.

2. O'quvchilardan biri javob berish uchun chaqiriladi.

3. Sinfning hamma o'quvchilari javob berayotgan o'quvchini qunt bilan tinglashi, uning javobini to'ldirishi, tuzatishi, oydinlashtirishga yordam berishini ta'minlashi kerak.

4. O'quvchilarning javobi qay darajada to'g'ri-noto'g'ri bo'lishidan qat'i nazar o'qituvchi tomonidan izohlanishi, yakunlanishi va baholanishi zarur.

Ta'lim jarayonida turli ko'rgazmali qurollardan foydalanishga harakat qilamiz. Xo'sh, ushbu o'quv **informatsiyasini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodining ahamiyati qanday? Ko'rgazmalilikning qanday turlari mavjud?** degan savollarga javob topishga harakat qilaylik.

Ko'rgazmali usulning muhimligi o'rganilayotgan narsa va hodisalarni hissiy idrok etishga, ularni kuzatib mushohada qilishga o'quvchini undash, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga ishonch hosil qilishga, nihoyat nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

Ta'limda ko'rgazmalilik usuli namoyish etish, illyustratsiya va ekskursiya tariqasida olib boriladi.

Ta'lim jarayonida namoyish etish usulidan foydalanish asosiy materialning xarakteriga - mazmuni, shakli va hajmiga bog'liq. Bu xarakter ikki turlidir:

1. Aslicha ko'rsatilishi mumkin bo'lgan buyum va narsalar: o'simliklar, ularning tarkibi, hayvonlar, ma'danlar, kolleksiyalar, asbob va mashinalar, modellar va h.k.

2. Tasviriy ko'rgazmali materiallar: A) buyum, narsa, hodisa va voqealarning tasvirini ifodalovchi materiallar, rasm, surat, fotosurat, diafil'm va h.k. B) buyum, narsa, voqealarning biror shartli belgisi orqali ifodalangan simvolik va sxematik tasviriy materiallar

www.ziyouz.com kutubxonasi

geografiya va tarix kartalari, chizmalar, jadvallar, diagrammalar va h.k.

Tasviriy ko'rgazmali materiallar turliligi har xil qo'llashni talab etadi. Masalan:

1. Buyum va narsalarni tabiiy holda ko'rsatishni ikki usulda namoyish etiladi:

a) o'tilayotgan mavzuga oid badiiy ko'rgazma materiallari o'quvchi bayon qilayotgan bir vaqtda (faqat o'qituvchi ko'rsatadi);

b) tabiiy ko'rgazmali materiallarning soni etarli bo'lsa ular har bir o'quvchiga tarqatib beriladi.

2. Tasviriy ko'rgazmali materiallarning har ikkala turini ham ikki xil usulda olib borish mumkin:

a) ko'rgazmali materiallarni o'qituvchi namoyish etadi;

b) ko'rgazmali materiallar o'quvchiga tarqatiladi.

O'qitilayotgan mavzuning xarakterini hamma vaqt sinfda ochib bo'lmaydi. Bu holda nima qilish kerak? **Ekskursiya metodidan foydalanish mumkin.** Mavzuni ekskursiya usuli bilan ham ko'rsatish mumkin. Bu usulda o'rganilayotgan narsa hodisalarni tabiiy sharoitda zavod, fabrika, tabiatda, muzey, ko'rgazmalarda tashkiliy ravishda ko'rsatiladi. Agar ko'rsatilayotgan joyda o'tilayotgan mavzu mazmunini keng ochib berish imkoni bo'lsa, buni o'qituvchi oldindan borib kuzatib keyin o'quvchilarni olib boradi, ekskursiya usulidan foydalanadi, o'quvchilar ekskursiya davomida obyekt ustidan ma'lumotlarni eshitish yoki kuzatish bilan chegaralanmasdan zarur materiallarni yozib oladilar, rasmini chizadilar, o'lchash, hisoblash ishlarini olib boradilar.

O'qituvchi ekskursiya oxirida mulohaza va fikrlarni umumlashtirib, xulosa chiqaradi va mashg'ulotni yakunlaydi.

O'qitishning amaliy metodlarini qo'llash o'quvchilarga nimalar beradi?

O'quv informasiyasini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laborotoriya, ishlari, dastur tuzish, pedagogik masalalarni yechish, mehnat harakatlari va boshqalar).

O'qitishning amaliy usullari doirasi keng. Bu usullarga: yozma mashq, tajriba, laboratoriya xarakteridagi mashqlar, mehnat topshiriqlarini bajarish kabilar misol bo'ladi.

Yozma mashqlar jarayonida olingan nazariy bilimlar bevosita amaliyotda qo'llanadi. Mashq qilish davomida ilmiy bilim va ma'-

www.ziyouz.com kutubxonasi

lum ish harakat o'zlashtiriladi, takomillashadi, ular aniq o'quv fanining xarakteri hisobiga maqsadli, rejali tarzda amalga oshadi. Mashq davomida har bir mashq e'tiborga olinadi. Masalan, ona tilidan grammatik tahlil, matematikadan misol, masala yechish, tabiiy fanlardan ximiyaviy tenglamalar tuzish, koeffitsiyentlar tanlash, masala yechish, o'simlikllarni turlarga ajratish va h.k. Mashq davomida ilgari egallangan bilim, ko'nikma, malakalar, qonunlar faoliyatga tatbiq etiladi.

O'quvchilarning o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalarni mustahkamlash ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish asosida olib boriladi:

- mashq uchun berilgan topshiriqning maqsadi o'quvchilarga aniq tushuntirilgan bo'lishi;
- mashq ustidan sinf o'quvchilar jamoasi va har qaysi o'quvchilarning shaxsiy intilish, qiziqishini hisobga olishi;
- topshiriq butun sinf o'quvchilarining aktiv faoliyatini ta'minlaydigan bo'lishi va mashqni belgilangan vaqt ichida bajarishi talab etiladi.

Mashq qilishda o'quvchilarning yozma, ijodiy mashqlari alohida o'rin egallaydi.

Yozma ijodiy mashqlar ona tili, adabiyot, tarix, geografiya fanlarida ham qo'llaniladi. Ular insho, va'z, referatlar yozish kabilarda o'z aksini topadi.

O'quvchilarning yozma grafik ishlari rasm solish, xaritalar chizish, chizma va sxemalar ishlash, jadval, diagramma, grafik, plakat, albom, stendlar ishlash, laboratoriya mashq ishlari, tajribalar o'qitish jarayonida o'quvchilarga atrofni o'rab olgan obyektlarni borliqdagi narsa va hodisalar, ularning shakli, hajmi, tarkibi, tuzilishi, o'zgarish va rivojlanishi qonuniyatlari haqida yangi bilim beradi. Bu usullar o'quvchilar bilan yoppasiga va alohida olib boriladi.

Amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarga umumiy politexnik ta'lim berish va mehnat malakasi bilan qurolantirishda asosiy usul bo'lib xizmat qiladi.

O'qitishning reproduktiv metodini qachon qo'llash mumkin?

Bu usullar o'quvchilarning yangi tushuncha, hodisa va qonunlarni bilishdagi ijodiy faolliklari darajasini baholash asosida qismlarga ajratiladi. Reproduktiv usullar o'quvchilarning o'quv materiallarini mustahkamroq eslab qolishlarini ta'minlash, bilishga doir faoliyatni bevosita boshqarish, kamchiliklarni tez aniqlash

www.ziyouz.com kutubxonasi

uchun amaliy ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish maqsadida qo'llaniladi.

Reproduktiv usullar - o'quv materialining mazmuni, asosan, axborot xarakterida bo'lsa, amaliy harakatlarning usullarini ta'riflasa, o'quvchilarning bilimlarini mustaqil qidirib ola bilishlari uchun juda yangi hisoblansa, vaziyatlarni hal qilish uchun tayyor bilimlar yo'q bo'lsa, samarali qo'llanadi.

Bu usulda tafakkur qilish katta samara beradi. Reproduktiv usulda o'quvchilar ilgari yoki yaqinda egallagan bilimlarini qo'llaydi.

Muammoli ta'lim nima? Qanday qilib muammoli vaziyat yaratish mumkin?

Muammoli deyilganda o'quv materialini o'quvchilar ongida ilmiy izlanishga o'xshash bilish vazifalari va muammolari paydo bo'ladigan qilib o'rganish tushuniladi.

O'quvchilarning fikrlash faoliyatida mantiqiy to'g'ri, ilmiy xulosalarni izlash va o'zlashtirishga rag'batlantiradigan muammoli vaziyatlar vujudga keladi.

Har qanday ta'lim o'quvchi uchun muammolidir. O'quvchi ongida muammoli vaziyatni vujudga keltirish, o'quvchining faol fikrlash faoliyati o'quv materialini puxta o'zlashtirib olishlari haqida sharq pedagoglari qimmatli fikrlar aytib o'tganlar.

Mutafakkir Abu Rayhon Beruniy (937-1048) didaktik qarashlarida o'quvchilarni o'qitish hamda tarbiyalash jarayonida, birinchidan, turli mavzularda mulohazalar yuritishni, o'quvchining zerikmasligini, zo'riqmasligini ta'kidlagan.

Muammoli vaziyatda:

- o'quvchi uchun bilish qiyinchiligiga ega, ya'ni o'rganilayotgan muammo ustida fikr yuritish;
- o'quvchilarda bilishga qiziqish o'yg'otish;
- tahlil jarayonida o'quvchilarning avvalgi tajribasi va bilimiga suyanish.

Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatni vujudga keltirish, undan foydalanish usullarini yaratish, ta'lim tizimining har bir bosqichida o'rganiladigan fanlarga xosdir.

Muammoli vaziyat fanning mazmuni o'ziga xos xarakter xususiyatlari, uni o'rganish usullarini hisobga olgan holda yaratiladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Ta'lim jarayonida o'qitishning induktiv va deduktiv usullariga ehtiyoj sezilmoqda. **Qanday holda induktiv va deduktiv usullar qo'llaniladi?** Ayniqsa, deduktiv o'qitishga talab va e'tibor kuchaydi. Bu usulda tafakkur qilish katta samara beradi. Induktiv yoki deduktiv usullarni qo'llash o'rganilayotgan mavzu mazmunini ochishning ma'lum mantig'ini - xususiydan umumiyga yoki umumiydan xususiyga o'tishni tanlashni anglatadi.

Induktiv usullar texnik qurilmalarni o'rganishda va amaliy topshiriqlarni bajarishda keng qo'llaniladi.

Deduktiv usul o'quv materialini tezroq o'tishga yordam beradi, tafakkurni birmuncha faol rivojlantiradi.

Nazariy materialni o'rganishda anchagina umumiy holatlardan ayrim oqibatlarni aniqlashni talab qiluvchi masalalarni echishda deduktiv usulni qo'llash, ayniqsa, foydalidir.

Ta'limda rag'batlantirish va tanbeh berishning qanday turlaridan foydalaniladi?

1. Ta'limga qiziqishni rag'batlantirish metodi.
2. Ta'limga burch va mas'uliyatni rag'barlantirish metodi.

O'quv faoliyatini rag'batlantirish deb kishining aktiv faoliyatiga bo'lgan tashqi mayliga aytiladi. Shu sababli, rag'batlantirish o'qituvchi faoliyatining omili hisoblanadi.

Rag'batlantirish kishining ichki mayliga ta'sir qilganda real maqsad sari undaydigan kuchga aylanadi. O'qishga qiziqishni rag'batlantirish turlaridan biri-o'qishda ma'lum qiyinchilik sezayotgan o'quvchilarga muvaffaqiyatli sharoit yaratishdir.

Rag'batlantirish va tanbeh berish usullari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Rag'batlantirish: baho bilan, imo-ishora bilan, mukofot bilan amalga oshadi.

O'qishga doir tanbehlar dars paytida, og'zaki tanbeh berish, bahosini pasaytirib qo'yish, ish daftariga yozish, xatolarni ko'rsatish kabi usullar bilan amalga oshadi.

Maktabda o'quvchiga tan jazosi berish, o'zlashtirmagani uchun haqorat qilish, shaxsiga tegish, yomon iboralar bilan so'kish aslo mumkin emas.

Ta'limda nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlarining zarurati nimada va uning qanday turlari bor?

1. Og'zaki nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish.
2. Yozma nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish.

www.ziyouz.com kutubxonasi

3. Laboratoriya - amaliy nazorat va o'z-o'zini nazorat.
4. Test nazorati.

O'qitish tizimida nazoratning zarurligi shundan iboratki, butun o'quv yurtlari tizimiga samarali ishlayotganligi haqida axborot olishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj hisobga olinadi.

Nazorat maktabdagi o'qitish jarayoniga xos bo'lgan: ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantirishdek asosiy vazifalarni bajaradi. Nazoratni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Og'zaki nazorat yakka va guruhiy so'rash yo'li bilan amalga oshiriladi. Alohida so'rashda o'qituvchi ma'lum vaqt davrida o'quvchilar tushuncha, qonun nazariya holda dalillarni qay darajada egallaganliklarini aniqlaydi. O'quvchilar bilimi ona tili, matematika, fizika, kimyo fanlarida yozma tarzda ham baholanadi.

2. Yozma ishlar turli davomiylikka ega. Ayrim vaqtda qisqa, ayrimda esa to'la dars davomida yozma ishlar o'tkaziladi. Yozma nazoratda baholar obyektiv bo'lishi va o'quvchilarning tipik xatolari aniqlanib, kelgusida ularning bartaraf etilishi belgilab olinadi. O'z-o'zini nazorat qilish-o'quvchilarning o'quv faoliyatini muhim elementidir. Nazorat kelgusidagi ishlarga reja tuzish nimalarga e'tibor berish kerakligini aniqlab beradi.

Ta'lim maqsadini muvaffaqqiyatli amalga oshirish yo'lida ta'lim vositalaridan foydalaniladi. Kompyuter, Multimedia, kodaskop, filmoskop, logorifm lineykasi, sirkul, apparat turlari - bular jumlasiga kiradi.

Ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va ulardan o'rinli foydalanish ta'lim samarasini ta'minlashga yordam beradi. Ta'lim metodi mavzuning maqsadiga qarab tanlanadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. O'qitish usullarining ta'lim jarayonidagi ahamiyati qanday?
2. Uslub va vosita nima? Ularning mohiyatini ochib bering.
3. O'qitishning ogzaki usuli qanday turlarga bo'linadi?
4. O'qitishning ko'rgzmali usulidan foydalanishga qo'yilgan talablar qanday?
5. O'qitishning amaliy usullariga nimalar kiradi?
6. O'qitishning reproduktiv va muammoli izlanish usullarini qaysi hollarda qo'llash yaxshi samara beradi?

www.ziyouz.com kutubxonasi

7. O'qitishning induktiv va deduktiv usullarini qo'llashga doir misollar keltiring (mutaxassislik faningiz misolida).

8. Agar siz o'qituvchi bo'lganingizda ta'lim tizimini yaxshilash uchun yana qanday metodlarni tatbiq etgan bo'lardingiz?

9. Muammoli izlanish va reproduktiv metodlarining qo'llanilishini o'z mutaxassislik faningiz misolida aytib berishga tayyorlaning.

Axborot manbalari

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1998.

2. Pedagogika. O'quv qo'llanma. A.Munavvarov tahririda. T., «O'qituvchi», 1996, 86-102-b.

3. N.G'aybullayev, R.Yodgorov. Pedagogika. Ma'ruzalar matni. T., 2000, 104-110-b.

4. I.Tursunov, U.Nishonaliyev. Pedagogika kursi. T., «O'qituvchi», 1998.

5. G'aybulloh as-Salom. Ezgulikka chog'lan, odamzod. T., «Sharq», 1997, 312-313-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

20-MAVZU: TA'LIM-TARBIYANI TASHKIL ETISH SHAKLLARI (NOAN'ANAVIY SHAKLLAR)

1. Ta'lim shakllarining tarixan paydo bo'lishi.
2. Ta'limning asosiy shakli-dars va unga qo'yilgan talablar.
3. Darsning xil (tip)lari va ularning tuzilish shakllari.
4. Seminar va amaliy tajriba ishlari shaklidagi mashg'ulotlar.
5. Ta'limning samaradorligini ta'minlovchi noan'anaviy shakllar.

Ta'lim ni tashkil etish shakllari deganda, aniq muddatda va tartibda o'qituvchilar o'quvchilar bilan olib boradigan mashg'ulot turlarini tushunamiz. Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida ta'limni sinf-dars shaklida olib borish keng tarqalgan.

O'tmish davrlarda ta'lim qanday shakllarda tashkil etilgan? Uning taraqqiyot bosqichlari qanday?

Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz ta'limni tashkil etish shakllari ijtimoiy tuzum manfaatlariga mos holda paydo bo'lgan va rivojlangan. Dastlabki davrlarda ta'lim berish ishlarini odamlarning mehnat faoliyati, turmush tarzi bilan uzviy bog'langan hamda bilim berish, o'rgatish ishlari yakka tartibda olib borilgan.

Davr o'tishi bilan ko'pchilikka bilim berish ehtiyoji paydo bo'ladi, ta'lim tizimi mazmuni, bilimlarning murakkablashuvi bolalarni guruh-guruh qilib, to'plab o'qitishni taqozo qilgan hamda ta'lim bilan shug'ullangan mutaxassis-o'qituvchilar tayyorlash zaruriyati kelib chiqadi.

Shu davrda dars va sinf-dars tizimi paydo bo'la boshlaydi. Xalq orasida hayotiy tajribaga, bilim va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar murabbiy, o'qituvchi bo'lib faoliyat ko'rsatadi.

Xalqimiz tarixiga nazar tashlar ekanmiz, maktab va madrasalarda yoshlarga bilim berish bilan shug'ullanganligi "Avesto" va

www.ziyouz.com kutubxonasi

boshqa tarixiy manbalardan ma'lum. Ammo qadim davrlardan ta'limni qat'iy chegaralangan vaqtda bir xil yoshdagi bolalar bilan olib borish, ta'lim mazmunini bosqichma-bosqich berish masalalariga aniqlik kiritilmagan edi.

Forobiyning "Fan va aql zakovat" asarida o'quv fanlarini guruhlarga bo'lib o'qitish, ularning tarbiyaviy mohiyatini ochish masalalariga e'tibor berilgan.

Sinf-dars tizimini didaktik talablar asosida yaratishda buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning xizmatlari katta, uni sinf-dars tizimining asoschisi sifatida butun dunyo tan olgan.

Y.A. Komenskiy "Buyuk didaktika" asarida o'quv mashg'ulotlarini guruh shaklida tashkil etish, o'quv yili va o'quv kunini bir vaqtda boshlash, mashg'ulotlar orasida tanaffuslar berilishi, guruhdagi bolalarning yoshi va soni bir xil bo'lishiga alohida e'tibor berdi. Dars davomida o'quvchilar diqqatini to'plash, materialni batafsil tushuntirish, o'quvchiga savollar berish, o'zlashtirish jarayonini nazorat qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Biz hammamiz sinf-dars tizimida o'qiganmiz. Xo'sh, bu tizimning mohiyati nimadan iborat va u qanday tuzilishga ega?

Ta'limning maqsadi mustaqil jamiyatimizning ravnaqiga nazariy va amaliy hissa qo'sha oladigan "barkamol avlod"ni tarbiyalash.

Ta'limning vazifasi - yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirish.

Darsning maqsadi o'qituvchining rejalashtirgan aniq bir mavzusini o'quvchilarga bildirishi va o'quvchilar o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirib ko'rish hamda yangi mavzuga zamin yaratish.

Darsning mazmuni - uni o'qituvchi tomonidan rejalashtirilgan tugal ma'noga ega matn tashkil etadi. Uni o'quvchilar ongiga singdirish jarayonida manba, xulosa va hikoyalardan foydalanadi.

Sinf deganda, yoshi va bilim darajasi bir xil bo'lgan o'quvchilar guruhi tushuniladi.

Dars - aniq maqsadni ko'zlab belgilangan vaqtda bir xil yoshdagi o'quvchi, yoshlar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulotlardir. Dars - o'z oldiga qo'yilgan aniq maqsad va tugal mazmundan iborat.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Darsning maqsadi, mazmuni, hajmi ta'lim standartlari asosida belgilanadi. Dars o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli ekan, bu jarayonda quyidagilarga amal qilinishi lozim:

Har bir sinfda o'quvchilarni yoshi va bilim darajasi bir xil bo'lishi lozim.

Dars qat'iy jadval bo'yicha belgilangan muddatda olib borilishi kerak.

Dars o'qituvchi rahbarligida butun sinf bilan va alohida o'quvchilar bilan ishlash shaklida olib boriladi.

Dars, o'quv fanining xarakteri, o'qitilayotgan materialning mazmuniga qarab turli usullar va vositalarda olib boriladi hamda ta'lim tizimining bir qismi sifatida tugallangan bilim beradi, navbatdagi bilimlarni o'zlashtirmoq uchun zamin yaratadi.

Shuni unutmaslik kerakki, ta'lim ishlari darsdan tashqari ham to'garak, ekskursiyalar shaklida olib boriladi.

Dars oldiga qanday talablar qo'yiladi? Ularning mohiyati nimadan iborat?

Har bir dars oldiga quyidagi talablar qo'yiladi: a) tarbiyaviy talab, b) didaktik talab, v) tashkiliy talab.

Darsga qo'yilgan didaktik talablar sirasiga quyidagilar kiradi:

1. Har bir dars aniq maqsadni ko'zlagan holda puxta rejalashtirilmog'i lozim. Bu jarayonda o'qituvchi darsning ta'limiy va tarbiyaviy maqsadini belgilaydi. Dars bosqichlarini, ya'ni qanday tamomlash, ko'rgazmali materiallardan foydalanish kabilarni oldindan hal qilib oladi.

2. Har bir dars aniq g'oyaviy, mafkurafiy izlanishga ega bo'lishi lozim. O'qituvchi esa ulardan tarbiyaviy maqsadda foydalanmog'i lozim.

3. Har bir dars maktabning, ijtimoiy muhitning imkoniyatini hisobga olgan holda amaliyot bilan bog'lanmog'i, ko'rsatmali vositalar bilan jihozlanmog'i lozim.

4. Har bir dars xarakteriga mos usul, uslub va vositalardan samarali foydalangan holda tashkil etilishi lozim.

5. Dars uchun ajratilgan soat va daqiqalarni tejash va unumli foydalanish darkor.

6. Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faol munosabatda bo'lishi lozim, o'quvchi-talaba passiv tinglovchiga aylanmasligi lozim.

www.ziyouz.com kutubxonasi

7. Mashg'ulotlar butun sinf bilan va har bir o'quvchi bilan, ularning shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda olib borilishi kerak.

8. O'qitilayotgan mavzuni mazmuniga bog'liq holda mustaqil yurtimizdagi o'zgarishlardan talabalarni xabardor qilish.

9. Darsda Prezidentimiz I.A. Karimovning ta'lim sohasidagi fikrlari, yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarimizga, farzandlarimizga qarata qilgan murojaatlaridan o'z o'rnida foydalanish.

Dars bilim va ko'nikma, malakalar bilan o'quvchilarni qurollantirishda asosiy rol' o'ynaydi. Shu sababli, o'quv mashg'ulotlariga ajratilgan vaqtning asosiy qismi dars o'tish uchun sarf-lanadi.

Darsga quyilan tarbiyaviy talablar:

darsda o'rganiladigan o'quv materiallari bo'yicha tarbiyaviy xulosalar chiqarish;

nazariy bilimlar asosida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;

bolalarda o'qishga oid ijobiy motivlarni uyg'otish, bilish, o'qish-o'rganishga havas, ishtiyoq, qiziqishni shakllantirish;

dars jarayonida pedagogik takt qoidalariga rioya qilish.

Darsga qo'yilgan tashkiliy talablar:

1. Dars uchun puxta o'ylangan konspekt yoki reja tuzish.
2. Darsning mantiqiga (dars bosqichlarining o'zaro bog'liqligi, darsda amalga oshiriladigan ishlar; o'quv topshiriqlarining o'zaro aloqadorligiga) rioya qilish.
3. Dars tempini o'quvchilarning tayyorgarligiga moslashtirish.
4. Dars uchun ajratilgan vaqtdan ratsional foydalanish.
5. Darsda ongli intizomni tashkil etish.

Dars tiplari nima, ular qanday tiplarga ajratiladi?

Dars tiplari darsning maqsadi va mazmuni, o'quvchining yosh xususiyatiga qarab, darsning tuzilishi har xil bo'ladi. Endi biz darsning yanada ravshanroq ko'rsatib berish maqsadida darsni turlarga ajratamiz, saralaymiz va ularni tuzilishi bilan tanishamiz.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Dars qanday turlarga ajratiladi?

Ular quyidagilarga asoslangan turlarga ajratiladi:

1. Darslarning asosiy maqsad va mazmuniga qarab turlariga bo'lish.

2. Darslarni o'qitish jarayonining tahliliga qarab turlarga bo'lish.

3. Darslarni tuzilishiga qarab turlarga bo'lish.

Dasrlarni turlarga ajratishda birinchi qoida eng obyektiv va ma'quldir. Darsning mazmuni dasturda ko'rsatilgan bo'ladi.

Darslarni saralash dars tuzilishini bilishimizga o'rganishimizga yordam beradi.

Ta'lim tizimida tajribadan o'tgan dars turlari quyidagilardan iborat:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
2. O'quv materiallarini mustahkamlash.
3. Takrorlash va bilimlarni umumlashtirish darslari.
4. O'quvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilish va baholash darslari.
5. Dars turlari uyg'unlashgan (aralash)darslar.

Yangi mavzuni o'tish darsida yangi mavzuni o'tish kerak ekan deb mashq qildirish yoki o'tgan mavzularni qaytarish mumkin emas deganlari noto'g'ri. O'quvchilarga biron nazariy mavzuni amaliyotga tatbig'ini o'rgatganimizda, shu ishni qanday bajarilishini o'quvchilarning o'zlariga taklif etamiz. Bu ishlarni bir necha bor o'zlari sekin - asta shu ishni bajarishga ko'nikma hosil qiladilar. Shunday qilib, oxirgi tegishli natijaga erishamiz.

O'tilgan mavzuni qaytarish, mashq qildirish darsi o'qitilgan bilimlarnigina emas o'rgatilgan ishni qaytarish, mehnat malakalarini beradigan malakalarni o'tkazishdan iborat bo'lmog'i lozim.

O'quvchining bilimi, malaka va ko'nikmalarini tekshirish va ularga baho berish darsi bunda o'quvchilarning olgan bilimi tekshirilib, ular qanchalik o'zlashtirilganligiga qarab baho qo'yiladi.

Yuqoridagi asosiy turlardan boshqa yana qo'shimcha darslar turi ham mavjud. Bu dars turida yuqoridagi saralash nuqtai nazaridan olinganda, o'quvchilarning o'zlashtirishini tekshirish, yangi mavzuni o'tish va uni mustahkamlash uchun qaytarish kabi turli ishlar qo'shilsa ham, lekin qo'shimcha darslarning asosini bu ish-

www.ziyouz.com kutubxonasi

larning bittasi, qo'shimcha darslarning maqsadga to'laroq javob bera oladigani tashkil qiladi, qo'shma darsdagi boshqa ishlar esa shu asosiy ishga yordamchilik vazifasini bajaradi.

Ta'lim jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan yangi bilimlarni bayon qilish darsi va aralash darsning tuzilishida qanday farqlar bor? Buni ko'rib chiqamiz:

Aralash dars namunasi
1. O'tilganlarni takrorlash: a) oldin o'tilgan mavzu yuzasidan berilgan faktlarni tahlil etish; b) savol-javob; v) qoida-ta'riflarni esga tushirish. 2. Yangi o'quv materialini o'rganishga tayyorgarlik: a) darsning mavzusi va maqsadini bolalarga yetkazish; b) mavzuga oid faktlarni tahlil etish; v) bilishga rag'batlantiruvchi savollarni o'rtaga tashlash. 3. Yangi o'quv materialini bayon qilish (tasvir, suhbat, mustaqil ishlash kabi metodlardan foydalanib yangi o'quv materialini tushuntirish). 4. Yangi o'quv materialini mustahkamlash (mashq qilish, mustaqil ishlash). 5. Uy vazifasini belgilash. 6. Bolalar bilimini baholash. 7. Darsni yakunlash.
Yangi bilimlarni bayon qilish darsi namunasi
1. Bolalarni yangi o'quv materialini o'rganishga tayyorlash: a) darsning mavzusi, maqsadi bilan tanishtirish; yangi mavzuga oid faktlarni tahlil etish. 2. Yangi o'quv materialini bayon qilish (tasvir, tushuntirish, suhbat metodlaridan foydalanib, kuzatilgan faktlarga asoslanib yangi mavzuni tushuntirish). 3. Yangi mavzuni mustahkamlash: a) darslikning ma'lum betlarini o'qish; b) mashq, misol, masalalarni bajarish. 4.Oldin o'rganilgan mavzularni bugungi o'quv materialiga oid bilimlarni paralell takrorlash. 5. Uy vazifasini topshirish. 6. Bolalar bilimini baholash. 7. Dars yuzasidan yakuniy xulosalar chiqarish[1].

[1] O.Roziqov va boshqalar. Didaktika. T., «Fan», 1997, 233-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Ta'lim tizimida takrorlash va bilimlarni mustahkamlash darslari ham ko'p qo'llaniladi. O'qituvchi darsning ma'lum bir qismi, yirik mavzularni o'tib bo'lganidan so'ng bunday darslar uyushtiriladi. Bu darslar oraliq nazorat baholashda ham xizmat qiladi. Har bir darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulotni to'g'ri tashkil qilishga bog'liqdir. Bu davrda sinfning tayyorgarligini sinchiklab kuzatish, bolalarni darsni tinglashga ruhiy jihatdan tayyor ekanliklarini o'rganish darkor. Shundan so'ng mahoratli pedagog fursatni qo'ldan boy bermay, shogirdlarini diqqatini chalg'itmay darsning asosiy qismini boshlab yuboradilar, chunki sinf o'quvchilarini tezlik bilan mashg'ulotga faol kirishishlarini ta'minlash lozim.

Dars o'qituvchi va o'quvchining ijodiy hamkorligiga asoslanishi lozim. Shundagina o'quvchilarda mustaqil fikrlay olish, iroda tarbiyalanadi. Nutq madaniyati rivojlanadi. Muammoli vaziyat orqali o'z yo'lini topa oladilar.

(Har bir dars turidagi o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini quyidagi T-chizma orqali chuqur tahlil qilihg).

Yangi bilim berish darsi		O'quv materialini mustah-kamlash darsi		Takrorlash va umumlash-tirish darsi		Aralash dars	
O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati	O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati	O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati	O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati

O'quv ishlarini tashkil etishing darsdan tashqari shakllari ham bormi? Ularga nimalar kiradi?

O'quv mashg'ulotlarining sinfdagi shakli darsdan tashqari yana qo'shimcha qator ta'lim shakllari mavjud bo'lib, bular amaliy-tajriba mashg'ulotlari, qo'shimcha darslar, fakultativlar, ekskursiya kabilardir.

Bular darsda berilgan bilimlarni to'ldirish, mustahkamlash, amaliyot bilan bog'lash uchun uyushtirilgan qo'shimcha mashg'ulotlardir.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Bulardan tashqari, o'quv yurtlari tajribasida fan tugaraklari, ishlab chiqarish amaliyoti, o'yin shaklidagi mashg'ulotlardan ham foydalanilmoqda.

Laboratoriya mashg'ulotlarida bolalar turli o'quv predmetlari bo'yicha tajribalar, turli qurilmalar yordamida sinov ishlari o'tkazishadi. Laboratoriya mashg'ulotlari amaliy dars ham deb yuritiladi. Amaliy darslarda o'quvchilar guruhlarga ajralib, turli eksperimental topshiriqlarni bajarishadi.

Seminar mashg'ulotlari nazariy muammolarni faol o'rganish shakli hisoblanadi. O'rta umumta'lim maktablarida seminarlar quyidagicha o'tkaziladi: seminar uchun mavzu tanlanadi; mavzu bo'yicha reja, ko'rsatmalar beriladi; tayyorganrlik uchun yetarli vaqt ajratiladi; asosiy manbalar, ularning betlari aytiladi; maslahatlar beriladi. Seminarga barcha o'quvchilar tayyorgarlik kurishadi. Seminarning oxirida o'qituvchi yakunlovchi suhbat o'tkazib, kelgusi seminarda qilinadigan ishlarni belgilaydi.

Oliy ta'lim tizimida ta'limning qanday tashkiliy shakllari qo'llanilmoqda?

Uzluksiz ta'limning hamma bosqichlarida ta'limning o'ziga xos tashkiliy shakllari mavjud. Jumladan: ikki bosqichli oliy ta'lim tizimida o'ziga xos ta'lim shakllari mavjud. Bularga: ma'ruzalar, seminar va amaliy mashg'ulotlar, kafedra o'qituvchilarining ochiq ma'ruzalarida qatnashish, ma'ruza matnini tayyorlash va muhokama qilish, o'quv kurslari bo'yicha dasturlar tayyorlash ishlari kabilar kiradi.

Oliy ta'lim tizimida ma'ruza o'quv jarayonining ham usuli, ham shakli hisoblanib, u talabalarga fan asoslarini og'zaki, uzviy va muntazam singdirishga xizmat qiladi. Ma'ruza tufayli talaba shu fanning mohiyatini tushunib boradi hamda ularni erkin fikrlashga, fan ustida o'ylashga majbur etadi. Shu sababli, ma'ruza ilmiy tafakkurni rivojlantirishning o'ziga xos maktabiga aylanadi.

Ma'ruzani shunday o'qish lozimki, uning ta'sirida talabalarda shu fanga, uning vazifa va kelajagiga nisbatan turli qarashlar, ilmiy e'tiqod, g'oya va milliy mafkura asoslari shakllansin. Buning uchun o'qituvchi har bir ma'ruzaning mazmunini, fandagi yangiliklar bilan boyitishi va tanlay bilishi lozim.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Ma'ruza ijobiy hamkorlikka tayanib tashkil qilingandagina samarali natija beradi. Buning uchun ma'ruza jarayonida ham ta'limiy ham tarbiyaviy vazifalarni samarali amalga oshirish yo'llaridan biri o'qituvchilar bilan talabalar o'rtasidagi do'stona, faol munosabatlarni tiklab olishdan iborat.

Bundan tashqari, dars va ma'ruzaning samarali natijasi o'quvchi talabalarning o'quv jarayonidagi ruhiy holatlarini qay darajada hisobga olinishiga ham bog'liq. Shunday ekan ta'limni samarali tashkil etish, uning dars, ma'ruza va boshqa shakllaridan o'qitish jarayonida foydalanishlari uchun shubhasiz, o'qituvchining pedagogik mahorati, pedagogik madaniyati, o'z fanini puxta bilishligi va o'quvchi-talabalar bilan umumiy til topa olishlari g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Ta'limni tashkil etishning zamonaviy (noan'anaviy) shakllari zarurati nimada? Uning qanday shakllari qo'llanilmoqda?

Mustaqil O'zbekistonimizda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirishda ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bilan bog'liq ishlar qilinmoqda. Ta'limni KVN, munozara, disput, konferensiya, mushoira, sud o'yinlari va boshqa shakllarda tashkil etishga harakat qilinmoqda. O'quvchilar faolligini oshiruvchi turli interfaol usullar keng qo'llanilmoqda. Bularga misol tariqasida Sinkveyn, Klaster, Aqliy hujum, T-chizma, Insert jadvali, B-B-B jadvali, Venn diagrammasi, Konseptual jadval, Semantik xususiyatlar tahlili va boshqalarni keltirish mumkin.

(An'anaviy va noan'anaviy ta'lim shakllarini taqqoslab quyidagi chizmani to'ldiring).

Ta'limning an'anaviy shakli		**Ta'limning noan'anaviy shakli**	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi

An'anaviy metodlarning afzalliklari:

- Ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan va aniq ma'lum tushunchalarni, fanni o'rganishda foydali.
- O'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

- Vaqtdan unumli foydalanish.
- Aniq, ilmiy bilimlarga tayanish.

Kamchiliklari:

- O'quvchilar passiv ishtirokchi bo'lib qoladilar.

O'qituvchining to'la nazorati barcha o'quvchilar uchun motivasiyani vujudga keltirmaydi.

- O'quvchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqatga kirisha olmaydi.
- Eslab qolish darajasi hamma o'quvchilarda bir xil bulmaganligi sababali, sinf bo'yicha o'zlashtirish darajasi past bulib qolishi mumkin.
- Mustaqil o'rganish va yechimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi.

Noan'anaviy o'qitish metodlarining afzalliklari:

- O'qitish mazmunini yaxshi uzlashtirishga olib kelishi.
- O'z vaqtida aloqalarning ta'minlanishi.
- Tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi.
- O'qitish usullarining turli xil ko'rinishlari taklif etilishi.
- Motivatsiyani yuqori darajada bulishi.
- O'tilgan materialning yaxshi eslab qolinishi.
- Muloqatga kirishish ko'nikmasining takomillashishi.
- O'z-o'zini baholashning o'sishi.
- O'quvchilarning predmetning mazmuniga, o'qitish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabati.
- Mustaqil fikrlay oladigan o'quvchining shakllanishiga yordam berishi.
- Tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishi.
- Muammolar yechish ko'nikmalarining shakllanishi.

Kamchiliklari:

- Ko'p vaqt talab etilishi.
- O'quvchilarni har doim ham keraklicha nazorat qilish imkoniyatining pastligi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

- Juda murakkab mazmundagi material o'rganilayotganda ham o'qituvchi rolining past bo'lishi.

- «Kuchsiz» o'quvchilar bo'lganligi sababali «kuchli» o'quvchilarning ham past baho olishi.

- O'qituvchining o'zi ham yaxshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar yechish ko'nikmalariga ega bo'lishining talab etilishi.

XULOSA: Ko'p yillar davomida an'anaviy dars utish ta'limning asosiy shakllaridan biri bo'lib keldi.

An'anaviy dars-muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta'lim modelidir. Ma'lumki, an'anaviy darsda ta'lim jarayonining markazida o'qituvchi turadi.

An'anaviy dars o'tish modelida ko'proq ma'ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi.

Shu sabab, bu hollarda an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib, o'quvchilar ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman o'quvchilar faolligini oshiradigan metodlar bilan boyitib borilsa, o'quvchilar o'zlashtirish darajasini ko'tarilishiga olib keladi.

Buning uchun daras jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda baxs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqot, rolli o'yinlar metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi, o'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, rang-barang baholash usulla-ridan foydalanish, ta'lim vositalaridan o'rinli foydalanish talab etiladi.

O'qitishning noan'anaviy shakllarini 3 ga ajratish mumkin: hamkorlikda o'qitish modeli; modellashtirish; o'rganishning tadqiqot modeli.

Bu modellar, asosan, o'quvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, ularni markazida o'quvchi turgan ta'lim modellari deb ataladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Modellashtirish real hayotda va jamiyatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarni ixchamlashtirilshan va soddalashtirilgan ko'rinishini (modelini) sinfxonada yaratish va ularda uquvchilarni shaxsan qatnashishi va faoliyat evaziga ta'lim olishini ko'zda tutuvchi metod.

Hamkorlikda o'rganish modeli - o'quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'lim olishini ko'zda tutadigan metod.

O'rganishning tadqiqot modeli - o'quvchilarni muayyan muammoni yechishga yo'naltirilgan, mustaqil tadqiqot olib borishini ko'zda tutuvchi metod.

Mustahkamlash uchun topshiriqlar

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim samaradoligini oshirish zarurati haqida nimalar deyilgan?
2. Ta'lim shakllarining paydo bo'lishi haqida nimalarni bilasiz?
3. Ta'limni tashkil etishning dars shakli qachon paydo bo'ldi va uning mohiyati nimadan iborat?
4. Darsga qanday talablar qo'yiladi?
5. Darsning qanday xillari (tiplari) bor va ular qanday tuzilishga ega?
6. Seminar va amaliy tajriba ishlari shaklidagi mashg'ulotlar qanday tashkil etiladi?
7. Ekskursiyalardan qaysi vaqtlarda foydalaniladi?
8. Ta'limni tashkil etishning qanday noan'anaviy shakllarini bilasiz?
9. KVN, munozara, o'yin, mushoira, sud shaklidagi mashg'ulotlar haqida qanday tushunchaga egasiz?
10. Mutaxassisligingizga oid darslikdagi biror mavzu asosida noan'anaviy shakldagi mashg'ulot uchun ishlanma tuzing (turli interfaol usullardan foydalanib):

a. Test savollariga javob berish, pedagogik muammoli masalalar yechish (testlar ilova qilinadi);

b. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim shakllariga munosabatingizni yozma bayon eting.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Mustaqil ish uchun adabiyotlar ro'yhati

1. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1998.

2. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T., «O'zbekiston», 1998.

3. Pedagogika. O'quv qo'llanma. A.Munavvarov tahriri ostida. - T., 1996, 74-86-betlar.

4. Roziqov O. va boshq. Didaktika. Darslik. T., «Fan», 1997, 147-164-betlar.

5. Tursunov I.Y., Nishonaliyev U. Pedagogika kursi. T., «O'qituvchi», 1997, 49-57- betlar.

6. Musayev U. va boshqalar. Darslik-bilim, ma'lumot va axborot manbai // «Ma'rifat gazetasi», 2003, 26-fevral.

Mustaqil ish bosqichlari

1-bosqich: O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining vazifalari to'g'risidagi mini-debatga tayyorlaning. Bunda «Ta'limda umuminsoniy va milliy-madaniy qadriyatlarning ustuvorligi», «Davlat ta'lim standartlari doirasida hammaning ta'lim olishi uchun imkoniyat yaratilganligi» kabi tushunchalarni dalillar asosida isbot etishga harakat qiling.

2-bosqich: O'tilgan mavzu do'yicha 20-25 minutlik «mini-dars» o'tishga tayyorlanib keling. Bunda o'qituvchi psixologiyasi va talabalarni darsga qiziqtirish yo'llari to'g'risida chuqurroq o'ylab, bu borasidagi qarashlaringizni «Taklif va mulohaza» rukni ostida daftaringizga qayd qilib boring.

3-bosqich: Eng mazmunli o'quv ko'rgazmasi konkursida faol ishtirok etishga harakat qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T., «O'zbekiston», 1998.

2. Pedagogika. O'quv qo'llanma. A.Munavvarov tahriri ostida. T., 1996, 74–86-betlar.

www.ziyouz.com kutubxonasi

3. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika. O'quv qo'llanma. T., «Fan», 2005, 67–74-betlar.
4. Roziqov O. va boshq. Didaktika. Darslik. T., «Fan», 1997, 147–164-betlar.
5. Tursunov I.Y., Nishonaliyev U. Pedagogika kursi. T., «O'qituvchi», 1997, 49–57-betlar.

www.ziyouz.com kutubxonasi

21-MAVZU: YOSHLARNING MA'NAVIY-INTELLEKTUAL SIFATLARINI ANIQLASH VA RAG'BATLANTIRISH USLUBLARI

1. Yoshlarni ma'naviy-intellektual rag'batlantirishning maqsad va vazifalari.
2. Ma'naviy-intellektual sifatlarini zamonaviy usullarda aniqlashning samaradorligi.
3. Yoshlarning intellektual sifatlarini aniqlashda testning ahamiyati. Test va uning turlari.
4. Oliy o'quv yurtlarida rag'batlantirishning o'ziga xos usullari.

Yoshlarni mustaqil bilim olishga o'rgatish bugungi kunning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Shuning uchun ham Prezidentimiz I.A. Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sesiyasida so'zlagan nutqida «Faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadrini, bir suz bilan aytganda o'zligini angalash, erkin va ozod jamiyatda yashash mustaqil jamiyatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallash uchun fidokorlik bilan kurashishi mumkin»[1] degan edi. Shu o'rinda ta'kidlamoq lozimki bugungi kunda yoshlarni ma'naviy-intellektual rag'batlantirishning ahamiyati kattadir.

O'quvchi va talabalarning bilimini, aqliy kamolatlarini nazorat qilish va baholash davlat miqiyosida muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga nazorat va baholash jarayoni o'quvchi shaxsini rivojlantirishga va tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi.

Bilimlarni nazorat qilishda qo'yilgan ball va baholar o'quvchi va talabada qanday taassurotlar qoldirganini, ular o'rtoqlarining

---

[1] Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1998, 5-bet.

www.ziyouz.com kutubxonasi

o'qishdagi yutuq va kamchiliklariga qanday munosabatda bo'lishlarini doim kuzatib borish lozim

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat» va «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li», «Istiqlol va ma'naviyat» kabi asarlarida mustaqil O'zbekistonning ma'naviy hayotining kelajagi haqida asosiy yo'nalishlar belgilab berilgan. Jumladan, mutaxassislar tayyorlashda ularni intellektual rivojlantirish zarurligini alohida qayd qilingandi.

Yoshlarni tarbiyalash jarayoni ma'naviy-intellektual rivojlanish sifatlarini aniqlashning aniq maqsadi va vazifalari ishlab chiqilgan.

Boshlang'ich sinfdan boshlab o'quvchidagi bor imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ustida muntazam ishlansa, bolaning intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga asos solinadi. O'quvchilar tafakkurini rivojlantirishning eng samarali yo'li o'quvchilarda ongli bilim, mustahkam ko'nikma va malakalarni shakllanish jarayonini ularning tarbiyasi bilan birga tashkil etishdir. Buning uchun o'qituvchi tinimsiz izlanishi, o'qitishning yangi texnologiyalaridan samarali foydalanishi lozim.

O'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ularning bilim faoliyatining psixologik-pedagogik qonuniyatlarini chuqur bilishni taqozo etadi.

Nima uchun bilimni nazorat qilishning reyting tizimini joriy etish zarurati tug'ildi?

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi asosida ishlab chiqilgan davlat ta'lim standartlarida ta'limning har bir bosqichida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning minimal darajasi belgilab berilgan. Lekin bu bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayoni bolaning intellektual imkoniyatlarini hisobga olib tashkil etilsa, yuqori samaradorlik ta'minlanadi.

Ma'naviy-intellektual shakllanish sifatlarini zamonaviy usullarda aniqlash tarbiya jarayoniga samarali o'zgartirishlar kiritadi. O'quvchi yoshlarning, talabalarning ma'naviy-intellektual shakllanish sifatlardagi yutuq va kamchiliklarni rag'batlantirish, tuzatish tarbiya mazmuni usullari va tashkiliy shakllarini yaxshilashga mos tuzatishlar kiritish lozim bo'ladi.

Qo'yilayotgan talablar bilan har tomonlama intellektual rivojlantirishning pedagogik sharoitlarining mufassal emasligi orasida

www.ziyouz.com kutubxonasi

tafovut yaratadi. Ayniqsa, mutaxassis tayyorlashda maktabdan boshlab oily o'quv yurtlarini bitirib chiqqunlarigacha nazorat shaklining to'liq bo'lmaganligi ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy muammolarini tashkil etadi. Masalaning muhim tomoni shundaki, mutaxassislar ommaviy tusda tayyorlanganda tarbiya-chilarning har bir talaba bilan yetarli darajada yakkama-yakka muloqot qilishga vaqti yetmaydi. Muloqot tezkor savol-javob tarzida o'tsa, tabiatan bunday muloqot talabani ham tarbiyachini ham qanoatlantirmaydi. O'quvchi va talabalar bilimini nazorat qilish va baholash o'quv yili davomida har doim muntazam amalga oshirilishi uchun reyting tizimi joriy qilinib, u ba'zan o'tkaziladigan tasodifiy tekshirishlarni oldini oladi va tartibli doimiy baholash uchun imkoniyatlar ochib beradi.

UO'T Reyting tizimi to'g'risidagi Nizomda «O'quvchilar bilim darajasi sifatini nazorat qilishning reyting tizimini joriy etishning asosiy maqsadi nazoratning har xil turlari va shakllaridan foydalanish yo'li bilan umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartlari talablari bajarilishini ta'minlash, ta'lim samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat»[1], deb ko'rsatiladi.

Reyting deganda-baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash, bironta hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash tushuniladi. Reyting yordamida psixologik obyektlarni, ular uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarning yorqin darajasiga qarab (ekspert baholash) dastlabki klassifikatsiyalash amalga oshiriladi.

Shkalalash - aniq jarayonlarni rahamlar tizimi yordamida modellashtiradi. Ularning turli uslublari, tavsiflari qay bir miqdoriy o'zgaruvchilarga turlicha aylantirish uslublaridan iborat.

Hozirgi kunda uzluksiz ta'limning umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb hunar ta'limini va oliy ta'lim bosqichlarida o'quvchi – talabalar bilimi reyting tizimida baholanadi. Baholashning bunday shakli o'quvchi talabalarni butun o'qish davomida o'z bilimlarini oshirish uchun muntazam ishlashni hamda o'z ijodiy faoliyatini takomillashtirishni rag'batlantirish g'oyasiga asoslanadi.

---

[1] UO'T muassasalarida o'quvchilar bilim darajasini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risida muvaqqat Nizom // «Xalq ta'limi», 2000, 4-son, 10–23-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Bilimlarni baholashda reyting nazorat tizimiga o'tish orqali qator vazifalar hal etiladi. Jumladan:

- o'quvchi talaba bilimning sifat ko'rsatkichlarini haqqoniy, aniq va adolatli ballar bilan baholash;
- o'quvchi talabalarning o'zlashtirishini doimiy nazoratga olish bilan ularning o'z ustida butun o'quv yili davomida faol ishlashini jonlantirish;
- o'quvchi talabalar mustaqil ishlarining samaradorligini oshirish;
- reyting nazoratida EHMli va EHMsiz testlardan foydalanish;
- ko'plab kamchiliklarga ega bo'lgan mavjud sinov, imtihon sessiyalaridan voz kechish.

Reyting nazorat tizimining asosida o'quv rejasiga kiritilgan har bir fan bo'yicha talaba o'zlashtirishining sifat ko'rsatkichlarini ballar bilan baholash yotadi.

Reyting tizimida testning o'rni qanday va uning qanday afzalliklari bor?

Reyting nazoratida test ham samarali qo'llaniladi. Test deganda - aniq vazifani takomillashganligi darajasini aniqlashda, sifat va miqdoriy o'lchamlarda belgilash imkonini beradigan, faollikning biron shaklini qiziqtiruvchi biron aniq topshiriq shaklidagi sinov quroli tushuniladi.

Testning afzalligini quyidagicha baholash mumkin:

- nazorat uchun kam vaqt sarflanadi;
- nazariy va amaliy bilimlar darajasini obyektiv sharoitda aniqlash imkoniyatini beradi;
- ko'p sonli talabalar bilan bir vaqtning o'zida nazorat olib borish mumkin;
- bilim natijalari o'qituvchi tomonidan tezkorlik bilan tekshiriladi;
- barcha talabalarga bir xil qiyinchilikdagi savollar berilib, bir xil sharoitlar yaratiladi.

Nazorat jarayonini faollashtirish, kam vaqt ichida ko'p sonli talabalarni nazorat qilish uchun bir qancha ratsional uslublar, jumladan, texnik vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

www.ziyouz.com kutubxonasi



36-rasm. Nazorat shakllari.

Chet el tajribalari va ko'plab tajribalarning natijasi o'laroq reyting uslubi bugungi kunning nazorat mezoni deb qabul qilindi.

Har bir semestrdagi fanlardan to'plangan ballar yig'indisi talabaning semestr davomidagi, o'quv yili davomidagi fanlardan to'plagan ballar yig'indisi esa talabaning kurs reytingini tashkil etadi. Har bir fan bo'yicha o'quvchi talabaning o'zlashtirishini baholash chorak va semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi nazorat turlari orqali baholanadi:

- joriy nazorat;
- oraliq nazorat;
- yakuniy nazorat.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Joriy nazorat bu o'rganilayotgan mavzularni o'quvchi talabalar tomonidan qanday o'zlashtirayotganini muntazam ravishda dars jarayonida nazorat qilishdan iborat. Bu nazorat o'qituvchi tomonidan o'tkazilib, talabaning bilim darajasini, shu fanning har bir mavzusi bo'yicha aniqlab borish ko'zda tutiladi. Bu esa o'quvchining uzluksiz bilim olishini va natijasini muttasil nazorat qilib borishni nazarda tutadi.

Oraliq nazorat - bu mazkur fan bo'yicha o'tilgan bir necha mavzularni o'z ichiga olgan bo'lim yoki qism bo'yicha talabaning bilimini aniqlash. Oraliq nazorat darsdan tashqari vaqtda o'tkaziladi va talabalarga o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirish imkonini beradi.

Yakuniy nazorat bu nazorat semestrlari uchun belgilangan mavzular to'liq o'qitilib bo'lingan, o'tilgan mavzular bo'yicha yozma, og'zaki, test shaklida o'tkaziladi.

Talabaning fan bo'yicha semestrdagi reyting bahosi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarda to'plagan ballari bo'yicha aniqlanadi.

Har bir fan maksimal reyting bali shu fan uchun o'quv rejasida ajratilgan umumiy dars soatlari miqdoriga teng deb hisoblanadi.

Maksimal ballning 70% miqdori joriy, oraliq nazorat jarayonida, 30% miqdori yakuniy nazoratda to'planishi tavsiya qilinadi.

Semestr davomida mazkur fan bo'yicha to'plagan ballarga nisbatan talaba bilimi quyidagicha baholanadi:

86-100% a'lo;

71-85% yaxshi;

56-70% qoniqarli;

55 % va undan kam foiz qoniqarsiz.

O'quv pedagogik ishlab chiqarish va bitiruv oldi malakaviy amaliyotlari davrida olingan bilimlar ham reyting ballari bilan baholanadi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida shaxsni rivojlantirishga berilgan juda katta e'tiborning boisi shundaki, faqat shaxsning kamoloti uning intellektual zakovatigina jamiyat taraqqiyotining omili bo'la oladi. Shaxsdagi intellektual zakovat esa yaxshi tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonidagina uyg'onishi, taraqqiy etishi va shaxs kamolotini ta'minlashi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini maksimal ishga solish yo'lini izlab topishi lozim.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Baholashning reyting-test tizimini yanada takomillashtirish orqali ham o'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini aniqlash va rivojlantirib borishga harakat qilishimiz kerak.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Yoshlarni ma'naviy-intellektual rag'batlantirishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. O'quvchilar bilimini baholashning reyting tizimiga siz-ning munosabatingiz qanday?
3. Reyting tizimida qanday nazorat turlari qo'llaniladi va ular qachon o'tkaziladi?
4. Reyting tizimida baholashda testlarning o'rni qanday?
5. Testlarning qanday turlarini bilasiz?
6. Oliy o'quv yurtlaridagi reyting nazorati shakllari qanday?
7. Siz o'quvchini rag'batlantirishning qanday usullarini taklif etardingiz?

1. Mutaxassisligingizga doir o'quv predmeti bo'yicha yopiq, ochiq, muvofiqlikni aniqlashga va davomiylikni to'g'ri belgilashga doir test topshiriqlaridan namunalar ishlab chiqing.
2. Umumiy o'rta ta'lim muassasa(maktab)larida o'quvchilar bilimini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risida muvaqqat nizomni chuqur o'rganib chiqing. Ushbu nizomdan va unda keltirilgan jadvallardan foydalanib, o'z faningiz bo'yicha reyting xaritasini ishlab chiqing.

Axborot manbalari

1. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1998.
2. I.A. Karimov. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T., «O'zbekiston», 1998.
3. Umumiy o'rta ta'lim muassasa (maktab)larida o'quvchilar bilimini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risida muvaqqat Nizom // «Xalq ta'limi», 2000, 4-son, 10–24-betlar.

www.ziyouz.com kutubxonasi

4. B. Farberman, R. Musina. F. Jumaboyeva. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishing zamonaviy usullari. T., 2002.
5. O. Roziqov va boshq. Didaktika. Darslik. T., «Fan», 1997.
6. I.Y. Tursunov, U.Nishonaliyev. Pedagogika kursi. T., «O'qituvchi», 1997.

www.ziyouz.com kutubxonasi

22-MAVZU: YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING MOHIYATI VA AHAMIYATIGA ZAMONAVIYLIK KONTEKSTIDA BAHO BERISH

TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING YANGI BOSQICHIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING AHAMIYATI

Pedagogik texnologiya (PT) shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida 3-ming yillikda davlatimiz ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantiriladi.

«Ta'lim tug'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, unga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurligi qayta-qayta ta'kidlanadi. Chunki mamalakatimiz tez sur'atlar bilan taraqqiy etib, jahon hamjamiyatida iqtisodiy-siyosiy mavqeyi kundan-kun ortib bormoqda. Lekin ijtimoiy sohada, ayniqsa, ta'lim-tarbiyada umumiy taraqqiyotdan orqada qolish hollari sezilmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish bilan bunday holga barxam berish mumkin. Quyidagi holatlar ilg'or texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishning dolzarbligini ko'rsatib beradi:

- «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarish uchun, ma'lum sabablarga ko'ra jahon hamjamiyati taraqqiyotidan ortda qolib ketgan jamiyatimiz taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun, aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida ilg'or pedagogik tadbirlardan foydalanish zarurligi;
- an'anaviy o'qitish tizimi yozma va ogzaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli «axborotli o'qitish» sifatida tavsiflanib, o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatidagina

www.ziyouz.com kutubxonasi

emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi yoki ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchi rolini o'zgartirish zarurligi;

- fan-texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi;
- kishilik jamiyati taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo'lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o'tib borayotganligi;
- barkamol avlodni tarbiyalash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan obyektiv borliqqa tizimli yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishi.

Pedagogika fani va amaliyotida keyingi paytlarda keng qo'llanilayotgan «pedagogik texnologiya» atamasi inglizcha «an educational technologu» so'zidan olingan bo'lib, «Ta'lim texnologiyasi» degan ma'noni bildiradi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi va unga berilgan ta'riflar. **"Texnologiya"** tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan — «texos» - «san'at», «hunar» va «logos» - «fan», «ta'limot» so'zlaridan tashkil topib, "Hunar fani" ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi, texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon - bu mehnat qurollari bilan mehnat obyektlari (xom ashyo) ga bosqichma-bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi-mashina)ning faoliyatidir.

Ishlab chiqarishda texnologiya so'zidan kelib chiqadigan quyidagi tushunchalar ishlatiladi:

Texnologik jarayon ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig'indisi.

Texnologik operatsiya - ishchi tomonidan uzining ish joyida bajariladigan, yakuniga yetkazilgan harakat ko'rinishidagi jarayonning bir qismi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Texnologik xarita - ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarini ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjat.

Texnologik rejim - texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo'lib, ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan operatsiyalarning vaqti, shartlarini belgilaydi.

Ana shu ta'rif va tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chirsak quyidagi xulosaga kelish mumkin: ***Pedagogik texnologiya*** bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'quvchi (talaba)larga o'qitish vositalari yordamida muayyan sharoitlarda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya. Pedagogik nashrlarda «O'qitish texnologiyasi», «Ta'lim texnologiyasi» tushunchalari ham ishlatiladi.

O'qitish texnologiyasi - birinchidan, pedagogik texnologiyaning jarayonli-harakat aspektini anglatadi. Bu, ta'lim jarayonini o'zgaruvchan sharoitlarda, ajratilgan vaqt davomida istiqbollashtirilgan natijalariga kafolatli erishishga va konkret ta'lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishni instrumental ta'minlovchi usul va vositalar (texnologik operatsiya)larning tartibli birligini o'zida mujassamlashtirgan ta'lim modelini ishlab chiqish va amalga oshirishning texnologik jarayoni;

ikkinchidan, pedagogik texnologiyaning jarayonli-bayonli aspektini ifodalaydi. Bu maqsadni amalga oshirish va istiqbolda belgilangan natijalarga erishish bo'yicha pedagogik hamda o'quv faoliyatining loyihasini bajarishning bayonidir (texnologik xarita).

Ta'lim texnologiyasi pedagogik texnologiyaning ilmiy aspektini belgilash uchun ishlatiladi. Bu texnik va inson resurslarini hamda ularni o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi hamkorligini hisobga olgan holda dars berish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli usuli.

Bugungi kunda ilmiy va ommabop adabiyotlarda «pedagogik texnologiya» tushunchasini ta'riflashda turli xil tasniflarni uchratishimiz mumkin.

Pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga olib kirish zarurligini MDH davlatlari ichida birinchilardan bo'lib ilmiy asoslab bergan

www.ziyouz.com kutubxonasi

rossiyalik olim *V.P. Bespalko* «Pedagogik texnologiya - amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan pedagogik tizimning loyihasidir», deyish bilan, *quyidagi ta'rifni beradi*: «Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi mahoratiga bog'lik bo'lmagan holda pedagogik muvoffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir»[1].

Bu ta'rif mazmunidan quyidagi muhim tamoyillarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- PT o'quvchi (talaba)larda ma'lum ijtimoiy tajriba elementlarini shakllantirish uchun loyihalanadi;

loyihalangan tayyor texnologiyani amalga oshirish fan o'qituvchisidan katta mahorat talab etmaydi;

yakuniy natija, albatta, kafolatlanadi.

T.S. Nazarova ta'rificha: «Pedagogik texnologiya – ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'quv jarayonida qo'llaniladigan usullar, vositalar majmuyidir»[2].

Nufuzli *YUNESKO tashkiloti* ma'qullagan ta'rif buyicha «Pedagogik texnologiya – ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning ta'sirini inobatga olib, o'qitish va bilim uzlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llashning tizimli metodidir»[3].

Nemis olimi Kurt Levin, shveytsariyalik psixolog Jan Piajler XX asrning 40-yillaridayoq guruhda ko'pchilikning yagona bir qarorga kelishining psixologik tabiatini o'rganishar ekan, pedagogik texnologiyalarning ahamiyatini alohida qayd etib o'tishgan.

Amerikalik olimlar Benjamin Blum, Levi Stross, Jon Morenolar fikricha «...pedagogik texnologiya ta'lim maqsadlarini ko'zlagan etalon asosida o'quvchilarning kuzatiladigan, o'lchanadigan harakatlari shaklida oydinlashtirishdir».[4]

---

[1] Беспалко В.П. Педагогика и прогрессивние технологии обучения. М., Педагогика, 1995.

[2] Назарова Т.С. Педагогическая технология: новый этап эволюции. Т., 1999, 16-с.

[3] Фарберман Б.Л. Прогрессивные педагогические технологии. Т., 1999, 3-с.

[4] Lewy Itross, Bathory Z. The Toxonomy of Educational obyektiv in Continental. Evrop, Univ. of Chikago. 1994. P. 146-163.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Rus olimasi N.V. Kuzmina pedagogik tizim uzida ta'lim va tarbiya maqsadiga bo'ysindirilgan o'zaro bog'lik tarkibli elementlardan tashkil topishini uqtiradi[1].

Bir guruh rus olimlari «pedagogik texnologiyalar obyektiv jarayon va u yangicha sifatiy muammolarni echish uchun ta'limni evolyutsion bosqichga ko'tarish shartlaridan biri» deb qaraydilar (M.V. Klarin, M.Klark, T.A.Ilina). M.V. Klarin fikricha, PT – o'quv jarayoniga yondashgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichlaridan kelib chiqib o'quv jarayonini loyihalashdir.

Rossiya pedagoglaridan *V.M.Monaxov* pedagogik texnologiyaga quyidagi ta'rifni beradi: «Pedagogik texnologiya-avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir» va uning xususiyatiga e'tibor qaratib, «PT - o'quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining subyektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi», - deydi.

V.P. Bespalkoning o'zbekistonlik shogirdlaridan *N. Sayidahmedov* fikricha: «PT – bu o'qituvchi (tarbiyachi) tomonidan o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir»[2].

Yirik pedagog olimlarimizdan *biri M.Ochilov* pedagogik texnologiya sohasidagi tadqiqotlari natijasida quyidagi xulosaga keladi: «Pedagogik texnologiya-tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta'lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va obyektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro ta'sirini inobatga olib, ta'lim maqsadlarini oydinlashtirib, o'qitish va bilim o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmuidir»[3]. U pedagogik texnologiyaga ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari

---

[1] Кузмина.Н.В. Метод системного педагогического исследования. Л., ЛГУ. 1980, 172-с.

[2] N. Sayidahmedov. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati. "Xalq ta'limi", 1999, 1-son, 98-b.

[3] M. Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Qarshi, "Nasaf", 2000, 13-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

majmui deb qaraydi. «Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiyaning obyektiv qonuniyatlari, diagnostik maqsadlar asosida o'quv jarayonlari, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir», - deb ta'rif beradi.

Ko'rib turganimizdek, «pedagogik texnologiya» tushunchasini ta'riflashda hali yagona fikrga kelinganicha yo'q.

Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiya - ta'lim-tarbiya jarayonlari, ta'lim usuli, vositalari, shakllari, o'qituvchi va tahsil oluvchi o'rtasidagi munosabatlar majmui bo'lib, ta'lim jarayoniga tizimli, texnologik yondashuvni talab qiladi va o'zida ta'lim maqsadlarini oydinlashtirishni, natijasini kafolatlashni va obyektiv baholashdek muhim belgilarni aks ettiradi.

Pedagogik texnologiyaning fan sifatidagi vazifalarini o'qitishning har bir bosqichida ta'limning mazmunini belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, predmetning mazmuniga kiritish uchun vaziyatli matnlar, testlar tayyorlash, shaxsda shakllantirish nazarda tutilgan kasbiy sifatlar va ma'naviy fazilatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ta'limning natijasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash ularni obyektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi.

Pedagogik texnologiya XX asrning oxirlarida deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda tez tarqalib, nufuzli YUNESKO tashkiloti tomonidan ham tan olindi va qo'llab-quvvatlandi. Hozirda ko'pgina mamalakatlarda muvoffaqiyatli qo'llanilib kelinmoqda.

Ko'pgina mamlakatlar pedagogik texnologiyadan foydalanib, ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishda, o'quvchilar o'zlashtirishini oshirishda sezilarli yutuqlarga erishdilar

Ta'limni texnologiyalashtirishning asosini, ta'lim jarayonini, uning samaradorligini oshirish va ta'lim oluvchilarni, berilgan sharoitlarda va belgilangan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o'quv natijalariga erishishlarini kafolatlash maqsadida to'liq boshqarish g'oyasi tashkil etadi.

Pedagogik texnologiya yordamida 3-ming yillikda O'zbekiston ta'lim-tarbiya tizimida ham tub o'zgarishlar yuz berishi, o'qituvchi-o'quvchi faoliyati yangilanishi, yoshlarda xurfikrlilik, bilimga chan-

www.ziyouz.com kutubxonasi

qoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantirilishi ko'zda tutilmoqda.

Yangi pedagogik texnologiya mohiyati. Pedagogik texnologiyaga nima uchun «yangi» so'zi qo'shib ishlatilmoqda?

«Yangi pedagogik texnologiya» nimani anglatadi?

Birinchidan, pedagogik texnologiya ta'lim (tarbiya) jarayoni uchun loyihalanadi. Binobarin, har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniqlab beradi va shunga mos holda ma'lum pedagogik tizim mavjud bo'ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini o'tkazadi va ta'lim-tarbiya mazmunini umumiy holda belgilab beradi. «Maqsad» esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini o'z navbatida yangilash zarurligini keltirib chiqaradi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi ta'lim-tarbiyaning maqsadini yangi yo'nalishga burdi, ya'ni: «o'tmishdan qolgan mafkuraviy sarqitdan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va ahloqiy talabalarga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash»[1] deb belgilandi. Demak, ta'lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilandi, unga mos holda mazmunning ham, pedagogik jarayonning ham yangilanishi tabiiydir.

Ikkinchidan, fan va texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib boryapti, auditoriyaga o'qitish imkoniyatlari katta bo'lgan yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan va unga uzining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli vositalar mavjudki, ular yangi pedagogik texnologiyalarni real voqelikka aylantirdi.

Pedagogik texnologiya mohiyati bilan boshqa texnologiyalar bilan bir qatorda turadi, chunki ular ham boshqa texnologiyalar kabi o'z xususiy sohasiga, metodlari, vositalariga ega, ma'lum material bilan ish ko'radi. Biroq pedagogik texnologiya inson ongi bilan bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish, biologik, xatto axborotli texnologiyalardan farq qiladi.

---

[1] Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. - T., "Sharq", 1997, 39-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA KONSEPSIYASINING RIVOJLANISH TARIXI

Insoniyat tarixida yashash uchun kurash, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, hayotning kelgusi qirralarini belgilab olishga urinishlar doimo bo'lib turgani kabi, pedagogik texnologiyaning ham o'z o'tmishi va kelajagi bo'lishi tabiiy holdir.

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri «shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi»dir. Bu omil davlatimimzning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi uchun ta'limning *yangi modeli* yaratildi va uning kelajakdagi «portlash effekti» Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ilmiy asoslandi. Bu modelni amaliyotga tatbiq etish o'quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan uzviy bog'liqligi kadrlar tayyorlash milliy dasturida o'z aksini to'liq topdi, ya'ni o'quv-tarbiyaviy jarayonni yangi pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash e'tirof etildi. Uzoq yillar mobaynida «burjua nazariyasi»ga xos tushuncha deb tan olinmay kelingan pedagogik texnologiya qonuniyatlarini o'rganish va tadqiq qilish ijtimoiy buyurtma sifatida olimlarimiz oldiga qo'yildi.

XX asrning boshlarida pedagogik texnologiyaga oid qarashlar. Xo'sh, pedagogik texnologiya konsepsiyasi qanday universal o'zgarish-ar, kashfiyotlar zamirida rivojlandi?

«Pedagogik texnologiya» tushunchasining vujudga kelishi, ta'limning ilk tashkiliy va metodik shakllarining vujudga kelishi bilan bog'lik. Individual ta'lim o'quv-tarbiya jarayonining eng qadimiy tashkiliy shakli bo'lib, u dastavval qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan edi. O'qituvchi bir o'quvchi bilan ishlab, ta'limni bevosita tashkil etgan, boshqargan, nazorat etgan. O'qituvchi matnlarni o'qib bergan yoki bolalariga o'qitib so'zlatgan. Qoida va ta'riflarni yodlash, jismoniy mashqlarni bajarish, muzika asboblarida u yoki bu kuyni ijro etish yo'llari bilan bolalar hayot, san'at, notiqlik, jismoniy madaniyatga oid bilimlarni o'zlashtirgan.

Keyinchalik individual ta'lim o'rnini guruhlar asosida o'qitish egallagan. O'rta asrlarga kelib qoidalarni yodlash, bir xil tipdagi mashqlarni bajarish, og'zaki savol-javob, yuqori pag'onalarda esa ma'ruza, munozara ta'limning yetakchi usullariga aylana bosh-

www.ziyouz.com kutubxonasi

lagan. Bu holat asta-sekin sinf-dars sistemasini keltirib chiqarib yangi texnogiyalarni kelib chiqishiga zamin hozirlagan.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida xorijiy mamalakatlarda ko'plab pedagogik nazariyalar vujudga keldi. Ularning ayrimlari ta'lim-tarbiya tizimini yaxshilashga, o'quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan edi.

Shu davrlarda «Yangi maktablar» degan pedagogik oqim paydo bo'lib, uning asoschisi francuz pedagogi E.Demolen edi. Bunday maktablar Angliya, AQSH, Fransiya, Belgiya, Shvetsariya kabi ko'plab davlatlarda ochildi. Jenevada «Yangi maktablarning xalqaro birlashmasi» tuzildi va unda yangi maktablarga qo'yilgan talablar belgilab berildi. Bu maktablar xususiy bo'lib, unda haq to'lashga qodir kishilarning bolalarigina o'qitilgan. Yangi maktablarda ish yaxshi yo'lga qo'yilgan, to'liq jiqozlangan kabinet va laboratoriyalar tashkil etilgan, «erkin va faol» metodlar qo'llanilgan. O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish organlari bo'lgan.

Maktablarning amaliy pedagogik laboratoriyasi bo'lib, bolalarning miyasini yodlab olingan bilimlar bilan to'ldirish orqali ta'lim berish o'rniga, ularning fikrlash qobiliyatini umumiy o'stirish yo'li bilan ta'lim berishga harakat qilingan. O'quvchilarga qanday qilib kuzatish, gipotezalar topishni, o'z taxminlarini tekshirib ko'rishni o'rgatganlar. Bunday maktablarda o'qitish faktlarga va tajribaga tayanishga, bolalarning tashabbuskorligi va mustaqilligini tarbiyalashga asoslangan edi.

XIX asr oxirlarida Germaniyada pedagog Vilgelm Avgust Lay (1862-1926) «ish-harakat pedagogikasi»ga asos soldi. Uning g'oyalarida ham o'ziga xos ijobiy tomonlari, yangiliklar bor edi. Lay pedagogik jarayonda ifodalash, tasvirlashga katta ahamiyat berdi, chunki uning fikricha, mana shunday ifodalash yoki tasvirlash jarayonida o'quvchilar o'z faolliklarini ko'rsatish imkoni-yatiga ega bo'ladilar, harakat qiladilar.

Uning fikricha, tasvirlashning har qanday turlari: rasm solish, loy va plastilindan buyumlar yasash, har xil narsalarning modelini yasash, chizmachilik, dramatizaciya, ashula, musiqa, raqslar, shuningdek, o'simlik hamda hayvonlarni parvarish qilish tajribalarini o'tkazish, og'zaki va yozma ishlar va shu kabilar ta'lim jarayonidagi

www.ziyouz.com kutubxonasi

«ifodalash» vositalaridir. Lay fikricha, hamma darslar ana shu qoidalar asosiga qurilishi lozim.

XIX asrning oxirida Germaniya, Angliya, AQSHda eksperimental pedagogika keng yoyildi. Eksperimental pedagogika bolalarning aqliy iste'dodini tadqiq qilish uchun «testlar metodi»dan keng foydalandi.

Eksperimental pedagogikaning yirik namoyondalaridan nemis pedagogi Ernst Meyman (1862-1915) va AQSH pedagogi Eduard Torndayk (1874-1949) edilar. Bolaning aqliy iste'dodini belgilaydigan testlar bilan bir qatorda, yana uning ulgurishini aniqlaydigan testlar ham belgilandi. Test usuli XX asrning 40-50-yillarida faqat AQSHdagina emas, balki Angliya, Fransiyada ham keng yoyildi.

Lekin bu pedagogika sobiq sho'rolat davrida qabul qilinmadi, chunki u bixeviorizm ta'limotiga asoslangan edi. Bu yo'nalishning psixologiyadagi eng muhim qoidasi organizmning ko'rsatkich bilan uning qo'zg'atgich javobi o'rtalaridagi aloqa bir ma'noligini so'zsiz tan olinishidir. Bu ta'lim jarayonini tajriba-sinov tarzida o'rgatishga ham, bu jarayonni boshqarishga ham bir xilda daxldordir.

Yaqin kunlargacha bixeviorizm mafkuraviy siyosatga ko'ra burjua fani hisoblanib, inkor etilib kelindi. Hozirgi kunda esa bixeviorizmning mohiyati to'g'ri talqin etilib, uning ahamiyati keng yoritila boshlandi.

XX asrning 30-60-yillarida pedagogik texnologiyaga oid qarashlar. XX asrning 30-yillarida ta'lim-tarbiya tizimida katta o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar hukumatning 30-yillarda qabul qilgan qator qarorlari (1932-yil 25-avgustdagi «Boshlang'ich va o'rta maktablarning o'quv programmalari va rejimi haqida»gi, 1933-yil fevraldagi «Boshlang'ich va o'rta maktab darsliklari haqida»gi, 1934-yil 15-maydagi maktablarda tarix va geografiya o'qitish to'grisidagigi va boshqalar) bilan bog'liqdir. Bu qarorlarda o'quv jarayonidagi kamchiliklar: O'quv materiallarining haddan tashqari ko'pligi, buning natijasida ayrim o'quv fanlari yuzaki o'tilayotganligi, ba'zi fanlar, ayniqsa, matematika, fizika va ximiya dasturlari orasida bog'lanish yo'qligi, soddalashib ketganligi kabilar ko'rsatildi. O'qitishda ko'rgazmali qurollardan foydalanish-ga alohida e'tibor qaratildi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Asrimizning 40-50-yillarida o'quv jarayoniga texnik vositalar (radio, kino)ning joriy etilishi pedagogik texnologiyaga tenglashtirildi. Faqat 60-yillarning o'rtasida, 70-yillarda bu tushuncha mazmuni chet el pedagogik nashrlarida (AQSH, Yaponiya, Angliya, Italiya, Vengriya) va xalqaro konferensiyalarda keng muhokama etila boshlandi va professor N. Sayidahmedov ta'kidlashicha, uning ikki yo'nalishi ko'rsatilgan. Birinchi yo'nalish pedagogik texnologiyani «O'qitishning texnik vositalari»ni qo'llash sifatida belgilasa (M.Klark, Xokridj - Buyuk Britaniya; K.Cheduik, D.Fini - AQSH; S.G. Shapovalenko - Rossiya) ikkinchisi - «O'quv jarayoni texnologiyasi» sifatida qaraldi (T.Samakato - Yaponiya; T.A.Ilina – Rossiya).[1]

T.S. Nazarovaning qayd etishicha pedagogik texnologiya 70-yillarning boshlarida AQSH da yuzaga kelgan bo'lib, uning asoschilari taniqli olimlar B.Blum, D.Kratvol, N.Gronlund, J.Kerrol, J.Blok, L.Anderson va boshqalardir[2].

Pedagogik texnologiya keyinchalik dunyoning ko'p mamlakatlariga tarkalgan. YUNESKO dek nufuzli tashkilot xam tan olib, uzlashtirilishiga kumaklashib kelmokda. 1996-yili Ierusalimda, keyin 1997-yili Manila (Filippin)da ta'lim innovatsiyalari va texnologiyalari bo'yicha xalqaro konferensiyalar o'tkazilgan. Pedagogik texnologiyalar tezkor ravishda Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur, Janubiy-Sharqiy Osiyoning boshqa mamlakatlarida tajriba sinovdan o'tgan va joriy qilingan.

Pedagogik texnologiya markazlarining tashkil etilishi.

AQSHda 1971-yil Kommunikatsiya va texnologiya Assatsiyasi tashkil topdi. 1961-yildan «Pedagogik texnologiya» jurnali, 1971-yildan audio vizual ta'lim, audiovizualli kommunikatsiya bayoni nomli jurnallar chop etila boshlandi.

Angliyada 1967-yil Pedagogik texnologiya milliy kengashi tashkil topdi. 1964-yildan «Pedagogik texnologiya va dasturli ta'lim» 1970-yildan «Pedagogik texnologiya» nomli jurnal chop etila boshladi.

---

[1] N.Sayidahmedov. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati. "Xalq ta'limi", 1999, 1-son, 99-bet.

[2] T.C. Назарова. Педагогическая технология: новый этап эволюции. T., 1999.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Yaponiyada 1965-yil umumyapon Pedagogik texnologiya markaziy kengashi tashkil etildi. 1965-yildan «Pedagogik texnologiya», Pedagogik texnologiya tadqiqotlari do'yicha jurnal chop etila boshladi.

Italiyada 1971-yil Pedagogik texnologiya milliy markazi tashkil etildi va shu yildan «Pedagogik texnologiya» nomli jurnal chop etila boshladi.

Vengriyada 1973-yil o'qitish texnologiyasi davlat markazi tashkil etildi.

Sobiq ittifoqda — 1965-yil maktab jihozlari va o'qitishning texnika vositalari ilmiy tadqiqot instituti tashkil etildi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida - 1997-yilda ta'lim muammolari instituti tashkil etilib, uzluksiz ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalar joriy qilina boshlandi.

Pedagogik texnologiyalarning ta'lim-tarbiya jarayoniga kirib kelishi natijasida fan va texnikaning rivojlanishida katta siljishlar yuz berdi. O'quvchilarning o'zlashtirishini oshirishda katta yutuqlarga erishildi. Natijada pedagogik texnologiya ishi, uning mazmun mohiyati, tashkil etilish metodlari, reyting natijalari bilan shug'ullanadigan alohida markazlar tashkil etilishi zarurat bo'lib qoldi.

Mustaqil ish yo'nalishlari

1. XX asr boshlarida «Pedagogik texnologiya» tushunchasining vujudga kelishini tahlil qilish.
2. Yangi pedagogik texnologiyalar mohiyatini o'rganish.
3. Pedagogik texnologiya va o'qitish texnologiyasi o'zaro bog'liqligi va farqining tahlili.

Mustaqil ish bosqichlari

1-bosqich: Nazariy dalillarga asoslangan holda quyidagi mavzularda referatlar tayyorlang:

1. XX asr boshlarida «Pedagogik texnologiya» tushunchasining vujudga kelishi.
2. 30-40-yillarda «Pedagogik texnika» tushunchasining talqini.
3. 60-70-yillarda pedagogik texnologiyalarga munosabat.

www.ziyouz.com kutubxonasi

4. Pedagogik texnologiya markazlarining tashkil etilishi.

5. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi vazifalaridan kelib chiqib, ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish.

2-bosqich: Insert strategiyasidan foydalanib «Ta'limni rivojlantirishning yangi bosqichida pedagogik texnologiyaning ahamiyati» mavzusidagi matnni tahlil qiling.

Mustaqil ishlash uchun asabiyotlar

1. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, «Sharq», 1997.

2. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. Toshkent, «O'zbekiston», 1998.

3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent, «O'zbekiston», 1999.

4. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin // «Tafakkur», 1998, 2-son.

5. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent, «O'zbekiston», 1994.

6. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent, «Sharq», 1998.

7. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. М., Педагогика, 1995.

8. Беспалько Б.П. Слагаемые педагогической технологии. М., 1989.

9. Yo'ldoshev. J. Yangi pedagogik texnologiya: Yo'nalishlari, muammolari, yechimlari // «Xalq ta'limi», 1999, 4-son, 4-11-b.

10. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. М., 1989.

11. Lewy Itross, Bathory Z. The Toxonomy of Educational obyektiv in Continental. Evrop, Univ. of Shikago. 1994. - P. 146-163.

12. Mahmudov M. O'quv materialini didaktik loyihalash tizimi // «Pedagogik mahorat», 2002, 3-son, 3-11-b.

13. Mahmudov M. Ta'lim natijasini loyihalash // «Pedagogik mahorat», 2003, 1-son, 8-10-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

14. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Ma'ruzalar matni. Qarshi, Nasaf, 2000.

15. Подласый И.П. Педагогика. Новый курс. Книга 1. М., Владос, 2000.

16. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, Yangi avlod adabiyoti, 2005.

17. Sayidahmedov N. Ta'limda harakatlantiruvchi kuch // «Ma'rifat», 1998 yil, 16 yanvar.

www.ziyouz.com kutubxonasi

23-MAVZU: XORIJIY MAMLAKATLARDA TA'LIM-TARBIYA TIZIMI CHET EL TA'LIMI TARAQQIYOTINING ASOSIY YO'NALISHLARI

O'zbekiston ta'lim tizimi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirmoqda. Ulardan ko'zda tutilgan maqsad - maktab faoliyatini demokratlatlashtirish, uning insonparvarlik tamoyillarnini rivojlantirish, shu asosda o'quv-tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takommillash-tirishdan iboratdir. Bu vazifalarni muvofaqqiyatli hal qilishning muhim shartlaridan biri chet el maktabi va pedagogikasi tajribalariga munosabatni tubdan o'zgartirishdan iborat ekanligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Bu tajribalarni o'rganish orqali biz ta'limda xato va yangilishishlardan, shubhali hulosalarda o'zimizni saqlashimizdan tashqari, ta'lim-tarbiyada qotib qolgan, eskirgan, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan ish shakllari va uslublardan tezroq xalos bo'lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ham ega bo'lamiz.

Ta'lim-tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda esa ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyusiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirishda davlat xizmatini hamda o'rta ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim mazmunini yaxshilashda pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning muhim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish ayni muddaodir.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning mamlakat ishki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi e'tirof qilingan

www.ziyouz.com kutubxonasi

haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag' miqdori yildan-yilga oshib bormoqda.

Yaponlarda, masalan, «maktab muvaffiqiyati va farovonlik timsoli»gina bo'lib qolmay, «u insonlarni yaxshilaydi», degan fikr ishonch va e'tiqodga aylangan.

Ta'lim to'g'risidagi g'amxo'rlik taniqli siyosatchilarning ham hamisha diqqat - e'tiborida bo'lgan. Shuning ushun ham AQSH-ning sobiq Prezidenti R.Reyganni, Buyuk Britaniya Bosh Vaziri M.Tetcherni, Fransiya Prezidenti F.Mettiranlarni maktab islohotining tashabbuskorlari deb bejiz aytishmaydi. F.Mitteran maktabni «Jamiyatni harakatlantiruvchi kuch» deb hisoblagan.

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muasasalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning ikki mingdan ortiq. Fransiya, AQSH, Yaponiyada ta'lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar universitetlar, pedagogik tadqiqot markazlari shug'ullanmoqdalar. Ular faolitini esa xalqaro ta'lim markazlari, masalan, AQSHda xalqaro instituti muvofiqlashtirib bormoqda. Ko'pshilikning faoliyati o'quv dasturini takommillashtirish va qayta qurishga maktab dasturlarini o'zgartirish ikki asosiy yo'nalishda: ekstensiv va intensiv yo'l bilan amalga oshiriladi.

Birinchi holatda o'quv muddati uzaytiriladi, o'quv materiallari hajmi ko'paytiriladi; ikkinchi holda esa, mutlaqo yangi dastur yaratiladi. Bu o'rinda ikkinchi yo'l, ko'pchilik mutaxassislarning e'tiroficha, maqbul hisoblanadi.

1961-yilda «Bosh yangi bazis» tamoyillari asosida AQSH o'rta maktablarni islohot qilish boshlangan edi.

Buning mohiyati shundaki, ingiliz tili va adabiyoti (to'rt yil), matematika (to'rt yil), tabiiy bilimlar (ush yil), ijtimoiy fanlar (ush yil), kompyuter texnikasi (yarim yil) kabilardan iborat besh yo'nalishdagi majburiy ta'lim joriy qilindi.

Har bir yo'nalish o'z navbatida bir nesha qismga bo'linadi. Masalan, matematika, algebra, trigonometriya, ish yuritish, kompyuter texnikasini qo'llashdan iborat barcha majburiy predmetlar tarkibiga yangi kurslar kiritldi. 1985-yildan e'tiboran barsha yuqori

www.ziyouz.com kutubxonasi

bosqich kollejlarning to'qson foizi shu besh bazisli tamoyillar asosidagi dasturlar bian ish olib bormoqdalar. Natija: majburiy tayyorgarlik buyicha ta'lim hajmi qisqardi, shu bilan bir qatorda dastur chuqurlashtirilib o'rganiladigan kurslar hisobiga tig'izlashtirildi.

XX asrning 80-yillarida majburiy ta'lim hajmini qisqartirish jarayoni yanada chuqurlashtirildi. Hatto ayrim kollejlarda bu sohada uch yangi: ingiliz tili va adabiyoti, matematika, ijtimoiy bilimlar bazislari asosida ish olib borilmoqda. Ta'limning boshqa turlari esa ihtisoslashtirish davrigacha amalga oshiriladigan bo'ldi.

Amerikadagi ko'zga ko'ringan «Found Karnegi» pedagogik markazi bu dasturni XXI asr dasturi deb baholamoqda. O'quv dasturlarini qayta qurish jarayoni g'arbiy Yevropa davlatlarida ham amalga oshirilmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada ta'lim vazirligining tavsiyalariga muvofiq o'quv rejasi va dasturini ta'lim muassasalarining o'zlari belgilaydilar mazkur tavsiyalarga muvofiq 50 foiz o'quv soatlari o'qitilishi shart bo'lgan «yadro» predmetlar: ingiliz tili adabiyoti, matematika, din darsi jismoniy tarbiyaga ajratiladi. O'quv soatlarining boshqa qismi esa o'qitilish shart hisoblanib, tanlab olingan predmetlarga (gumanitar, tabiiy matematik) ajratiladi.

80-yillardan boshlab Buyuk Britaniyada ham AQSHdagi singari o'rganilishi majburiy bulgan fanlar doirasi kengaytirildi. Ingiliz tili va adabiyoti, matematika va tabiiy fanlar o'quv setkasining yadrosini tashkil etadigan bo'ldi. Qolgan predmetlarni tanlab olish o'quvchilar va ota-onalar ixtiyoridadir.

«Yangi dunyo»ning pedagogik g'oyalari Fransiya va Germaniya ta'limiga ham sezilarli ta'sir etayotir.

Germaniya to'liqsiz o'rta maktablarida asosiy predmetlar bilan bir qatorda tanlab olinadigan ximiya, fizika, chet tillari kiritilgan o'quv dasturlari ham amalga oshirilayotir. Bu o'quv dasturi tobora to'liqsiz o'rta maktab doirasida, chiqib, o'rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmoqda.

Fransiya boshlangich maktablarida ta'lim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografiya,

www.ziyouz.com kutubxonasi

axloqshunoslik, tabiiy fanlar, mehnat ta'limi, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi predmetlarga bo'linadi.

Yaponiya maktablari ikkinchi jahon urushidan keyinoq Amerika ta'limi yo'lidan bordi. Lekin shunga qaramay, bu ikki mamlakat o'quv dasturida qator farqlar ko'zga tashlanadi. Yaponiyada o'quv dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va o'quv fakultativ kurslar kiritilgan. Masalan, umumiy ta'limi maktablarining yangi musiqa ta'limi o'quv dasturiga milliy va jahon mumtoz musiqasini o'rganish ham kiritilgan.

Yapon xalqida «Hamma narsa unutilganda ham ta'lim esda qoladi» degan hikmatli gap bor. Aftidan, rivojlangan davlatlarda o'quv dasturining rivojlanishi mana shu yo'nalish asosida qurilmoqda.

Integratsiyalashtirilgan va maxsus kurslar

Asosiy o'quv dasturlariga ma'lum sheklanishlarni kiritish, alohida predmetlarni o'rganishni kuchaytirib, ularni chuqur o'zlashtiradi va o'quvchilarni ortiqcha «yuk» xolos qiladi. Bu masalani ijobiy hal etishda o'quv kurslari Integratsiyasini amalga oshirish yordam beradi.

Hozirgi paytlarda rivojlangan mamlakatlar o'quv dasturiga Integratsiyalashtirilgan kurslardir kiritish to'la amalga oshirildi. Fransiya maktablarida ularga 6-10 foiz, Buyuk Britaniya maktablarida 15 foiz o'quv soatlari ajratildi.

Bu muammoni to'ldirish, o'quvchilarning u yoki bu kursga bo'lgan ehtiyojini to'laroq qondirish ushun maktablar alohida predmetlardan shuqurlashtirilgan kurslarni tavsiya etmoqdalar. Masalan, G'arbiy Yevropa maktablarida 15 foiz o'quvchilar fizika fanini chuqurlashtirib o'rganayotirlar.

Keyingi uch yil ichida AQSH da ilmiy bilimlarni chuqurlashtirib o'rgatishni ta'minlash maqsadida Integratsiyalashtirilgan kurslar-ning turli variantlari ishlab chiqilmoqda.

Chet el tajribalari shuni kursatadiki, ta'lim mazmunini qayta qurish ishida shoshma-shosharlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Fikri-

www.ziyouz.com kutubxonasi

mizcha bu sohada samaraliroq yo'l Integratsiya va ixtisoslashtirishga asoslangan o'quv dasturlarini yaratishdir.

Mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish ishlaridagi o'zgarishlar

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda mehnat ta'limini hamda kasbga yo'naltirish borasida amalga oshirlayotgan ishlarning eng e'tiborga loyiqlari shu ta'lim bo'yicha o'quv dasturlarini kengaytirish; professionalizimga yuz tutish, kuchli moddiy ba'zani barpo etish yo'lidir. Har holda 1977-yilda AQSHda qabul qilingan «Mehnat faoliyatiga tayyorlash akti»ning asosiy g'oyasi ham shunga qaratilagan. Umuman AQSHda bu masalaga munosabat jiddiy. Kollejlarda kotejlar qurish, avtomobillarni ta'mirlash, komp'yutyerlarni terish kabi amaliy faoliyat mavjudki, ular o'quv muassasalariga ma'lum miqdorda daromad ham keltirmoqda.

Mehnat ta'limi bilan bir qatorda kasbga yo'naltirish ishlari ham zamon talablariga hamohang takomillashmoqda. Kasbga yo'naltirish darslari barcha rivojlangan davlatlarda mavjud. Bunday darslarda mehnat olamidagi o'zgarishlar va tendensiyalar, kasb-kor sohibi bo'lish imkoniyatlari ham o'rgatiladi. Bunday darslarni fan o'qituvshilari hamda maxsus kasbga yo'naltirish ishlari bo'yicha maslahatchilar olib boradilar. Bulardan tashqari, kasbga yo'naltirish konsultatsiya punktlari ham mavjud bo'lib, ular yuqori sinf o'quvchilari va ota-onalarga soha bo'yicha konsultatsiyalar tashkil etadilar. Bunday konsultatsiya punktlari maktablar tarkibiga kirmaydi. Ular xususiy mehnat birjalari tasarrufida bo'ladi.

Kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etishida korxonalar amalga oshrayotgan ishlar ham e'tiborga molikdir.

Ularning shtatli konsultatsiyalari maktablarda kasbga yo'naltirish bo'yicha keng qamrovli tushuntirish ishlarini olib boradilar.

Ta'limni tabaqalashtirib olib borish muammolari

Maktablarda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim ishini tabaqalashtirish muammolarini keltirib shiqardi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Lekin masalan, atrofida hali qarama-qarshi fikrlar ko'p. Yevropa iqtisodiy hamjamiyatining 1983-yilda e'tirof etishicha, ta'limda ijtimoiy tengsizlik kayfiyati hukm surmoqda. Bunga pul to'lab o'qish, sinfda yoki kursda o'quv kursini o'zlashtira olmay ikkinchi yilga qolib ketish, imtihonlarni o'ta talabchanlik asosida o'tkazish sabab bo'lmoqda.

Masalan, Fransiya boshlang'ish maktablari o'quvchilarining teng yarmi, litseylar o'quvchilarning 60 foizi fanlarni o'zlashtira olmay takroriy o'quv yiliga qolib ketmoqda.

Ikkinchi yili ko'p sonli imtihonlar sabab bo'lmoqda. Bu mamlakatning boshlang'ish va o'rta maktablarda bolalar 650 ta imtihon va zachyotlar topshiradilar.

Imtihonlardan yiqilish o'quvchilarning asab va ruhiy holatiga qattiq ta'sir o'tkazadigan vaziyatlar, hatto fojeali voqealar ro'y berish hollari uchraydi. Bunday vaziyat shubhasiz, faqat ota-onalar ichidagina emas, o'qituvchilar orasida ham keskin noroziliklarga sabab bo'lmoqda.

1983-yildagi AQSH davlat dalolatnomalardan biri to'g'ridan-to'g'ri «mamlakat xavf ostida» deb nomlangan. Unda o'quvchilar o'zlashtirishdagi «o'rtamiyonachilik» 70-80 foizni tashkil etayotganligi, funksional savodsizlik avj olayotganligi bayon etilgan.

80-yillarda AQSH o'quvchilarining 50-yillarga nisbatan reyting ko'rsatkichi 973 dan 893 ga tushdi Fransiyada ham 3 litseychidan biri muvoffaqiyatsizlikka uchrayotir.

Ta'limda ro'y berayotgan bu salbiy holatni bartaraf etish to'ldiruvchi ta'lim zimmasiga tushadi.

To'ldiruvchi ta'lim maktabgacha tarbiya muassalarida, maktab va litseylarda amalga oshrilmoqda. AQSHda bu xizmatga ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlari ham safarbar etilgan, Milliy telekompaniya maxsus o'quv kanali orqali 130 soatlik o'quv ko'rsatuvlari tashkil etdi.

O'quv jarayonlarini tabaqalashtirib olib borish bo'yisha chet mamlakatlarning ko'pshiligida tadqiqotlar davom ettirilmoqda.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Mavzu bo'yicha zarur manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning ta'lim-tarbiyani rivojlantirishga qaratilgan asarlari.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'grisida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi».
3. Pedagogika ta'lim fani konsepsiyasi.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi qarorlari.

Mustaqil ish yo'nalishlari

1. Rivojlangan davlatlardagi ta'lim islohotlarini tahlil qilish.
2. Chet el ta'lim tizimida o'quv dasturlarining mohiyatini o'rganish.
3. Xorij ta'lim-tarbiya tizimida o'ziga xos xususiyatlarni tahlil qilish.

Mustaqil ish bosqichlari

1-bosqich: Internetdan foydalanib, quyidagi mavzularda referatlar tayyorlang:

1. Rivojlangan davlatlardagi ta'lim islohotlari.
2. Chet el ta'lim tizimida o'quv dasturlarining mohiyati.
3. Integratsiyalashtirilgan va maxsus kurslar, kasbga yo'naltirish.
4. Ta'limni tabaqalashtirib olib borish muammolari.
5. Xorijda maxsus maktablar.
6. Xorij va Respublikamiz ta'lim-tarbiya tizimida o'ziga xos xususiyatlar, farqlar, o'xshashliklar.

2-bosqich: Nazariy dalillarga asoslangan holda «B-B-B» strategiyasidan foydalanib, «Chet el ta'limi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari» matnini tahlil qiling.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod - O'zbekiston Taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1997.

2. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'grisidagi Qonuni». T., 1997.

3. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. T., 1997.

4. R. Inog'omov, K. Toshmurodova. Pedagogika fani XXI asrda T., «Yangi asr avlodi», 2000, 43–77-betlar.

5. M.Ochilov Yangi pedagogik texnologiyalar. T., 2000, 98-b.

6. Lewy A. Bathory Z. The Ttoxonomy of Educational Objektives in Contenental. Unif of Chikago, sllinois; 1994, P. 146-163.

7. M.Sayidaxmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T., 2002.

www.ziyouz.com kutubxonasi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - T.: «O'zbekiston», 2003, 38-b.

2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. - T.: 1997.

3. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. - T.: 1997.

4. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: «Sharq», 1997, 53-b.

5. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari. - T.: «O'zbekiston», 1997, 328-b.

6. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.-T.: «O'zbekiston», 1999, 73-b.

7. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T.: «O'zbekiston» 1998, 78-b.

8. Abdullayeva SH. va boshqalar. Pydagogika. O'quv qo'llanma. - T.: «Fan», 2004, 198-b.

9. Abdulloh Avloniy. Muxtasari tarixi anbiyo va tarixi islom. - T.: «Fan», 1994, 293-b.

10. Abdurahmonov Abdulhay Saodatga eltuvchi bilim. T.: «Movarounnahr», 2004, 708-b.

11. Abdurauf Fitrat. Muxtasar islom tarixi. - T: «Fan», 1993, 172-b.

12. Abu Ali ibn Sino.Tadbiri manzil. Dushanba.: «Irfon», 1980, 420-b.

13. Abu Abdulloh Muhammad ibn al-Buxoriy. Hadis («Al-jomi as-Sahiyh). 1-jild. Tarjimon Z.Ismoilov. - T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1997, 572-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

14. Абрамова И. Г. Деловые игры в системе повышения квалификации. – М.: Знание, 1992, 170-с.

15. Айдарова Л.И. Деятельность школьника. М.: Просвещение, 1990, 47-78-с.

16. Azarov Y.P. Tarbiyaviy ish metodikasi. - T.: «O'qituvchi», 1991, 67-b.

17. Амонашвили Ш. А. Размышления о гуманной педагогике. - М.: Знание, 1996, 147-с.

18. Aliyev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat. - T.: Akademiya, 2000, 631-b.

19. Axloq-odobga oid hadis namunalari. T.A. Yo'ldoshev tahririda. - T.: «Fan», 1990, 146-b.

20. Ahmedov B. Ajdodlar o'giti. Hikmatlar. Hikoyatlar. Tamoyillar. - T.: «Cho'lpon», 1991, 234-b.

21. Barkamol avlod orzusi. - T.: «Sharq», 1999, 228-b.

22. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. - М.: Педагогика, 1989, 192-с.

23. Bohnishc S. Einige philosophisch - methodologische Fragen-Berlin, 1990, 175 p.

24. Bloom B.S. A taxonomy of Eucational Objektives Handbook. - Harvow, 1965, 83 p.

25. Божович Л.И. Личность и её формирование в юношеском возрасте. - М.: Владос, 1998, 219-с.

26. Варгезе Р.А.Великие мыслители о великих вопросах. - М.: Торговый дом Гранд, 2000, 778-с.

27. Войшвилло Е.К., Дегтярев М.Г. Логика. М.: Владос, 1998, 528-с.

28. Weiner B. Theorien der Motivazion. - Stuttgart: Klett, 1996, 167 p.

29. Wegner G. Handbuh der Pedagogischen Diagnostik. Berlin: General Press, 2000. – R. 56-67.

30. Giddens Entoni. Sotsiologiya. - T.: «Sharq», 2002.

31. Jenks C. (ed). The Sjciology of Childhood. London, 1982. Sotsiologik istiqbolda bolalikning umumiy manzarasi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

32. Зимняя И.А. Педагогическая психология. М.: «Логос», 2002.

33. Гузеев В.В. Образовательная технология: от приёма до философии. - М.: Сентябрь, 1996, 112-с.

34. Денякина Л.И. Педагогическая диагностика – движущая сила педагогического коллектива. М.: «Университет», 2000, 198-с.

35. Зазюн И. А. Осново педагогического мастерства. М., Педагогика, 1991, 251-с.

36. Занков Л.В. Обучение и развитие. - М.: «Наука», 1998, 149-с.

37. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pydagogika. O'quv qo'llanma. - T.: «Fan», 2004, 182-b.

38. Isosova M. Shaxs ijtimoiylashuvida mahalla. G'.G' Xalq ta'limi, 2003, 3-son, 4-6-b.

39. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar -T.: «O'zbekiston», 2000.

40. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. T.: 1994.

41. Mahmudov M. Komil inson shaxsi va ijtimoiy tajriba. «Pedagogik mahorat», 2002, 4-son, 6-10-b.

42. Munavvarov A.Q. Oila pedagogikasi. T.: «O'qituvchi», 1994, 7-b.

43. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug'at. T.: «Sharq», 1998, 177-b.

44. Oliy ta'lim me'yoriy hujjatlar to'plami. T.: «Sharq», 2001.

45. Pedagogika A.Munavvarov tahriri ostida. - T.: 1996.

46. Подласый И.П. Педагогика. - М.: «Владос», 2003.

47. Roziqov O.R. va boshqalar. Didaktika. - T.: «Fan» 1997.

48. Sayidahmedov N. Texnologik yondashuv ustuvorligi. Ma'rifat, 2003 yil 19 fevral.

49. Tursunov I., Nishonaliyev U. Pedagogika kursi. - T.: «O'qituvchi», 1997.

www.ziyouz.com kutubxonasi

50. Tulenov J, G'ofurov Z., Falsafa. Darslik. T.: «O'qituvchi», 1997.

51. Umumiy o'rta ta'lim davlat standartlari. Turli sohalar bo'yicha. - T.: 1999.

52. Farberman B., Musina R., Jumaboeva F. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonvaiy usullari. - T.: 2002.

53. Frances C. Waksler. Studying the Social Worlds of Children. London. 1991. Bolalar rivojlanishi bo'yicha materiallar to'plami.

54. Yusupov E. Ma'naviyat asoslari. - T.: 1998.

55. Roziqov O. va boshsalar. Didaktika. T.: «Fan», 1997, 302-b.

56. Rollet B. Anstrengungsvermeidungstest (FVT). Braunschweig: Westermann, 1999, 304-p.

57. Rudiger Prozecdiagnos als neueres Konzept der Lernfahigkeitsdiagnose-In Mandi H. neue modelle Annahhmen und Befunde, 2002, 77-p.

58. Sadriddin Salim Buxoriy. Bahriddin Naqshband yoki yetti pir. - T.: «Yozuvchi», 1993, 73-b.

59. Sayidahmedov N. Pedagogika fani metodologiyasi yohud uning zamonaviy mazmuni haqida: Amaliyot va nazariyasi Ma'rifat. 2004-yil 21-fevral.

60. Sayidahmedov N. Texnologik yondashuv ustuvorligi. Ma'rifat, 2003-yil 19-fevral.

61. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. T.: «Moliya», 2003, 172-b.

62. Sayf uz-Zafar. Navbahoriy. Durr ul-majolis. Tarjimonlar: H. Bobobekov va M. Hasaniy. - T.: Meros, 1992, 289-b.

63. Семенова З.В. Новые информационные технологии в образовании: состояние и проблемы. Intymyt yangiliklari axborotnomasi. - T.: 2002, №2, B.51-54

64. Семёнов В.П. Педагогический менеджмент: 50 Ноу-Хау в области управления образовательным процессом: www. @. Irex. org. for information, 15, 2005.

www.ziyouz.com kutubxonasi

65. Сунцов Н.С. Диагностирование в ученическом коллективе. - М., Педагогика, 2003, №4, 40-50-с.

66. Талызина Н.Ф. Технология обучения и её место в педагогической теории. Современная высшая школа. 1977, №1, 91-96-с.

67. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari dasturi. — T.: 2002, 294-b.

68. Tursunov I. Nishonaliyev U. Pedagogika kursi. - T., «O'qituvchi», 1997, 188-b.

69. Turkistoniy Rahmatulloh. Ilm va iymon. T.: Movarounnahr, 1993, 78-b.

70. Tulyanova G. Milliy ong va milliy iftixor o'qishining tarbiyaviy ahamiyati. Xalq ta'limi, 1997, 2-son, 14-19-b.

71. Tulyamonova H. Iqtisodiyot-ma'naviyat va mafkuraning ko'zgusidir. Ma'rifat 2000-yil 16-sentyabr, 5-b.

72. O'quv muassasalarida o'quvchilar bilim darajasini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risida muvaqqat Nizom. Xalq ta'limi, 2000, 4-son, 10-23-b.

73. Usmonov S., Sodiqov M., Oblamurodov N. O'zbekiston tarixi. 1-qism. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002, 280-b.

74. Usoma ibn Munsiz. Ibratli kitob. - T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1980, 192-b.

75. Farberman B., Musina R., Jumaboyeva F. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. T.: GFNTI 2001, 192-b.

76. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - T.: 1999, 84-b.

77. Feger H. Unterrichtcklima. Weinheim.- Beltz :1993. 78-p.

78. Frances C. Waksler. Studying the Social Worlds of Children. London. Bolalar rivojlanishi bo'yicha materiallar to'plami, 1991, 122-p.

79. Hartlej I. Stratedies from Programmed Instrukctionanal Technologj. London, 1982, 179-p.

www.ziyouz.com kutubxonasi

80. Heckhausen H. Motivation und Handeln. Berlin: Springer. 1997.

81. Хобсон Флейк. Развитие ребёнка и его отношение с окружающими. - М.: Торговый дом Гранд, 1999, 304-с.

82. Sharq tafakkuri xazinasidan. A. Sharopov tahriri ostida. T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1996.

83. Schmidt H. D. Zum Problem des Konstrukttbegriffs in der empirischen Personlickeitsforschung und diagnostik Z Psychol 1999, 182-p.

84. Yusupov E. Ma'naviyat asoslari. - T.: 1998, 409-b.

85. Ядов В.А. Социологическое исследование: методология. Программа. Методы. - Самара: СМГУ, 2004, 68-с.

86. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. № 1. T.: Qomuslar bosh tahririyati, 2000, 767-b.

87. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Tuzuvchilar: Qoshimov K., Ochil Q. - T.: «O'zbekiston», 1999, 461-b.

88. Quvvatov N., G'oziyv E. Vatanparvarlik his-tuyg'usini baholash mezonlari. Xalq ta'limi, 1997, 2-son, 4-9-b.

89. Qori Nizomiddin bin mulla Hasan. Ilmi axloq. - T.: «Yozuvchi», 1994, 189-b.

90. Qobusnoma. Ogahiy tarjimasi. - T.: 1997. 123-b.

91. Qoriyev O. Al-Marg'inoniy mashhur fikihshunos. - T.: Abdulla Qodiriy, 2000, 182-b

92. Quronov M. O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari: pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T., Qori Niyoziy nomli O'zPFTI, 1998, 157-b.

93. Quronov M.S., Qurboniyozova Z.S. Ijtimoiy pedagogika. - T.: RTM, 2003, 48-b.

94. Qo'ziyev Z. Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish. - T.: Universitet, 1994, 127-b.

95. G'aybulloh as-Salom. Ezgulikka chog'lan, odamzod. T.: «Sharq», 1999, 320-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

96. G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi T.: «O'situvchi», 1994, 292-b.

97. G'oziyev E. Psixologiya. - T.: «O'qituvchi», 1996, 198-b.

98. Hasanboyev J.Y. Uzluksiz ta'lim tizimida tahsil oluvchilarning o'quv imkoniyatlarini aniqlash. - T.: «Fan», 2005, 32-b.

99. Ельконин Д. Б. Психология игры. М.: «Владос», 1999, 360-с.

www.ziyouz.com kutubxonasi

MUNDARIJA

SO'Z BOSHI 3

1-bo'lim. UMUMIY ASOSLAR

1-mavzu: Kadrlar tayyorlash milliy modeli. O'qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o'rni. 7

2-mavzu: Pedagogikaning predmeti, maqsadi va vazifalari 25

3-mavzu: Milliy istiqlol g'oyasi, milliy mafkuraning pedagogik asoslari. Mutaxassislik 44

4-mavzu: Shaxs kamoloti ijtimoiy-biologik hodisa, pedagogik jarayon obyekti va subyekti sifatida 51

5-mavzu: Ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari. Pedagogik jarayon va mutaxassislik 67

2-bo'lim. TARBIYA NAZARIYASI

6-mavzu: Tarbiya jarayoning jamiyat taraqqyotidagi o'rni. Ijtimoiy tarbiyaning maqsadi, vazifalari va mazmuni 78

7-mavzu: Mustaqil O'zbekiston rivojlanishining ma'naviy, axloqiy negizlari 95

8-mavzu: Tarbiya qonuniyatlari, prinsiplari va metodlari 103

9-mavzu: O'quvchilar jamoasi. Tarbiya jarayonida ularning o'zaro aloqadorligi 116

www.ziyouz.com kutubxonasi

10-mavzu: Oilada tarbiya asoslari. Oila tarbiyaning asosiy funksiyalari..... 124
11-mavzu: Ilmiy dunyoqarash, kadrlarda milliy ong, mafkura va demokratik tafakkurni shakllantirish..... 144
12-mavzu: Ma'naviy-axloqiy tarbiya. Komil inson. Mustaqil fikrlashni tarbiyalash..... 153
13-mavzu: Yagona o'quv-tarbiya jarayonida fuqarolik va vatanparvarlik tarbiyasi..... 163
14-mavzu: O'quvchilarning mehnat, kasb va jismoniy tarbiyasi..... 171
15-mavzu: Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogic diagnostika va korrekciya vazifalari..... 182

3-bo'lim. TA'LIM NAZARIYASI (DIDAKTIKA)

16-mavzu: Ta'lim jarayonining ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantirish funksiyalari..... 198
17-mavzu: Ta'lim mazmuni. Davlat ta'lim standartlari. O'quv rejalari va vositalari..... 205
18-mavzu: Ta'lim tamoyillari (prinsiplari)..... 215
19-mavzu: Ta'lim metodlari va vositalari..... 223
20-mavzu: Ta'lim-tarbiyani tashkil etish shakllari (noan'anaviy shakllar)..... 233
21-mavzu: Yoshlarning ma'naviy-intellektual sifatlarini aniqlash va rag'batlantirish uslublari..... 247

www.ziyouz.com kutubxonasi

22-mavzu: Yangi pedagogic texnologiyalarning mohiyati va ahamiyatiga zamonaviylik kontekstida bano berish..... 255
23-mavzu: Xorojoy mamlakatlarda ta'lim-tarbiya tizimi chet el ta'limi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari..... 269
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR..... 277

www.ziyouz.com kutubxonasi

Xolboy Ibragimov, Shaxzoda Abdullayeva

PEDAGOGIKA NAZARIYASI

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2008

Muharrir: M. Mirkomilov
Tex.miharrir: A. Moydinov
Musahhih: S. Badalboyeva
Sahifalovchi: Sh. Mirqosimova

Bosidhga ruxsat etildi 30.07.08. Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$.
«Times Uz» garniturasi.
Ofset usulida bosildi. Shartli b.t 19,0. Nashr tabog'i 18,5.
Tiraji 1000. Buyurtma №82.

www.ziyouz.com kutubxonasi

«Fan va texnologiyalar Markazining
bosmahonasi»da chop etildi.
700003, Toshkent sh., Olmazor, 171.

www.ziyouz.com kutubxonasi